



Erkin ABDISOATOV,
O'zMU tadqiqotchisi

PhD O.Allanov taqrizi asosida

XORIJIY MAMLAKATLAR HUDUDLARIDA AMALGA OSHIRILGAN KIBERHUJUMLAR TENDENSIYASI XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda Global Internet tarmog'idagi axborot manbalari monitoringi jarayonida jamlangan ma'lumotlarning tahlili, bugungi kunda dunyo mamlakatlarida raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya sohasining shiddat bilan rivojlanib borishi fonida xorijiy davlatlar hududlarida sodir etilayotgan kiberhujumlar salmog'ining keskin o'sish tendentsiyasi xususida muammolar tahlil etilgan. Tahlillar aniq raqamlar, statistikalar va xalqaro tajribalarga asosan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Fishing, korporativ pochta obro'sizlantirish, tovlamachi dasturlar, kiberjinoatchilar, kiberhujum, veb-saytlar, kiberqo'shinlar, xakerlar, DDoS hujumi, "Global kiberxavfsizlik indeksi 2020" (GGI).

О ТЕНДЕНЦИИ КИБЕРАТАК, СОВЕРШЕННЫХ НА ТЕРРИТОРИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация

В данной статье анализируются данные, собранные в ходе мониторинга источников информации в Глобальной сети Интернет на сегодняшний день, и проблемы, связанные с резким ростом количества кибератак на территориях зарубежных стран на фоне стремительного развития цифровизации. и информация и связь в странах мира сегодня. Анализ основан на конкретных цифрах, статистике и международном опыте.

Ключевые слова: Фишинг, диффамация корпоративной почты, программы-вымогатели, киберпреступники, кибератака, веб-сайты, киберармии, хакеры, DDoS-атака, Глобальный индекс кибербезопасности 2020 (GGI).

ON THE TREND OF CYBER ATTACKS PERFORMED IN THE TERRITORIES OF FOREIGN COUNTRIES

Abstract

This article analyzes the data collected during the monitoring of information sources on the Global Internet today, and the problems related to the sharp increase in the number of cyber-attacks in the territories of foreign countries against the background of the rapid development of digitalization and information and communication in the countries of the world today. The analysis is based on concrete figures, statistics and international experiences.

Keywords: Phishing, corporate mail defamation, ransomware, cyber criminals, cyber attack, websites, cyber armies, hackers, DDoS attack, Global Cybersecurity Index 2020 (GGI).

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida yuz berayotgan "kuch markazlari" o'rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, ularning ochiq "qaynoq" to'qnashuv fazasiga o'tib borishi bilan bog'liq vujudga kelayotgan vaziyatning keskinlashuvi o'z o'rnida geosiyosiy va geoiqtisodiy kurashlarning kibermakonga ko'chishi, ushbu kurash vositasi bo'lgan kiberhujumlarning qamrovi va keltirayotgan zarari bir necha bor ortib borishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, kiberhujumlar global transmilliy bo'lgan, giyohvand moddalar, qurol-yarog' hamda odam savdosi kabi jinoyatlarga qaraganda 5 baravar ko'proq "kriminal foyda" keltirishi prognoz qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon miqyosida kiberxavfsizlik sohasida taniqli bo'lgan Group-IB, Positive Technologies, Kaspersky, Cybersecurity Ventures, Rossiyaning "Bosh radiochastotalar markazi" FDUK va kiberxavfsizlikka ixtisoslashgan boshqa yirik kompaniyalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2021 yilda mintaqalar bo'yicha kiberhujumlar quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan. Xususan, Afrika qit'asi mamlakatlarida har bir tashkilotga haftasiga o'rtacha 1615 ta hujum (2020 yilga nisbatan 15% ga ko'p), Osiyo-Tinch okeani mintaqasida - 1299 ta hujum (20% ga), Lotin Amerikasida - 1117 ta (37% ga), Yevropada - 665 ta (65% ga), Shimoliy Amerikada - 497 ta (57% ga ko'p) sodir etilgan.

Tahlil va natijalar. Ushbu davrda aniqlangan kiberhujumlar tahliliga ko'ra, Covid-19 global pandemiya bilan bog'liq vaziyat kiberjinoatchilikning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Xususan, davlat va tibbiyot muassasalari, shuningdek sanoat kompaniyalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kiberhujumlarning asosiy nishoniga aylangan. Bunda, shaxsga doir ma'lumotlar - 31 %, tijorat sirlari - 24%, hisobga olinuvchi ma'lumotlar -23%, tibbiy - 6 %, mijozlar - 6 %, to'lov kartalari - 6 %, yozishmalar to'g'risida - 3 % , boshqa turdagi ma'lumotlar - 1 % ni tashkil qilgan.

Shuningdek, kiberhujumlarning har chorakda o'sishi kuzatilib, 2022 yilning birinchi choragida 14,8 % ga, ikkinchi choragida esa 70 % ga ortganligi qayd etilgan. Bunda, kiberjinoatchilar uchun jozibador bo'lgan OAV va iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmagan sektorlarda 18% dan 23% gacha ko'paygan. Sanoat sektoriga 1,5 baravar, transport tarmog'iga esa deyarli 2 baravar ko'paygan. Xaker guruhlariga tomonidan qilingan hujumlarning 90% dan ortig'i muhim axborot infratuzilmalariga qaratilgan. Eng ko'p hujumga uchragan tarmoqlar energetika, sanoat, mudofaa va davlat sektorlariga to'g'ri kelgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kiberhujumlarning 85% inson omili oqibatida kelib chiqqan bo'lib, zararli dasturlarning 94% elektron pochta orqali yetkazilgan. Tovlamachi dasturlar hujumlari intensivligi jihatidan har 10 soniyada sodir bo'lganligi hamda kiberhujumlarning 71 % moliyaviy maqsadlarni ko'zlab

(*intellektual mulkni o'g'irlash, josuslik va x.k.*) amalga oshirilganligi ma'lum bo'lgan.

Bugungi kunda kibermakonda tahdid va hujumlarning eng ommalashganlari fishing, korporativ pochmani obro'sizlantirish, tovlamachi dasturlar, shuningdek, DdoS, IoT hamda parollarga va sun'iy intellektga asoslangan hujum turlariga oiddir.

Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, zamonaviy kibershujumlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning aniq bir maqsadni ko'zlaganligi va xo'jalik munosabatlarining ma'lum bir sohasiga qaratilganligidir. Muvaffaqiyatli tovlamachilikni ta'minlash uchun, kibershujumchilarning asosiy e'tibori muhim ma'lumotlarni o'g'irlab qayta sotish, ayniqsa o'g'irlangan maxfiy ma'lumotlarni nashr etish xavflarini yuzaga keltirmoqda.

Xususan, 2021 yili AQShning Bernalillo okrugi davlat tizimlariga qilingan hujum natijasida ko'plab davlat idoralari bir necha kunga yopilgan va 675 ming nafardan ortiq aholiga ayrim xizmatlarni ko'rsatish 12 kun davomida imkonsiz bo'lib qolgan. Oldmar shahrida odamlar iste'moli uchun uzatiladigan suvni boshqaruv kompyuter tizimiga hujumi orqali zaharlashga urinishi oqibatida shaharning 15 ming aholisi qurbon bo'lish xavfi ostida qolgan. Shuningdek, shu kabi hujum natijasida mamlakatning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab gaz yetkazib berish to'xtatilib, bir necha o'n million to'lovdan so'ng qayta tiklangan. Bundan tashqari, mamlakatning yadroviy qurol ishlab chiqaruvchi kompaniyasi hujumga uchragan. Natijada, kompaniyaning konfidentsial ma'lumotlari internet tarmoqlarida ochiq e'lon qilingan.

Ta'kidlash lozimki, tibbiyot sohasiga uyushtirilgan kibershujumlar ayniqsa xavfli tus olgan. Xususan, Grenlandiya sog'liqni saqlash tizimiga qilingan hujum natijasida barcha tibbiyot muassasalarining ishi falajlab qo'yilgan. Shu kabi, Malayziyaning Baptist Health tibbiyot muassasari tarmog'iga qilingan hujum natijasida bir milliarddan ortiq shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari va tibbiy ma'lumotlar, noyob identifikatorlar, fotosuratlar va 22 milliondan ortiq mamlakat fuqarolarining telefon raqamlari internet tarmoqlariga sizib chiqqan.

2022 yil yanvar oyida Germaniyaning yirik neft yetkazib beruvchi "Marquard & Bahls Oiltanking" kompaniyasiga uyushtirilgan kibershujum natijasida bir qator avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar (katta hajmdagi idishlarni yuklash va bo'shatish) butunlay to'xtatilgan. Kompaniya fors-major holatini e'lon qilgan.

Shu kabi, joriy yil birinchi choragida Rossiyaning yirik agrosanoat korxonalarida kibershujumga uchragan.

Xususan, Rostov viloyatida faoliyat yurituvchi Taur zavodi vaqtincha to'xtatilgan. Fevral oyida esa "Selyatino" agroxolding kompaniyasiga qarashli 40 tonna muzlatilgan go'sht mahsulotlarini saqlovchi muzlatgichni ishdan chiqarishga muvaffaq bo'lganlar.

Portugaliyaning yirik "Vodafone" telekommunikatsiya operatoriga qilingan hujum oqibatida mamlakat bo'ylab televidion va SMS-xabarlarini uzatish, shuningdek 4 millionga yaqin fuqarolarga internet xizmatlarini ko'rsatish deyarli bir oy muddatga to'xtatilgan.

Joriy yil birinchi choragida qilingan kibershujumlar oqibatida Italiya va Belorusiya transport sanoatlari jiddiy zarar ko'rgan. Xususan, Italiya transport kompaniyasi chiptalarni sotishni to'xtatgan bo'lsa, Belorusiya temir yo'llarining onlayn kassasida xatoliklar yuzaga kelgan va Minsk, Orsha shaharlaridagi poezdlar harakati to'xtatilgan.

Shu kabi kibershujumlar boshqa ko'plab mamlakatlar hududida uchraganligini, ayniqsa, kibershujumlarning o'sishi mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Ko'rsatib o'tilganlar kontekstida bugungi kunda dunyoda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatga salbiy ta'sir

ko'rsatuvchi holatlardan biri sifatida Rossiyaning Ukrainaga nisbatan mahsus harbiy operatsiya o'tkazishini ko'rsatib o'tish lozim. Mazkur operatsiya boshlanishi bilan dunyo mamlakatlari o'rtasidagi konfrontatsiyaning yanada keskinlashuvi barobarida kibershujumlarning ko'lami va turlari yaqqol ko'paygan.

Xususan, 2022 yil fevral oyining oxiridan boshlab Rossiya iqtisodiyotining deyarli barcha sohalari, xususan, davlat sektoridan to ommaviy axborot vositalariga qadar kuchli kibershujumlarga uchragan. Jumladan, DdoS hujumlari Kommersant, TASS, RBC, Izvestiya, Forbes va "Fontanka" veb-saytlariga amalga oshirilgan. Ba'zi hujumlarning sig'imi Rostelekom mutaxassislari tomonidan qayd etilgan 750 Gbit/s chegaraga quvvat darajasidan oshib ketgan. Mart-iyun oylarida esa Rossiya kompaniyalariga kibershujumlar soni 9,6 baravarga oshganligi haqida "Megafon"ning mas'ul xodimi G.Aykashev xabar bergan. "Rostelekom-Solar" kompaniyasi vakili A.Pavlovning ta'kidlashicha, hujumlarning aksariyati zararlantiruvchi dasturlardan foydalangan holda amalga oshirilgan. Ularning ulushida o'sish kuzatilib, birinchi chorakda - 25 foiz, ikkinchi chorakda - 32 foizni tashkil qilgan.

O'z navbatida, Ukraina davlat muassasalari va banklari veb-saytlariga yirik xakerlik hujumlar 2022 yil 13-14 yanvar va 15-16 fevral kunlari bo'lib o'tgan. Yirik hujumlardan yana biri 23 fevralda, Rossiyaning Ukrainaga nisbatan mahsus harbiy operatsiyasi boshlanishi arafasida yuz bergan. Jumladan, markaziy va mintaqaviy hokimiyat idoralarining 70 dan ortiq veb-saytlari, xususan, Mudofaa vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Davlat Favqulodda vaziyatlar xizmati, "Diya" va boshqa saytlar hujumga uchragan. Bu hujum oxirgi 4 yildagi eng kuchli hujumga aylangan. Hukumat veb-saytlari va ko'plab banklar veb-saytlariga DdoS hujumi boshlanib, 5 soatdan ortiq davom etgan. Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlar va vaqtinchalik bosib olingan hududlarni reintegratsiya qilish vazirliklarining veb-saytlari bir muddat ishlamay qolgan.

Xakerlar Ichki ishlar vazirligi tarmog'idagi ma'lumotlarni yo'q qilgan va mamlakat telekommunikatsiya tarmog'idan katta hajmdagi ma'lumotlarni yuklab olgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, kibershujumlar uyushtirilishida ayrim davlatlar mahsus tuzilmalarining (*kiberqo'shinlari*) faoliyati, tayyorgarlik darajasi va salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Zecurion Analytics tadqiqotchilarining tahliliga ko'ra, Rossiyaning, harbiy va razvedka maqsadlariga ixtisoslashgan, rivojlangan kiberqo'shinlarga ega bo'lgan 5 ta davlat qatoriga kiritish mumkin. Xususan, kiberqo'shinlar soni ming nafarga yaqin bo'lib, yillik harajatlari taxminan 300 million dollarni tashkil etadi. AQSh dunyodagi eng rivojlangan kiberqo'shinlarga ega davlat sifatida e'tirof etilib, davlat tomonidan ajratiladigan mablag' yiliga taxminan 7 milliard dollarni, xakerlar soni esa 9 ming nafarni tashkil qilishi mumkin. Xitoy esa ushbu ro'yxatning ikkinchi o'riniga qo'yilgan, kiberarmiya son jihatdan eng katta 20 ming nafargacha, moliyalashtirish esa yiliga 1,5 milliard dollarni tashkil qiladi. Kiberxavfsizlik bo'yicha kiberqo'shinlari eng rivojlangan mamlakatlar uchligida Buyuk Britaniya bo'lib, u 2 ming nafardan iborat kiberqo'shinlariga yiliga 450 million dollar mablag' ajratadi. To'rtinchi o'rinda yiliga 400 million dollar byudjet va 700 nafar xakerlik shtabi bilan Janubiy Koreya joylashgan.

Yuqorida keltirilganlar asnosida ta'kidlash lozimki, kibershujumlarga qarshi kurash quvvatini ifodolovchi ko'rsatkichlardan biri, bu kiberxavfsizlik darajasi bo'lib, bu borada MDHga a'zo ayrim davlatlarning "Global kiberxavfsizlik indeksi 2020" (GGI) hisoboti e'tiborga loyiqdir. Xususan, sobiq ittifoq mamlakatlarining pandemiya bilan bog'liq muammolarga qaramay, ko'plab faoliyat sohalari

va ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlarning raqamli formatga o'tishi, ushbu davlatlarning kiberxavfsizlik darajasini yaxshilash uchun ish olib borayotganidan dalolatdir.

Jumladan, respublikamizga qo'shni bo'lgan davlatlar Qozog'iston va Qirg'iziston respublikalarida bu borada amalga oshirayotgan ishlari natijasida, zararli kiberhodisalarning o'sishiga qaramasdan, ularning GCI ro'yxatida yuqori pog'onalariga siljishlari qayd etilgan.

Xususan, Qozog'istonda internet jinoyatlari soni 139 foizga o'sgan bo'lsada, Xitoy (33 -o'rin) va Isroilni (36 -o'rin) chetlab o'tib, 31 -o'rinni, MDH davlatlari o'rtasida esa 2-o'rinni egallagan. Qirg'iziston Respublikasi davlat organlarida 2019 yildan beri 676 ming 918 ta zararli dasturiy ta'minot bartaraf etilgan, GCI ro'yxati bo'yicha 111-dan 92-pozitsiyasiga ko'tarilgan. Ushbu ro'yxatning 138-o'rnini Tojikiston egallagan. U MDH davlatidagi eng yaqin qo'shnisi Turkmanistondan (144) oldinda hisoblanadi, lekin Markaziy Osiyo mintaqasida Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistondan ortda qolgan.

Shu kabi, Belarusiyada (ro'yxat bo'yicha 89 -o'rinni egallagan) 5 yil ichida kiberjinoyatlar soni 10 barobarga oshib, respublikada sodir etilgan barcha jinoyatlarning 25%dan ko'prog'ini tashkil qilgan. Ushbu jinoyatlarning aksariyati o'g'irlik bilan bog'liq bo'lgan.

Ukraina esa dunyoning 160 davlati orasida 25 -o'rinni egallagan. 2021 yil boshidan beri vakolatli mutaxassislar davlat axborot xavfsizligiga qaratilgan 350 ga yaqin tahdidlarni lokalizatsiya qilishgan, 35 nafar xaker va targ'ibotchilar javobgarlikka tortilgan, 14 nafar kiberhujumchilar sudlangan.

Positive Technologies tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, kiberhujumlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular masofadan turib, ko'pincha boshqa mamlakatlar hududidan amalga oshiriladi va dunyodagi biron bir davlat ularga qarshi yakka o'zi kurashishga qodir emas.

Ularning samarali oldini olish uchun eng avvalo qonunchilikni takomillashtirish, shu jumladan, ushbu yo'nalishda xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni mustahkamlash lozim.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib hulosa qilish mumkinki, jahonda, shu jumladan, respublikamizda kiberhujumlar va ular ko'laming o'sish sur'ati saqlanib qoladi. Respublikamizda raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlanishi fonida kiberjinoyatlarning turlari va shakllarining o'zgarishi va takomillashib borishi kuzatiladi. Bu esa, vakolatli davlat organlari oldiga yangi vazifalarni qo'yishi barobarida quyidagilarni amalga oshirish lozimligini taqazo etadi. Jumladan:

Davlat korxonasi va muassasalari, shuningdek muhim axborot infratuzilmalari xodimlarining kiberxavfsizlik bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni davom ettirish. Xususan, kiberxavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda mahalliy mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini bugungi kun talabiga mos bo'lishini ta'minlash choralari ko'rish, shuningdek, bu borada xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash;

kiberxavfsizlik sohasidagi mavjud zaifliklarni minimallashtirish, muhim infratuzilmalarni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish choralari ko'rish (shifrlash, antivirus, fayvol, raqamli imzolar va ikki faktorli autentifikatsiya va x.k.);

zamonaviy voqelikda kibertahdid va kiberhujumlar darajasi va salmog'i, ularning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan talofatlarini inobatga olib, aholining keng qatlamlari orasida ularning savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntiruv-profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni. 15.04.2022 yildagi O'zRU - 764-son. <https://lex.uz/uz/docs/5960604>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2020 yildagi 6003-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4838762>
3. 50+ statisticheskix dannyx, faktov i tendentsiy kiberbezopasnosti na 2023 god. <https://www.websiterating.com/ru/research/cybersecurity-statistics-facts/>
4. Check Point Research: v 2021 godu chislo kiberatak na organizatsii vo vsem mire vyroslo na 40%. <https://www.itsec.ru/news/check-point-research-v-2021-godu-chislo-kiberatak-na-organizatsii-vo-vsiom-mire-viroslo-na-40>
5. Cybersecurity threatscape: Q2 2022. <https://www.ptsecurity.com/ww-en/analytics/cybersecurity-threatscape-2022-q2/>
6. V Portugali ne rabotayut 4G i 5G-seti iz-za kiberataki. <https://cisoclub.ru/v-portugali-ne-rabotayut-4g-i-5g-seti-iz-za-kiberataki/>
7. Analitiki vklyuchili Rossiyu v top-5 stran s samymi moshnymi kibervoyskami. <https://www.forbes.ru/news/336941-analitiki-vklyuchili-rossiyu-v-top-5-stran-s-samymi-moshchnymi-kibervoyskami>



UDK: 37.091.279.7

Shaxzoda ABDULLAEVA,

TDPU professori, p.f.d

Malohat ERGASHEVA,

A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy

rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy- tadqiqot instituti dotsenti, b.f.n

E-mail: m.ergasheva63@mail.ru

A.Avloniy nomidagi MTI dotsenti, PhD E.Alkarov taqrizi asosida

B. BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA PISA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK DARAJALARINI PEDAGOGIK JARAYONGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya

Maqolada xalqaro baholash dasturi talablarini B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasiga asoslangan holda pedagogik jarayonga tatbiq etish yo'llari, baholashda nazorat vositalarini xilma-xillashtirish orqali metodik va didaktik ta'minotni shakllantirish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlarining darajalari, mezonga asoslangan baholash vositalarini xilma-xillashtirish.

Б. БЛУМА ПРИМЕНЕНИЕ УРОВНЕЙ НАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ PISA В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ НА ОСНОВЕ ТАКСОНОМИИ

Аннотация

Одной из актуальных проблем дидактики является повышение эффективности и результативности учебного процесса. В статье описаны способы применения требований международной программы оценивания в педагогическом процессе на основе таксономии целей обучения Б.Блума, методики формирования методического и дидактического обеспечения за счет диверсификации средств контроля при оценивании.

Ключевые слова: уровни международных программ оценки, формативное и суммативное оценивание, диверсификация инструментов критериального оценивания.

B. BLOOM APPLICATION OF PISA SCIENCE LITERACY LEVELS TO THE PEDAGOGICAL PROCESS BASED ON THE TAXONOMY

Abstract

One of the urgent problems of didactics is to increase the efficiency and effectiveness of the educational process. The thesis describes how to apply the requirements of the international assessment program in the pedagogical process based on B. Bloom's taxonomy of learning objectives, methods for the formation of methodological and didactic support by diversifying means of control in formative and summative assessment.

Keywords: levels of international evaluation program, formative and summative assessment, diversification of criteria-based assessment tools.

Kirish. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tashkil etiladigan o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi – PISA tadqiqoti umumiy o'rta ta'lim tizimiga oid eng nufuzli axborot beruvchi manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari asosida o'zlarining ta'lim sohasidagi kuchli va zaif tomonlarini bilib, boshqalarga nisbatan ta'limdagi mavqeyini yaqqol ajratib oladi. Bu esa ta'lim sohasida ham yanada takomillashish, o'sishga xizmat qiladi [Shlyaxer 2019].

PISA 2018da "Tabiiy-ilmiy savodxonlik" o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatni rivojlantirish hamda jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish uchun zarur bo'lgan o'zaro aloqalar sifatida qaraldi. PISA 2018da maxsus tahlil natijasida tabiiy-ilmiy savodxonlikni egallashning 6 darajasi aniqlandi.

O'qituvchining o'quvchilar o'zlashtirishi monitoringini amalga oshirishga qo'yiladigan asosiy talablar o'quv materialining didaktik tahlili asosida o'quvchilar o'zlashtirishi talab etiladigan o'quv elementlari, material hajmini belgilash va shu asosda ta'lim mazmunini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; dars, darsdan tashqari ishlar (uy vazifasi, kuzatish, tajriba va

eksperiment o'tkazish, mustaqil ta'lim), sinfdan tashqari mashg'ulotlar (iqtidorli o'quvchilar bilan individual ishlash, fan to'garaklari, ommaviy tadbirlar va uchrashuvlar)da o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun muammoli savol va topshiriqlar majmuasini tuza olish; didaktik vositalar yordamida o'quvchilarning yozma ishlari, og'zaki savol-javoblari, amaliy ish natijalarini tahlil qilish, aniqlangan xato va kamchiliklar asosida ta'lim jarayoniga tegishli tuzatishlar kirita olish; mashg'ulotda o'quvchilarning o'quv faoliyatining tashkil etilishi, boshqarilishi va natijasiga baho berish asosida uning samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonida ta'lim sifatini o'lchash, baholash, tahsil oluvchilarning sifati ta'lim olishlarini ta'minlash masalalari mamlakatimiz olimlari M.A.Yuldashev, M.Vaxobov, U.Inoyatov, Sh.Sharifxo'jaevlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy olimlardan R.Aron, R.Q.Dave, D.Rowntree, T.Sakamoto, W.Flitner; M.Baker, L.Lantierlar tomonidan ta'lim sifatini o'lchashning metodologik asoslari tadqiq etilgan bo'lsa, V.Goldschmidt, M.Goldschmidt, J.D.Russell; kreativ bilimlarni egallagan salohiyatli shaxsni shakllantirish,

o'qitishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil asoslari T.K. Britell D.Hurley tomonidan tadqiq qilingan.

Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan uzluksiz ta'limda o'qitishni tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim sifatini baholash, tahsil oluvchilarning bilim o'zlashtirishini kвалimetrik baholash, ilg'or xorijiy davlatlardagi tajribalar bilan qiyosiy tahlil va monitoringini o'tkazish kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tahlil va natijalar. Mashg'ulotda o'quvchilar o'quv faoliyatining tashkil etilishi, boshqarilishi va natijasiga baho berish, o'quvchilarda umumiy va xususiy tushunchalar, ko'nikma va malakalarni shakllantira olishi lozim.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarning didaktik tahlili, o'quvchilar tomonidan o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar 6 darajada nazorat qilinishi va baholanishini ko'rsatdi. Fan o'qituvchilari bu darajalarning o'ziga xos xususiyatlarini anglagan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni mazkur darajalarning ketma-ketligiga amal qilgan holda oddiydan murakkab topshiriqlar asosida baholashni loyihalashi lozim. Mazkur darajalarning mantiqiy bog'liqligi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalarning kognitiv, funksional va intellektual mega kompetensiyalar darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi.

PISAning yana bir foydali jihati shuki, unda qay yo'nalishga e'tibor qaratsa, shu yo'nalish bo'yicha o'quvchilar bilim darajasini test sinovlari, ruhiy olami va hayotidagi muammo va yutuqlarni esa so'rovnomalor orqali aniqlaydi. Ko'rsatkichlar o'rganilib, yechim topiladi, foydali metodlar ishlab chiqiladi.

Amaldagi ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqatgina nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, ularni hayotga tayyorlashga o'rgatmasligi, pedagoglarning dars o'tish mahorati yetarli emasligi yuzasidan bildirilgan fikrlar hozirgi davrda mamlakatimiz xalq ta'limi tizimi oldida turgan dolzarb muammolarni aks ettiradi.

O'qituvchi mazkur darajaga erishishi uchun o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash jarayonida o'quv va test topshiriqlarining murakablik darajasi turlicha bo'lishi, ya'ni mantiqiy klaster, bir necha obektlarni o'zida mujassamlashtirgan Venn diagrammasi, o'quv muammolariga asoslangan tajriba va kuzatishlar uchun topshiriqlar tuzishi lozim. O'quvchilar tahlil asosida uncha murakkab bo'lmagan yoki tanish bo'lgan ma'lumotlarni sharhlashi, ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida kelib chiqadigan xulosa yasay olishi va o'z xulosalarini asoslashi lozim. Xalqaro baholashning 1(a) darajada o'quvchilar oddiy ilmiy hodisalarning tan olish yoki aniqlashni izohlash uchun asosiy yoki kundalik hamda fanga oid bilimlardan foydalana oladilar. Yordam bilan ular ikkitadan ko'p bo'lmagan o'zgaruvchilar bilan tuzilgan ilmiy so'rovlarni amalga oshirisha oladilar. Ular oddiy sabab yoki korrelyatsion munosabatlarni aniqlay oladilar va kognitiv talabning quyi darajasini talab qiladigan grafik va vizual ma'lumotlarni sharhlay oladilar. 1a-daraja o'quvchilari tanish shaxsiy, mahalliy va global kontekstlarda berilgan ma'lumotlar uchun eng yaxshi ilmiy tushuntirishni tanlay olishlari mumkin. 1b-darajada bir bosqichli amallarni bajarish, masalan, dalillar, terminlar, tamoyillar yoki tushunchalarni anglaydi. Bu esa B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasining bilish bosqichiga mos keladi va o'quvchida fanga oid bilimlar shakllanadi. Agar o'quvchi PISA Xalqaro baholash dasturi bo'yicha kognitivlik darajasi quyi bo'lgan topshiriqni to'g'ri

yecha olsa 261(1b-daraja)dan 335(1a-daraja)gacha ball yig'a oladi.

Yoki, xalqaro baholashning beshinchi darajasi B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasining baholash(sintez) bosqichiga asosan shakllantirilgan bo'lib, o'quvchilar tomonidan avvalgi bosqichlar, jumladan, bilish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalarni yangi va kutilmagan vaziyatda ijodiy qo'llanishi natijasida yangi bilimlarni egallash jarayoni nazarda tutiladi. Mazkur 5-darajada o'quvchilar abstract ilmiy g'oyalari yoki konsepsiyalardan notanish va bir nechta sabab-oqibatli bog'lanishlarni o'z ichiga olgan murakkab hodisalar va jarayonlarni tushuntirishda foydalana oladilar. Ular muqobil eksperimental dizaynlarni baholash va o'z tanlovlarini asoslash uchun murakkab epistemik bilim; axborotni sharhlash yoki bashorat qilish uchun nazariy bilimlardan foydalana oladilar. 5-daraja o'quvchilari berilgan savolni ilmiy jihatdan o'rganish va talqin qilishda to'plangan ilmiy ma'lumotlardagi noaniqlik ta'sirini o'z ichiga manbalarni va cheklovlarni aniqlash usullarini baholay oladilar[5].

Demak, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalarni yangi va kutilmagan vaziyatda ijodiy qo'llanishiga zamin yaratish maqsadida o'qituvchi nazorat qilish vositalarini xilma-xillashtirishi, baholash jarayonida o'quv va test topshiriqlarining murakkablik darajasi qisman izlanishli bo'lishi, tizimli va umumlashtiruvchi mantiqiy klaster, bir necha obektlarni o'zida mujassamlashtirgan Venn diagrammasi, mental xarita shuningdek, o'quv muammolariga asoslangan murakablik darajasi qisman izlanishli, kreativ (ijodiy) bo'lgan adaptiv testlardan foydalanishi lozim. Agar o'quvchi PISA Xalqaro baholash dasturi bo'yicha kognitivlik darajasi o'rta bo'lgan topshiriqni to'g'ri yecha olsa 633 ballgacha yig'a oladi.

Mazkur daraja o'quvchilar tomonidan mazmunida bir nechta sabab-oqibat bog'lanishlar jamlangan ularga notanish, murakablik darajasi yuqori bo'lgan, majmualii, hodisa, voqea va jarayonlar to'g'risidagi topshiriqni tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchadan foydalanib abstrakt holda tushuntirishi, eksperiment o'tkazishning turli usullarini sharhlash va baholash uchun ilmiy bilishga oid murakkab bilimlarni qo'llashi va o'z tanlovini asoslashi, axborotni sharhlash va farazlarni shakllantirishda nazariy bilimlarni qo'llashi, berilgan topshiriq yuzasidan tadqiqot o'tkazishning turli usullarini ilmiy nuqtai nazardan baholash va faktlarni sharhlashda ma'lumotlarning cheklanganligini aniqlash, axborotdagi ilmiy dalillarning xato va noaniqliklarni aniqlashini talab etadi.

Xalqaro baholashning oltinchi darajasi B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasining xulosa bosqichiga asosan shakllantirilgan bo'lib, o'quvchilar tomonidan avvalgi bosqichlar, jumladan, bilish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil, baholash(sintez) bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch, fanga oid xususiy kompetensiyalarni yangi va kutilmagan vaziyatda ijodiy qo'llanishi natijasida kognitiv, funksional va intellektual kompetensiyalarni egallash nazarda tutilgan. 6-darajada o'quvchilar tirik mavjudot, yer va koinotga oid fanlar bialn o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy g'oyalari va tushunchalarga e'tibor qaratish, yangi ilmiy hodisalar, jarayonlar yuzasidan fikr va farazlari yoki bashorotlar bo'yicha fanning mazmuniga oid va epistemik bilimlardan hamda kontentdan foydalanib taklif bera oladi. Maktab o'quv dasturlaridan tashqari qo'shimcha ravishda o'zlashtirgan bilimlariga tayangan holda ma'lumotlar va dalillarni sharhlab, tegishli ma'lumotlarning ahamiyatli va ahamiyatsiz jihatlarni ajrata oladilar. Shuningdek, ular ilmiy dalillar va nazariyaga va boshqa fikr—mulohazalarga

asoslangan dalillarni farqlay oladilar. 6-darajali o'quvchilar munozarali murakkab tajriba-sinov natijalari va tadqiqotlar yoki simulyatsiyalarni loyihalashtiradilar va ma'lumotlarni tahlil qilib, dalillarni umumlashtra oladilar, xulosalarni asoslab, muammoni hal qilish uchun reja ishlab chiqa oladilar. O'quvchilar bu darajada mazmunan nisbiy bo'lgan yangi hodisa, voqea va jarayonlar to'g'risida gipotezani shakllantirish yoki bashoratlashda matematika, informatika, fizika, biologiya, geografiya va astronomiya sohalarida o'zaro aloqador bo'lgan tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchalardan mazmuni va ilmiy bilish metodlariga asoslanishi, faktlar va ilmiy dalillarni sharhlashda mavzuga doir va doir bo'lmagan axborotlarni farqlay olishi, maktab dasturidan tashqari o'zlashtirgan bilimlarini mustaqil qo'llay olishi va mazkur bilimlarga tayanishi, ilmiy faktlar va nazariyalarga asoslangan fikrlarni boshqa manbalarga asoslangan fikrlardan ajrata olishi, murakkab eksperiment va tadqiqotlarni o'tkazish, kompyuterda modellashirilgan tizimning muqobil variantini taklif etgan holda baholashi va o'z tanlovini asoslashi talab etiladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar Xalqaro baholash dasturlari talablarini amaliyotga joriy etish uchun fan o'qituvchilari quyidagi muammolar yechimiga e'tibor qaratishi lozim: o'qitish jarayonining shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar (uy vazifasi, kuzatish, tajriba va eksperiment o'tkazish, mustaqil ta'lim)da o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini nazorat qilish, shuningdek, formativ va summativ baholash uchun o'quv va test topshiriqlarini B.Blum

taksonomiyasiga muvofiq shakllantirish; mazkur B.Blum taksonomiyasiga muvofiq shakllantirilgan o'quv va test topshiriqlariga bog'liq holda sinfdan tashqari mashg'ulotlar (iqtidorli o'quvchilar bilan individual ishlash, fan to'garaklari) larda foydalanish uchun klaster, Venn diagrammasi, "Atamalar tizimi", "Mental xarita", mantiqiy matn (kontekst)lar tayyorlashi va o'z o'rnida maqsadga muvofiq foydalanish yo'llarini belgilashi; didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tanishdan notanishga, oddiydan murakkabga tomon yo'naltirgan holda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish, izlanishli va kreativ darajadagi o'quv va test topshiriqlarni tizimlashtirish zarur; fan o'qituvchilari Xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq yuqorida qayd etilgan murakkablik darajasi turlicha bo'lgan o'quv va test topshiriqlarini mukammallashtirgan holda B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasining bosqichlari didaktik maqsadini amalga oshirish yo'llarini belgilashi zarur; fan o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlari tegishlicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, malaka oshirish kurslari tinglovchilarni xalqaro baholash dasturlari va ta'lim-tarbiya jarayonini B.Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasi bosqichlarining didaktik maqsadlariga muvofiq tashkil etish va boshqarilishi uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantishga e'tibor qaratishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Адрес Шляхер. Образование мирового уровня. Как выстроит школьную систему XXI века? Москва–2019, Издательство Национальное образование. ФИОКО. 336 с
2. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. TDPU bosmaxonasi. 2015y.107 b.
3. Черепанов В.С., Шихов Ю.А. Квалиметрический мониторинг качества образования: концептуально-программный подход. Образование и наука. 2008. № 272 с.
4. Пентин А. Ю., Заграничная Н. А., Никишова Е. А., Уровни освоения основных компетенций естественно-научной грамотности учащимися Московской области: результаты диагностики. Отечественная и зарубежная педагогика М: 2020. № 4. 202-218 с.
5. Краткие результаты исследования PISA-2018//Центр оценки качества образования ISRO RAO, 2019 [Электронный ресурс]. УРЛ: <http://centeroko.ru/pisa18/pisa> 2018 _pub.html (дата обращения: 12.08.2020).
6. Abdullaeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. –Т.: Universitet, 2022 у. – В. 121.
7. Ergasheva M., Pardaeva M. Ta'lim sifatining baholashning PISA xalqaro tadqiqot dasturini amalga oshirish bo'yicha metodik qo'llanma. ООО "Ziyo press" – Toshkent. 2020 yil. 86 bet.
8. Рыбина О.В. Мониторинг и диагностика качества знаний/ О.В. Рыбина // Образование в современной школе. - 2008. - №9. - С.5-8.



UDK:37c(575.1)

Nargis ALIMATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: nargis2207@gmail.com

F.f.d O'. Tilavov taqrizi asosida

TA'LIM SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIK

Annotatsiya

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi hozirgi vaqtda jahonda rivojlanayotgan mamlakatlar orasida raqobatning kuchayayotganligi va bu raqobatda O'zbekiston ham raqobatbardosh strategiyaga amal qilib, turli sohalar: iqtisod, ta'lim, ilm-fan, sport, axborot texnologiyalarda dunyo reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashga intilayotganligi bilan belgilanadi. Ilmiy maqolada "ta'lim sifati", "raqobatbardoshlik" kabi tushunchalar tahlil etilib, ta'lim sifatining tashkil etuvchi unsurlari, raqobatbardosh kompetensiyalarning shakllanishiga ta'lim sifatining ta'siri o'rganilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim tizimiga nisbatan raqobatbardosh kompetensiyalarni tashkil etuvchilari tahlil etilgan. Xulosada ta'lim sifati raqobatbardosh kompetensiyalarni shakllantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim sifati, natija sifati, jarayon sifati, sharoitlar sifati, raqobatbardoshlik, kompetensiya, raqobatbardoshlik kompetensiyasi

QUALITY OF EDUCATION AND COMPETITIVENESS

Abstract

The relevance of the topic of this article is determined by the increasing competition among the developing countries of the world and the fact that Uzbekistan follows a competitive strategy and strives to occupy high places in world rankings in various fields: economics, education, science, sports, information technology. The scientific article analyzes such concepts as "quality of education" and "competitiveness", studied the constituent elements of the quality of education, the impact of the quality of education on the formation of competitive competencies. At the same time, the constituent elements of competitive competencies were analyzed in relation to the higher education system. In conclusion, the idea is given that the quality of education is important in the formation and development of competitive competencies.

Keywords: education, quality of education, quality of results, quality of process, quality of conditions, competitiveness, competence, competitive competence

КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ

Аннотация

Актуальность темы данной статьи определяется усиливающейся конкуренцией среди развивающихся стран мира и тем, что Узбекистан следует конкурентной стратегии и стремится занимать высокие места в мировых рейтингах в различных областях: экономика, образование, наука, спорт, информационные технологии. В научной статье проанализированы такие понятия, как «качество образования» и «конкурентоспособность», изучены составляющие элементы качества образования, влияние качества образования на формирование конкурентоспособных компетенций. При этом были проанализированы составляющие элементы конкурентных компетенций применительно к системе высшего образования. В заключении приведена мысль, что качество образования имеет важное значение в формировании и развитии конкурентоспособных компетенций.

Ключевые слова: образование, качество образования, качество результатов, качество процесса, качество условий, конкурентоспособность, компетентность, конкурентоспособная компетенция

Kirish. 2022 yil 20 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023 yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb ataldi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida: "Ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir," dedilar[1]. Hozirgi zamonda oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini belgilab beruvchi omillardan biri ta'lim sifatidir. 2019 yil 9 oktyabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasiga ko'ra respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish nazarda

tutilgan[2]. Shu nuqtai nazardan "ta'lim sifati" tushunchasining mazmuni hamda uning oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavjud falsafiy, iqtisodiy, pedagogik ilmiy adabiyotlar ichida ta'lim sifatining raqobatbardoshlik bilan aloqadorligiga bag'ishlanganlari juda kam sonli bo'lib, ular ko'proq yoki ta'lim jarayoni va uning sifatiga yoki turli darajadagi tashkilot va muassasalarning raqobati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash muammolariga qaratilgan. Ilmiy maqolada yoritilgan muammolarga yaqin bo'lgan ilmiy maqolalar quyidagi mualliflar tomonidan tayyorlangan. Jumladan, Potapenko A.V. axborot globallashuvi sharoitida milliy iqtisodning raqobatbardoshligi, Dronin A.L. ta'lim sifati oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligi omili sifatida, Kaldybaev S.K. I Beyshevaliev A.B. ta'lim jarayoni sifatining ta'lim sifati strukturasi va o'rni, Brovina A.V. oliy

ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini ta'minlash masalalarini o'z ilmiy maqolalarida yoritganlar. Veronika Bikse, Baiba Rivza va Ieva Brence o'z ilmiy maqolalarida Latviya universitetlari bitiruvchilarining o'z davlatlari hamda Yevropa ittifoqida raqobatbardoshligini oshirish muammolarini tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodlari. Ilmiy maqolada "ta'lim", "sifat", "kompetentsiya" kabi tushunchalarni mazmun-mohiyatini o'rganish jarayonida analiz va sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish metodlaridan, ta'lim sifatiga bo'lgan ilmiy yondashuvlarni tadqiq etishda taqqoslash ilmiy metodidan foydalanildi. Ta'lim sifati va raqobatbardoshlik kompetentsiyasi aloqadorligi dialektik aloqadorlik tamoyili orqali aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Turli sharoitlarda "ta'lim" tushunchasi har xil ma'no kasb etishi mumkin. Ta'lim deganda ijtimoiy fenomen, jarayon, natija, tizim, tovar nazarda tutilishi mumkin. Ta'lim tizimida ishlaydigan pedagoglar uni jarayon va shu jarayonning natijasi, deb tushunadilar [3].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida: "Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon", deb ta'riflangan [4].

Ta'lim tizim sifatida bir butunlik, ichki o'zaro aloqadorlik, tashkil etilganlik, ochiqlik va harakatchanlik bilan tavsiflanadi. "Sifat" tushunchasini tavsiflashda falsafa tarixidagi mashhur allomalarning fikrlariga murojaat qilsak. Aristotel "sifat" deganda muqim va o'tkinchi xususiyatni tushungan. Demokrit, undan keyin esa Galiley sifatlarini sub'ektiv (inson tushinishi nuqtai-nazaridan) va ob'ektiv (narsaga taaluqli bo'lgan) sifatlariga bo'lgan. Angliyalik faylasuf Jon Lokk esa obyektiv sifatlarini birlamchi, subyektiv sifatlarini ikkilamchi deb hisoblagan. Nemis faylasufi Kant "sifat" tushunchasini "narsa o'zida" va "narsa biz uchun" tushunchalari orqali rivojlantirgan. Gegel "sifat" tushunchasining "miqdor" tushunchasi bilan aloqadorligini o'rgangan va sifatning miqdordan ustunligini tasdiqlaydi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida ham turli ta'riflar mavjud. Masalan, L.N. Davidova "sifat" deganda obyekt mohiyatini va uning boshqa predmetlardan farqini tavsiflaydigan muayyan xususiyatlar yig'indisini nazarda tutadi [5]. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining ta'riflaridan kelib chiqib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik kategoriyalar ekanini ko'rish mumkin.

S.E. Shishova va V.A. Kalneyning qarashlariga ko'ra ta'lim sifati bu o'quvchilarning kompetentsiyalari rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muassasasining ko'rsatkichlari (ta'lim mazmuni, ta'lim shakllari va metodlari, moddiy-texnik baza va h.k.) yig'indisidir [6].

A.S. Zapesotskiyning fikricha, ta'lim sifati:

1) jamiyat va kasbiy muhitda talab etiladigan, mutaxassisning bilimlari, malakalari, ko'nikmalari tizimidan iborat natijadir;

2) ta'lim sifati – nafaqat fuqarolar, balki davlat, jamiyat, tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini tahminlovchi ta'lim jarayonining xususiyatlari majmuasi [7].

Laptev V.V. "ta'lim sifati" tushunchasiga kiruvchi komponentlarni uchta o'zaro aloqador bo'lgan quyidagi qismlarga bo'lishni taklif etadi:

- 1) struktura sifatiga aloqador bo'lgan;
- 2) jarayon sifatiga aloqador bo'lgan;
- 3) natija sifatiga aloqador bo'lgan [8].

Shu uch tashkil etuvchi yordamida "ta'lim sifati" tushunchasi integratsiyasi sodir bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim sifatiga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, yagona strukturani tashkil qilgan natija sifati, jarayon sifati va sharoitlar sifatining yagonaligi deb qarash kerak.

Sharoitlar sifatiga:

- moddiy-texnik baza darajasi;
- o'qituvchilar faoliyati sifati;
- boshqarish organlari faolligi;
- talabalarning shaxsiy sifatleri;
- o'quv-metodiy ta'minlanganlik darajasi;
- ichki va tashqi baholash sifati kiradi.

Jarayon sifatining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilardir:

- ta'lim dasturlarining mazmuni sifati;
- ta'lim jarayoni menejmenti;
- o'quv-metodik va moddiy-texnik ta'minlanganlik sifati;

- ta'lim jarayoni texnologiyasi;
- o'qituvchilar tarkibi sifati;
- ta'lim olayotganlar sifati.

Natija sifatini quyidagi elementlardan tashkil topuvchi tizim sifatida qarash mumkin:

- talabalar bilimi sifati;
- talabaning bilish faoliyati sifati;
- bitiruvchining tayyorgarlik darajasi;
- bitiruvchining kompetentligi;
- bitiruvchilarning raqobatbardoshligi va ishga joylashuvi;

-bitiruvchilarning yutuqlari va xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish dinamikasi;

- talaba shaxsining rivojlanganligi.

Bunday bo'linishni shartli, deb qarash mumkin, chunki ularning barchasi o'zaro chambarchas bog'langan.

Ta'lim jarayonida muhim shaxs-bu o'qituvchi hisoblanadi. Shuning uchun sifatni ta'minlash siyosati professor-o'qituvchilar jamoasini shakllantirishdan boshlanadi. Professor-o'qituvchilarning sifati o'quv dasturi, o'qitish metodikasi, mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligi, kompetentlik darajasi, o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyat, mashhurlik bilan, ilmiy-tadqiqot faolligi, ilmiy maktab mavjudligi bilan belgilanadi. "O'qituvchi sifati" tushunchasini tashkil etuvchi unsurlar aniqlanishi mumkin, lekin ularning birontasini miqdoriy kattaliklarda o'lchash mumkin emas. Masalan, kompetentlik darajasi bazaviy ma'lumot va keyingi malaka oshirish bilan, ilmiy daraja va unvonning borligi, pedagogik ish staji, ma'lum sohadagi ish tajribasi bilan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi ta'lim jarayonini va ilmiy tadqiqotlar olib borilishini ta'minlaydigan asosiy vositalarning mavjudligi va qiymati (binolar, mashinalar, uskunalar, kutubxona va boshqalar) bilan xarakterlanadi. Ta'lim sifati shuningdek, xodimlarning motivatsiyasiga ham bog'liq. O'qituvchi kasbining jozibadorligini ta'minlash uchun ularda tegishli ijtimoiy mavqe bo'lishi lozim. O'quv dasturlarining sifati biror sohaga oid u yoki bu o'quv fanining ta'lim standartlariga faqat mos kelishi emas, balki unda innovatsion tashkil etuvchining mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Ta'lim jarayoni markazida bilimlar iste'molchisi-talaba turadi. Aynan uning uchun ma'ruzalar o'qiladi, darsliklar yoziladi, yangi ta'lim texnologiyalari ishlab chiqiladi. Shuning uchun ta'lim oluvchining sifati haqida gapirish to'g'ri bo'ladi. U shunday materialki, ta'lim jarayonining oxirgi natijasiga aylanishi kerak. Ta'lim oluvchining sifati quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- kasbga oid o'quv fanlar bo'yicha ilgari egallangan bilimlar;
- kompyuter bilimdonligi;
- xorijiy tillarni bilish;
- o'qishga bo'lgan xohish;
- intellekt;
- ma'naviyatlilik;
- iqtidorlilik, xotira;

- intizomlilik;
- qat'iyatlilik;
- ishchanlik;
- kuzatuvchanlik;
- o'z karyerasini rejalashtirish.

Ta'lim sifati oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim omildir.

Oxirgi yillarda "kompetentsiyalarga yo'naltirilgan ta'lim" kabi tushunchalar paydo bo'ldi, ya'ni bu talaba va o'quvchilarda ma'lum sohaga oid ko'nikma, malaka, tajribalarni shakllantirish va ulardan amaliyotda foydalanishni o'rgatishdir. "Kompetentsiya" so'zi lotin tilidagi "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman", "munosibman", "loyiqman" kabi ma'nolarni anglatadi. Raqobatbardoshlik kompetentsiyasi ham mavjud bo'lib, raqobatbardoshlik kompetentsiyasi raqobatbardoshlikni ichki omili sifatida ko'riladi. Aniq emaski, raqobatbardoshlik kompetentsiyasi-bu raqobatda qatnashish qobiliyatini yoki resurslar, natijalar va raqobat hatti-harakatlarida ustunlikka ega bo'lishmi? Shunisi aniqki, bu raqobatga chidash va raqobatdoshlardan ustunlikka erishish qobiliyatidir. Bu qobiliyatlar orqasidan raqobat harakatlanadi. Raqobatbardosh kompetentsiya tushunchasining mazmuni keng va tor ma'nolarda tushunilishi mumkin. Keng ma'noda raqobatbardosh kompetentsiya-bu shunday qobiliyatlarki, ularsiz raqobatda tirik qolish mumkin emas; raqobat hatti-harakatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shunday malakalarki, ularning ahamiyati raqobat jarayonida aniqlangan. Raqobatbardosh kompetentsiyalar tushunchasining hajmini kichraytiradigan bo'lsak, bu tushuncha ostida unikal, qaytarilmas, nusxa ko'chirib bo'lmaydigan, raqobat ustunligini shakllantiradigan va raqobatdoshlardan ustunlikni ta'minlovchi qobiliyatlar tushuniladi.

Raqobatbardoshlik kompetentsiyalari tushunchasining boshqa ma'nosi ham bor. Bunda shunday kompetentsiyalar tushuniladiki, ulardagi ustunlik va ularni takomillashtirish ustida raqobat bo'ladi [9]. Bunday ma'noda kompetentsiyalar raqobat obyektini va raqobat ta'sirlari predmetiga aylanadi. Bunday holatda raqobat kompetentsiyalari deb shunday asosiy kompetentsiyalarga aytish mumkinki, ular ustida raqobat aksil ta'sirlari amalga oshiriladi, hujum o'tkaziladi, imitatsiya qilishga harakat qilinadi va ular o'z unikaligini yo'qotadi.

Raqobatbardoshlik kompetentsiyalarini tashkilot, muassasa va alohida individlarning kompetentsiyalariga bo'lib o'rganish mumkin, chunki ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Individda nisbatan raqobatbardoshlik kompetentsiyasi-bu raqobat hatti-harakatlarini amalga oshirish qobiliyatini ta'minlaydigan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar yig'indisi va individning shaxslararo raqobatda ishtirok etishga ruhiy tayyorligidir.

Oliy ta'lim tizimiga nisbatan individlarning raqobatbardoshlik kompetentsiyalari deganda asosan, rahbar kadrlarning kompetentsiyalari nazarda tutiladi. Ta'lim sohasida ushbu sohada vazifalar va funktsiyalarning o'ziga

hosilini inobatga olib, barcha kompetentsiyalarni quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq:

- umummadaniy (universal);
- umumkasbiy;
- kasbiy;
- kasbiy-maxsus.

Umummadaniy kompetentsiyalar, Yu.B.Rubin fikricha, barcha kasb namoyondalarida mavjud bo'lib, bu kasbiy faoliyatning umuminsoniy va umummadaniy aspektlarini ta'minlash bo'yicha kompetentsiyalardir. Ularga umumjahon madaniy qadriyatlarini pozitiv idrok etishdagi realizm; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatlarini, faoliyat muhiti va undagi o'rnini aniqlash; ijtimoiy majburiyatlar, tolerantlik, axloqiy va huquqiy normalarga rioya etish; ijtimoiy xulq-atvor qoidalarga bo'ysunish; o'z ona tili va xorijiy tilda ijtimoiy, shaxslararo madaniy aloqalarni qo'llab quvvatlash; ijtimoiylashuv, o'z-o'zini va atrofdegilarni falokat chog'ida himoya qilish uchun sog'liqni va jismoniy holatni tegishli ravishda ushlab turish kiradi [10].

Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarining umumkasbiy kompetentsiyalari-bu umumlashgan boshqaruv va menedjerlik kompetentsiyalaridir. Ularga rejalashtirish, nazorat, motivatsiya, xulq-atvorning strategik, taktik va situatsion darajasida boshqarish qobiliyati hamda boshqaruv kasblariga xos bo'lgan o'ziga xos kompetentsiyalar kiradi.

Oliy o'quv yurti rahbarlarining kasbiy kompetentsiyalari-bu ta'lim faoliyati jarayonidagi boshqaruv kompetentsiyalarining yig'indisi, ya'ni rektor kasbi yoki ta'limdagi top-menedjerlarning identikligi yadrosini shakllantiradigan kompetentsiyalardir. Bu kompetentsiyalar ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini boshqarishga aloqadordir.

Kasbiy maxsus kompetentsiyalar esa ta'lim tashkilotining sohaviy, tadbirkorlik, raqobat, ilmiy va boshqa xil o'ziga xosligini aks ettiruvchi boshqaruv kompetentsiyalaridir. Mana shu jihatdan turli oliy o'quv yurtlari rektorlari bir-biridan farq qiladi. Xususan, raqobat hatti-harakatlarini amalga oshirish ham shu yuqoridagi kompetentsiyalarga kiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ta'lim sifatiga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, yagona strukturani tashkil qilgan natija sifati, jarayon sifati va sharoitlar sifatining yagonaligi deb ta'rif berish mumkin. Hamda ta'lim sifati raqobatbardosh kompetentsiyalarni vujudga keltirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardosh kompetentsiyalar esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ta'lim sifati va raqobatbardosh kompetentsiyalar dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Har bir oiliy ta'lim muassasasi o'z raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ta'lim sifatini oshirishga e'tibor berishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Бунёдкор халқимиз мустақиллигимизни мустаҳкамлаб, барқарор тараққиёт йўлида илдамлайверади. // "Халқ сўзи" газетаси, 2022 йил 21 декабрь, №272
2. "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон
3. Калдыбаев С.К., Бейшеналиев А.Б. Качество образовательного процесса в структуре качества образования // Успехи современного естествознания. – 2015. – № 7. – С. 90-97
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни "Таълим тўғрисида". 24 сентябрь 2020 йил
5. Давыдова Л.Н. Различные подходы к определению качества образования // Качество. Инновации. Образование. – М., 2005. – № 2. – С. 5–8.
6. Шишов С.Е., Кальней В.А. Мониторинг качества образования в школе. – М.: РПА, 1998. – 352 с.
7. Запесоцкий А.С. Образование: философия, культурология, политика. – М.: Наука, 2002. – 456 с.
8. Лаптев В.В. Научный подход к построению программ исследования качества образования // Модернизация общего образования на рубеже веков (сборник научных трудов). – СПб.: Изд-во РГПУ им. Герцена, 2001. – С. 3–10

9. Васильев А.И. Конкурентные компетенции руководителей высшего и среднего звена образовательных организаций системы высшего образования. *Journal of Modern Competition* / 2019. Vol. 13. No. 2 (74). С.130-139
10. Рубин Ю. Б., Леднев М. В., Можжухин Д. П. Матрица компетенций как инструмент обучения предпринимательству в бакалавриате // Высшее образование в России. 2017. № 6. С. 16–28.



UDK: 159.9.07 = 316.6

Damegul ARAPBAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, psix.f.n
O‘zMU mustaqil izlanuvchisi (DSe).
E-mail: damegul.83@mail.ru

O‘zMU professori, psix.f.d A.I.Rasulov taqrizi asosida

OILADAGI INQIROZLAR VA ULARNING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilaviy inqirozlar va uning oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy inqirozlarning namoyon bo‘lish shakllari, yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan. Xususan, oilaviy inqirozning o‘ziga xos ko‘rinishlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy inqiroz, destruktiv, konstruktiv, individual, mikro, makro, mega-tizimli.

КРИЗИСЫ В СЕМЬЕ И ИХ ПРОЯВЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются семейные кризисы и их последствия. Также были проанализированы сведения о формах, направлениях, стадиях и особенностях семейных кризисов. В частности, описаны своеобразные проявления семейного кризиса.

Ключевые слова: семья, семейный кризис, деструктивный, созидательный, индивидуальный, микро, макро, мегасистема.

FAMILY CRISES AND THEIR MANIFESTATIONS

Abstract

This article discusses family crises and their consequences. Information about the forms, directions, stages and features of family crises was also analyzed. In particular, peculiar manifestations of the family crisis are described.

Key words: family, family crisis, destructive, creative, individual, micro, macro, mega-system.

Kirish. Oila – nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat, umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruh.

Oila jamiyatning tayanch ustuni, uning hal qiluvchi bo‘g‘ini. Oilalarning mustahkamligi asosida jamiyat tinchligi va barqarorligi ta’minlanadi.

Oila kichik guruh sifatida o‘rnatilgan aloqalar tufayli qandaydir muvozanatda bo‘lgan tizimdir. Biroq bu muvozanatning o‘zi harakatchan, tirik, o‘zgaruvchan va yangilanish xususiyatiga egadir. Ijtimoiy vaziyatning o‘zgarishi, oila yoki uning a‘zolaridan birining rivojlanishi oila muhitidagi munosabatlarning butun tizimi o‘zgarishiga olib keladi va ba‘zan tubdan qarama-qarshi bo‘lgan munosabatlarni o‘rnatish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Har qanday oilaning shakllanishi davomida ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, oilalarda nizo va ziddiyatlarning ortishi er-xotinning ajrashishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlilidan ma’lumki, bunday holatlarning sodir bo‘layotganligi oilaviy inqirozlar bilan bevosita bog‘liq. Oiladagi inqiroz o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, bu sohada bir qator tadqiqot ishlari olib borilishi natijasida uning yuzaga kelish sababi va oqibatlari bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlar to‘plangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oilaviy inqiroz – gomeostatik jarayonlarning buzilishi bilan tavsiflangan oila tizimining holati, bu oilaning odatdagi ishlash usullarini umidsizlikka olib keladi va eski xatti-harakatlar yordamida yangi vaziyatni yenga olmaydi [4].

Oilaviy inqirozda oilani yanada rivojlantirishning ikkita potensial yo‘nalishini aniqlash mumkin:

1. Destruktiv – oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladi va ularning mavjudligi uchun bo‘lgan xavfni o‘z ichiga oladi.

2. Konstruktiv – oilani yangi faoliyat darajasiga o‘tkazish uchun potensial imkoniyatni o‘z ichiga oladi.

Oiladagi inqiroz muammolari bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish oilaviy inqirozlarni tavsiflashga qaratilgan bir nechta yondashuvlarni aniqlashga imkon beradi. Birinchisi, oilaviy hayot siklining qonuniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Ushbu yondashuvga ko‘ra inqirozlar hayot siklining bosqichlari orasidagi o‘tish davri sifatida qaraladi. Bunday inqirozlar normativ yoki gorizontall stresslar deb ataladi [6]. Ular “tiqilib qolish”, to‘siqlar yoki oilaviy hayot siklining biror bir bosqichidan o‘tayotganda yetarli darajada moslashmaslik tufayli yuzaga keladi.

Masalan, V.Satir oila rivojlanishidagi o‘nta muhim nuqtani aniqlaydi [2].

Birinchi inqiroz – homiladorlik va bolaning tug‘ilishi.
Ikkinchi inqiroz – bola nutqini o‘zlashtirishining boshlanishi.

Uchinchi inqiroz – bola tashqi muhit bilan munosabatlarni o‘rnatadi (bolalar bog‘chasiga yoki maktabga boradi).

To‘rtinchi inqiroz – o‘smirlik davri.

Beshinchi inqiroz – bola katta(yosh)ga aylanadi va uydan chiqib ketadi.

Oltinchi inqiroz – yoshlarning turmush qurishi.

Yettinchi inqiroz – ayol hayotidagi menopauzaning boshlanishi.

Sakkizinchi inqiroz – erkaklarning jinsiy faolligining pasayishi.

To'qqizinchi inqiroz – ota-onalar bobo va buvilarga aylanishadi.

O'ninchi inqiroz – turmush o'rtoqlardan biri vafot etadi.

Shunday qilib, oila inqirozlar bilan birga rivojlanishning bir qator bosqichlaridan o'tadi. Mikrosxema darajasida qayd etilgan tartibga soluvchi inqirozning asosi odatda kattalar yoki bolaning individual tartibga soluvchi inqirozi bo'lib, tizimning beqarorlashishiga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv oilaning hayot yo'lidagi voqealarni tahlil qilish bilan bog'liq: oilaviy inqirozlar oila tizimining barqarorligiga ta'sir qiluvchi ba'zi hodisalar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bunday inqirozlar oilaviy hayot siklining bosqichlaridan qat'i nazar sodir bo'lishi kuzatiladi va g'ayritabiiy (normativ bo'lmagan) deb ataladi.

Uchinchi yondashuv eksperimental tadqiqotlar davomida olingan oiladagi inqirozli vaziyatlar yoki uning alohida quyi tizimlari haqidagi bilimlarga asoslanadi. Masalan, Plzak nikoh munosabatlarining rivojlanishidagi ikkita muhim davrni tasvirlab berdi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Birinchi tanqidiy davr turmushning 3-7-yillari orasida sodir bo'ladi va qulay holatda taxminan 1 yil davom yetadi. Uning paydo bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: romantik kayfiyatlarining yo'qolishi, sevgi davrida va kundalik oilaviy hayotda sherikning xatti-harakatlaridagi kontrastni faol ravishda rad etish, turmush o'rtoqlar narsalarga turli xil qarashlarni topadigan va kelisha olmaydigan holatlar sonining ko'payishi, salbiy his-tuyg'ularning ko'payishi, tez-tez to'qnashuvlar tufayli sheriklar o'rtasidagi munosabatlar keskinligining oshishi [3]. Inqirozli vaziyat er-xotinning ichki va iqtisodiy holatini belgilaydigan har qanday tashqi omillar ta'siridagi, ota-onalarning aralashuvizis, xiyonat yoki turmush o'rtoqlardan birining patologik shaxsiy xususiyatlarisiz paydo bo'lishi mumkin.

Ikkinchi inqiroz davri taxminan 17 va 25-yillar orasida sodir bo'ladi. Ushbu inqiroz birinчисiga qaraganda unchalik chuqur emas, u 1 yil yoki bir necha yil davom etishi mumkin. Uning paydo bo'lishi ko'pincha involyutsiya davrining yaqinlashishiga to'g'ri keladi. Hissiy beqarorlikning kuchayishi, qo'rquvlarning paydo bo'lishi, turli xil somatik shikoyatlar, bolalarni tark etish bilan bog'liq yo'lq'izlik hissi, xotinning hissiy qaramligi kuchayishi, uning tez qarish haqidagi tajribalari, shuningdek, erning mumkin bo'lgan jinsiy xiyonati [3].

N.V.Samoukinaning fikriga ko'ra, birinchi inqiroz davri (5-7-yil) sherik obrazi o'zgarishi, ya'ni uni psixologik holatining pasayishi bilan bog'liq [1]. Ikkinchi inqiroz davri (13-18-yil) bir-biridan psixologik charchoq, munosabatlar va turmush tarzidagi yangilikka intilish tufayli yuzaga keladi. Bu davr ayniqsa erkaklar tomonidan keskin boshdan kechiriladi. Bu er-xotinning nisbiy erkinligi va mustaqilligi uchun yaratilgan sharoitlar o'zaro tan olingan oilalarda, shuningdek, ikkala sherik ham o'z munosabatlarini yangilash yo'llarini izlay boshlagan joylarda kamroq og'riqli bo'ladi [1].

Ayrim quyi tizimlardagi inqirozlar (masalan, nikoh munosabatlaridagi yuqorida tavsiflangan inqirozlar) normativ oilaviy inqirozlar rivojlanishiga ta'sir qilishi, ularning namoyon bo'lishini kuchaytirishi mumkin. Inqiroz holatida bo'lgan oila bir xil bo'lib qololmaydi; u o'zgartirilgan vaziyatga mos ravishda ishlay olmaydi, tanish, formulali g'oyalar bilan ishlaydi va odatiy xatti-harakatlardan foydalanadi.

Oilaviy inqirozning quyidagi xususiyatlari ajralib turadi:

1. Oiladagi o'zaro ziddiyatlarning kuchayishi.

2. Butun tizimning buzilishi va unda sodir bo'ladigan barcha jarayonlar.

3. Oila tizimida beqarorlikning kuchayishi.

4. Inqirozning umumlashtirilishi, ya'ni uning ta'siri oilaviy munosabatlar va o'zaro munosabatlarining butun doirasiga taalluqlidir [4,27].

Tahlil va natijalar. Oila faoliyatining qaysi darajasida inqiroz yuzaga kelmasin (individual, mikro, makro yoki megatizimli), u muqarrar ravishda boshqa darajalarga ta'sir qiladi va ularni ishlashidagi buzilishlarni keltirib chiqaradi. Natijada, oilaviy inqirozning quyidagi ko'rinishlarini aniqlash mumkin [4,27]:

1. Oilaviy inqirozning individual darajada namoyon bo'lishi:

- noqulaylik hissi, xavotirning kuchayishi;

- eski aloqa usullarining samarasizligi;

- nikohdan qoniqish darajasining pasayishi;

- tushunarsizlik hissi, umidsizlik va vaziyatni

o'zgartirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning befoydaligi, ya'ni o'z imkoniyatlarini cheklash hissi, vaziyatda rivojlanishning yangi yo'nalishlarini kashf eta olmaslik;

- nazorat o'chog'ining siljishi: oila a'zosi subyektiv pozitsiyani egallashni to'xtatadi;

- unga biror narsa "u bilan" sodir bo'layotgandek tuyuladi, ya'ni uning tashqarisida, demak, o'zgarishlar u bilan emas, balki boshqalar bilan sodir bo'lishi kerak. Bunday holda, u chin dildan vaziyatni yaxshilashga olib keladigan boshqa oila a'zosining munosabati yoki xatti-harakati o'zgarishi kerakligiga ishonishni boshlaydi [5];

- yangi tajribalarga yaqinlik va shu bilan birga o'zining o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lmagan "dunyoning mo'jizaviy qaytishi"ga umid;

- ba'zi oila a'zolarida o'ta qimmatli g'oyalarning paydo bo'lishi;

- simptomatik xulq-atvorni shakllantirish.

2. Mikrotizimli darajasida oilaviy inqirozning namoyon bo'lishi:

- uyg'unlik parametrining buzilishi: oila a'zolari o'rtasidagi psixologik masofaning pasayishi yoki oshishi (ekstremal variantlar – simbiotik birlashma va uzilish);

- boshlang'ich oilaning ichki va tashqi chegaralarining deformatsiyasi, ularning ekstremal variantlari ularni diffuzivligi (loyqaligi) va qattiqligi (o'tkazmasligi);

- oila tizimining tasodifiylik yoki qat'iylikka moslashuvchanligini buzish – javob berishning moslashuvchan usullarini saqlash va mustahkamlash mexanizmi – "va uyg'un moslashish" – inqirozli vaziyatlarda deyarli universaldir, ammo undan uzoq vaqt foydalanish bilan tabiiy almashinuv natijasida oiladagi energiya buziladi;

- oila tizimining rol tuzilishidagi o'zgarishlari (disfunktsional rollar paydo bo'lishi, rollarni qattiq, notekis taqsimlanishi, rolning "muvaffaqiyatsizligi", rollarning patologizatsiyasi);

- ierarxiyani buzish (hokimiyat uchun kurash, teskari ierarxiya);

- oilaviy nizolarning paydo bo'lishi;

- salbiy his-tuyg'ular va tanqidning kuchayishi;

- metakommunikatsiyaning buzilishi;

- oiladagi munosabatlardan umumiy norozilik tuyg'usining kuchayishi, qarashlardagi tafovutni aniqlash, jim norozilik, janjal va tanbehlarining paydo bo'lishi, oila a'zolarida aldanish hissi;

- regressiya yoki boshlang'ich oila faoliyatining dastlabki modellari qaytish;

- oila rivojlanishining har qanday bosqichida "tiqilib qolish" va keyingi bosqichlarning vazifalarini hal qila olmaslik;

- oila a'zolarining da'volari va umidlarining nomuvofiqligi va bir-biriga to'g'ri kelmasligi;

- oilaning ba'zi o'rnatilgan qadriyatlarining yo'q qilinishi va yangilarini shakllantirmaslik;

– an'analar va marosimlar(rituallar)ning buzilishi;
– yangi bo'lmagan taqdirda eski oilaviy me'yorlar va qoidalarining samarasizligi;
– qoidalarining yetishmasligi.
3. oilaviy inqirozning mikrosistema darajasida namoyon bo'lishi:
– oilaviy afsonani aktuallashtirish;
– arxaik xulq-atvor naqshini amalga oshirish, oila mavjudligining dolzarb kontekstiga mos kelmaydigan, ammo oldingi avlodlarda samarali bo'lgan;
– katta oilaning ichki va tashqi chegaralari buzilishi, ularning ekstremal variantlari chegaralarining tarqalishi va qattiqligi (o'tkazuvchanligi);
– ierarxiyaning buzilishi (masalan, teskari ierarxiya, avlodlararo koalitsiyalar);
– katta oilalarda rol tuzilishining buzilishi (rol inversiyalari, rolning "muvaffaqiyatsizligi");
– an'analar va marosimlar(rituallar)ning buzilishi;
– eski oilaviy me'yorlar va qoidalar samarasizligi va yangilarining shakllanmaganligi.
4. Oilaviy inqirozning mega-sistema darajasida namoyon bo'lishi:
– oilani ijtimoiy izolyatsiya qilish;
– oilaning ijtimoiy noto'g'ri adaptatsiyasi;
– ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlar.
Inqiroz sharoitida oilani tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan yondashuv inqiroz psixologiyasi va oila

psixologiyasining nazariy va amaliy ahamiyatini birlashtirishga imkon beradi, ularning kesishmasida yangi yo'nalish – oilaviy inqiroz psixologiyasi vujudga keladi [4].

Xulosa va takliflar. Ushbu ishning o'ziga xos xususiyati, mikrosistema darajasiga e'tibor qaratgan holda oilaviy inqirozlarni tahlil qilishda oila psixologik faoliyatining ko'p darajali modelidan foydalanishdir. Bu shuni anglatadiki, tahlil markazida oila a'zolarining individual biopsixodinamikasi emas, balki oilaning yaxlit organizm sifatida reaksiyalari mavjud. Ushbu vazifa murakkabligi va ba'zan oila tizimining barcha tarkibiy qismlari o'zaro ta'sirini hisobga olishning iloji yo'qligi tufayli qiyin. Biroq oilalar bilan ishlash bo'yicha tajribamiz oila kabi noyob ijtimoiy kichik guruhni tahlil qilishda ushbu yondashuvdan foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi, bu uning noyob va sirli dunyosi va mavjudlik qonunlarini tushunishga imkon beradi.

Er-xotinlik munosabatlaridagi inqirozlar oilaviy munosabatlarning bir maromda ketishiga to'sqinlik qilgan holda kechishi mumkin. Inqiroz holatida bo'lgan oila ilgorigidek bo'lmaydi, u odatdagi xatti-harakatlarning modelidan foydalangan holda hamda barchaga ayon bo'lgan me'yoriy qoliplarga tayangan holda o'zgarib borayotgan oilaning bir maromda faoliyat yuritishi uchun imkon bermaydi.

ADABIYOTLAR

1. Самоукина Н. В. Симбиотические аспекты отношений между матерью и ребенком // Вопросы психологии. – М., 2000. № 3. – С. 3-13.
2. Сатир В. Психотерапия семьи. – М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. – С. 280
3. Кратохвил С. Психотерапия семейно-сексуальных дисгармоний. – М: "Медицина" 1991. – С. 336.
4. Олифинович Н.И., Зинкевич-Куземкина Т.А., Велента Т.Ф. Психология семейных кризисов. – СПб.: Речь, 2006. – 360 с
5. Шиян О.А. Семья в пространстве преобразования // Семейная психология и семейная терапия. – М., 1998. №3. – С. 39.
6. Эйдемиллер Э.Г.Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. – Издательство: "Питер", 2009. – С. 672.



UDK:321.3

Xusniddin AXMEDOV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Malaka oshirish markazi direktori, siyos.f.d., professor

O‘zMU professori O.Musayev taqrizi asosida

BOSHQARUV KADRLARINI TAYYORLASH – DAVR TALABI

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar hamda kelgusi yillarda amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifa va maqsadlar mazmuniga bag‘ishlangan. Shuningdek, yurtimizda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishda malakali boshqaruv kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash, saralab olishning muhim ahamiyat kasb etishi hamda bu bo‘yicha ajdodlarimizning boy ilmiy merosida belgilangan qonun-qoidalaridan istifoda etish maqsadga muvofiq bo‘lishi borasidagi tahlillar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, davlat boshqaruvi, davlat hokimiyati, islohotlar, boshqaruv kadrlari, kadrlar salohiyati, fuqarolik jamiyati, davlat xizmati, jamoatchilik nazorati.

ОБУЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЮ – ЭТО НУЖДА ВРЕМЕНИ

Аннотация

Данная статья посвящена содержанию проводимой сегодня в Новом Узбекистане работы по подготовке управленческих кадров, выработанным предложениям по развитию социально-экономической сферы, первоочередным задачам и целям, поставленным для реализации на ближайшие годы. Также проведен анализ значения подготовки, воспитания и подбора квалифицированных управленческих кадров в реализации комплексных реформ в нашей стране и целесообразности использования в этой связи законов и правил, заложенных в богатом научном наследии наших предков. вывел.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, государственное управление, государственная власть, реформы, управленческие кадры, кадровый потенциал, гражданское общество, государственная служба, общественный контроль.

MANAGEMENT TRAINING IS THE NEED OF THE TIME

Abstract

This article is devoted to the content of the work being carried out on the training of management personnel in New Uzbekistan today, the proposals developed for the development of social and economic sectors, and the priority tasks and goals set for implementation in the coming years. Also, the analysis of the importance of training, education, and selection of qualified management personnel in the implementation of comprehensive reforms in our country and the appropriateness of using the laws and regulations established in the rich scientific heritage of our ancestors in this regard have been brought out.

Key words: New Uzbekistan, Third Renaissance, state administration, state power, reforms, management personnel, personnel potential, civil society, public service, public control.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar Yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tayotgan o‘ziga xos davri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz rahbarligida Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amaliy ishlar qilinayotgani, odamlarimizning salohiyatini yuksaklikka ko‘tarish, mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan yangi yutuqlardan xabardor bo‘lishini ta‘minlash, O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish borasida jamiyat hayotining barcha sohalarida har tomonlama yangi marralarning zabt etilayotgani yurtimizda demokratik va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidagi dadil qadam ekanligi barchamizga yaxshi ma‘lum. Bu kabi serqirra jarayonning murakkab ekani, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy sohalarida yangi maqsadlarga erishish uchun zamon bilan hamnafas kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Oldimizda turgan ulkan maqsad va vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish uchun davlat boshqaruv tizimi va uning apparati samarali faoliyat yuritishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas‘uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni

tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi” [2:55]. Shunday ekan, jamiyat hayotining barcha sohalarida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi renessans sari” g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tushunish va xalqimizga tushuntirish boshqaruv kadrlariga katta mas‘uliyat yuklaydi. Keyingi yillardagi o‘zgarishning tarkibiy qismi bo‘lgan insonni qadrlash borasidagi ezgu maqsadlar ham o‘z-o‘zidan amalga oshib qoladigan jarayon emas. Ayniqsa, bu rahbar kadrlarning faol harakatini taqozo etadigan nihoyatda mas‘uliyatli jarayondir. Shu o‘rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘xkidlaganlaridek, “Qobiliyatni aniqlash, o‘qitish, ishini yaxshi yo‘lga qo‘yishga o‘rgatadigan yaxlit tizim bo‘lmagani uchun, ayrim rahbar kadrlar berilgan vazifalarni eplay olmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Misol uchun, o‘tgan 6 oyda bilim va ko‘nikmalari yetishmagani bois, 37 nafar tuman va shahar hokimlari almashtirildi.

Umuman, mas‘ul lavozimlarda o‘tirgan rahbarlarni tanlash, tayyorlash va motivatsiya berish yo‘lga qo‘yilmagani ijrodagi oqsoqliklarning asosiy sabablaridan biri bo‘lmoqda”.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzuda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyevning asarlari muhim manbalardan sanaladi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odmlar shahri", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlarida keltirilgan davlat boshqaruvi va boshqaruv kadrlarini saralashga doir o'g'itlar mavzuni tadqiq etishda yordam vazifani bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, manbalar va ma'lumotlarni qiyoslash, tarixiy-ilmiy natijalardan istifoda etish, mavzuga doir zamonaviy masalalarni aniqlash hamda ularga obyektiv yondoshgan holda javob berish, tanqidiy-tahlil asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar berilgan.

Natija va tahlillar. Hozirgi kunda dunyoda globallashuv rivojlanayotgan bir paytda davlat boshqaruv kadrlarining salohiyati mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bu holatni so'nggi yillarda davlat boshqaruv organlari tizimini, kadrlar siyosatini tubdan o'zgartirish orqali shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatlar tajribasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Singapur, Janubiy Koreya, BAA, Turkiya kabi bugungi dunyoning yirik iqtisodiy markazlariga aylanib borayotgan davlatlarda davlat fuqarolik xizmati, boshqaruv kadrlari sohasida islohotlar muvaffaqiyatli o'tkazilganligi tufayli ushbu mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda aholisining turmush darajasi yuqoriligi ko'rsatib turibdi. Shu jihatdan, O'zbekistondagi siyosiy modernizatsiya jarayonlarida boshqaruv kadrlarining salohiyatini muntazam oshirib borish, milliy kadrlar zahirasi tizimini yaratish va davlat fuqarolik xizmati uchun yetuk kadrlarni saralash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi renessans sari" degan muhim g'oyani hayotga tadbiq etish uchun izchil islohotlar olib borilayotgani ham xalqni rozi qilish davlat idoralari faoliyatini baholashdagi eng asosiy mezon sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat hokimiyati organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalashning yangi davri boshlandi. Bunda "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan hayotiy tamoyil davlat boshqaruvining muhim mezon sifatida amaliyotga joriy etildi. Davlat – inson uchun tamoyili asosida davlat boshqaruvi tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud bo'g'inlari inson qadrini yanada oshirish bilan bog'liq zamonaviy talablar asosida isloh qilinmoqda. Davlat tizimini zamonaviylashtirish va optimallashtirish maqsadida tub ma'muriy islohotlar o'tkazildi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida keltirilgan birinchi yo'nalishida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish belgilab berildi. Taraqqiyot strategiyasi maqsadlarida davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi bo'yicha "Milliy reyting" tizimini joriy etish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish tizimini takomillashtirish, mahalliy hokimiyat organlari, vazirlik va idoralarga rahbarlik lavozimlari uchun munosib nomzodlarni tayyorlash maqsadida Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat xizmatiga kirish, zaxirani shakllantirish,

baholash va xizmatni o'tash bilan bog'liq jarayonlarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi "Raqamli davlat xizmati" loyihasini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Yangi jamiyat o'z-o'zidan barpo bo'lmaydi, balki bu muayyan vaqt talab qiladigan muayyan jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda davlat boshqaruv kadrlarining salohiyatini oshirish bo'yicha innovatsion yechimlar kadrlar tayyorlashning muhim ekanligi, globallashuv va axborot zamonida ayniqsa yangicha fikrlaydigan, boshqaruvda innovatsion g'oyalarni amalga oshira oladigan, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga katta e'tibor qaratadigan boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ekanligini unutmasligimiz kerak.

Yangi O'zbekistonning rahbar kadrlarini tanlash, tarbiyalash va joy joyiga qo'yish uchun ushbu yo'nalishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini chuqur anglash, ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, boshqaruv tizimida uchrayotgan muammolarni zudlik bilan yechishning samarali yo'llarini izlab topish, qarorlar qabul qilishda rahbardan mohirlik, katta hayotiy tajriba va donolik talab etiladi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlash bugungi davrning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu vazifalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekanmiz, mamlakatimizni dunyoning eng ilg'or va yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqishdek ezgu maqsad sari yo'naltirilayotgan bu muhim jarayon barcha boshqaruv kadrlarini tasavvuri va tafakkurini o'zgartirishga, rahbarlarimizda yangicha dunyoqarashni shakllantirishga tinimsiz harakat qilish talab etiladi.

Boshqaruv kadrlari uchun eng muhim fazilatlaridan biri bu vaziyatni to'g'ri baholay olish, kelajakni oldindan ko'ra bilish va uzoqni ko'ra olishdir. Ushbu muhim fazilat orqali tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillarini ajrata olish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilgan holda aniq qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Rahbarlik ilmi, rahbar ma'naviyati, rahbar fazilatlar kabi so'zlarda salobat, siyosat, ma'rifat va ulug'vorlik bor. Shuning uchun bu so'zlarni biz boshqacha, alohida hurmat bilan idrok qilamiz. Chunki biz tarixda ma'rifat mash'alini ko'targan, birinchi va ikkinchi Renessans, jahon sivilizatsiyasiga eng ko'p hissa qo'shgan buyuk avlod vakillarimiz deb g'ururlanib doimo mag'rur yuramiz. Bu tarixiy taraqqiyot, tamaddunni esa buyuk rahbarlarimiz, samarali milliy boshqaruv tizimi, o'sha davrning davlat xizmatchilari barpo qilgani hech kimga sir emas. Insoniyat tarixida ana shunday muayyan davrlarda bu kabi g'oyalar o'ziga xos uyg'onish davri, ya'ni birinchi va ikkinchi Renessanslar vujudga kelishini ta'minlagan islohotlarning ijobiy natijalari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bundan yetti asr muqaddam sohibqiron Amir Temur bobomiz mahobatli va muhtasham Oqsaroy peshtoqiga "Qudratimizga shubha qilganlar, biz qurgan imoratlariga boqsunlar", deb yozdirib qo'rganlar. Albatta bu fikrdan davlatning nechog'lik qudratli bo'lib turishini anglashimiz mumkin. Ayni vaqtda bu iboradagi "qudrat" so'zining tub zamirida boshqaruv mahorati, rahbarlik, davlat xizmatining qanchalik yuksak darajaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, buyuk bobokalonimiz Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobida boshqaruv kadrlarini, ya'ni rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish borasidagi qimmatli fikrlarini keltirishni ayni muddao deb bildim. "Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asillik va toza nasllik, ikkinchisi – aql, farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi qilib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, siph va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz – ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilsin" deb ta'kidlaganlar [8:106]. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, bu borada davlat va jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda har bir rahbar tafakkurining yangilanishi, mentalitetimizning zamonaviylashuvi, boshqaruv kadrlarining ongi va tafakkurida islohotlarga munosabatida o'zgarishlar ro'y berishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Bu kabi o'zgarish va yangilanishlar, amalga oshirilayotgan islohotlarga har bir rahbar, boshqaruv kadrlarida daxldorlik tuyg'ularini shakllantirish, insonlar taqdiriga befarq bo'lmaslik, xalq bilan hamnafas bo'lib yashash, fuqarolarimizning davlatimiz rahbari tomonidan olib borayotgan odilona, xalqchil siyosatiga, ushbu jarayonlarga nisbatan ijobiy fikrlar uyg'onishida mas'uliyatini yurakdan his qilishi lozim. Yana shu asarga murojaat qilmoqchiman: "Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga solib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi.

...Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagani kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti past, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qulaydi" – deya purma'mano fikrlarni yozib qoldirgan [8:107]. Bundan xulosa qilish mumkinki, har bir rahbar kadrda xalqimizning boshqaruv masalasida asrlar mobaynida sayqallanib kelgan bu kabi an'analari va madaniyatini aks ettiruvchi, boshqarishning o'ziga xos noyob shakli va o'ziga mos boshqarish tajribasi zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashib borishi lozimligini ko'rsatib turibdi. Bu esa, o'z navbatida, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning tizimliliigi va izchilligi, bu yo'nalishdagi serqirra faoliyat shakllari va ularning mazmun-mohiyati bir-biri bilan uzviy bog'liqligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining ortida buyuk ajdodlarimizning rahbarlik mahorati, ilmi, an'analari ko'z o'ngimizda namoyon bo'layotgani fikrimizning amaliy ifodasidir. Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshladi. O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Bu esa Uchinchi Renessans sari yo'lga chiqqan, Yangi O'zbekistonda yaratayotgan xalqimizning nurlil kelajagidan dalolat beradi. Aslida davlat va jamiyat boshqaruvi rivojining yangi bosqichga ko'tarilishini belgilab beradigan omillar va tamoyillari - barcha sohalardagi olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini ifodalaydigan, jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarning yaxlit tizim sifatida yangilanishi, dinamikasi va o'zgarishlar jarayonidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruvi tizimining samadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, boshqaruv ilmi, rahbarshunoslikning ilmiy asoslarini buyuk bobokolonlarimiz asoslab, o'zlarining tarixiy asarlarida dasturilamal sifatida tarixga muhrlab ketganlar. Rahbar kadrda zamonaviy bilimlar, AT kompetensiyalari bo'lsayu, yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar bo'lmasa nima bo'lishligi, qanday oqibatlarga olib kelishi aniq ravshan qilib ko'rsatib berilgan. Faqat ilmning o'zi boshqaruv kadrlarining mukammal faoliyat yuritishi uchun asos bo'la olmasligini ko'rsatib turibdi. Bu haqda mutafakkirlardan biri D.Fonvizin: "Ma'rifat odamni fazilatli

qiladi, ilm yomon odamning qo'lida yovuzlik quroliga aylanadi", degan o'rinni fikrni ilgari surgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, xulqida, fe'lida, niyatida nuqsanli kishi bilimli bo'lsa, bunday kishining bilimidan davlat va jamiyatga, jamiyat ma'naviy hayotiga va boshqa sohalarga yovuz illatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun milliy rahbarshunosligimizda avval tarbiyalab, keyin bilim ber, degan tamoyil ustuvor bo'lgani ma'qul deb hisoblaymiz. Bir so'z bilan aytganda, bu boshqaruv kadrlarining har biridan yangicha tafakkur uslublari asosida ish yuritish va zamonaviy dunyoqarash tamoyillarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini taqozo etmoqda.

O'ta muhim bir muammoga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Rahbar kadr bilimli bo'lsa bo'ldi, degan tasavvur va qarash mutlaqo noto'g'ri. Albatta, rahbar kadrlarning bilimli bo'lishi talab etiladi, shu bilan birga uning alohida ma'naviy fazilatlariga e'tibor qaratish o'ta muhim masalalardan biridir. Aslida rahbar kadr ma'naviyatiga e'tiborsizlik xalq davlat idoralari xizmat qilishi kerak, degan to'ralarcha, texnokratik illatni urfga aylantirdi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak degan g'oya har bir rahbarning asosiy qoidasi bo'lishi lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Har bir sohaning ilmi bor" – degan oliyanob fikrni ilgari suradilar. Ana shu fikr bilan moziyga nazar solsak, rahbarshunoslikning boy tarixini ko'ramiz. Milliy davlatchiligimiz o'z tarixida ko'plab muammolar, balaqazolarga duch keldi. Aynan bugungi kunda ilmga asoslangan boshqaruv tizimi va uning o'ziga xos tamoyillari shakllantirishni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

Xorij tajribasidan bizga yaxshi ma'lumki, jahonning rivojlangan davlatlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak, qayerda, qachon rahbar kadrlar salohiyati, fazilatleri ochiq va ilmiy asosda ta'minlangan bo'lsa, o'sha joyda natijalar yuksak bo'lgan. Xalq uzoq va mashaqqatli yo'lga bosib o'tishga o'zida burch, kuch, metin iroda topa olgan. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" – bugungi taraqqiyot bosqichini, hozirgi kundagi ustuvor yo'nalishlar va vazifalarning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, tafakkurni o'zgartirish, ana shu orqali islohotlarning tub mohiyatini tushunish, har bir rahbar va boshqaruv kadrlaridan ana shunday yangi fazilatlarini talab qilmoqda. Tafakkur o'zgarishi jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan barcha sohalarni isloh qilish va ularni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayon ekanligini tushunish, anglash muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasidagi islohotlarning zamirida ham aynan ana shunday maqsad ustuvorlik kasb etmoqda. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va yangilanishlardan ko'zlangan asosiy maqsad muddao ham ta'lim dasturlarida paradigmani o'zgartirish vaqti kelganligini ko'rsatmoqda. Bundan shuni anglash kerakki, provayderga yo'naltirilgan dasturlardan aniq mutaxassislariga yo'naltirilgan, moslashtirilgan dasturlarga, nazariyaga asoslangan dasturlardan tortib, ishtirokchi yoki tajriba asosida o'qitishni o'z ichiga olgan dasturlarning barcha barchasini tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti keldi. Bugun oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy rivojlantirish, berilayotgan nazariy bilim bilan amaliyotni integratsiya qilish ta'lim sifatini tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda.

Ta'limni yaxshilash uchun bizga innovatsiyalar kerak, shuning uchun bilimlarni yetkazib berishda realikka asoslangan holda amaliyotdagi muammoni aniqlashdan to muammoni hal qilishga qaratilgan o'quv dasturilarigacha bo'lgan jarayonni tizimli yo'lga qo'yish vaqti keldi. Biz ta'limni oddiy baholashdan, ta'lim natijalarini baholashga o'tishimiz kerak. Biz, shuningdek, ehtiyojlarni aniqlashdan

tortib, qo'llashgacha bo'lgan doimiy baholashni amalga oshirishimiz lozim. Xo'sh, boshqaruv kadrlarini tayyorlashni rivojlantirishning kelajakdagi yo'nalishlari qanday bo'lishi kerak?, degan o'rinni savol tug'iladi. Avvalo, biz o'qitishni xarajat deb emas, balki kelajakka investitsiya, ya'ni sarmoya sifatida qabul qilishimiz kerakligini tan olishimiz kerak. Boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirish, zarur hollarda rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlash uchun rivojlangan mamlakatlarda sohasi bo'yicha tajriba almashish huquqidir.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda jamiyatimizda va davlat boshqaruvida dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri baholay oladigan, chuqur tahlil qila oladigan, zamon bilan hamnafas boshqaruv kadrlarini tayyorlashga ehtiyoj mavjud. Bularni amalga oshirish uchun ta'lim muhitini yaxshilashimiz kerak. Bugun jamiyatga eng yaxshi o'qituvchilar, eng yaxshi fan dasturlari va eng yaxshi xalqaro talablarga javob beradigan jihozlar kerak. Ta'lim

natijalari oliy ta'lim muassasalarining o'z mahsulotlarini, ya'ni har bir bitiruvchisini ishga joylashtirish yoki rag'batlantirish uchun ishlatilishi kerak. Ta'lim muassasalari faoliyatida innovatsiya bo'lishi shart. Bunga birgina misol keltirishimiz mumkin. Masalan, har bir ta'lim muassasasi rahbari ochiq, tanlov asosida ishga qabul qilinishi, u islohot va yangilikka yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu bois, barcha sohalarida boshqaruv kadrlarini, xususan, oliy ta'lim muassasalarining asosiy boshqaruv kadrlari va xodimlarini ishga qabul qilishning ochiq tizimini ishlab chiqish zarur. Buning uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash yo'nalishidagi konsepsiya va amaliy hayot bilan bog'langan dasturlarni ishlab chiqishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shunday murakkab va mas'uliyatli vazifalarni bajarishda ushbu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim. Bu esa, jamiyat hayotining barcha sohalarida faoliyat olib borayotgan rahbar kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 y., 4-son, 26-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti ham yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: "O'zbekiston", 2020.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: "Yangi asr avlodi", 2016.
6. Akhmedov X. (2020). Education and spiritual education. The Light of Islam, 139-144.
7. Axmedov X. (2021). Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash asoslari. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
8. Temur tuzuklari. – Toshkent, "O'zbekiston". 2019. – 184 b.
9. Qodiriy A. O'tkan kunlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2017.



УДК: 37.02

Malohat AXMEDOVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, p.f.d.
Pedagogika kafedrası mudiri
E-mail: axmedovamaloxat1924@gmail.com

F.f.d O‘.Tilovov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL, LINGUODIDACTIC NEEDS OF IMPROVING STUDY TASKS FOR LINGUISTIC SCIENCES IN THE CREDIT MODULE SYSTEM.

Annotation

The current state and prospects for the transition to a credit-modular system for the development of oral competence of students of higher philological education, the principles of a credit-modular system of universities based on advanced foreign experience, recognition of learning outcomes. Substantiated are academic mobility, the accumulation of grades, the interest of teachers and students in science, as well as the introduction of a well-defined assessment system.

Key words: credit module, trajectory, academic mobility, innovation, electronic resource, speech.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОТРЕБНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПО ЛИНГВИСТИЧЕСКИМ НАУКАМ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ.

Аннотация

Современное состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему развития устной компетенции студентов высшего филологического образования, принципы кредитно-модульной системы вузов на основе передового зарубежного опыта, признания результатов обучения. Обоснована академическая мобильность, накопление оценок, заинтересованность преподавателей и студентов в науке, а также введение четко определенной системы оценивания.

Ключевые слова: кредитный модуль, траектория, академическая мобильность, инновации, электронный ресурс, речевая компетентность.

KREDIT MODUL TIZIMIDA OTMDA TILSHUNOSLIK FANLARI UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK, LINGVODIDAKTIK ZARURIYATLARI.

Annotatsiya

Filologik ta‘limda talabalarning mustaqil o‘quv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o‘tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta‘lim muassasalarini ilgg‘or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta‘lim oluvchi, ta‘lim natijalarini tan olinishi. Ta‘lim trayektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to‘planib borilishi, professor-o‘qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul, trayektoriya, akademik mobillik, innovatsiya, elektron resurs, nutqiy kompetensiya.

Kirish. Jahonda globallashuv va axborotlashish jarayonlari, innovatsion ta‘lim muhitida yuzaga keladigan mustaqil ta‘lim topshiriqlarida, pedagogik-metodik o‘zgarishlar kiritishni taqozo etib, bu borada modul-kredit tizimida o‘qitishning ahamiyati ortib bormoqda. Modul-kredit tizimi o‘qitish amaliyotida gibril ta‘limda tilshunoslik fanlarini o‘qitish hamda lingvodidaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari OTMlar kesimida o‘rganilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi, ta‘lim jarayonida mustaqil ta‘lim topshiriqlari hamda o‘quv topshiriq ishlarni tashkil qilish tizimi (nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education) til o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan oliy ta‘lim muassasalarida nutqiy kompetensiyalarining rivojlantirish darajasini oshirib borish zarurligini ko‘rsatadi. Zero modul-kredit ta‘limida mustaqil ta‘lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o‘rinni egallaydi.

Respublikamizda oliy ta‘lim pedagogikasida modul-kreditni keng joriy etish, yangi Renesans pedagogikasi sharoitida talabalarni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tilshunoslik fanlari, ona tili o‘qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida

lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko‘zda tutilmoqda. Ona tili ta‘lim mazmunini o‘rganishga qo‘yilgan aniq malaka talablari asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o‘qish) va (yozish) ko‘nikmalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatib turibdi. Bu esa, modul-kredit ta‘limi sharoitida Ona tili o‘qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Modul-kredit tizimida o‘qitish, uni lingvodidaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish umumiy tamoyillari, til sistemasi va nutq masalasida dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui Skatkin M.N fanlarni o‘qitilishida muammoli o‘quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning o‘quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Dunyoda oliy ta‘lim tizimi talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan. Rivojlangan xorijiy tillarni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda o‘quv topshiriqlarining mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e‘tibor beriladi va ta‘lim jarayonida mustaqil ta‘lim topshiriqlaridan savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o‘quv topshiriqlari o‘zaro

muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

Oliy ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish jarayonlari kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Tilshunoslik fanlari, ona tili o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Ona til o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy qo'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda maktabga keladilar. Talabalarda ona tilidan (ular tining tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari ona tilda matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas'uliyatli vazifani, albatta, takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda filologik ta'limda ona tilidna o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Oliy filologik ta'limda modul-kredit tizimining joriy etilishi mustaqil ta'lim topshiriqlariga e'tibor kuchayishini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, o'qitish mazmunining tobora yangi g'oya va qarashlar bilan boyitib borayotganligi, yosh avlod intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi, ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularni ommaviy madaniyat ta'sirida himoyalash zaruriyatining yuzaga kelayotganligi umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijalariga ham bog'liq.

Ona tili ta'limida faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirishda pedagogik muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari asosida muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda mustaqil savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida mustaqil ta'lim topshiriqlarining ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

- muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar asosida motivatsiyani ta'minlash;

- har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

- muammoni hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati;

- talabalar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi.

Bularning barchasi mustaqil ta'lim topshiriqlari mazmuniga bog'liq, mustaqil talim topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner,

N. M. Skatkin larning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir.

Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv jadvali bo'yicha ishlash asosida talabalar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir.

Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi:

- tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv);

- reproduktiv;

- muammoli taqdimot;

- qisman-qidiruv (xuaristik);

- tadqiqot.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

- o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil etadi; talabalar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar.

Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar.) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin.

O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z talabalarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning mustaqil ta'lim topshiriqlari va mustaqil o'quv topshiriqlarini faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – mustaqil topshiriqlardir N.M. Skatkin.

An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

- o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; talabalar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar.

G'ulomov A., Ne'matov H. ning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi va unda topshiriqlar berish uchun birdek ahamiyatli: "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tili ta'limidan foydali bilimlar deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan (Boshlang'ich ta'lim sport tarbiyaviy ish (5141600), filologiya (5220100), pedagogika institutlarining ona tili va adabiyoti (5141300) bakalavriyat ta'lim O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamraevlar tomonidan nashr etilgan "Ona tili didaktikasi" darsligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Darslikdagi mashqlarga e'tibor qilamiz. "Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lim, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ulami nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz. Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi".

Shu ma'noda savol va topshiriqlarni ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qolishidir. Ko'rinib turibdiki ona tili ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali muammoli ta'limga yo'l ochib berildi. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi talabalar esa ishtirokchilar emas, balki

kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Ona tili ta'limida qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

– bilim talabalarga “tayyor” shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak;

– o'qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar asosida yangi bilimlarni izlanadi;

– o'qituvchi rahbarligida talabalar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo'lgan bilish muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar.

Tahlil va natijalar. Mustaqil ta'lim topshiriqlari oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy ta'limda mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud o'quv predmetlarning mavzu va yo'nalishidan kelib chiqib, oliy ta'limdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini mazmun jihatidan 3 ga ajratish mumkin:

1. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” fani bo'yicha tuziladigan mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari.

2. “O'zbek tili” fani bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari.

3. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” fani bo'yicha tuziladigan mustaqil ta'lim topshiriqlar.

Bu o'rinda filologiya va o'zbek tillarni o'qitish yo'nalishlarida o'qitiladigan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” va boshqa mutaxassislik fanlari mazmuni tilshunoslik ilmi asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Mavjud darsliklardagi mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari ma'lumotlarni yodlab, keyin yana qayta aytib berishga izlanuvchanlikka mo'ljallangan.

Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning yechimi guruhda dars mobaynida aniqlanadi;

– bilim o'quvchilar bilan bo'lishilmaydi. O'quvchilar muammoni o'rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingan javoblarning turli shakllarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham talabalar tomonidan belgilanadi;

– o'qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini tezkor boshqarish;

– ta'lim jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o'qitishga qiziqish ortadi va olingan bilimlar chuqur farqlanadi.

Xulosa va takliflar. Mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari umumiy ta'limdan tortib, oliy ta'lim darsliklarigacha bo'lgan asosiy qismini tashkil qilar ekan, berilayotgan mustaqil topshiriq ijodiy izlanuvchanlikka va mantiqiy fikrlashga undaydi.

Darslik masalasiga ham qisman to'xtalish lozim. Ta'lim mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan.

Darslik o'quv jarayonida talabalarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

– talabalarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyok uyg'otadi;

– talabaga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari asosida bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;

– dars mashg'ulotining borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, OTM bilan umumiy o'rta ta'lim darsliklarida berilgan topshiriqlar bir-biriga juda yaqin, mustaqil ta'lim topshiriqlari hamda umumiy topshiriq tuzish metodikasini o'zida to'laqonli aks ettirmaydi, ularning metodikasi mualliflarning shaxsiy salohiyatiga bog'liq bo'lib qolgan, ammo davr talabi bilan mukammal tadrijiy metodika kasb etib bormoqda. Bu esa darsliklarda beriladigan ta'limda OTM metodikasi va lingvodidaktik asoslari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqozo etadi. Bir so'z bilan aytganda zamonaviy darslik, innovatsion mediatexnologiyalar asosida ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar innovatsion mediatexnologiyaga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari oliy ta'limning zamonaviy darsliklarga mos bo'lish uchun ular takomillashtirilishi kerak. Chunki oliy ta'lim tizimining “Hozirgi o'zbek adabiy tili”, “O'zbek tili” darsliklarida ham, savol, mashq va topshiriqlar sifatiga, uning zamon talablariga qay darajada mosligiga e'tibor qaratilmaydi. Bu holat o'zbek tilining talabalar – bo'lajak tilshunos mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. To'xliiev B, Inog'omova R, Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – T.: TDPU.2008. – 51 b.
2. Axmedova M.E. (hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik– T.: TDPU 2012. b.(302)
3. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики.-М.: Педагогика. 1984.- 96с.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. O'qituvchilar uchun metodik ko'llanma. – T.: O'qituvchi. 1996. 9-b.
5. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T., 2010. – 184 b.
6. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamrayev A. “Ona tili didaktikasi” – T., Darslik. – T.: Yangi asr avlodi.
7. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N, Karimjonova V., Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.: TGPI, 1991. T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.
8. Axmedova M.E. Pedagogika. Drsluk. T. Tibbiyot nashriyot matbaa uyi MCHJ 2022. – 209 b.
9. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002
10. Лернер. И.Я. Дидактические основы методов обучения. Текст. –М.: 1981.- 186 с.



UDK: 372.881.111.1

Ug'iljon AXMEDOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktranti
E-mail:ugiljonakhmedova16@gmail.com

TTAUF falsafa doktori, PhD Babadjanova U.B taqrizi asosida

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY THROUGH PROJECT BASED IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract

In this article the effectiveness of the project based learning in the development of students' creativity in the educational process is widely covered. Also, the features of this technology to develop students' XX st century skills, such as critical thinking, collaboration and communication skills, have been extensively discussed.

Key words: project based learning, problem-based learning, creativity, critical thinking, cooperation, communication, inquiry, presentation.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В данной статье широко освещена эффективность проектной технологии в развитии творчества учащихся в образовательном процессе. Кроме того, широко обсуждались особенности этой технологии для развития у учащихся навыков XX века, таких как критическое мышление, сотрудничество и коммуникативные навыки.

Ключевые слова: проектная технология, проблемное обучение, креативность, критическое мышление, сотрудничество, общение, запрос, презентация.

TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda loyiha texnologiyasining samaradorlik jihatlari keng yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu texnologiya orqali talabalarning XX-asr ko'nikmalari bo'lmish tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlariga ham keng to'xtalib o'tilgan.

Key words: loyiha texnologiyasi, muammoli ta'lim, kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muloqot, so'rov, taqdimot.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasida respublikamiz ta'lim tizimidagi muammo va kamchiliklarga to'xtalar ekan, u bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarurligi haqida to'xtalib o'tdi. Ayniqsa, o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur ekanligini qattiq ta'kidlab o'tdi[1]. Mamlakatimiz ta'lim tizimining taraqqiyotini ta'minlash, modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to'liq moslashtirishga ko'maklashuvchi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va asosiy kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kelajakda yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ularda kasbiy faoliyatga nisbatan kreativ yondashuvini rivojlantirishdan iboratdir.

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmalardan biridir. Bu qobiliyat ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan XXI asr ko'nikmalariga ega kadrlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi talaba kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarida ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda o'quv jarayonini loyihalash, o'qitish jarayoniga turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish kabi masalalar A.Abduqodirov, N. M.Aminov, A.Azizxodjayeva, M.Yusupova va boshqalarning ishlarida yoritilgan bo'lsa, xorijlik olimlardan J.Dyu, J.Kraus, S.Boss, J.Robert, N. Rodrigues, V.Zaytsev, E.Polat loyiha texnologiyasi va undan ingliz tilini o'qitishda foydalanishning samarali jihatlari ustida ilmiy ish olib borganlar. Yuqoridagi olimlarning ishlarini o'rganish asosida ta'lim jarayonlarini loyihalash mazkur jarayon funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Loyihaga asoslangan ta'lim – bu o'quvchilarga yo'naltirilgan pedagogika bo'lib, u o'quvchilarni real muammoni aniqlash va yechimni topish uchun amaliy o'rganishga undaydigan ta'lim texnologiyasidir.


Amerika Qo'shma Shtatlarining Kingslend universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, loyihaga asoslangan ta'lim orqali kontent bilimlarni o'rganish bilan chuqurroq aloqani qanday o'rnatish mumkinligi qayd etildi. Jeyn Pierto o'zining "21-asr ko'nikmalari uchun ijod" asarida ijodiy odamlar ega bo'lishi shart bo'lgan beshta asosiy munosabatni aniqladi. Bular:

1. kelajakka maqsad qo'yish;
2. tajribaga ochiqlik;
3. tavakkal qilish;

4. noaniqlikka tolerantlik;
5. guruh ishonchi.

Ushbu munosabatlarni chuqur o'rganib chiqadigan bo'lsak, bularni rivojlantirish zamirida loyihaga asoslangan ta'lim yotganini ko'ramiz. Qisqacha qilib aytganda, loyihaga asoslangan ta'lim barcha yoshdagilar uchun qo'llaniladigan o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogikadir. Bu o'quvchilarni haqiqiy munosabatlar bilan haqiqiy muammoni aniqlash va yechimini topish uchun amaliy loyihada qatnashishni o'z ichiga oladi[4].

Loyihaga asoslangan ta'limda yakuniy mahsulot(vazifa) tayyorlashda so'rov jarayoniga e'tibor beriladi. Talabalarining qiziqishlari, oldingi tajribalari va kognitiv bilimlari, yaxshi tuzilgan loyihalar ularni uzoq vaqt davomida mavzuni chuqur o'rganish bo'yicha hamkorlikda ishlashga undaydi.



Loyihaga asoslangan ta'lim, shuningdek, jamoaviy ish va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi va o'quvchilarni tahlil qilish, sintez qilish, asoslash, baholash va yaratishda ishtirok etishi uchun yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi[8].

Bunday loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar, shuningdek, Piertonning o'z-o'zini tarbiyalash, tajribaga ochiqlik, tavakkalchilik, aniqlikka bag'rikenglik va guruhga bo'lgan ishonch kabi asosiy munosabatlarini namoyish etishlari kerak.

Demak, loyiha asosidagi ta'lim real dunyo mavzularini chuqur o'rganishni, haqiqiy ob'yektlarni manipulyatsiya qilishni, haftalar yoki oylar davomida amalga oshiriladigan loyihalar orqali faol o'rganishni o'z ichiga oladi va bunga mutaxassislarni so'roq qilish, kuzatishlar o'tkazish, aloqalarni o'rnatish va o'rganishni namoyish etish orqali erishiladi.

Loyihaga texnologiyasi o'rganish uchun universal dizayn tamoyillarini o'z ichiga oladi. Bu o'qituvchilarga barcha o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv faoliyatini rejalashtirishga yordam beradigan asosni ta'minlaydi.

Ushbu tamoyillar barcha talabalar tomonidan turli xil ma'lumotlarni taqdim etish vositalari, ko'plab harakat va ifoda vositalari orqali aloqa o'rnatishga imkon beradigan ko'plab tasvirlash vositalarini o'z ichiga oladi. Bunda talabalar o'zlari qiziqqan haqiqiy hayot muammolariga oid mavzular, g'oyalar va ma'lumotlarni tanlashlari mumkin, shuningdek, ularni qanday tashkil etish, ko'rsatish va o'zlari tanlagan auditoriya uchun qanday taqdim etishlari va jalb qilishning ko'plab vositalarini ishlab chiqadilar.

Loyiha texnologiyasi asosida ishlash jarayonida shaxsiy aloqadorlik va sub'yektivlik muhimdir. Talabalar o'z jamoasi va ular foydalanadigan texnologiya bilan shug'ullanadi va motivatsiya oladi. Kelajakda kengaytirilgan loyihalarni o'z ichiga olgan va o'quvchilarni sirdan chuqur o'rganishga o'tish uchun zarur bo'lgan munosabatni rivojlantiradigan o'quv faoliyatini takomillashtirish haqida o'ylashlari mumkin bo'ladi.

Loyihaga asoslangan ta'limning quyida loyiha ishlarini tashkillashtirish jarayonidagi asosiy 6 ta bosqichlari mavjuddir:

Bunga talabalar o'z natijalarini boshqalar bilan tushunarli tarzda baham ko'rishlari va o'quvchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos keladigan bir qator muloqot strategiyalaridan foydalanishi kiradi. Loyihaga asoslangan ta'lim orqali talabalar so'rovnoma qilish jarayonida real hayotdagi haqiqiy mutaxassislar bilan bog'lanadilar.

Ushbu ta'lim turida o'quvchilarning tanlovi va talabaning ovozi ichki motivatsiyani yoqish, vakolatlilik tuyg'usini rivojlantirish va o'quvchilarni o'z kemasining kapitanlari sifatida gavdalanirishda muhim elementlardir. Loyihaga asoslangan ta'lim chuqur o'rganish ko'nikmalariga e'tibor qaratadi. Quyidagi jadvalda biz loyiha texnologiyasi orqali talabalarda rivojlanadigan ko'nikmalarni muhimlik darajasi bo'yicha tushuntirishga harakat qildik:

1-jadval

1. Talabalar haqiqiy tarzda taqdim etilgan real muammo bilan ishlaydilar;
2. Mavzuni o'rganish "katta savol" bilan boshlanadi va haftalar yoki oylar davom etadi;
3. O'quvchilar ekspertlar yoki olimlar bilan bog'lanadilar;
4. Yakuniy mahsulot bo'yicha so'rov jarayoniga urg'u beriladi;
5. Hamkorlikda o'rganish, jamoada ishlash va ijobiy-ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud;
6. Talabalar o'z xulosalarini boshqalarga tushunarli tarzda taqdim etadilar.

Tahlil va natijalar. Quyida loyihaga asoslangan ta'lim tarafdorlari tomonidan ishlab chiqilgan mashhur argument turlari va ularni ushbu ta'lim texnologiyasi qay tarzda samarali ishlash imkonini berishi haqidagi tushunchalarni keltirib o'tamiz:

- Loyiha asosida o'qitish o'quvchilarga o'zlari o'rganadigan tushunchalar va bilimlarni yanada "integratsiyalashgan" holda tushunish imkonini beradi, shu bilan birga ularni butun hayoti davomida qo'llashi mumkin bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan jihozlaydi. Loyihaga asoslangan ta'limning fanlararo tabiati o'quvchilarga, masalan, matematika va shunga o'xshash fanlarni umumiy jihatlarini kam bo'lgan diskret fanlar sifatida qabul qilishdan ko'ra, turli fanlar bo'yicha aloqa o'rnatishga yordam beradi[5].

- Loyihaga asoslangan ta'lim real vaziyatlarni aks ettirgani uchun, talabalar ko'proq umumta'lim maktablaridan ko'ra oliy ta'lim tizimida ko'proq duch keladilar va kelajakdagi egallaydigan kasb uchun kuchliroq va mosroq tayyorgarlikni ta'minlaydi. Talaba nafaqat muhim bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki ular murakkab masalalarni tadqiq qilishni, muammolarni hal qilishni, rejalar ishlab chiqishni, vaqtni boshqarishni, o'z ishini tashkil qilishni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni, qiyinchiliklarga chidash va ularni yengib o'tishni o'rganadilar.

- Loyiha asosidagi ta'lim bugungi kun talabalarining eng samarali o'rganish usullarini aks ettiradi. Bu talabalarining o'quv faoliyatidagi faolligini oshirishi, o'qitilayotgan fanga qiziqishini orttirishini, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini

kuchaytirishi va o'rganish tajribasini yanada dolzarb va mazmunli qilishi mumkin.

• Loyihaga asoslangan ta'lim o'qitishga nisbatan moslashuvchan yondashuvni ifodalaganligi sababli, u o'qituvchilarga turli xil qiziqishlari, intilishlari, o'rganish uslublari, qobiliyatleri va shaxsiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha talabalar uchun bir xil topshiriq va loyihalarni moslashtirish imkonini beradi.

• Loyihaga asoslangan ta'lim o'qituvchilar va talabalarga bir vaqtning o'zida bir nechta ta'lim standartlariga murojaat qilish imkonini beradi. Talabalar faqat matematika darslarida matematika standartlari va tabiatshunoslik darslarida fan standartlariga javob berish o'rniga, bitta loyiha yoki bir nechta loyihalar ustida ishlayotganda turli standartlar bo'yicha malakasini namoyish qilish uchun bosqichmas-bosqich ishlashlari mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Har qanday o'quv amaliyotida bo'lgani kabi, loyiha texnologiyasida ham talabalar aniq maqsadlarga ega bo'lishlari va fan mazmuni bilan bog'liqligini his qilishlari kerak. Nega men buni o'rganyapman va bu ko'nikmalarni hayotda qanday ishlatishim mumkin? kabi savollarga javob olishlari shartdir. Bu jarayonda talabalar muammolarni hal qila olishlari, topshiriqni bajarishda motivatsiyani his qilishlari va muvaffaqiyatga erishish uchun bir-biri bilan ishlashlari kerak. Loyihaga asoslangan ta'lim haqiqiy dunyo muammolarini aniqlash va yechim topishga asoslanadi. Kerakli vazifalarni bajarayotganda, barcha talabalar o'rganishni yakunlashda yoki qayerda noto'g'ri bo'lganligi haqida xulosa chiqarishda teng

imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Bu tajribalar faqat bir turdagi o'quvchilarga to'g'ri kelmasdan, balki u tushunish va o'rganish uslublarining ko'p darajalarini kesib o'tadi. Loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanish har xil ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabalarga teng o'yin maydonida tengdoshlari bilan bir xil maqsad va ishtiyok bilan muloqot qilish imkonini beradi. Tengdoshlarining o'zlari tushunadigan va ehtimol qidiradigan ovozlarni eshitish juda muhim va o'quv jarayonida hal qiluvchi omildir. Buning uchun talabalar vositalar berilganda bir-birlarini yangi chegaralarga rag'batlantiradilar va undaydilar.

Blum taksonomiyasida ko'rsatilgan "yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar" loyiha va hamkorlikda o'qitish texnologiyasi tomonidan yaratilgan o'quv tajribalarini qamrab oladi. O'z tengdoshlarining o'rganish usullari va tajribalari bilan o'rtoqlashganda, talabaning ishtirok etish va loyiha ishlarining bajarish strategiyasining bir qismi bo'lish motivatsiyasi keskin oshadi. Turli xil darajadagi o'quvchilarni ushbu turdagi o'quv texnologiyalarida ishtirok etishlarini rag'batlantirish va ularga ruxsat berish, ularning ilm izlanishlari bilan to'la samarali o'quv jarayonida o'z tengdoshlari bilan yakdillikda faoliyat olib borishga yordam beradi.

Pedagog har kuni loyiha texnologiyasidan foydalanmasligi mumkin va barcha pedagoglar buni yaxshi tushunadi. Ammo loyiha texnologiyasidan to'g'ri vaqtda va to'g'ri muhitda foydalanilganda, uning tashabbusi uzoq yillar davomida o'rganishga zamin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.I.Mirziyoyevning Oliy majlisga 2023-yil uchun murojaatnomasi. Xalq so'zi 2022-yil 20-dekabr
2. Xotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R., Foziljonov I.S. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. -T.: "Iqtisodiyot", 2021 y. – 2- bet.
3. Abduqodirov A.A va boshq. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T.: Istedod jamg'armasi, 2008.-145 b
4. Aminov M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogic kompetentlik.(Elektron manba)/ tmetod.uz/wp-content/uploads/innovation-ta'lim
5. Azizxodjayeva A.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshent,2006.-146b.
6. Yusupova M.A. Bo'ljak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish tizimi ped. fan. bo'yicha falasafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya. Chichiq-2021,160-b
7. Dewey, J. (1997). *Democracy and education*. New York: Free Press
8. Jane Kraus& Suzie Boss Thinking trough project based learning, Guiding deeper Inquiry London, Crown press, p-197
9. Ronald.J. Newell Passion for Learning How Project-Based Learning Meets the Needs of 21st-Century Students Innovations in Education Series,No.3 Scarecrow Education Lanham, Maryland Toronto Oxford 2003
10. Nereida Rodrigues Project-based learning (PBL) in adult english as a second language (ESL) programs: students' perspectives, A dissertation submitted to the Graduate School in partial fulfillment of the requirements for the degree Doctor of Philosophy, New Mexico State University Las Cruces, New Mexico, December 2009, p-231
11. Zaytsev V.S. Метод проектов как современная технология обучения: историко-педагогический анализ// Вестник Челябинского государственного педагогического университета.2017.№ 6.с.52-62
12. Polat.E.S. Метод проектов на уроках английского языка. <http://cente/fio.ru/do/news.asp>.



UDK:37.013.75

Muzaffar G'OFIROV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
katta o'qituvchisi
E-mail:gofirov1982@mail.ru
Tel:93-072-04-32

QarMII dosenti: p.f.f.d. O'.N.Ibragimov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF GENERAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS ON THE BASIS OF MODULAR TRAINING

Annotation

In this article, the dialectics of modern social life makes new demands on the training of engineers. A modern specialist must not only possess a large amount of technical knowledge, be technically trained, capable of creative work, he must be methodologically competent, have a broad cultural outlook, be able to successfully manage complex socio-economic and political processes, a new system of social production, examples that must have social knowledge that fully realizes their professional knowledge and creative abilities.

Key words: engineer, general professional, module, pedagogical technology, teaching aids, integration, operating module, modular system, schemes, drawings, modular training, methodological direction, pedagogical functions, concept, mental environment, physical labor, engineering activity.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ, ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ОБЩЕЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА БАЗЕ МОДУЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация

В данной статье диалектика современной общественной жизни предъявляет новые требования к подготовке инженеров. Современный специалист должен не только обладать большим объемом технических знаний, быть технически подготовленным, способным к творческой работе, он должен быть методологически грамотным, иметь широкий культурный кругозор, уметь успешно управлять сложными социально-экономическими и политическими процессами, новая система общественного производства, примеры, которые должны иметь социальные знания, в полной мере реализующие их профессиональные знания и творческие способности.

Ключевые слова: инженер, общепрофессиональный, модуль, педагогическая технология, средства обучения, интеграция, операционный модуль, модульная система, схемы, чертежи, модульное обучение, методическое направление, педагогические функции, концепция, психическая среда, физический труд, инженерная деятельность.

BO'LAJAK MUHANDISLARNI UMUMKASBIY TAYYORGARLIGINI MODULLI O'QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI, TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy hayot dialektikasi muhandis tayyorlashga yangi talablarni qo'yishi. Zamonaviy mutaxassis nafaqat katta hajmdagi texnik bilimlarga ega bo'lishi, texnologik jihatdan yaxshi tayyorlangan, ijodiy ishlarga qodir bo'lishi kerakligi, u metodologik savodli, keng madaniy dunyoqarashga, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarishga imkon beradigan, ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi tizimiga mos keladigan, kasbiy bilimlari va ijodiy qobiliyatlarini to'liq anglaydigan ijtimoiy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'lgan masallar yoritilgan.

Kalit so'zlar: muhandis, umumkasbiy, modul, pedagogik texnologiya, ta'lim vositalari, integratsiya, operativ modul, modulli tizim, diagrammalar, chizmalar, modulli ta'lim, metodologik yo'nalish, pedagogik funksiyalar, konsepsiya, aqliy mehnay, jismoniy mehnat, muhandislik faoliyati.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarorlari hamda mana shu faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Bo'lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish nafaqat o'qitishning uzluksizligi, integratsiyasi nuqtai nazaridan, balki kengroq doirada ham ko'rib chiqilishi kerak. Bo'lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini muvaffaqiyatli rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar hozirgi kungacha yetarli darajada rivojlanmagan. Mustaqil

ta'lim soatlari 50% bo'lsada, lekin undan samarali foydalanilmayapti.

V.I.Zagvyazinskiyning takidlashicha bugungi kunda pedagogik texnologiya mavzusi umumiy shaklda aniq maqsadlarni belgilash, tizimlashtirish, o'qitish usullarini algoritmlashtirish asosida tashkil etilgan barcha faoliyat turlarida o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi amaliy o'zaro aloqalar sohasini qamrab oladigan bilim sohasi sifatida tavsiflanadi.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasini tadqiqotchilar ikki asosiy guruhga ajratadilar:

1. Pedagogik texnologiya-o'qitishning zamonaviy texnik vositalari majmuasidir.

2. Pedagogik texnologiya-muloqot jarayoni.

Bundan tashqari, pedagoglar ta'lim jarayonini "pedagogik texnologiya" tushunchasiga birlashtirgan.

Pedagogik texnologiyaning to'liq va kengaytirilgan ta'rifi AQSH pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan berilgan: "pedagogik texnologiya-bu muammolarni tahlil qilish va rejalashtirish, bilimlarni egallashning barcha jihatlarini qamrab olgan muammolarni hal qilish, baholash va boshqarish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish bo'yicha g'oyalar, vositalar va usullarni o'z ichiga olgan murakkab integral jarayon."

Maqsadlar va rejalashtirilgan natijalardan pedagogik texnologiyalarning mazmuniga o'tamiz. Shu nuqtai nazardan, "texnologiya-bu aniq mavzu mazmunidan qat'iy nazar, o'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quv ishlari usullarini birlashtiradigan strategiyalar tizimi" hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Modulli ta'lim texnologiyasi nazariyasi uzoq vaqtdan beri mavjud. Modulli o'qitish ta'limi sohasida qirqinchi yillarda boshlangan va o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan:

1. Modulli o'qitishning Mini kursi (D.Rassel, Richeson, S.Postlesvayt).
2. O'quv kursi (G.Ouen).
3. "Operativ modul" (Y.Prokopenko).
4. Modulli tizim (P.A.Yusyavichene).

AQSHda modulli ta'lim texnologiyasi 60-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan va oliy o'quv yurtlari va maktablarda keng tarqalgan. Yevropa pedagogikasida modulli ta'lim texnologiyasi 70-yillarning o'rtalaridan boshlab ishlab chiqilgan. A.K.Kosmodemyanskaya, V.P.Lapchinskaya, I.B.Marcinovsky, N.D.Nikandrov asarlarida modulli ta'limni shakllantirishning boshlang'ich davri hisoblanadi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlab boshlang'ich davrni o'rganish ishlari bilan birga g'arbiy Yevropa va AQSHDA kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida modulli o'qitish tadqiqotlari olib borilgan.

"Modulli ta'lim" atamasining ma'nosi "modul" so'zi bilan bog'liq bo'lib, (lotincha - modulus), ma'nolaridan biri funksional tugundur. Pedagogikada modul atamasi kompyuter fanidan kelib chiqqan bo'lib, u turli xil axborot tuzilmalariga qo'llaniladigan, ularning moslashuvchanligini, qayta tuzilishini ta'minlaydigan qurilishni anglatadi. "Pedagogikada moduldan ularning atributli xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish mazmunining asosiy birligini belgilash uchun foydalaniladi".

Modulli ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchasi: modul. Modul-bu ma'lum kasbiy (asosiy) kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturining nisbatan mustaqil va tugallangan birligidir.

G.V.Yarochkina S.A.Yefimova ma'lumotlariga ko'ra ta'limda modulli yondashuv xususiyatlarini quyidagi atamalarga qisqartirish mumkin:

1. Ta'lim mazmunining asosiy birligi yaxlitlikka, ma'lum ichki tuzilishga ega bo'lgan modul bo'lib, aniq o'quv maqsadlariga erishishga qaratilgan;
2. Modulli yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish faoliyat usullari va harakat usullarini ishlab chiqish uchun sharoit yaratishni talab qiladi, shu bilan birga o'quv mazmunini o'zlashtirish talabaga shunchaki ma'lumot uzatish orqali amalga oshirilmaydi;
3. Modulli o'qitishda moslashuvchan javob berish va aniq ta'lim sharoitlariga moslashish qobiliyati aniqlanadi: talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash;
4. Amaliyotda modulli yondashuvdan foydalanish ta'lim jarayonida hamkorlik tamoyilini amalga oshirishni ancha soddalashtiradi, o'qitishning turli xil faol usullaridan foydalanish, faoliyatni o'qituvchidan talabaga qayta taqsimlash aniq bo'ladi.

Modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, talaba katta yoki kichik mustaqillik darajasida unga o'quv modulida ko'rsatilgan o'quv materiallari bilan ishlaydi. "O'quv moduli-bu o'quv kursining umumiy mavzusiga yoki dolzarb ilmiy-

texnik muammoga bo'ysunadigan turli xil va o'qitish shakllarining integratsiyasidir".

V.S.Idiatullinning ma'lumotlariga ko'ra, bir necha yillar davomida nazoratning oltita shakli tasdiqlangan:

- mavzuiy modul,
- og'zaki va yozma imtihon savollari,
- umumlashtiruvchi vazifalar,
- nazorat kartalari,
- javobni tanlashni asoslagan holda yozma test shuni

ko'rsatdiki, ularning hech biri talabalarning butun kontingentini qamrab olmaydi.

Jamiyatda inson mustazam ravishda ishlashga, passiv yoki faol ravishda materialni chuqur o'zlashtirishi va nostandart vaziyatni tushunishga qodir va shunchaki bilimdon, ayniqsa hamma narsani tushuntirishga qodir bo'lishi kerak. Talaba tanlovining muqobil shaklida rejalashtirilgan imtihonni o'tkazish, birinchi navbatda uning qobiliyatlarini va boshqa omillarni o'z-o'zini baholashga tayanib, so'ngra tanlovni ikkalasini ham hisobga olish uchun o'qituvchiga topshirish juda maqbuldir. Muqobil imtihon tajribasi shuni ko'rsatdiki, talaba har doim ham tanlov muammosini o'zi hal qilishga tayyor emas, talabalarining muvofiqligi, o'ziga xos xususiyati muhim omil bo'lib, u o'zini namoyon qiladi. Muammoli imtihonning shakli talabalarga ixtiyoriy tanlov asosida odatdagi turdagi yakuniy imtihonga muqobil sifatida yoki akademik ko'rsatkichlarni joriy baholashga qo'shimcha sifatida taklif qilinadi.

Oliy ta'limda modulli tizimdan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam, materiallar empirik xarakterga ega. Mavjud bo'lgan ishlar modulni o'quv materialini tashkil etish bilan bog'lansdan, uni didaktik o'rganish birligi sifatida ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Modulli tamoyil asosida tashkil etilgan ta'lim tizimining natijasi sifatiga talablarni shakllantirish mumkin. Tizimning ishlash maqsadi (masalan, modulning didaktik maqsadi) u tizimga tashqi tomondan kiritiladi (modulli dasturni ishlab chiquvchi o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan) va shu daqiqada tizimning talaba komponenti uchun kvaziobekt vazifasini bajaradi. Kvazi-maqsadning faoliyat maqsadiga o'tishi talabaning uni o'z faoliyatining maqsadi sifatida tanlashi natijasida yuzaga keladi va kelajakda o'zi tanlagan va uning oldida turgan maqsad ushbu mavzuning harakatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Bu modulli ta'limni tashkil etish va amalga oshirishda o'qituvchining asosiy rolini yana bir bor isbotlaydi. Modulli texnologiya rejimida ishlash tajribasi modulli texnologiyaga mos keladigan ta'lim tizimi an'anaviy ta'limning ta'lim tizimiga mos kelishini ta'kidlashimizga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, modulli texnologiyalar yordamida o'qitiladigan fan bilan bir qatorda an'anaviy o'qitishga muvofiq fanlar o'qitilishi juda maqbuldir. Ko'rib chiqilayotgan pedagogik tizimni tahlil qilganda, biz asosan tizim tushunchasi bilan ma'lum bir yaxlitlik, ya'ni uning ma'lum bir muhitdagi xatti-harakatlari bilan shug'ullanamiz. Yuqoridagilarga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, modulli ta'lim tizimi moslashuvchidir.

Tizimning ajralmas komponentlaridan biri bu teskari aloqa. Modulli ta'lim tizimidagi fikr-mulohazalar talabalarining o'quv faoliyati natijalarini monitoring qilishdir. Bu asosiy element modulli dastur bo'lgan tizimda fikr-mulohazalarning juda samarali shakli, chunki chet elda modulli texnologiya bo'yicha ko'p yillik tajriba uning ishlashining barqarorligini namoyish etadi

Tahlil va natijalar. Zamonaviy pedagogikada modulli ta'lim "o'quv axboroti modullarga (nisbatan to'liq va mustaqil birliklar, axborot qismlari) bo'linadigan o'quv jarayonini tashkil etish deb ta'riflanadi. Bir nechta modullarning kombinatsiyasi ma'lum bir o'quv mavzusining mazmunini yoki hatto butun o'quv fanini ochib berishga imkon beradi.

A.F.Visotskiy, A.V.Smolnikov, I.V.Chelpanovlarning fikricha, modulli ta'lim texnologiyasi o'quv axborotlarini talaba va o'qituvchi uchun ko'rgazmali bo'lgan modul va o'quv elementlari ko'rinishida tizimlashtirishni ko'zda tutadi. Mashg'ulotlar aniq didaktik maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan alohida modullarga asoslanadi, bunda o'quv materialiga muvofiq har xil turdagi va o'qitish shakllari birlashtirilib, ko'zlangan maqsadga erishishga bo'ysundirilishi mumkin. Modulning o'quv materialini didaktik maqsadni hal etishda yagona yaxlitlik sifatida emas, balki alohida elementlardan tashkil topgan muayyan tuzilma sifatida qaraladi. Modulli texnologiya o'quv materialining bunday qurilishini nazarda tutadi, qachonki uning o'zgaruvchan qismining bo'limlari bir-biridan yetarlicha mustaqil bo'lishi mumkin va har bir bo'limning o'quv materialini tezda o'zgartirish, to'ldirish va rivojlantirishga imkon beradi. Modulli texnologiya yordamida maqsadlar faoliyatning muhim natijalari sifatida ishlaydi, ular talabalar tomonidan kognitiv va amaliy faoliyatning istiqbollari sifatida amalga oshiriladi.

Talabalarning mustaqil bilim faoliyatini kengaytirish va faollashtirishga, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, ongli va mas'uliyatli tanlov qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirish asosan yopiq ta'lim tizimidan tashqarida an'anaviy sinf tizimidan qisman chiqishni talab qiladi.

Shuning uchun o'quv jarayonini takomillashtirish varianti sifatida o'quv jarayonini modulli tashkil etish ko'rib chiqilishi mumkin, bu o'quv jarayonini ta'limning turli bosqichlarida o'ziga xos modullar tizimi sifatida loyihalashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar.

1. Modulli o'qitishning mazmuni modullarning tugallangan mustaqil majmualarida keltirilgan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida axborotlar banki va uni o'zlashtirish uchun uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

2. Chet el adabiyotlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiya sharoitida o'quv natijasi uchun xorijiy mualliflar tomonidan o'quv mazmunini tuzishga muhim ahamiyat beriladi.

3. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri ham mazmunli, ham kognitiv-operatsion birlik sifatida ishlaydigan modullar yordamida amalga oshiriladi.

4. Modulli texnologiya bo'yicha o'quv materialini rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish kerak: axborot materialining maqsadi; murakkab, integral va xususiy didaktik maqsadlarning kombinatsiyasi; modulning o'quv materialining to'liqligi; modul elementlarining nisbiy mustaqilligi; kirish va chiqishni boshqarish bilan fikr-mulohazalarni amalga oshirish; axborot va uslubiy materiallarning maqbul uzatilishi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. // – T.: 2020 y.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDP, 2003.
3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008.
4. Dustnazar Omonovich Khimmataliev, Jamshid Oktyamovich Khakimov, Shakhlo Sadullaevna Sharipova, Muzaffar Farmonovich Turaev, Muzaffar Jumaevich Gofirov, Zulfiya Qayumovna Murodova. (2021). Formation of Didactic Competence of Students as a Pedagogical Problem. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7552 – Retrieved from <https://www.annalsofscb.ro/index.php/journal/article/view/3409>
5. G'ofirov, M. J., Bolibekov S.S. o'g'li. (2022). Muhandislik yo'nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar. *International conferences*, 1(8), 78–82. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/137>
6. G'ofirov M.J., Shukurova S.A. qizi. (2022). Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak muhandislarining umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. *International conferences*, 1(8), 12–16 Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/121>
7. Гофи́ров М.Ж. Проблемы регулирования земельных реформ и земельных отношений в условиях рыночной экономики журнал Вестник науки <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-regulirovaniya-zemelnyh-reform-i-zemelnyh-otnosheniy-v-usloviyah-rynochnoy-ekonomiki>
8. G'ofirov MJ, JO Mirzayev Xatolar nazariyasi haqida umumiy ma'lumot 2022/1 *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1175-1177 OOO«Orientalrecessans» https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158_Gofirov_M.J.1175-1177.pdf2022
9. G'ofirov MJ, JO Mirzayev, AA Qurbonmurodov Yer tuzish va kadastr ishlari uchun geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish 2022 *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1178-1181 OOO «Oriental renessans» <https://cyberleninka.ru/article/n/yer-tuzish-va-kadastr-ishlari-uchun-geodezik-o-lchovlarni-matematik-qayta-ishlash-nazariyasi-va-amaliyotini-takomillashtirish>
10. Jumaevich Gofirov Muzaffar Integrated learning concept Online published on February,2021<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=1&article=188>



UDK:32.328

Furqat JO'RAQULOV,

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari,
siyosiy fanlari doktori, dotsent*

Siyos.f.d X.Axmedov taqrizi asosida

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMINI ISLOH ETISHNING DEMOKRATIK XUSUSIYATLARI VA MILLIY JIHATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada davlat boshqaruv tizimini isloh qilish hamda mahalliy davlat hokimiyati tizimini isloh etishning demokratik xususiyatlari va milliy jihatlari siyosiy taxlil qilingan.

Калит so'zlar: davlat boshqaruvi, demokratik boshqaruv, fuqarolik jamiyati, mahalliy hokimiyat, modernizatsiya, o'z-o'zini boshqarish.

ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ЧЕРТЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РЕФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ МЕСТНОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются демократические черты и национальные аспекты реформы системы государственного управления и реформы системы местного самоуправления.

Ключевые слова: государственное управление, демократическое управление, гражданское общество, местное самоуправление, модернизация, самоуправление

DEMOCRATIC FEATURES AND NATIONAL ASPECTS OF THE REFORM OF THE SYSTEM OF LOCAL STATE POWER

Annotation

In this article, the democratic features and national aspects of the reform of the state administration system and the reform of the local government system are analyzed.

Key words: public administration, democratic administration, civil society, local government, modernization, self-management.

Kirish. Hozirgi davrga kelib inson taraqqiyotiga erishish, uni ta'minlash, bu sohadagi maqsad va vazifalar nafaqat BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar, balki aksariyat mamlakatlar jamiyatlari va davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari darajasiga ko'tarilmoqda. BMTning 2001 yildagi "Inson taraqqiyoti haqidagi ma'ruza" sida quyidagi tushuncha e'lon qilingan edi: "Inson taraqqiyoti – bu insonlar o'z salohiyatini to'liq rivojlantira olish va o'z ehtiyojlari hamda manfaatlarini asosida samarali va ijodiy hayot kechira olishlari uchun muhit yaratishdir. Inson uchun tanlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun prinsipial muhim ahamiyat kasb etish, bu avvalambor, insonlar nima qila olishlari mumkinligi yoki ularning hayotda kim bo'la olishlaridir. Inson taraqqiyoti uchun eng asosiy sharoit uzoq umr ko'rish va sog'lom hayot kechirish, yaxshi axborot ogohliligiga erishish, munosib yashash uchun zaruriy vositalarga ega bo'lish, jamiyat hayotida ishtirok etishdir. Bularsiz aksariyat imkoniyatlardan foydalanib bo'lmaydi, ko'plab hayotiy istiqbollarga yetib bo'lmaydi"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'rinib turibdiki, inson taraqqiyotini amalga oshirish maqsadlarini bajarish davlat hokimiyatining faoliyati bilan ham uzviy ravishda bog'liqdir. Chunki har bir milliy davlatning asosiy maqsadi – xalq farovonligi ekanligiga e'tibor qaratsak, inson taraqqiyotini amalga oshirishda davlatning o'rni benihoya katta ekanligiga iqror bo'lamiz.

Shuningdek, davlat nodavlat va biznesga nisbatan katta resurslar va imkoniyatlarga ega bo'lib, u inson salohiyatining rivojlanishi uchun asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Uning birinchi navbatdagi vazifasi – bu nafaqat davlat budjetidan moliyalashtirish yo'li bilan, balki boshqa vositalar bilan ham inson taraqqiyoti dasturini amalga

oshirish uchun imkoniyatlar yaratish, bozorlar taraqqiyotini inson manfaatlarini asosida ta'minlashdir.

Bu vazifalar davlat boshqaruvi va muvofiqlashtiruvchi samarasini oshirish va uni takomillashtirish, o'zini o'zi boshqarishni insoniy taraqqiyotga ko'maklashish vakolatlarini oshirish vazifasi bilan ham mushtarakdir. Bu ma'noda, davlat boshqaruvi va o'zini o'zi boshqarish tizimini isloh etish BMT tomonidan ilgari surilgan ming yillik maqsadlarga erishish va inson taraqqiyoti dasturini amalga oshirishning umumiy sharti hamdir.

Davlat boshqaruvi sifatini oshirish insonni siyosiy va boshqaruv qarorlari qabul qilishga jalb etish, jamoatchilik nazoratini tashkil etish, bu jarayonni tahlil etib borish, uning xulosalarini boshqaruvni baholash sifatida qabul qilishni taqozo etadi. Shu tariqa inson nafaqat oxirgi maqsad, balki vosita sifatida, ya'ni uning bilimi, malakalari, ijtimoiy faolligi davlat boshqaruvining modernizatsiyalashgan holida muhim ahamiyat kasb etadi, bunda boshqaruv hamkorlikka, barcha tomonlarning ishtiroki va hamjihatligiga tayanadi.

Hozirgi davrga kelib rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, fuqarolik jamiyati qurgan mamlakatlarda davlat boshqaruvi isloh etishning quyidagi yo'nalishlari shakllandi:

1) ortiqcha ma'muriy aralashuvlarni kamaytirish maqsadida davlatning funksiyalarini optimallashtirish;

2) Davlat organlari faoliyatini jamiyat uchun zarur bo'lgan oxirgi natijalarga yo'naltirishni ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish;

3) ma'muriy boshqaruv jarayonlarni jamiyat ehtiyojlariga moslash, «inson manfaatlariga» muvofiqlashtirish;

4) boshqaruvni nomarkazlashtirish va dekonsentratsiyalash, uni insonga va uning lokal manfaatlariga yaqinlashtirish;

5) samarali jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ishtirokni amalga oshirish uchun ijro hokimiyati faoliyatidagi oshkoralikni ta'minlash;

6) Davlat xizmati institutini isloh etish, uning jamiyat oldidagi mas'ulligini oshirish;

7) elektron hukumatni shakllantirish[2].

Hozirgi davrdagi tushunchalarga muvofiq mahalliy hokimiyat – bu keng tarqalgan tasavvurlarga binoan – o'z majburiyatlari va vakolatlari bo'yicha bir daraja markaziy hokimiyatdan quyida turgan, mahalliy darajaga tegishli bo'lgan hokimiyatdir. Aksariyat mamlakatlarda u o'zini o'zi boshqarish hokimiyati ham deyiladi. Mahalliy hokimiyat organlari esa quyidagilardan iboratdir:

1) mahalliy hokimiyatlar – joylarda hokimiyatni amalga oshiradigan shaxs, organlar va muassasalar. Ko'pchilik kishilar o'z kundalik hayotida doimiy ravishda mahalliy hokimiyatlar bilan yuzma-yuz keladi;

2) o'zini o'zi boshqarish organlari – bu 1) o'z, ya'ni mahalliy kuchlar vositasida ichki boshqaruvni amalga oshirish huquqi; 2) milliy hududlar doirasida o'z qonunlari vositasida ichki boshqaruv ishlarini hal etish huquqi; 3) avtonomiya;

3) mahalliy o'zini o'zi boshqarish – aholining to'g'ridan-to'g'ri yoki tegishli organlar vositasida o'z manfaatlaridan kelib chiqib an'analar asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal qilishining mustaqil va mas'uliyatli faoliyati bo'lib, u Konstitutsiyada belgilab qo'yiladi. Bu organlar davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi.

Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekistonda davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirish maqsadlari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "...ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li – markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir"[3].

Ko'rinib turibdiki, mamlakat davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish yo'lidan og'ishmay ketmoqda. Bu jarayonlarga mamlakatni modernizatsiyalash islohotlarining tarkibiy qismi, deb qaralmoqda.

Albatta, inson taraqqiyoti g'oyasidan kelib chiqib Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa xartiyasi" (15 oktabr 1985 yil) qabul qilingan. Uning 3-moddasida quyidagi qoida aks etgan: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, deganda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zolaridan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobotlar berib boruvchi yoki ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'yg'an boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi"[4].

Albatta, o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirish natijasida mahalliy boshqaruvning asosiy bo'g'inlaridan biriga aylanib bormoqda. Nomarkazlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari XX

asrning 80-yillarida Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari, shuningdek, Yaponiya kabi mamlakatlarda boshlanib, bu sohada islohotlar hozir o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Qisqacha qilib aytganda, nomarkazlashtirish – bu:

birinchidan, nomarkazlashtirish – eng avvalo davlat boshqaruv tizimini isloh qilish bilan bog'liq hamda boshqaruvni erkinlashtirishga va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan uzoq davom etadigan jarayon;

ikkinchidan, nomarkazlashtirish – hokimiyat mahalliy organiga siyosiy hokimiyatni, ma'muriy funksiyalar va moliyaviy majburiyatlarni o'tkazish maqsadida markaziy hukumat bilan mahalliy hokimiyat organi o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish jarayoni;

uchinchidan, nomarkazlashtirish – davlat boshqaruvi mahalliy organlari tizimini bosqichma-bosqich qayta tashkil etish bilan bog'liq siyosiy jarayon bo'lib, uning pirovard maqsadi munitsipal tuzilmalar barpo etishdir.

Mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvi yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi natijasida mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini nomarkazlashtirish jarayoni o'zining dolzarb pallasiga kirdi. Mazkur qonunning "Viloyat, Toshkent shahar hokimini tayinlash va tasdiqlash tartibi"ga doir 6-moddasida keltirilgan quyidagi qoidadan kelib chiqib mahalliy vakillik organlariga ijroiya hokimiyati ustidan nazorat qilish va ularni shakllantirishda faol ishtirok etish vakolatlari berildi. Xususan, 6-modda quyidagicha ifodalandi: "Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng tegishli xalq deputatlari Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rsatilgan lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega".

Shuningdek, qonunning "Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat va Toshkent shahar hokimi ustidan nazorat qilish vazifalari" deb nomlangan 7-moddasida mamlakat tarixida birinchi marta mahalliy boshqaruv rahbarlarini vakillik organlari tomonidan bevosita nazorat etishning quyidagi qoidasi shakllantirildi: "7-modda: Nazorat qilish vazifalarining samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlarining partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning koniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asosli xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqi beriladi. Agar bunday tashabbus yetakchi partiya guruhlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu tashabbusni xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritadi va muhokama natijalariga muvofiq qaror qabul qiladi".

Zero, "Davlat boshqaruvi yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanish jarayonining muhim huquqiy asosi sifatida nafaqat hozirgi davr uchun, balki istiqboldagi taraqqiyot uchun ham muhim shart-sharoitlar yaratadigan huquqiy mexanizmlarni o'zida ifodalashi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, Konstitutsiyadan Prezidentning ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i sifatidagi huquqiy me'yor olib tashlandi, parlament faoliyatida fraksiyalararo muxolifatning huquqiy asoslari sifatida "ko'pchilik" va "muxoli-fat" tushunchalari talqinlari kiritildi. Ko'pchilik – o'z dasturiy maqsad va vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari deputatlari mazmunini anglatadigan bo'ldi. Muxolifat – yangidan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari bo'lib, ular o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin ekanligi mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, Bosh vazirni lavozimiga tayinlash masalasida ham partiyalar fraksiyalari a'zolari maslahatlashuv qoidasi kiritildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari saylanganidan va shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri bilan hamda deputatlik guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatiga ko'rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun taqdim etiladi, degan qoida o'rnatildi.

"Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi, hech shubhasiz aytilish mumkinki, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonunga asosan Bosh vazirning vakolatlari kengaytirildi va uning davlat boshqaruvidagi mas'uliyati oshirildi.

Qonundan kelib chiqadigan o'zgarishlarga binoan, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari mujassamlashgan 78-moddasining 15-bandi "...shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish" degan so'zlar bilan to'ldirildi. Boshqacha aytganda, parlamentning hukumat faoliyati ustidan nazoratini amalga oshirishning dastlabki huquqiy asoslari yaratildi. Shuni e'tirof etish joizki, bu demokratik prinsip davlat boshqaruvini demokratlashtirish va yangilash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Mamlakatni modernizatsiyalashda jamiyat hayotining barcha sohalarida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida islohotlar chuqurlashtirilib borildi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri – avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq muayyan masalalarni hal qilishda davlat tuzulmalarining rolini kamaytirish, davlat organlari vakolatlarini fuqarolik jamiyati institutlariga berib borishga muhim ahamiyat berildi.

Mamlakatimizning istiqboli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga qaratilgan. Demak, istiqboldagi boshqaruv tizimi ham fuqarolik jamiyatiga xos va mos bo'lishi lozim. Ma'lumki, hozirgi davrimizning o'ziga xos demokratik va boshqaruvga doir an'analari mamlakatlar, xalqlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina asoslarining takomillashtirilishiga bo'lgan ehtiyojlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham davr bilan hamnafas bo'lish, uning eng dolzarb talablarini o'z vaqtida qondira olish imkoniyatlariga ega bo'lish har qanday jamiyatning barqaror va xavfsiz taraqqiyotining muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari boshqaruv tizimida zamonaviy demokratik qadriyatarni qaror toptirish, uning muttasil ravishda rivojlanib borishini ta'minlash muammolarini hal etish vazifalari bilan uyg'un va mustahkamd.

Islohotlar tajribasi ko'rsatib turganidek, hozirgi fuqarolik jamiyati qurish davrida boshqaruv tizimida demokratiyani joriy qilish uchun uning dastlabki institutsional asoslarini shakllantirishning o'zi yetarli emas. Bu sohada demokratiya – fuqarolik jamiyatiga "o'tish davri" aslida ko'p pog'onali bosqichma-bosqichli hodisa bo'lib, izchillik tizimidan iborat bo'lishiga muhim e'tibor berish lozim. Chunki fuqarolik jamiyati qurishning insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi xususiyatlari boshqaruvni demokratlashtirish jarayonining har bir darajasini alohida olingan holda konseptual jihatlarini ishlab chiqish, ularni keyingi bosqichga o'tishning asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatlarini sifatida takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqib konsepsiya qabul qilindi va uning g'oyalari amaliyotga joriy etilmoqda.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan boshqaruv tizimini qaror toptirish vazifalari, uning omillarining takomillashib borishi islohotlarning hozirgi eng dolzarb jihati hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda demokratik boshqaruvning jamiyat miqosida legitimlashuvi, uning insonlar tomonidan anglangan qadriyatga aylanishi uchun fuqarolarning ijtimoiylashuv zarurati paydo bo'lmoqda va bu hodisa ko'p bosqichli jarayonlarning umumiy demokratlashuvining tarkibiy qismidir. Zero, boshqaruvni demokratlashtirish nafaqat jamiyatni siyosiy, balki ijtimoiy jihatdan tashkil qilishning eng asosiy vositasidir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, demokratlashuvning barqaror rivojlanib boruvchi davriga o'sib o'tish imkoniyatlarining dastlabki asoslari o'tish davrida shakllantiriladi. Keyingi bosqichda esa besosita uni mustahkamlashga xizmat qiluvchi omillarni kengaytirib borish vazifalari hal qilina boshlanadi. Demokratiyaga o'tish jarayonlarining yetakchi natijasi jamiyat hayotining barcha jabhalarini demokratiya g'oyasi va manfaatlarini atrofida jiplashuvi holatidan iborat. Bunday holat hozirgi zamon demokratiya nazariyotchilari tomonidan konsolidatsiyalashgan demokratiya atamasi bilan yuritib kelinmoqda. Jumladan, tranzitologiya yo'nalishida tadqiqot olib borgan G. O'Donnell ta'kidlaganidek, "Demokratlashuv jarayoni umumiy tarzda olinganda bir emas, balki ketma-ket yuz beruvchi ikki o'tish jarayonidan iborat: birinchisi, demokratik hukumatning o'rnatilishiga olib kelsa; ikkinchisi, demokratiyaning qaror topishi yoki demokratiyaning samarali, barqaror ravishda amal qilishiga olib keladi"[5].

Bu o'rinda asosiy gap demokratiyaning jamiyat barcha sotsial qatlamlari orasida anglangan zaruratga aylanishi ustida bormoqda.

Demak, demokratiyaning ijtimoiy jiplashgan darajasi uning barqaror taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan demokratiyaga o'tish davrining yuqori pog'onasiga erishgan har bir jamiyat uchun barqaror demokratlashuv jarayonlarining uzluksiz ravishda ro'y berishi qanday shart-sharoitlar orqali ta'minlanadi, demokratiya barqarorligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning mohiyati nimalardan iborat bo'lishi mumkin, zamonaviy, davr talablariga javob bera oluvchi barqaror rivojlanadigan demokratiya asoslari qanday chora-tadbirlar hisobiga yangilanib, takomillashtirilib boriladi, degan savollar dolzarb ahamiyat kasb etib boradi. Chunki zamon talablarini hisobga olish demokratiyaning xavfsizligi va mustahkamligini ta'minlashning yetakchi shartlaridan biridir.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda jamiyatimizda barqaror, zamonaviy

demokratiya asoslarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga ta'sir qiluvchi, umrguzaronlik qilayotgan zamonamiz xususiyatlari bilan hamohang bo'lgan yangi omillar mohiyatini har tomonlama chuqur tadqiq qilish, masalaning ko'pgina jihatlariga nazariy jihatdan oydinlik kiritish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'rinda jamiyatimizda barqaror rivojlanib boruvchi demokratiya tayanchlarining vujudga kelishi va taraqqiy qilishiga xizmat qiluvchi, hozirga qadar ishga solinmagan kuch va imkoniyatlarni safarbar etish bilan bog'liq ilmiy muammolarni konseptualashtirish zarurati, ko'tarilayotgan mavzuning naqadar muhim ekanligidan dalolat berishini alohida ta'kidlash joiz.

G'arb davlatlari tajribalaridan ko'rinadiki, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirishda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sotsiologiya fani nuqtai nazaridan qaraganda, jamiyat yaxlit organizm bo'lsa, davlat hokimiyati va boshqaruvi bu organizmning miyasi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston davlat fuqarolik jamiyati prinsiplaridan kelib chiqib, inson taraqqiyotini yuksaltirish, davlat siyosati natijalarini insonga qaratish kabi maqsadlarning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida ilgari surmoqda. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadlarining diqqat-markazida ham insonni ijtimoiylashtirish, uning jamiyatdagi o'rnini oshirish, pirovard natijada inson taraqqiyotini amalga oshirish yotadi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish tizimi bir necha yuz yilliklarda shakllanib, u XX asrga kelib demokratik karakter kasb eta boshladi. Rivojlangan mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlarini saylovlar yo'li bilan shakllantirish, ular faoliyatini moliyalashtirish, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarishda, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, mazkur organlarni aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdagi o'rnini yuksak maqomga ko'tarildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida inson taraqqiyotini ta'minlash uchun shart-sharoitlar ham shakllanib bordi. Ana shu jihatlarni o'rganish va ularni O'zbekistonda tarixiy an'analarni natijasida shakllangan milliy tajribani ham e'tiborga olgan holda islohotlar jarayonlariga qo'llash dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekistonda mustaqillik davriga kelib fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinishi natijasida mahalliy davlat hokimiyati organlari demokratik prinsiplar va qadriyatlar asosida butunlay yangi mazmunda shakllana boshladi. Albatta, xorijiy va xalqaro tajribalardan foydalanilganda milliy qadriyatlar va an'analarga ham muhim e'tibor berildi. Ayniqsa, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida nomarkazlashtirishga doir islohotlarni chuqurlashtirishda mahalliy hokimiyat organlarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik va hamjihatlik qilishga doir faoliyatiga ham muhim e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda shakllangan mahalliy boshqaruv o'z ma'nosidan ham ko'rinib turibdiki, faqat mahalliy, ya'ni tuman, shahar yoki o'zini o'zi boshqarish organlari darajasida amalga oshiriladi. Mahalliy darajadagi ma'muriy boshqaruv markaziy hokimiyat tomonidan berilgan muayyan vakolatlar va funksiyalar asosida amalga oshiriladi, shu bilan birga, mahalliy boshqaruv markaziy boshqaruv organi oldida mas'ul bo'lgan boshqaruv tizimi (hokimliklar) tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy boshqaruvning asosiy vazifasi davlat va xalq irodasi asosidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishdir. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari

xalq tomonidan saylab qo'yiladigan mas'ul shaxslar va organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi davrga kelib davlat boshqaruvini demokratlashtirish vazifalaridan kelib chiqib markaziy davlat hokimiyatining ba'zi vakolatlarini mahalliy boshqaruv organlariga berishga doir islohotlar amalga oshirilmoqda. Boshqacha aytganda, mintaqaviy hokimiyat organlari mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini boshqarishda mustaqil va faol sub'ektlar bo'lishiga muhim ahamiyat berilmoqda.

Shuningdek, mahalliy boshqaruv tizimida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga (mahalla, ovul, qishloq va shaharcha fuqarolar yig'inlari) ham nomarkazlashtirish tamoyillari asosida hokimliklarning ba'zi vakolatlarini berib borishga doir huquqiy asoslarni shakllantirish mo'ljallanmoqda. Ayniqsa, tarixan milliy o'zini o'zi boshqarish shakli sifatida shakllangan mahalla fuqarolar yig'inlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun huquqiy va ijtimoiy shart-shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi davrga kelib mahalliy hokimiyat organlarini modernizatsiyalash islohotlari ham tub burilish davrini boshladi. 2017 yilning 8 sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan "O'zbekistonda ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"ning tasdiqlanishi mahalliy hokimiyat organlarini rivojlangan davlatlar darajasida modernizatsiyalash konsepsiyasi sifatida namoyon bo'ldi. Unda asosan tuman va shahar hokimlariga keng vakolat va mustaqillik berish bilan birga, yakuniy natija uchun ularning javobgarligini tubdan oshirish qoidalari belgilandi. Shuningdek, tuman, shahar va viloyatlar hokimlarining ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yish prinsiplari ilgari surildi. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining roli, xalq noiblarining vakolatlarini tubdan oshirish, siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarni shakllantirish borasidagi vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, deputatlik nazoratini kengaytirishga oid dasturlar qabul qilinib, ular amaliyotga joriy etila boshlandi.

Bu sohadagi islohotlarning mazmun-mohiyati va strategik jihatlarini to'g'risida Prezident Shavkat Mirziyoyev quydagi fikrlarni ilgari surdi: "Hammaga ma'lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy Kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa o'z o'rnida tegishli qarorlar qabul qiladi. Endi, aytinlar, hisobotini o'zi rahbarlik qilib kelayotgan mahalliy Kengashga taqdim qilishi va tasdiqlatishi, o'zining faoliyatiga o'zi baho berishi to'g'rimi? Bu tizim hokimlar va mahalliy Kengashlar vazifalarini samarali bajarishga salbiy ta'sir etayotganini zamonning o'zi ko'rsatmoqda. Biz kelgusida bu masala bo'yicha qonunga asoslangan to'g'ri yechim topamiz. Hokimlarning hududlarni rivojlantirish, mahalliy budjetni ijro etish, kommunal muammolarni hal qilish kabi dolzarb faoliyati ustidan xalqimiz o'z vakillari orqali tegishli nazoratni amalga oshirishga imkoniyat yaratib berish bizning eng muhim vazifamiz bo'lib qolishi zarur. Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas'uliyati davlat apparatini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi"[6].

Albatta, mamlakatda mahalliy ijro va vakillik organlarini modernizatsiyalash ularni kuch bilan ta'sir qilish, majburlash vositasidagi usullardan foydalanish tajribalariga chek qo'yadi, boshqaruv mansabdorlari xalq manfaatlarini asosida faoliyat yuritishga o'tadi. Chunki hozir joriy etilgan nazorat shakllari boshqaruvni nodemokratik usullarda amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi. Mahalliy hokimiyat organlarini vertikal jihatlardan "kuchsizlantirish" yoxud "xalqchillashtirish" fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishiga imkon beradi. Chunki bu kabi jamiyat institutlari kuchli avtoritar boshqaruv usullari ostida

shakllanmaydi. Ular qonun doirasidagi mustaqillikka olganda, mazkur islohotlar fuqarolik jamiyati qurish erishganidan keyingina jonlana boshlaydi. Bu jihatdan shartlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Человеческое развитие: новое измерение социально_экономического прогресса: Учебное пособие/ под общей редакцией проф. В.П. Колесова (экономический факультет МГУ), 2-е издание, дополненное и переработанное. – М.: Права человека, 2008. – С.40.
2. Человеческое развитие: новое измерение социально_экономического прогресса. Учебное пособие под общей редакцией проф. В.П. Колесова (экономический факультет МГУ), 2-е издание, дополненное и переработанное. – М.: Права человека, 2008. –С.50–52.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т.:Ўзбекистон, 2003. – Б.27, 28 –29.
4. Европейская хартия о местном самоуправлении // Холлис Г., Плоккер К. На пути к демократической децентрализации: перестройка региональных и местных органов власти в новой Европе. Приложение III. – Brussels:TACIS services DGIA Turopean Commission, 1995. – С..315–316.
5. Политические институты на рубеже тысячелетий. – Д.: 000 «Феникс», 2001. – С.140.
6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномаси (2017 йил 22 декабрь) // <http://www.press-service.uz>.



UDK: 159.9.07

Shodiya ZARIFBAEVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail: shodiya1985@mail.ru

Falsafa fanlari doktori (PhD) F. Hikmatov taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF GLOBAL INFORMATION-PSYCHOLOGICAL SECURITY TECHNOLOGIES

Abstract

This article talks about the interdisciplinary analysis and research of the psychological security technologies of young people and the characteristics of the socio-demographic group of young people in the age of global information.

Key words: youth, globalization, psychology, demography, period, education, group, social, movement, progressive, manipulation, improvement, consciousness, history, society, border, problem, generation, conflict.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ТЕХНОЛОГИЙ ГЛОБАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье речь идет о междисциплинарном анализе и исследовании технологий психологической безопасности молодежи и особенностей социально-демографической группы молодежи в век глобальной информации.

Ключевые слова: молодежь, глобализация, психология, демография, период, образование, группа, социальное, движение, прогрессивное, манипуляция, совершенствование, сознание, история, общество, граница, проблема, поколение, конфликт.

GLOBAL AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada global axbarot zamonida yoshlarning psixologik xavfsizlik texnologiyalari hamda yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi xususiyatlarining fanlar aro tahlili va izlanishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlar, globallashuv, psixologiya, demografiya, davr, ta'lim, guruh, sotsial, harakat, progressiv, manipulyatsiya, takomillashuv, ong, tarix, jamiyat, chegara, muammo, avlod, konflikt.

Yoshlar – bu yetuklikka erishish bosqichidan o'tayotgan aholi guruhi bo'lib, ularda shaxs shakllanishi, bilim, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarining o'zlashtirilishi sodir bo'ladi. Ushbu sifatlar esa yoshlarning jamiyatni to'laqonli a'zosiga aylanishiga xizmat qiladi. Yoshlik o'tish davri sanalganligi bois, ayrim masalalarda yoshlar yetarlicha yetuklikni namoyon etsalar, boshqa masalalarda – soddalik, chegaralanganlik va infantillikni ko'rsatadilar. Bu ikkilanish ushbu yoshga xos qarama-qarshiliklar va muammolardan kelib chiqadi. Yoshlik asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha qaralsa – bu ta'limning yakunlanishi va mehnat faoliyatiga kirish davridir.

Nemis sotsiologi Karl Manngeym (1893-1947) aniqlashicha jamiyatda sodir bo'layotgan shiddatli taraqqiyot yoki transformatsiyalar sharoitida yoshlar oldingi qatorga chiquvchi o'ziga xos zahira rolini o'taydi.[1] Bunday jonlanish yoshlardagi shiddatli o'zgarishlarga tezda moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Dinamik harakatchan jamiyatlar ushbu zahirani ertami yoki kech harakatga keltiradi. Manngeymning fikricha yoshlar sotsial hayotni jonlantiruvchi mexanizm rolini o'taydi. Ushbu yosh davrida inson katta ijtimoiy hayotga ilk qadam qo'yadi. Yoshlar tabiatan progressiv ham konservativ ham emas, deb ta'riflaydi Manngeym. Ular har qanday hatti- harakatga tayyor kuch-qudratdir. Yoshlar o'ziga xos yosh va ijtimoiy guruh sifatida jamiyatda o'rnatilgan madaniy qadriyatlarni o'zgacha qabul qilishini oqibatida o'ziga xos yoshlar slengi yoki submadaniyatlarni shakllantiradilar.[2]

Yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi xususiyatlarini o'rganishda quyidagi ilmiy yo'nalishlarni alohida ko'rsatish mumkin:

1) Psixoanalitik. Ushbu yo'nalish vakillari yoshlar muammolarini o'rganishda psixoanalizdan kelib chiquvchi shaxs hayotiy sikli bilan bog'laydi. Bunda yosh davriga xos psixofiziologik jarayonlarning shaxsiyatga ta'siri nuqtai nazaridan yondashiladi. Yondashuv Z.Freyd xulosalari va neofreydizm tarafdorlari fikrlariga tayanadi (R.Benedikt, L.Foyer, L.Sheleff, E.Erikson). ushbu yo'nalishga tayanib «Edip kompleksi» nazariyasi ishlab chiqilgan, unga ko'ra avlodlararo konfliktlar, yoshlardagi agressiyaga moyillik, mavjud tartiblarga qarshilik ularning ichki energiyasining sublimatsiyasi belgisi sifatida izohlanadi.

2) Epigenetik tamoyil. E.Erikson tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvga muvofiq insonda shaxsiyat rivojlanishida turli yosh kategoriyalariga xos identifikatsiya krizisini boshidan kechiradi. Unga ko'ra ijtimoiy me'yorlar va shaxsning psixosotsial yetukligi o'rtasidagi nomutanosiblik ushbu krizisga sabab bo'ladi. Rut Benediktning fikriga ko'ra individ rivojlanishining har bir bosqichida jamiyatning maqsadli ta'sirini sezadi. Ushbu ta'sir insonda ijtimoiy-psixologik yetuklikning ma'lum turini singdirishga, ya'ni tegishli «sotsial xarakterni» shakllantirishga qaratilgan.

Erikson inson hayotiy yo'lini sakkiz davrga bo'lib o'rganadi:

- go'daklik - bolani tashqi dunyoga «ishonch bazasi» bilan tarbiyalash kiradi. Bunda asosiy vosita ota-ona g'amxo'rliqi va muhabbati hisoblanadi. Agar «ishonch bazasi» shakllanmasa bolada

dunyoga «ishonchsizlik bazasi» shakllanadi va doimiy xavotirlik paydo bo'ladi.

- bolalik - bolada o'zining his-tuyg'ulari va shaxsiy qadriyatlar yoki ularning aksi bo'lgan - hayo va gumonlar shakllanadi. Bolaning mustaqil o'sishi, jismoniy faoliyat bilan bog'lanishi unga tanlash imkoniyatini beradi. Bunday bosqichning rivojlanishi kelajakda shaxsga javobgarlik tuyg'usi sifatida tartib-qoidaga hurmat hissiini uyg'otadi.

- o'yinqaroq bolalik (taxminan besh yoshdan yetti yoshgacha serharakatlilik) hissi shakllari, nimalamidir qilishni xohlaydi. Agar bu xohishlarini yig'ganda ayblash hissi paydo bo'ladi. Bu yoshda guruhlardagi o'yinlar, tengqurlari bilan munosabat, turli xil rollarni ko'radi, fantaziya qiladi va h.k. Bu bosqichda haqiqatguylik hissi, huquqlarni tushunish munosabatlari yotadi.

- maktab yoshi - uddaburonlik hissi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga intilish. Ahamiyatli qadriyatlarga ijodkorlik va chuqur munosabatning shakllanishi.

- o'smirlilik - yakka hissiyotining o'sishi, boshqalarga o'xshamaslik. O'z-o'zini anglash ishtiyoqining kuchayishi, yangi vaqtni his etish, psixologik qiziqishlar, patogen jarayonlar sodir bo'ladi.

- yoshlik - boshqa odam bilan sotsiopsixologik munosabatga kirishish talabi, qobiliyati bilan xarakterlanadi. Uning muqobili - yolg'iz bo'lish hissiyoti oshadi.

- o'rta yosh - ijodiy faoliyatning oshishi. Ularning bu harakati faqat mehnatda emas, boshqalarga ham xizmat qilish va o'z tajribasini berish talabi oshadi.

- yetuklik yoki keksalik yoshi hisoblanib, o'z hayotidan mamnunlik, qoniqish, ayrim hollarda esa ruhiy tushkunlik, umidsizlik hissi bilan xarakterlanadi.[3]

T. Lisovskiyning fikriga ko'ra «Yoshlar – ijtimoiylashuv jarayoni bosqichidan o'tayotgan aholi qatlami bo'lib, nisbatan yetuk yoshda ta'lim, kasbiy, madaniy va boshqa ijtimoiy funksiyalarni o'zlashtirgan bo'ladi va aniq tarixiy sharoitdan kelib chiqib yoshlar davriy chegarasi 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'ladi».[4]

I.S.Kon ta'rificha «Yoshlar – ijtimoiy-demografik guruh sifatida yosh, egallagan ijtimoiy o'rni va boshqa sotsial-psixologik xususiyatlar yig'indisini o'zidan mujassam etadi. Yoshlik hayot siklining ma'lum bosqichi sifatida biologik jihatdan universal xususiyatga ega bo'lsa-da, uning yosh chegaralari va u bilan bog'liq sotsial maqom va sotsial psixologik xususiyatlar tegishli jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniyati va shu jamiyatga xos ijtimoiylashuv qonuniyatlari bilan farqlanadi»'. I.S.Konning yozishicha «Yoshlar sotsiologiyasida asosiy e'tibor quyidagi muammolarga qaratiladi:

1. yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida ijtimoiy tuzilmada tutgan o'rni va rolini o'rganilishi, (S. N. Ikonnikova, V. T. Lisovskiy),

2. yoshlarda shaxsiyatni shakllanishi (I. S. Kon), yoshlarda kasb tanlash va ijtimoiy mobilligini ta'minlanishida qadriyatli mo'ljallarning ta'siri (M. X. Titma),

3. yoshlarning mehnatga munosabati, yosh oilalar muammolari».

Yoshlar muammolarining jadal ilmiy o'rganish XX asming 60-yillari oxiri va 70-yillarining boshlariga to'g'ri keldi. Sababi, xuddi shu davrda aholi umumiy miqdorida yoshlar salmog'i oshib bordi. Gap shundaki, 1945-1948-yillarda Ikkinchi jahon urushidan qaytgan millonlab erkaklar tinch hayotga qaytdilar. Ularning ko'pchiligi oila qurgan bo'lsalar, oilali erkaklar farzandlari sonini ko'paytirdilar. Natijada, 60-70 yillarga kelib ularning farzandlari jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga yetdilar. Shu davrdan yoshlar borasidagi qator fundamental tadqiqotlar va ilmiy asarlar paydo bo'ldi. Albatta, ular o'sha davrdagi tuzum xususiyatlaridan kelib chiqib g'oyaviy qobiqqa o'ralgan bo'lsa-da, ular yoshlarda shaxsiyatni shakllanishiga turki bo'luvchi omillarni anglashda katta rol o'ynadi.

XX asming 60-70 yillarida yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi xususiyatlarini anglashda A.B.Saxarov, G.M. Minkov, K.Ye. Igoshev kabi olimlarning faoliyati samarali bo'ldi. XX asming 90-yillariga kelib iqtisodiyotning keskin tanazzulga uchrashi yoshlar jinoyatchiligida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson o'rtacha 14 yoshda jismoniy yetuklikka erishadi. Qadimgi jamiyatlarda tahminan shu yoshda bolalar initsiatsiya marosimidan o'tgan – ya'ni kattalar qatoriga qo'shilishning ritualli marosimi o'tkazilgan. Ammo, jamiyat rivojlanishi va murakkablashuvi munosabati bilan kattalar bilan hisoblashishda nafaqat jismoniy yetuklik balki boshqa dunyoviy bilimlarga egalik, kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishi, o'zini va oilasini mustaqil ta'minlash malakasiga ega bo'lishlik talab etilib boshlandi. Bilim va ko'nikmalar ko'lam tarixiy davrlardan kengayib borar ekan, yetuklik maqomiga egalik davri borgan sari orqaga surilib bordi. Hozirda yetuklikka erishish davri 30 yosh atrofida tashkil etadi. Shu bois yoshlik davrining chegarasi sifatida 14-30 yosh ko'rsatilishi tan olingan.

Ammo, yoshlik davrining xususiyatlari nafaqat yosh ko'rsatkichlari bilan bog'liq, balki yetuklikka erishishning ijtimoiy va madaniy omillariga ham bog'liq. Shu bois, yoshlikning davriy chegaralari o'zgaruvchan va harakatchandir.

Umumfalsafiy nuqtai nazardan yoshlik – imkoniyatlar, kelajak sari ildamlash davri sifatida o'rganiladi. Artur Shopengauer ta'riflaganidek (1788-1860) «hayot – yoshlik nuqtai nazaridan – bu cheksiz uzoq kelajak, qarilik nuqtai nazaridan esa – juda qisqa o'tmishdir».[5] Yoshlik – bu hali hech narsa sodir bo'lmagan ammo, hammasiga ulgursa bo'ladigan davrdir. Bu nuqtai nazardan yoshlik – bu beqarorlik davri, o'zgarishlar, shartakilik, tavakkalchilik, tanqidchilik, doimiy yangilikka intilishlar davridir. Yoshlar ehtiyoji boshqacha o'lchamda yotadi. Yoshlar odatda an'analar va odatlarga bo'ysunishni istamaydi. Ular ichki mohiyatdan kelib chiqib dunyo o'zgartirishni va o'zlarining innovatsion qadriyatlarini o'rnatishni istaydilar.

Psixologik nuqtai nazardan yoshlik bu – o'z «MEN»ini, insonni individual takrorlanmas shaxs sifatida mohiyatni anglash davri. Baxt va omadga erishishda o'ziga xos yo'lni qidirish davri. Har bir yoshda bo'lgani kabi yoshlar bu intilishda xatolardan kafolatlangan emas. Ushbu kamchilik va xatolarni anglash uning o'z hayotiy tajribasini shakllantiradi. Sinov va xato usuli qo'llaniladi.

Huquqiy nuqtai nazardan yoshlik – fuqaro sifatida voyaga yetganlik davri sanalib, fuqaroga xos huquqlari va erkinliklaridan to'liq foydalanish imkoniga ega bo'ladi (saylov, qonuniy nikoh, va h.k.). shuningdek, majburiyat va burchlar yuklanadi.

Sotsiologiyada yoshlar asosan quyidagi sotsiopsixologik yosh guruhlariga taqsimlanadi:

1.O'rta maktab bitiruvchilari (ishchilarga qatoriga qo'shilishi munosabati bilan);

2.16-19 yosh xo'jalikning turli sohalarida ishlayotgan yoshlar;

3.20-24 yoshdagilar;

4.25-30 yoshdagi yosh ziyolilar.

Tibbiyot nuqtai nazaridan Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining tasniflashicha, odamlarning yoshlik davri 44 yoshgacha, o'rtacha yosh 45-59, keksalik davri 60-74, qarilik davri 75-89, 90 yosh va undan ko'pi uzoq umr ko'ruvchilar hisoblanadi.

Ta'lim nuqtai nazaridan «Bola huquqlari to'g'risida»gi xalqaro Konvensiyada yoshlar ijtimoiy-demografik guruhining davriy chegarasi boshlang'ich nuqtasi 18 yosh qilib beglinganligi sababi zamonaviy jamiyatlarda bolalik, o'smirlilik davrining orqaga surilishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bo'yicha inson 18 yoshdan boshlab huquqiy munosabatlarning to'laonli sub'ekti sanaladi [6].

«O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni bo'yicha yoshlarning davriy chegarasi -14-30 yosh.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun ish haftasining miqdori 36 soatdan oshmasligi shart. 1 va 2 guruh nogironligi bor xodimlar uchun ish haftasi 36 soat qilib belgilangan. Respublikamizda

16-18 yoshdagi ishlaydigan yoshlar qisqartirilgan ish vaqti, ish vaqtdan tashqari va tungi va dam olish kunida ishlashning ta'qiqlanadi.

Xullas, yoshlar ijtimoiy-demografik guruhning quyi davri 14-16 yosh, yuqori chegarasi 25-30 yosh va undan ortiq (50 yoshgacha).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yoshlik – o'ziga xos ijtimoiy-demografik guruh sifatida birinchidan, yosh tavsiflari, ikkinchidan, ijtimoiy maqom xususiyatlari, uchinchidan, o'ziga xos psixologik fikrlashning yig'indisidir.

Yoshlar duch kelayotan muammolar ularning ijtimoiy tuzilmada egallagan o'rni bilan bog'liq.

Iqtisodiy muammolar - yoshlarning ijtimoiy tuzilmadagi o'rniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Sababi, yoshlar moddiy jihatdan yetarlicha ta'minlanmagan bo'ladi. Ota-onasining moliyaviy ta'minotiga qaram bo'ladi. Ta'lim olish istagi mehnat faoliyati bilan bevosita shug'ullanishni orqaga surib yuboradi. Tajriba va bilimning yo'qligi esa yuqori maoshli lavozimlarni egallashga yo'l bermaydi. Yoshlarning oylik maoshi o'rtacha oylik maoshdan odatda birmuncha past bo'ladi. Talabalik stipendiyasi undan ham past. Barqarorlik paytlarida bu muammolar keskin bo'lmasada ammo tanazzuli davrlarda ular dolzarblashadi. Iqtisodiy tanazzuli davrlarda yoshlar orasida ishsizlik keskin oshadi.

Amerikalik sotsiolog Margret Mil (1901-1978) avlodlararo munosabatlarning uch turini ajratib ko'rsatadi:

- postfigurativ – o'tmishga yo'naltirilgan qadriyatlarini tan oluvchi yoshlarning katta avlod tajribasini o'zlashtirish va ularning o'rganishlari. Bunda innovatsiyalar qiyinchilik bilan rivojlanadi.

- konfigurativ – shakllanish jarayonida bo'lib, ayni damdagi hayotiy mo'ljallarni nazarda tutadi. Yoshlar va kattalar o'zgaruvchan zamonaviylikka mutanosib hatti-harakat qiladi. Ijtimoiylashuv tengdoshlar bilan muloqot orqali kechadi. Yoshlar kontmadaniyatlarini tug'iladi.

- prefigurativ – hali noma'lum, kelajakka yo'naltirilgan. Eski qadriyatlardan voz kechish. Chunki, eski tajriba foydasiz va zararli bo'lib qoladi. Katta avlod vakillari yosh avloddan o'rganishga harakat qiladi [7].

Shu tariqa yoshlar – bu bir tomondan himoyalangan guruh bo'lib davlatni barqarorligini izdan chiqaruvchi destuktiv kuch yoki uning istiqboli uchun xizmat qiluvchi konstuktiv qudrat sanaladi.

Amerikalik psixolog R. Chaldini manipulyatsiyaning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi: yordam so'rash; sotuvchining, reklamanning xaridorga ta'siri; siyosiy targ'ibot; bolalarni tarbiyalash va hokazo. Uning fikricha, turli xil fondlar uchun mablag' yig'uvchilar, ko'chada savdo qiluvchilar, ishbiarmonlar, biznesmenlar, savdo agentlari, reklama xodimlari ham o'z faoliyatida manipulyatsiyadan keng foydalanadi [10]. Demak, manipulyatsiya – bu kishilar ongini yengil-yelpi g'oyalari, fikrlar va qarashlar bilan atayin noto'g'ri shakllantirish hamda shu tariqa insonni ma'nomazmunsiz hayotga yo'naltirishdan iborat. Bu xizmatni amalga oshiruvchi kishi manipulyator deb ataladi. Manipulyatorga quyidagilar xos:

1) manipulyator o'z sohasining yetuk mutaxassislaridan biri sifatida g'araz niyatli siyosiy kuchlarga moddiy manfaat ko'rish uchun xizmat kiladi;

2) manipulyator belgilangan kishi yoki muayyan guruhni manipulyatsiya qilish, ya'ni to'g'ri yo'ldan chalg'itish uchun turli vositalardan, zamonaviy texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanadi;

3) manipulyator o'z ishida kishilarning, ayniqsa, yoshlarning qiziqish, intilishlari va xohish-istaklarini hisobga olish usuliga qat'iy amal qiladi;

4) manipulyator o'ziga irodasi mo'rt, fikri sayoz va faqat bir kunlik hayot bilan yashovchi yoshlar orasidan munosib “shogird” ni voyaga yetkazadi hamda butun jarayonni uning vositasida boshqaradi.

G'arbda odamlar ongining manipulyatsiya qilinayotgani haqida ko'p yozishgan. Bu “ommaviy madaniyat”ning ilk ta'siridan boshlangan. Bu haqda ispan faylasufi Ortega Gasett: “Ko'pchilik odamlarda fikr yo'q. Xalq hech qachon, hech qanday fikrga ega bo'lmagan. Chunki u borliqni nazariy anglay olmaydi. Bu esa uning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga xalaqit beradi. Shunday ekan, fikr odamlarning miyasiga tashqaridan, xuddi mashinaga moyini siqib kirgizgandek, bosim bilan kiritilishi kerak”, – degan edi. Olim jamiyatga fikrni bosim ostida, zo'rlab singdirish yaxshi emasligini biladi. “Biroq, – deydi u, – odamlar manipulyatsiya qilinmasa, jamiyatda anarxiya paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatni inqirozga olib keladi. Jamiyat nuraydi, yemiriladi”. “Ommaviy odam, – deydi u yana, - o'ylay olmaydi, ammo uning fikrlari mantiq qobig'iga o'ralgan instinktlardan boshqa narsa emas” [11].

Tarixga nazar tashlasak, o'zga mamlakatlarni bosib olish, boshqa xalqlarni o'ziga tobe qilib olish qasdida turli xil mafkuraviy va psixologik vositalar ishga solinganligiga ko'plab dalillar topishimiz mumkin. Qadim-qadim zamonlardayoq tajovuz nishoni bo'lgan xalqning ko'ngliga g'ulg'ula solish, raqib jangchilarini ruhiy “qurolsizlantirish” maqsadida psixologik urush vositalaridan foydalanilgan.

OAV vositalarida beriladigan turli tuman reklamalar bu borada ham ahamiyatli o'ringa ega. Reklama–bu xaridor va iste'molchilarga mahsulot sifati, inson organizimi uchun foydali tomoni va ko'plab ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida axborot yetkazib beruvchi vositadir. Darhaqiqat, reklamada tasvir kuchi katta rol o'ynaydi. So'z qo'llash bilan bog'lik psixologik jarayonlar bevosita psixolingvistikada chuqurroq tadqiq etiladi. Reklamada chuqur fikrlash–bu yuzada yotgan narsalardan, ortiqcha so'zlardan, sarlavha, shtaplardan voz kechish demakdir. Haqiqiy tasvir kuchiga ega oddiylik bu o'rinda o'ziga xoslik kasb etadi. Mashhur amerikalik reklamachi Makkeybl ham oddiylikni shunga o'xshash tarzda ta'riflaydi: “Sizning so'zlaringiz shunchalik sodda bo'lishi kerakki, boshqalar ruhiyatiga ta'sir etib, hayron qoldirsin va o'ziga ergashtira olsun”. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, reklamada so'z ta'siri kuchi, ya'ni psixolingvistika asosiy o'rinda turadi.

Ongni boshqarish orqali odamni har qanday xatti-harakatga undash mumkin.

Manipulyatsiyaning xatarli jihati shundaki, u ichki parokandalik, shaxs yaxlitligining buzilishi, uning tashqi ta'sirga berilib ketishiga sabab bo'ladi.

Bunda avvalo, odamlarning ongiga ta'sir etib, ularning xatti-harakati (individual jismoniy xayotni boshqarish, tobelik va bo'ysunuvchanlikni paydo qilish), olinayotgan ma'lumotning haqiqiy holatini yashirish yoki voqelikni buzib ko'rsatish, tanqidiy ma'lumotlarni ta'qiqlash, muayyan g'oyani majburan singdirish, voqelikdagi voqea-hodisalarni “yaxshi” va “yomon”ga ajratish, hissiyotlarni (shaxs hissiyotlarini zaiflashtirish, unga aybdorlik tuyg'usini singdirish, uni gunoh, kamchilik va xatolarni rasman tan olishga undash, undagi qo'rquv hissidan foydalanish) nazorat

etish orqali har qanday vazifa yoki topshiriqni bajaradigan, muayyan g'oya va mafkuraga tobe etilgan, o'zligidan mahrum bo'lgan kimsalar shakllantiriladi. Shu bois, ochiq axborot

kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini o'rganish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Винер Н. Человек управляющий. – СПб.: Питер, 2001. – С. 24.
2. Эшби Р. Массовая информация: Стратегия и тактика потребления. – М.: Дело, 1993. – С. 405.
3. Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. СПб: Питер, 2000. – С. 190.
4. Бондаренко С.А. Информационная стратификация и информационном обществе. // Информационное общество. №6. –С. 16.
5. Фейгенберг И.М., Ровинский Р.Е. Информационная модел будущего как программа развития. – М.: 2000. – С. 83.
6. Гаврилов Г.А. Исползование СМИ для распространения дезинформации в ходе локальных конфликтов.//Молодой учёный. №9. 2012. – 175 с.
7. Дмитрашков И.В. Информационно-коммуникативное обеспечение государственного управления в контексте политической модернизации.- М: РАГС, 2008.
8. Муродова Ш.О. Проблемы обеспечения информационной безопасности Республики Узбекистан в условиях глобализации. – Ташкент: Шарк, 2008.
9. Mamatov X.T. Fuqarolarning axborot olishga bo'lgan konstitsiyaviy huquqlari institutini o'rganishning dolzarb masalalari // SamDU axborotnomasi. №2. 2008.



UDK:373.24

Dono IKRAMOVA,

UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: ikromovadono54@gmail.com

Intizor AVAZMETOVA,

UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi b.f.f.d.(PhD)

Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi, b.f.d. prof. Abdullayev I.I. taqrizi asosida

PERIODS OF GROWTH AND DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract

This article describes the experimental work carried out among the 218 pupils of state preschool educational organizations № 8 in the city of Khiva, Khorezm region, and state preschool educational organizations № 27 in the city of Urganch. In the study of children from 3 to 7 years of age, it was found that various climatic factors and socio-cultural factors do not significantly affect their growth and development, anthropometric indicators, children's growth rate. The identified changes correspond to age. Differences in height and weight of girls and boys were found. The analysis of the health status of these children showed that children of preschool age were not found to be behind in growth and development.

Key words: Preschool education, pupil, growth, physical development, height, weight.

ПЕРИОДЫ РОСТА И РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

В данной статье описана экспериментальная работа, проведенная в 218 воспитанниках государственной дошкольной образовательной организации № 8 города Хивы Хорезмской области государственной дошкольной образовательной организации № 27 города Ургенча. При исследовании детей от 3 до 7 лет установлено, что их рост и развитие, различные климатические факторы и социокультурные факторы существенно не влияют на антропометрические показатели, скорость роста детей. Выявленные изменения соответствуют возрасту. Выявлены различия в росте и весе девочек и мальчиков. Анализ состояния здоровья этих детей показал, что детей с задержкой роста и развития у дошкольников не было.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитанник, рост, физическое развитие, рост, вес.

MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARNING O'SISHI VA RIVOJLANISH DAVRLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyati Xiva shahridagi 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va Urganch shahridagi 27-son davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 218 nafar tarbiyalanuvchilarida o'tkazilgan tajriba sinov ishlari bayon qilingan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan tarbiyanuvchilarni o'rganishda ularning o'sishi va rivojlanishi turli xil iqlim omillari va ijtimoiy-madaniy omillar antropometrik ko'rsatkichlarga, bolalarning o'sish tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. Aniqlangan o'zgarishlar yoshga mos kelgan. Qiz va o'g'il bolalarning bo'y uzunligi va vazn og'irliklarida farqlar aniqlangan. Ushbu bolalarning salomatlik holatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'sish va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar aniqlanmagan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, o'sish, jismoniy rivojlanish, bo'y uzunligi, vazn.

Kirish. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishi va o'sish ko'rsatkichlarini tarbiyachilar, hamshiralar va mahalla shifokorlari birgalikda olib borayotganligi barkamol avlodni jismoniy rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O'sish - tana hujayralarining ko'payishi natijasida tirik organizm o'lchamlarining ortib borishi, ya'ni bo'yning o'sishi, vaznning ortishidir. Rivojlanish esa o'sib borayotgan organizm hujayra, to'qima va organlarning takomillashishi natijasida, o'smirlilik va yetuklikka xos bo'lgan bir muncha murakkab tizimlarga ega bo'lishi tushuniladi.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayon. Organizm o'sishi va rivojlanishidagi barcha bolalik, o'smirlilik, yoshlik va yetuklik davrlarni bosib o'tadi.

Antropometrik ma'lumotlar asosida bolalar populyatsiyasining jismoniy rivojlanishini baholash bolalar populyatsiyasi salomatligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, shifokorlar, o'qituvchilar va sport murabbiylari uchun muhimdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'sishi va rivojlanishi bir xilda kechmaydi. Tez o'sish davrlari sust o'sish davrlari bilan almashinib turadi. Bolalar va o'smirlarni o'sish va rivojlanishini me'yorida kechishini jismoniy rivojlanishi orqali aniqlash mumkin. Buni bir qator miqdor va sifat ko'rsatkichlari orqali baholash mumkin. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning o'sishi va rivojlanishiga juda katta e'tibor qaratish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy rivojlanish umumiy biologik qonuniyatlarga va o'sib borayotgan organizm salomatligining yetakchi mezonini hisoblanadi. Jismoniy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi-bu bo'y uzunligi hisoblanadi. Bolaning o'sishi va rivojlanishining intensivligi, shuningdek, tananing hajmi ontogenezning turga xos va individual genetik dasturi bilan belgilanadi, bunga ekzogen omillar, ijtimoiy-iqtisodiy va gigiyenik hayot sharoitlari ham ta'sir qiladi [1, 2, 3, 4, 5].

Bolaning jismoniy rivojlanish me'yoringa buzilishlari uning salomatligida bir nechta muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada bir qator olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tajribalarda bolaning rivojlanish

ko'rsatkichlari hozirgi paytga kelib bu ko'rsatkichlar susayganligi qayd etilgan [6, 7].

Mamlakatimizda kelajak farzandlarimiz salomatligini muhofaza qilish va rivojlanish bosqichlarini mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar davlatning eng muhim vazifalaridandir. Salomatlikni baholashga zamonaviy yondashuvlar uni yaxlit, ko'p qirrali o'rganishni ta'minlaydi. Yosh avlodni jismonan sog'lom, aqliy va ruhiy jihatdan tetik, qaddi-qomati kelishgan qilib tarbiyalashda biz kattalarning roli nihoyatda sezilarlidir [8].

jarayonlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'quv rejasiga muvofiq fanlarni o'rganish maqsadini, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun nazariy va amaliy ahamiyatini tushunish, pedagogik faoliyat asoslarini o'zlashtirish jarayonida talabning ijodiy kuchlarini safarbar etish. Motivatsion komponentning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: maktab o'quvchilarning, shu jumladan iqtidorlilarning fikrlash jarayonini boshqarishda ta'limga, yangi tajribaga, bolalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj; faoliyatning shaxsning fazilatlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi va o'rganish uchun kognitiv motivatsiya; kognitiv qiziqishlarni rag'batlantirishga, faoliyat va o'z-o'zini rivojlantirish uchun ichki rag'batlarning mavjudligiga e'tibor berish; iqtidorli bolalar bilan ishlashda ijodiy izlanishga ijodiy munosabat; shaxsiy qadriyat sifatida, o'qituvchi rolda shaxsning bayonoti sifatida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish; kasbga, o'rganishga ijodiy munosabat, bilim olish zarurati, o'quv materialiga qiziqish va mustaqil ravishda qo'shimcha ma'lumot olish; o'qitishning maqsad va vazifalaridan xabardorlik; kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy kompetensiyalarni egallash istagi. Tarkib komponentining xususiyatlari qatorida: o'quv rejasida nazarda tutilgan o'quv fanlari mazmunidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda foydalanish; bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyat asoslari, iqtidorli bolalar bilan individual va guruhli ishlashning turli xil texnika va usullari haqida to'liq va chuqur fan bilimlarini olish, mustaqil ish uchun vazifalarni tanlash. Tarkib komponentiga quyidagilar kiradi: bo'lajak o'qituvchilarni iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlash mazmuni tamoyillari, qonuniyatlari haqidagi bilimlar; ta'limning so'nggi texnologiyalari mazmunini, ijodiy, iqtidorli bolalarning xususiyatlarini o'zlashtirgan holda o'quv va ilmiy faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq bilimlar ular bilan o'zaro munosabatlarga yordam beradi. Shuning uchun o'rganishdagi ushbu komponent "Iqtidorli bolalar bilan ishlashga ijodiy boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash" maxsus kursi dasturining uslubiy mazmunini shakllantirishga qaratilgan; turli o'quv qo'llanmalarni o'z ichiga olgan "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlash" o'quv-uslubiy majmuasi; nazorat vositalarini yaratish (so'rovnomalari, imtihonlar matnlari va ularni amalga oshirish jadvallari; bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari); ijodiy o'qituvchini tayyorlash mohiyatini nazariy tushunishda asosiy tushunchalar mazmuni bilan tanishish. iqtidorli bolalar bilan ishlash; bo'lajak o'qituvchilar tomonidan innovatsion texnologiyalar mazmunini o'zlashtirish. Mazmun komponentining mezon belgilari quyidagilardan iborat: falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarning turli ko'rinishdagi manbalarini tahlil qilish bo'yicha bilimlarni egallash; fan va didaktik va uslubiy fanlar bo'yicha ma'lum hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish; o'quvchilar e'tiborini asosiy nazariy qoidalarga, asosiy tushunchalarga qaratish; kadrlar tayyorlash mazmuniga innovatsiyalarni joriy etish (mazmunni yangilash, eng yangi pedagogik texnologiya va yondashuvlar mazmunini o'zlashtirish). Yuqoridagi bilim turlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning protsessual, ijodiy va faoliyat-refleksiv tarkibiy qismlarining ilmiy-nazariy asosi, deb hisoblaymiz. Protsessual komponent - bu universal harakatlarini shakllantirishga hissa qo'shadigan yangi sharoitlarda samarali bo'lgan bilim, ko'nikma va harakatlar to'plamini qo'llash algoritmini o'zlashtirishga qaratilgan turli shakllar, texnologiyalar, yondashuvlardan foydalangan holda o'quv jarayoni[2].

Bizning fikrimizcha, protsessual komponent o'quv jarayonining operativ tomoni sifatida ijodiy o'qituvchini

tayyorlash va sinovdan o'tishni ta'minlash uchun kontentni yangilash va eng yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq o'quv va tarbiyaviy faoliyatga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni nazarda tutadi. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning uslubiy tizimini joriy etish zamonaviy jamiyatdagi dinamik o'zgarishlar sharoitida bolalar. Protsessual komponentning mezonlari sifatida biz quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz: pedagogik faoliyatning texnikasi, usullari, vositalari, o'qituvchining iqtidorli bolalar bilan ishlashga funktsional tayyorligini aniqlaydigan va ularga ilmiy bilimlar va faktik materiallar bilan ishlashga imkon beradigan zarur ko'nikmalarga ega bo'lish; zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda darslarni modellashtirish va o'tkazish (shaxsga yo'naltirilgan, tadqiqot, tabaqalashtirilgan, kompetensiyaga asoslangan) pedagogik faoliyatda o'z-o'zini anglash maqsadiga erishish, pedagogik texnika va ko'nikmalarni rivojlantirish, o'rganish bo'yicha olingan bilimlarni qo'llash qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchilarni iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda ijodiy faoliyat komponenti alohida ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchini universitetda o'quv jarayonini tashkil etishda belgilangan yondashuvdan voz kechishga undaydi va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash natijasi uning ijodkorlik, o'z-o'zini tarbiyalash, yangilik qilish qobiliyati bo'ladi. Ijodiy-faoliyat komponentining mezonlari quyidagilardan iborat: ta'lim jarayonining kelajakdagi o'qituvchini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlashga yo'naltirilganligi; eng yangi texnologiyalarni o'zlashtirgan holda ijodiy muhit yaratish; o'quv jarayonining tadqiqot va ijodiy xarakteri: axborotni tadqiq qilish, individual o'quv va tadqiqot vazifalari, referatlar, annotatsiyalar, insholar yozish, shaxsiy fikr bildirish, ilmiy muammolarni, ijodiy vazifalarni hal qilish, loyihalar tayyorlash, yangi g'oyalarni joriy etish; muvaffaqiyat hissiyotlari, qoniqish hissi, ijodiy tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; o'quvchilar bilan sub'ektning o'zaro munosabati; kelajakdagi o'qituvchilarning ijodkorligi, faolligi, mustaqilligining namoyon bo'lishi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga motivatsion-qadriyat munosabatini

shakllantirishni zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy maqsadi deb hisoblagan Ko'rib turganingizdek, o'qitish mazmuni ehtiyojlar bilan belgilanadigan motivlarga bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirish eng yangi texnologiyalardan foydalanishga yo'naltiriladi. Ushbu komponentlar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish o'quvchilarning yangi narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi va kelajakda - ijodiy faoliyatda ishlash, iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosalar va tavsiyalar. Yuqorida aytilganlar ijodiy rivojlangan o'qituvchini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlash shartlarini aniqlashga imkon berdi:

1. OTM o'qituvchisining innovatsion ta'lim makonining ijodiy muhitida ishlash qobiliyati muhim rol o'ynaydi, bu an'anaviy sharoitlardan qoniqmagan va sifat jihatidan yangi natijalarga intilayotgan o'qituvchining alohida faoliyati. Bunday holatda, atrof-muhit shaxsni to'liq qamrab oladi, vaziyat keskinlashadi, "moslashadi"; sub'ektning o'zi esa muhitni o'zgartiradi, unda integratsiyalashadi, uning yaratuvchisiga aylanadi. Xususan, maktab uchun didaktik materiallarni tayyorlashda ijodiy muhit yaratish va ularni taqdim etishni bo'lajak o'qituvchining iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradigan shartlardan biridir.

2. Tarkibni takomillashtirish (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlash va ularni uslubiy ta'minlash bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqish); portfolioni tuzish, loyihalarni yaratish, ommaviy taqdimot, keys usuli kabi mustaqil, tadqiqot faoliyati usullaridan foydalanish.

3. O'quv jarayoni shakllarini takomillashtirish (kompyuter sinfida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash).

4. O'qituvchini iqtidorli bolalar bilan ishlashga tayyorlash uchun ta'lim jarayonining tarkibiy qismlarining yo'nalishi (motivatsion, mazmunli, protsessual, ijodiy-faoliyat, aks ettirish).

5. O'qituvchini tayyorlashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish (shaxsiy faoliyatga asoslangan, kompetensiyaga asoslangan, texnologik, ilmiy, tabaqalashtirilgan).

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Amirova G. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning optimal yo'llari // Uzluksiz ta'lim. – T., 2015. – № 5.
3. Ergasheva G. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy komponentlari // Xalq ta'limi. – T.: 2017.
4. Алексеева О.В. Формирование профессиональной рефлексии у будущих учителей начальных классов. URL: <http://e-koncept.ru/2015/75231.htm> (дата обращения 21.01.2017).
5. Бурякова Т.С. Формирование стиля учебно-профессиональной деятельности будущего учителя начальных классов в вузе: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Волгоград, 2012. 22 с.
6. Ганичева И.А. Развитие профессиональной мотивации бакалавров психолого-педагогического образования в процессе обучения в вузе. URL: <http://e-koncept.ru/2016/16008.htm> (дата обращения 15.01.2017).
7. Горбушина А.Н. Взаимосвязь учебной мотивации и академической неуспеваемости студентов вуза // Молодой ученый. 2014. №6. С. 793-795.
8. Крылова М.Н. Способы мотивации учебной деятельности студентов вуза // Перспективы науки и образования. Выпуск № 3. 2013. С.86–95.
9. Dobrowolowicz J. Uczeń zdolny w szkole // Psychologia w Szkole. 2004. N 3. P. 95-105.
10. George T. Betts. Profiles of the Gifted and Talented / T. George, M. Neihar // Robert J. Sternberg (editor). Definitions and conceptions of Giftedness. Corwin Press, Thousand Oaks, California 2004. 182 p.
11. Runco M.A. Divergent thinking, creativity, and giftedness // Gifted Child Quarterly. 1993. N 31(1). P. 16-22.
12. Sternberg R.J. Wisdom as a form of giftedness // Gifted Child Quarterly. 2000. N 44 (4). P. 252-260. [URL: <http://rpedagogy.ru/journal/article/1816/>].



Baxodir KARIMOV,

Qarshi davlat universiteti Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: boho_mss@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Nurullayeva taqrizi asosida

FORMATION OF NORMATIVE AND METHODOLOGICAL AUTHORITY OF FUTURE SPECIALISTS

Annotation

This article discusses the specifics of the most important forms of cooperation between the higher education institution and the enterprise in the formation of all components of the normative-metrological competence of the future engineer.

Key words: Specialist, prospective engineer, authority, normative-metrological, labor market.

ФОРМИРОВАНИЕ НОРМАТИВНО-МЕТОДИЧЕСКОГО АВТОРИТЕТА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается специфика важнейших форм сотрудничества вуза и предприятия в формировании всех составных компонентов нормативно-метрологической компетентности будущего инженера.

Ключевые слова: Специалист, будущий инженер, орган власти, нормативно-метрологический, рынок труда.

INTEGRATIV UZVIYLIK - BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI NORMATIV-METROLOGIK VAKOLATINI SHAKLLANTIRISH OMILI

Аннотация

Mazkur maqolada bo'lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirish doirasida oliy ta'lim muassasasi va korxonalar hamkorligini tashkil etishning eng muhim shakllarining o'ziga xos jihatlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Mutaxassis, bo'lajak muhandis, vakolat, normativ-metrologik, mehnat bozori.

Kirish. Ta'lim muassasasining vakolatga ega malakali mutaxassislar tayyorlanayotgan korxonalar bilan o'zaro hamkorligi talabning professional-motivatsion sohasini rivojlantirish, shuningdek, talabani oliy ta'lim muassasasida o'qitish jarayonida talabalarni real ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish tizimini joriy etishdan iborat. Oliy ta'lim muassasasining potensial ish beruvchi bo'lgan sanoat korxonasi bilan o'zaro hamkorligi "asosiy funksiyani bajarish - mehnat bozorini zarur miqdordagi va tayyorgarlik sifatiga ega mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash" imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'lim muassasasi uchun quyidagilar kabi qo'shimcha imkoniyatlar ochiladi:

kasb-hunar tuzilmasi va kadrlar tayyorlash hajmini aniqlashtirish imkonini beruvchi mehnat bozori to'g'risidagi ma'lumotlardan doimiy foydalanish;

mutaxassislarni tayyorlash mazmuni bo'yicha ish beruvchilarning talablarini hisobga olish; professional ta'lim standartlarini, o'quv rejalarini, dasturlarini birgalikda ishlab chiqish;

zamonaviy iqtisodiyot sohasida ishlatiladigan uskunalarda talabalarining amaliyotlarini tashkil etish;

eng yangi uskunalalar va texnologik jarayonlar bilan tanishish uchun o'qituvchilarning muntazam stajirovkasini tashkil etish;

ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan test bo'yicha mustaqil ekspert komissiyalari tomonidan mutaxassislar tayyorlash sifatini mustaqil baholash mexanizmini yaratish;

bitiruvchilarni ishga joylashtirish imkoniyatlarini oshiradigan muayyan korxonalar uchun mutaxassislarni maqsadli tayyorlash... [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqsadga oliy ta'lim muassasasi va korxonalariga yo'naltirilgan ta'lim muammolarini hal qilish orqali erishiladi (ta'lim vazifalarini tartibga solish va hal qilish).

Oliy ta'lim muassasasi oldida turgan ta'lim vazifalariga quyidagilarni kiritamiz:

- ishlab chiqarish sohasining zamonaviy talablariga javob beradigan ta'lim mazmunini amalga oshirish (fanlarning o'quv rejaları va ishchi dasturlarini tuzatish, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida professional faoliyatga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi o'quv-professional vazifalar komplekslarini yaratish, ishlab chiqarish amaliyotining o'zgaruvchan mazmunini ishlab chiqish);

- nafaqat federal davlat ta'lim standarti, balki zamonaviy mintaqaviy ishlab chiqarish talablarini hisobga olish imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni nazorat qilish va hisobga olish tizimini qo'llash.

Korxonalar oldida turgan ta'lim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta'limning soha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim mazmuni va texnologiyalarini tuzatish bo'yicha takliflar kiritish;

- o'qituvchilar va talabalarining tadqiqot faoliyati natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Oliy ta'lim muassasasi va mintaqaviy sanoat korxonalarining o'zaro hamkorligini amalga oshirish quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish ekskursiyalarini o'tkazish;

- xalqaro standartlashtirish kuni, Butunjahon metrologiya kuni, Jahon sifat kuni korporativ tadbirlarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish amaliyoti davomida bo'lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatni shakllantirish;

- korxonaning yuqori malakali mutaxassislarini auditoriya mashg'ulotlariga, talabalar bilan auditoriyadan tashqari ishlarda ishtirok etishga jalb etish;

- korxonalar negizida o'qituvchilar va talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Bo'lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatning barcha tarkibiy

qismlarini shakllantirish doirasida oliy ta'lim muassasasi va korxonalar hamkorligini tashkil etishning eng muhim shakllaridan biri ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirishdir.

Talabalar ishlab chiqarish amaliyoti oliy kasb-hunar ta'limi asosiy ta'lim dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi talabalar nazariy ta'lim jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, kasbiy mahorat, ko'nikmalar va amaliy ish tajribasiga ega bo'lishdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti kelajakdagi muhandisni tayyorlashning integrativ shakli hisoblanadi, chunki talabalar uning davomida korxonalar tuzilishi bilan tanishadilar, mehnatni tashkil qilishni, korxonalar iqtisodiyotini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va nazorat qilish jarayonlarini o'rganadilar. Biz ishlab chiqarish amaliyotini "professional faoliyatning qonuniyatlari va tamoyillarini bevosita bilish, uni tashkil etish usullarini o'zlashtirishni ta'minlash orqali professional bilimlarga asoslangan muayyan nazariy poydevorga tayangan professional ta'lim shakli" sifatida ko'rib chiqamiz [3].

Ishlab chiqarish amaliyoti davomida bo'lajak muhandisda normativ-metrologik vakolatini shakllantirish uchun tayyorgarlik yo'nalishlarining o'quv rejalariga muvofiq dastlabki nazariy professional tayyorgarlikni ta'minlash zarur. O'quv jarayoni talabalar mashinalar, jihozlar, mexanizmlar, asbob-uskunalar xavfsiz ishlatish qoidalari va talabalarini, yong'in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari majburiy o'rganishni nazarda tutishi lozim. V. I. Baydenko, V. M. Jurakovskiy, A. A. Kirsanovning muhandislik va texnik professional ta'limga bag'ishlangan ilmiy ishlarida bo'lajak mutaxassisning professional tayyorgarligini takomillashtirish yondashuvlari orasida amaliy yo'naltirilgan yondashuv qayd etiladi [5].

Ishlab chiqarish amaliyotining asosi sifatida tegishli professional yo'nalishdagi mintaqaviy sanoat korxonalarini jalb qilish kerak. Ta'lim muassasasi ishlab chiqarish korxonasi bilan birgalikda faoliyati normativ-metrologik vakolatlarining tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun prinsipial bo'lgan korxonaning tarkibiy bo'linmalarini belgilaydi; o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtiradi; ta'lim muassasasidan va korxonadan rahbarlarni tayinlaydi; har bir talaba tomonidan amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarni mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish bo'limlari bo'yicha talabalarni ko'chirish javdallarini tuzadi.

Mutaxassislarni tayyorlashda turli darajadagi ta'lim tizimlari va ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyalashuvi va o'zaro ta'siri muammolari bir qator tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida mutaxassisning professional malakasini shakllantirish bo'yicha professional ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning pedagogik maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan [2]. Ushbu hamkorlikning asosida ishlab chiqarish sharoitida innovatsion texnik-ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishda o'qituvchi, muhandis-texnik xodim va talaba faoliyatining integratsiyasi yotadi. Olimlar ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarning muayyan usullari (axborot-kommunikativ, shiriklik, tashkiliy-shartnoma) va turlari (birgalikda yashash, ko'maklashish, hamkorlik) bo'lajak mutaxassisning professional malakasini shakllantirishga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiluvchi muayyan ta'lim muhitining paydo bo'lishini belgilashini isbotlashdi.

Xulosa. Normativ-metrologik vakolatni shakllantirish jarayonidagi ishlab chiqarish amaliyoti davomida talabalar tomonidan olingan nazariy bilimlar ifodalanadi, aniqlikni standartlashtirish, meyorlashtirish va nazorat qilish bo'yicha faoliyatning individual uslubi shakllantiriladi va takomillashtiriladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida normativ-metrologik vakolatlarining shakllanishini ta'minlashga qaratilgan quyidagi vazifalar aniqlandi:

- ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish va metrologik ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan talabalar nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash;

- normativ-metrologik vakolatni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish.

Bo'lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlash bo'lajak muhandisning normativ-metrologik vakolatini shakllantirishga yordam beradigan muayyan ta'lim muhitida ta'minlanadi. Binobarin, amaliyot bazalariga qo'yiladigan talablarni belgilash kerak bo'lib, ular:

- moddiy rivojlanishning yuqori darajasi;

- loyihalashtirish jarayonlarini muhim normativ-texnik hujjatlar bilan ta'minlash; ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnik va nazorat-o'lchov uskunalarini bilan ta'minlash;

- yuqori malakali muhandislik-texnik xodimlarning mavjudligidir.

Shunday ekan, mazkur aspektlarni nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri analiz qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. - М.: Просвещение, 1990. - 141 с.
2. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вуза как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: Методическое пособие [Текст] / В.И. Байденко. -М: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. -72 с.
3. Жураковский В.М. Высшая техническая школа на рубеже веков // Высшее образование в России. - 1999. - № 1. - С.2-8.
4. Кузнецов В.В. Введение в профессиональнопедагогическую специальность: учеб. пособие для студ. Высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. - 176 с.
5. Попов А.В. Формирование инженерной компетентности будущего специалиста во взаимодействии ВУЗа и предприятия: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. -Оренбург: ИПК ОГУ, 2006. - 21 с.
6. Профессиональная педагогика: учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. -2-е изд., перераб. и доп. [Текст] - М.: Ассоциация «Профессиональное образование», 1999.- 904 с.
7. Karimov B.S. Talabalarda meyoriy-metrologik kompetensiyalarni shakllantirish darajalari va ko'rsatkichlari. -Xalq ta'limi, №6-. 61 b



UDK:361.482

Faxriddin KARIMOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti
E-mail: faxriddinkarimov052@gmail.com

TDPU dotsenti S.Quvondiqov taqrizi asosida

O‘RTA YOSHDA 45-60 YOSHLI ERKAKLAR UCHUN JISMONIY TAYYORGARLIKNI HISOBGA OLGAN HOLDA SOG‘LOMLASHTIRUVCHI MASHQLAR JAMLANMASINI ISHLAB CHIQUISH

Annotatsiya

Bugungi kunda o‘rta yoshdagi, ya‘ni 45-60 yosh oralig‘idagi erkaklar uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarish kompleksini ishlab chiqish o‘ta muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu yoshda inson tanasida mo‘rtlashish jarayoni boshlanadi, tana yuklamalarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli avvalo aerobika va yengil mashg‘ulotlar ko‘nikmasiga ega bo‘lish muhim. Ushbu maqolada 45-60 yoshli erkaklar uchun yengil toifadagi mashqlar va ular natijasida kelib chiqqan natijalar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: badantarbiya, aerobika, jismoniy tarbiya, 45-60 yosh, yuklama, mashg‘ulot, samaradorlik, davomiylik, sport.

DEVELOPMENT OF A COMPLEX OF HEALTHY EXERCISES TAKING INTO ACCOUNT PHYSICAL FITNESS FOR MIDDLE-AGED MEN 45-60 YEARS OLD

Annotation

Today, it is a very important task to develop a complex of fitness exercises for men of middle age, i.e. between 45-60 years of age. At this age, the process of brittleness begins in the human body, the body has difficulties in accepting loads. Therefore, it is important to have the skills of aerobics and light training first. This article discusses light-weight exercises for men aged 45-60 and their results.

Key words: physical education, aerobics, physical training, 45-60 years old, loading, training, efficiency, continuity, sport.

РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСА ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ С УЧЕТОМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЛЯ МУЖЧИН СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА 45-60 ЛЕТ

Аннотация

На сегодняшний день очень актуальной задачей является разработка комплекса фитнес-упражнений для мужчин среднего возраста, т.е. от 45 до 60 лет. В этом возрасте в организме человека начинается процесс ломкости, организм испытывает трудности в восприятии нагрузок. Поэтому важно сначала иметь навыки аэробики и легких тренировок. В данной статье рассматриваются упражнения с легким весом для мужчин 45-60 лет и их результаты.

Ключевые слова: физическое воспитание, аэробика, физическая культура, 45-60 лет, нагрузка, тренировка, эффективность, преемственность, спорт.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda aholi salomatligiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori aholi salomatligini tiklash masalasidagi e‘tiborning yaqqol namunasidir. Ayniqsa, o‘rta yoshli erkaklar salomatligini mustahkamlash, ular bilan muntazam jismoniy mashg‘ulotlarni olib borish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda [1].

So‘nggi paytlarda hayot sur‘ati tezlashdi, odatiy stereotiplar o‘zgardi, inson faoliyati jarayonidagi psixoemotsional yuklamalar o‘tdi. Buning hammasi harakat faolligi yetishmasligi zamirida kechmoqda. Shuni e‘tirof etish joizki, katta hajmdagi mashg‘ulot yuklamalari, gipodinamiya kabi, moslashish jarayonlarining zo‘riqishiga va aholining turli xil ijtimoiy– demografik guruhlarining, jumladan o‘rta yoshli erkaklar salomatlik holati yomonlashishiga olib keladi.

Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Uning asosiy maqsadi organizmni har tomonlama rivojlantirish, uni turli xil jismoniy va aqliy yuklamalardan toliqqandan so‘ng tiklantirish, ijobiy emotsional holatni saqlab kolishdan iborat. Sog‘lomlashtiruvchi aerobikaning xususiyati shundaki, u asta-sekin oshib boruvchi yuklama yordamida organizmning barcha fiziologik tizimlariga kompleks ta‘sir qiladi. Mushak

ishi hajmi va shiddatining bir tekis oshib borishi harakat faoliyatining son tavsiflari ko‘rsatkichlarining asta-sekin oshib borishini, fiziologik va harakat funksiyalarining muvofiqligini ta‘minlaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada o‘rta yoshdagi 45-60 yoshli erkaklar uchun ularning salomatligidan kelib chiqib sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasini optimallashtirish metodologiyasi ko‘rib chiqiladi. Bunda asosan aerobika tomonlama yondashiladi. Sog‘lomlashtiruvchi aerobika komplekslarining turli-tumanligi ularni tanlab olishga ijodiy yondashish imkonini yaratadi, zarur yo‘nalishdagi harakatlardan iborat mashqlar seriyalarini tanlab olishga yordam beradi. Egilishlar (bosh, tana); siltashlar, o‘tirib-turishlar bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning ko‘proq kiritilishi bo‘g‘imlardagi harakatchanlikni rivojlantirishga imkon yaratadi; harakat sur‘atlarini o‘zgartirib turish tezlik sifatlarini rivojlan- tiradi; raqs elementlaridan foydalanish harakat koordinatsiyasi, harakatlanish xotirasini rivojlantiradi; yugurish harakatlari, sakrashlarning ko‘p qo‘llanilishi yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini rivojlantirish bilan chidamlilikni takomillashtiradi, boylamlar va paylar egiluvchanligining ortishi, mushaklar cho‘ziluvchanligining yaxshilanishi harakatlar amplitudasi va erkinligini oshiradi.

Sog‘lomlashtiruvchi aerobika sohasida ishlanmalarining mavjudligiga qaramay, kompleks dasturlar

ko'p emas, mavjudlari esa to'ldirilishi va qayta ishlab chiqilishi lozim. Buning hammasi 45-60 yoshdagi erkaklar bilan sog'lomlashtiruvchi aerobika bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish hamda ular asosida mashg'ulotlar o'tkazish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish zaruratini belgilab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik tajrabada Toshkent moliya institutida faoliyat olib borayotgan 45-60 yosh orasidagi 30 nafar erkaklar qatnashdi. Seksiya mashg'ulotlari haftada 3 marta 60 daqiqa davomida o'tkazildi va uchta qismdan iborat bo'ldi. Tayyorlov qismi – 10-15 daqiqa. Buyumlar bilan va buyumlarsiz bajariladigan umumrivoj- lantiruvchi mashqlarni hamda cho'ziltirish mashqlarini o'z ichiga oldi. Asosiy qism – 30-35 daqiqa. Bazaviy aerobika, raqs kombinatsiyalari, noan'anaviy gimnastika turlari elementlari, parterda bajari- ladigan mashqlar, shuningdek, kuchga yo'naltirilgan mashqlardan iborat bo'ldi. Yakunlovchi qism – 5-10 daqiqa.

Bo'shashtirish va bo'g'imlardagi harakat- chanlik uchun mashqlar bajarildi.

Dasturga vositalarni tanlab olish va ularni bosqichlar bo'yicha taqsimlash sport-sog'lomlashtirish markazlaridagi sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning mavjud metodikalari tahlili asosida amalga oshirildi.

Dastur 2 bosqichdan iborat bo'ldi: I-kirishitiruvchi –2 oy; II–mashg'ulot –4 oy.

1-jadval

Bosqichlar bo'yicha aerobika vositalari nisbatlari

I BOSQICH	II BOSQICH
Bazaviy aerobika 45%	Aylanma+step+shepying 50%
Kuchga yo'naltirilgan aerobika 35%	Raqs aerobika va xoreografiya 30%
Raqs aerobika i xoreografiya 20%	Noan'anaviy va sharqona tizimlar elementlari20%
	Stretching5%
	Taybo5%
	Yoga5%
	Pilates5%

2-jadval

Aerob mashqlarning bajarilish shiddati ko'rsatkichlari (mashg'ulot paytida YQT)

Yoshi	Maksimal sur'at	max YQT dan 60%	max YQT dan 70%	max YQT dan 80%
45-60	200	120	140	160

Tajriba guruhining barcha shug'ullanuvchilari kompleks dasturni muvaffaqiyatli o'zlashtirib oldilar. Kompleks dasturdagi bajariladigan mashqlar shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini yaxshiladi, dastlabki va yakuniy natijalarning qiyosiy tahlili ko'rsatkichlarining ishonchli o'sganligidan dalolat beradi. Tajriba guruhi shug'ullanuvchilari ko'rsatkichlari barcha nazorat mashqlari bo'yicha nazorat guruhidagilarning ko'rsatkichlaridan ustun keldi. Eng katta o'sish kuch sifatleri, bo'g'imlardagi harakatchanlik va koordinatsion qobiliyatlar ko'rsatkich- larida qayd qilindi.

Agar kuch chidamliligining rivojlanish darajasi bo'yicha (1 daqiqa ichida yelkalarini ko'tarish) nazorat guruhi tajriba guruhi shug'ullanuvchilaridan ustunlikka ega bo'lgan bo'lsa ($R < 0,05$), tajriba oxirida tajriba guruhidagi o'rta yoshli erkaklar ushbu ko'rsatkich bo'yicha nazorat guruhidan o'zib ketdilar (mos ravishda 26,5 martadan 34,9 martagacha va 28,0 martadan 31,0 martagacha).

Tahlil va natijalar. Tajriba guruhi ishtirokchilarida noan'anaviy mashg'ulot tizimlari: pilates, yoga, stretching vazifalarini bajarish katta qiziqish uyg'otdi. Ularning bajarilishi bo'g'imlardagi harakatchanlikni yaxshilashga yordam berdi.

Masalan, "oldinga egilish" mashqida ishonchli o'sish aniqlandi (1,0 dan 6,5 sm gacha) ($R < 0,05$). Nazorat guruhida

3-jadval

45-60 yoshdagi erkaklarning jismoniy rivojlanish darajasi (tajriba boshida va oxirida)

Guruh	Tadqiqot vaqti	Tana og'irligi (kg)	Aylanalar (sm)					
			Ko'krak	Bel	Tos	Sonlar	Boldirlar	
Tajriba	Boshida	69,5 ± 10,3	87,7 ± 5,5	76,0 ± 6,8	97,2 ± 9,4	56,2 ± 5,0	36,8±4,9	69,5 ± 10,3
	Oxirida	65,3 ± 5,0	86,0 ± 4,2	74,2 ± 5,4	92,4 ± 7,3	51,9 ± 4,0	35,2±4,6	65,3 ± 5,0
		R>0,05	R>0,05	R>0,05	R<0,05	R<0,05	R>0,05	R>0,05

Mashqlar II qismga bo'lingan edi (o'sib boruvchi murakkabligiga qarab): dasturning I qismiga 3 ta yo'nalish kiritildi: bazaviy aerobika; aero- bikaning kuchga yo'naltirilgan turlari; raqs aerobika va xoreografiya. II qismida: raqs aerobika va xoreografiya; aerobikaning kuchga yo'naltirilgan turlari: step, shepying, aylanma; noan'anaviy va sharqona tizimlar elementlari: pilates, taybo, stretching.

bosqichda (8 hafta) bazaviy aerobika, kuchga yo'naltirilgan aerobika va raqs xoreografiyasi vositalaridan foydalanildi.

bosqichda (16 hafta) avval o'rganilgan bazaviy aerobika mashqlari va birikmalari faqat mashg'ulotning tayyorlov qismidagi chigalyozdi mashq- larini bajarishda amalga oshirildi.

II bosqich asosini kuchga yo'nal- tirilgan mashqlar, raqs aerobika va xoreografiya tashkil etdi. Noan'anaviy tizimlardagi mashqlar qo'shimcha ravishda qo'llanildi (1-jadval). Aerob seriyasidagi yuklamalarning tavsiya etilgan shiddati mashg'ulotlarda qatnashish stajiga va tayyorgarlik darajasiga qarab o'zgartirib turildi: endi shug'ullanayotganlar uchun maksimal YQT (Yurak qisqarishi tezligi) dan 55-65%, o'rtacha daraja - 65-75% (5-7 oylik mashg'ulotlar), yuqori daraja (1 yil va ko'proq) – 75-85%. 45-60 yosh uchun YQT ning o'rtacha sur'ati jadval asosida aniqlandi (2-jadval).

shunga o'xshash o'zgarishlar katta emas (3,12 dan 4,4 sm. gacha).

Tadqiqot davomida taklif etilgan dastur ishtirokchilarining koordinatsion qobiliyatleri rivojla- nishiga ijobiy ta'siri aniqlandi. Koordinatsiya uchun testda tajriba guruhida o'rtacha ball 5,5 dan 9,1 ballgacha o'sdi. Nazorat guruhida o'sish katta bo'lmadi – 6,2 dan 8,2 ballgacha ($R < 0,05$). Ishtirokchilar o'quv-mashg'ulot jarayoniga klassik xoreografiya bo'limlaridan– stanok yonida xoreografiya, parterda xoreografiya, shuningdek, insonning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlan- tirishda yuqori samara beruvchi raqs harakatlari kiritilganligi bilan tushuntiriladi.

Jismoniy rivojlanishning antro- pometriki ko'rsatkichlari o'zgarishi ikkala guruhda ham qayd qilindi. Eng katta o'zgarishlar tajriba guruhida aniqlandi: tos aylanasining kamayishi - 97,2 dan 92,4 gacha, son aylanasi – 56,2 dan 51,0 sm. gacha. Dasturdagi "step-aerobika"va "xoreografiya" bo'limidagi mashqlar, birinchi navbatda, gavda tuzilishini yaxshilaydi va oyoqlar mushaklarini mustahkamlaydi.

Tajriba guruhida gavda og'irligi 4,2 kg ga, nazorat guruhida esa 2,0 kg ga kamaydi. Tajriba guruhi shug'ullanuvchi- larida kuzatuvlarning yuqori darajada bir xil bo'lgan sharoitlarda (SV 10% dan kam) o'rtacha arifmetik qiymatdan (X) standart og'ish kattaligi (δ) ancha kam (3,4-jadval).

Nazorat	Boshida	66,3 ± 8,8	84,1 ± 5,2	74,5 ± 5,0	94,5 ± 8,9	55,8 ± 4,1	35,0 ± 3,6	66,3 ± 8,8
	Oxirida	64,2 ± 8,0	84,5 ± 4,8	84,5 ± 4,8	74,0 ± 4,5	53,7 ± 3,9	34,9 ± 3,3	64,2 ± 8,0
		R>0,05	R>0,05	R>0,05	R>0,05	R>0,05	R>0,05	R>0,05

4-jadval

45-60 yoshdagi erkakning jismoniy rivojlanish darajasi (tajriba boshida va oxirida)

Guruh	Tadqiqot vaqti	Qo'llarni bukib-yozish (1 min ichida marta)	Yelkalarini ko'tarish (1 min ichida marta)	Step test (zarba/min)	Muvozanat «qaldirg'och» (sek)	O'tirib egilish (sm)	Dyoqni oldinga uzatish (grad)		Koordinatsiya (ball)
							O'ng	Chap	
Tajriba	Boshida	15,5 ± 0,9	30,2 ± 2,3	140,0 ± 14,3	7,7 ± 0,7	3,0 ± 0,2	80,8 ± 4,1	74,2 ± 3,3	5,5 ± 0,3
	V%	5,8	7,6	10,2	9,1	6,7	5,1	4,4	5,4
	Oxirida	24,8 ± 1,8	34,9 ± 3,1	130,0 ± 8,1	8,8 ± 0,8	6,5 ± 0,4	81,9 ± 6,8	80,0 ± 3,0	9,1 ± 1,0
	V%	7,2	8,8	6,2	9,1	6,1	8,3	3,7	10,1
		R<0,05	R<0,05	R>0,05	R<0,05	R<0,05	R<0,05	R<0,05	R<0,05
Nazorat	Boshida	16,3 ± 0,9	28,0 ± 2,2	136,0 ± 11,7	8,0 ± 0,7	3,2 ± 0,2	81,8 ± 6,1	76,0 ± 5,8	6,2 ± 0,6
	V%	5,5	7,9	8,6	8,7	6,2	7,4	7,6	9,7
	Oxirida	20,2 ± 1,8	31,0 ± 3,2	134,0 ± 10,0	8,5 ± 0,8	4,4 ± 0,4	82,3 ± 5,6	80,0 ± 5,0	8,2 ± 0,9
	V%	8,9	10,3	7,4	9,4	9,1	6,8	6,2	10,9
		R<0,05	R<0,05	R>0,05	R>0,05	R<0,05	R<0,05	R<0,05	R<0,05

Xulosa va takliflar. Mashg'ulotning yuqori zichligi, dam olish tanaffuslarining turli xil shiddat bilan almashinishi har xil mushak guruhlariga ishlov berishga yordam berdi, vaznni kamaytirish va jismoniy holatni oddiy mashg'ulotga nisbatan ancha tezroq yaxshilashga imkon yaratdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur asosida muntazam mashg'ulotlar o'rta yoshli erkaklar jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi: tajriba guruhida: gavda og'irligi – o'rtacha 4,12 kg., son aylanasi 4,3 sm., tos aylanasi

4,8 sm ga kamaydi; nazorat guruhida: gavda og'irligi – o'rtacha 2,1 kg., son aylanasi 2,1 sm, tos aylanasi 0,7 sm ga kamaydi.

Umuman olganda, natijalar bazaviy, raqs aerobika va kuchga yo'naltirilgan hamda an'anaviy mashg'ulot tizimlarini o'ziga mujassam etgan kompleks dastur 45-60 yoshdagi o'rta yoshli erkaklar ning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga, harakat faolligini oshirishga imkon yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori.
2. Adamova I.V. 45-60 yoshli erkaklar bilan gimnastika va suzishning sog'lomlashtiruvchi turlari bo'yicha kompleks mashg'ulotlar texnologiyasi. Diss. M., 2010 yil.
3. A. Abdullaev, Sh.X. Xankeldiev. "Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati". Farg'ona-2010 yil. 213-b
4. Abdullaev A., Rasulov R., Xasanov A., Umumiy o'rta va kasb-xunar ta'limi tizimlarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlar. T.: 2019 y. 268-b
5. Boltaboev.X.X. "Sog'lom turmush Vatandashlik tarbiyasining ijtimoiy pedagogik asoslari" Ilmiy axborotnoma. Namangan-2020 260-269-s
6. Lisitskaya T.S. Barcha did uchun aerobika. - M, "Ma'rifat" - Vldos, 2014 yil.
7. Lisitskaya T.S. Rekreatsiyon aerobikaning tamoyillari. Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti, 2012. No 8.
8. Tursunov U., «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi», o'quv qo'llanma, Qo'qon, 2012. 37-39-s
9. Xankeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar. Kasb – Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'ona. 2010 y. 261-b



UDK: 373.5.015.31:51

Kunduz KARIMOVA,
Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: q_karimova@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.-m.f.d M.Mamatov taqrizi asosida

WORKING ON PALINDROME NUMBERS IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

Abstract

Nowadays, it is necessary to ensure the active participation of the student in the teaching process, to make full use of the student's abilities and opportunities by using various methods that lead to creative thinking and independent work. The article describes issues related to palindromic numbers aimed at forming and developing the thinking of elementary school pupils.

Key words: Primary grade, logical thinking, mathematics, assignment, complex problems, logical problem, palindrome numbers.

РАБОТА С ЦИФРАМИ-ПАЛИНДРОМАМИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

Сегодня необходимо обеспечить активное участие школьника в учебном процессе, дать возможность в полной мере использовать возможности и возможности обучающихся, используя различные вопросы, направленные на творческое мышление, самостоятельную работу. В статье изложены вопросы, связанные с палиндромными числами, направленные на формирование и развитие мышления младших школьников.

Ключевые слова: Начальный класс, логическое мышление, математика, задание, сложные задачи, логическая задача, палиндром числа.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA PALINDROM SONLAR BILAN ISHLASH

Аннотация

Bugungi kunda o'qitish jarayonida maktab o'quvchisining faol ishtirokini ta'minlash, ijodiy fikrlovchi, mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi turli xil masalalardan foydalanish orqali oquvchilar qobiliyati va imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanish imkonini yuzaga chiqarish zarur. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan palindrom sonlar bilan bog'liq masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Boshlang'ich sinf, mantiqiy fikrlash, matematika, topshiriq, murakkab masalalar, mantiqiy masala, palindrom sonlar.

Kirish. Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to'g'risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

Ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlodni intizomli, umuminsoniy fazilatlar shakllangan, iqtidorli, har tomonlama ziyarak, topqir va mantiqan fikrlay oladigan qilib tarbiyalash bugungi davr talabidir. O'quvchining bunday fazilat va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun esa o'quvchilar iqtidorini anglagan holda boshlang'ich «qadam»ni to'g'ri yo'naltira olish, o'quvchilarni o'rgangan bilimlaridan qandaydir mantiqiy savollar bilan kuzatuvchanlikka va yaratuvchanlikka undash kerak. Agar bolalarni boshlang'ich sinflarda mantiqiy fikrlashga undovchi savol va masalalarning yechimini topishga tayyorlab borilsa, kelgusi o'qishlari uchun aqlan rivojlangan va keng mushohadali o'quvchi, har qanday vaziyatda o'z fikrini boshqalarga bemalol yetkazib bera oladigan shaxsni tarbiyalagan bo'lamiz.

Bugungi kunda o'qitish jarayonida o'quvchini zeriktirmaslik, ijodiy fikrlovchi, mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi turli xil masalalardan foydalanish muhim bo'lib, bunday yondashuv orqali oquvchilarni oz qobiliyati va imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.Piaje [3] boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligi mexanizmlarini o'rganib, ongning shakllanishini bolaning

aqliy rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida ko'rib chiqadi, bu esa boshqa barcha aqliy jarayonlarga bevosita bog'liqdir. U birinchi navbatda bolalar tafakkurining sifat jihatdan o'ziga xosligini o'rganish vazifasini qo'yadi.

J.Piaje [4] qarashlariga ko'ra ongning rivojlanishi bir necha bosqichdan o'tadi va boshlang'ich maktab davrida o'quvchilarning aniqlikka tayangan intellektini shakllanish davriga to'g'ri keladi. Bolalarda og'zaki va mantiqiy tafakkuri maktab davrigacha rivojlana boshlaydi va so'zlar bilan ishlab, mulohaza qilish qobiliyati shakllanadi.

Insonning ongli faoliyati, fikr yuritishi, yangi bilimlarni o'zlashtirib, yanada takomillashtirishi topshiriq bilan, o'quvchilar faoliyatida esa mavzu yuzasidan beriladigan o'quv topshiriqlari bilan bog'liqdir. O'quv faoliyatining yo'nalishlari – qayta esga tushirib ijod qilish, yangi bilimlarni o'rganib turli o'quv jarayonlariga tatbiq qilish, olgan bilimlarni umumlashtirib o'z-o'zini nazorat qilish o'quv topshiriqlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, topshiriqlar esa ta'limni rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv topshiriqlari ham turlicha bo'lib, uning bir qismi bo'lgan mantiqiy topshiriqlar o'quvchining tafakkurining shakllantirilishiga mo'ljallangan va o'quvchining fikrlash qobiliyatining rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Topshiriqlarning hech biri o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda, tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar bilan raqobatlasha olmaydi.

Mantiqiy masalalarni yechish jarayoni esa o'quvchilar qo'llaydigan mantiqiy operatsiyalarni barchasini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning aqliy

qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda boshlang'ich sinflar matematikasida matnli masalalar mazmuni kengaytirilib, ular tarkibiga an'anaviy masalalar bilan bir qatorda mantiqiy masalalarni kiritilishi yangi davlat ta'lim standartida belgilab qo'yildi[8].

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Ona tili" va "O'qish" darslarida ayrim sozlarni topish orqali soz oyinlari bilan ishlash oquvchilarni uchun qiziq bo'lib, o'quvchilar faolligini oshirish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun non, bob, tut, ana, alla, qiliq, qovoq, bilib, amma kabi palindrom so'zlarni ya'ni, ikki tomonlama o'qilganda ham bir xil o'qiladigan so'zlarni topish juda qiziqarlidir. Bunday so'zlarni topish o'quvchining fikrlashini rivojlantirib, tafakkurini shakllantirishga yordam beradi va darsni yanada qiziqarli o'tishida, o'quvchilarning ishtirokini tashkillashtirishda yaxshi natija beradi.

Matematika darslarida ham xuddi shunday palindrom sonlarni topish, ular orasida amallar bajarish orqali yana palindrom bo'lgan sonlarni hosil qilishni o'rgatish orqali o'quvchilardagi ijodkorlikni yanada oshirish mumkin. O'quvchilar o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlaridan foydalanib bunday sonlarni topishga harakat qilishadi.

Misol uchun: 22, 44, 55, 77, 101, 232, 343, 494, 868, 3663, 5445 kabi ko'plab palindrom sonlarni bilamiz.

Tahlil va natijalar.

1-misol. Shunday palindrom sonlarni topingki, ularni qo'shganda yana palindrom son hosil bo'lsin.

$$232 + 343 = 575,$$

$$5225 + 3663 = 8888.$$

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu misollarni tahlil qilish natijasida "palindrom bo'lgan sonlarni qo'shganda yana palindrom son hosil bo'ladimi?" degan savol paydo bo'lishi tabiiydir.

Ziyrak, topqir va olgan bilimlaridan xulosa chiqaruvchi o'quvchi anglab yetadiki, palindrom sonlarning yig'indisi hamma vaqt ham palindrom son bo'lavermaydi. Masalan:

$$343 + 494 = 837,$$

$$3663 + 5445 = 9108.$$

Agar berilgan misollardagi qo'shiluvchilarning mos xona qo'shiluvchilari yig'indisi 9 dan katta bo'lsa yoki qo'shiluvchilar xona birliklari soni turlicha bo'lsa, yig'indida palindrom son hosil bo'lmaydi.

Yuqorida palindrom sonlar yig'indisi haqidagi berilgan sonlardagi mos xona qo'shiluvchilari yig'indisi 9 dan katta bo'lsa sharti qo'shiluvchilar va yig'indi xona birliklari teng bo'lgan sonlar uchun o'rinli. Aks holda, ya'ni, yig'indi xona birliklari soni qo'shiluvchilar xona birliklari sonidan katta bo'lsa palindromlik saqlanib qolishi mumkinmi, degan savolga quyidagi misollar orqali javob olishimiz mumkin:

$$\begin{array}{r} + \quad 363 \\ + \quad 858 \\ \hline 1221 \end{array} \qquad \begin{array}{r} + \quad 4554 \\ + \quad 7667 \\ \hline 12221 \end{array}$$

Endi yana savol paydo bo'lishi mumkin:

"Berilgan sonlardagi mos xona qo'shiluvchilari yig'indisi 11 dan farqli bo'lishi mumkinmi?" degan savolga javobni uch xonali sonlar misolida quyidagicha tushuntiramiz.

Agar qo'shiluvchilar uch xonali son bo'lib yig'indi to'rt xonali son bo'lsa, yig'indining minglar xonasi faqat va faqat 1 ga teng bo'lishini anglash qiyin emas. Demak, birlar xonasi ham 1 ga teng bo'ladi va qo'shiluvchilar birlar xonasi raqamlari yig'indisi 1 ga yoki 11 ga teng bo'lishi kerak:

a) Birlar xonasidagi sonlar yig'indi 1 ga teng bo'lishi uchun uch xonali qo'shiluvchilardan birining 1 - va 3 - xonadagi raqam 0 ga teng bo'lishi kerak. Bunday bo'lishi

mumkin emas, chunki bunday ko'rinishdagi 3 xonali son mavjud emas.

b) Birlar xonasidagi sonlar yig'indi 11 ga teng, lekin o'nlar xonasidagi raqamlar yig'indisi 11 dan farqli bo'lgan holatlarni ko'rib chiqamiz. Agar qo'shiluvchilarning o'nlar xonasidagi raqamlar yig'indisi 9 dan kichik bo'lsa yig'indi birlar, yuzlar va minglar xonasidagi son 1 ga teng bo'lib, o'nlar xonasidagi son 1 dan farqli son bo'ladi va yig'indi palindrom son bo'lmaydi. Masalan:

$$343 + 838 = 1181;$$

$$515 + 676 = 1191.$$

v) Birlar xonasidagi sonlar yig'indi 11 ga teng, lekin o'nlar xonasidagi raqamlar yig'indisi 9 dan katta (11 dan farqli) yoki teng bo'lsa, yig'indining birlar va minglar xonasidagi son 1 ga teng bo'lib, yuzlar xonasidagi son 2 ga teng va o'nlar xonasidagi son 2 dan farqli son bo'ladi va yig'indi palindrom son bo'lmaydi.

$$666 + 575 = 1241;$$

$$898 + 373 = 1271.$$

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilsak, agar qo'shiluvchilar mos xona birliklaridagi raqamlar yig'indisi 11 ga teng bo'lsa, yig'indi ham palindrom son bo'ladi. Uning birinchi va oxirgi raqami 1 ga, qolgan raqamlari 2 ga teng bo'lgan palindrom son bo'ladi[7].

2-misol. Shunday palindrom sonlarni topingki, ularning ayirmasi yana palindrom son bo'lsin.

$$424 - 212 = 212;$$

$$8338 - 3003 = 5335.$$

Bunday misollardan keyin ham xuddi yuqoridagidek savol paydo bo'ladi, ya'ni "palindrom bo'lgan sonlarni ayirganda ayirma yana palindrom son bo'ladimi?". Ha! Bunda kamayuvchi va ayriluvchi xona birliklari soni bir xil (ikki xonali, uch xonali, to'rt xonali, va hakoza), shu bilan birga 2-misolida ko'rsatilgani kabi kamayuvchining xona birliklari ayriluvchining mos xona birliklaridan katta bo'lishi kerak.

Bu fikr ham kamayuvchi va ayriluvchi xona birliklari soni o'zaro teng bo'lgan sonlar uchun o'rinli. Agar kamayuvchi sonning xona birliklari soni ayriluvchining xona birliklari sonidan bittaga ortiq bo'lsa, kamayuvchining birinchi va oxirgi xonasida 1 qolganlari esa 2 bo'lishi kerak (121, 1221, 12221, va hakoza). Bunday sonidan o'zidan bir xonaga kichik va xona birliklari 2 dan kichik bo'lmagan ixtiyoriy «palindrom» son ayirilsa ayirma yana palindrom son bo'ladi.

$$\begin{array}{r} 121 \\ - 77 \\ \hline 44; \end{array} \qquad \begin{array}{r} 1221 \\ - 585 \\ \hline 636; \end{array} \qquad \begin{array}{r} 12221 \\ - 4334 \\ \hline 7887. \end{array}$$

Yig'indiga doir misollarni yaxshi tushungan o'quvchilarning ayirmaga doir misollarni qanday hosil bo'lganini tushinishi oson bo'ladi. Chunki yig'indidan birinchi qo'shiluvchini ayirsak ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'lishini o'quvchi juda yaxshi biladi. O'quvchilar shularni anglagan holda yig'indi va ayirmaga mos yuqoridagidek misollarni topa olishadi.

Keltirilgan misollardan foydalanib quyidagi 4 ta qoidani yozishimiz mumkin:

1-qoida. Berilgan ikkita palindrom sonning yig'indisi yana palindrom son bo'lishi uchun, berilgan sonlar xona birliklari soni yig'indi xona birliklari soniga teng bo'lsa, qo'shiluvchilar mos xona birliklari yig'indisi 9 dan katta bo'lmasligi kerak.

2-qoida. Berilgan ikkita palindrom sonning yig'indisi yana palindrom son bo'lishi uchun, qo'shiluvchilar xona birliklari soni yig'indi xona birliklari sonidan bittaga kam bo'lsa, qo'shiluvchilar mos xona birliklari yig'indisi 11 ga teng bo'lishi kerak.

3-qoida. Berilgan ikkita palindrom sonning ayirmasi yana palindrom son bo'lishi uchun, berilgan sonlar xona birliklari soni ayirma xona birliklari soniga teng bo'lsa,

kamayuvchining xona birliklari ayriluvchining mos xona birliklaridan katta bo'lishi kerak.

4-qoida. Berilgan ikkita palindrom sonning ayirmasi yana palindrom son bo'lishi uchun, ayriluvchi va ayirma xona birliklari soni kamayuvchi xona birliklari sonidan bittaga kam bo'lsa, kamayuvchining birinchi va oxirgi xonasida 1

$$\begin{array}{r} \text{ABA} \\ + \text{CDC} \\ \hline \text{XKX} ; \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \text{AKKA} \\ + \text{VLLV} \\ \hline \text{NYYYN} ; \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \text{ABA} \\ - \text{CC} \\ \hline \text{DD} ; \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \text{ABBA} \\ - \text{CDC} \\ \hline \text{NKN} . \end{array}$$

Xulosa va takliflar. Agar boshlang'ich sinflardanoq o'quvchilarni ko'rgan qiziqarli topshiriqlardan yangilik yaratishga o'rgatsak, shubhasiz bunday o'quvchi mantiqan fikrlovchi, yuksak tafakkur egasi bo'lib yetishadi. Bunda esa mantiqiy masalalar bilan ishlashning o'rni beqiyosdir.

Mantiqiy masala bilan ishlashga o'rgatish davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yon-atrofimizdagi kuzatilayotgan hodisa yoki muammolardan zaruriy

qolganlari esa 2 bo'lishi va ayriluvchi xona birliklari 2 dan kichik bo'lmagan ixtiyoriy palindrom son bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan qo'shish va ayirishga doir misollarni yechishga o'rgatish quyidagicha topshiriqlarni tez va oson hal qilish imkoniyatini beradi:

axborotni izlash va ajratish ko'nikmalari shakllantiriladi. Natijada, ulardan turli masalalarning yechimini topishda qay tarzda foydalanish tajribasiga ega bo'ladilar. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalar yordamida o'quvchilarda har bir matematik atama va tushunchalarni mazmunan to'g'ri o'zlashtirish, analiz qilish, taqqoslash va umumlashtirish, o'z fikrini aniq va ravon bayon qilish, mustaqil ravishda xulosa qilish kabi qobiliyati rivojlantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. Ped. fan. nom. diss. avtoref. 1997. - 20-b
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik). – Toshkent: Turon «Iqbol». 2016 yil. – 426 b.
3. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. М.: Международная педагогическая академия, 1994. — 680 с.
4. Пиаже Ж.В. «Речь и мышление ребенка». — Государственное учебно-педагогическое издательство. М.: Римис, 2008. - 448 с.
5. Kasimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. - Buxoro, 2007. – 202 b.
6. Yagudayev B.Ya. Ajoyib sonlar olamida. Toshkent: Oqituvchi. 1973. 230-b
7. Karimova K.R. The Content and Essence of the Concept of Logical Problem in Primary Education. International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 1, Jan 2022. - P.219-223.
8. Mamatov M.Sh., Mamadjanova M.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda mantiqiy masalalarni o'rni va ahamiyati. Xalq ta'limi. –Toshkent, 2020.- №5. -B. 56-60.
9. Ibragimov N.Sh. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish. Pedogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dis. avtoreferati. Termiz, 2021. – 125 b.
10. Perelman Y.I. Qiziqarli matematika. T: Sharq. 2018. -174 b.



UDK:1:008(575.1)

Zarmamad KENJAYEV,
Shahrisabz pedagogika instituti dotsenti
E-mail: zarmmatkenjayev@mail.ru

Xalqaro islom akademiyasi dotsenti M.Qahhorova taqrizi asosida

LIFESTYLE: OPPORTUNITIES FOR INCREASING POLITICAL ACTIVITY AND LEGAL CULTURE OF YOUTH

Abstract

The article examines the ongoing reforms in the field of youth in the country, their upbringing, political activity, legal culture.

Key words: Political activity, public consciousness, political culture, global trends, market relations, civil society, social stability.

ОБРАЗ ЖИЗНИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье рассматриваются проводимые реформы в сфере молодежи в стране, их воспитание, политическая активность, правовая культура.

Ключевые слова: Политическая активность, общественное сознание, политическая культура, глобальные тенденции, рыночные отношения, гражданское общество, социальная стабильность.

TURMUSH TARZI: YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIKI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatda yoshlar borasida olib borilayotgan islohotlar, ularning tarbiyasi, siyosiy faolligi, huquqiy madaniyat masalalari borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy faollik, ijtimoiy ong, siyosiy madaniyat, global tendensiya, bozor munosabatlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy barqarorlik.

Kirish. Barchaga ma’lumki, har qanday mamlakatning kelajagi so‘zsiz yosh avlodning tarbiyasi va intellektual salohiyati bilan bog‘liq. Shuni anglash kerakki, zamonaviy bozor munosabatlari va global tendensiyalar yosh avlodning hayotiy qadriyatlariga va axloqiy qoidalariga ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

Hozirgi kunda yangicha yangicha tafakkurli, ijodiy fikrlovchi, yuksak madaniyatli yoshlarni tayyorlash jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Chunki, bugungi kunda O‘zbekistonda aholi umumiy sonining 60 % dan ortig‘ini 18 million kuchli, shijoatga ega, g‘ayratli yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan, demokratlashtirish jarayonlariga yoshlarni jalb qilishda amalga oshirilayotgan islohotlardan ularni yetarlicha xabardor qilish, ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini oshirish orqali mazkur jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi-yangi qonunlarning qabul qilinishi, qonunlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, demokratik jarayonlar haqida ularning qiziqishlari cheksiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Izchil va barqaror rivojlanayotgan, erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etishdan iborat maqsad yo‘lida og‘ishmay borayotgan mamlakatimizda yoshlarning jismoniy va ma’naviy kamolotiga katta e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga,

ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.

Fuqarolik jamiyatida avvalo jamiyatda umumiy madaniyatni yuksaltirishga, insonlarning siyosiy faolligi, ma’naviy kamoloti va huquqiy bilimlarini boyitib borishga e’tibor qaratiladi. Fuqarolar, ayniqsa, yoshlar yuksak huquqiy bilimga, huquqiy madaniyatga, huquqiy onglikka erishadi, uning natijasi sifatida, huquqqa hurmat va unga amal qilish odat qoidasi tarzida qo‘llaniladi. Bu esa yoshlarda ijtimoiy siyosiy faollikning namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy faollik bu – fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini egallashga intilishi, maqsad-muddaolari, kelajakda qo‘lga kiritishi lozim bo‘lgan muvaffaqiyatlarga erishish yo‘lida o‘z imkoniyatlaridan foydalanish uchun qiladigan sa’y-harakatlardir. Ayni paytda, ijtimoiy faollik insonning o‘z maqsadiga erishishi yo‘lida jamiyat, millat, Vatan manfaatlariga, o‘zining shaxsiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish hamda uning mutanosibligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy faollik, shaxsda tashabbuskorlikni, maqsad sari intilishni shakllantiradi, borliqda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarqlik, loqaydlik, hafsalasizlik kabi qusurlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Ijtimoiy faollikning oshishi – bu nafaqat davlat va jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish holatlarining, balki ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalanganlik darajalarining oshganligidan ham dalolat beradi. Ijtimoiy faol bo‘lgan inson siyosiy, huquqiy sohada ham faol bo‘ladi.

O‘zbekistonda yoshlarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida birqancha islohotlar olib borildi va bugungi kunda ham amalga oshirilmoqda. Misol uchun yoshlar siyosati sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga

e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga yangi tizim asosida yondashish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu orqali davlat rahbari "Yoshlarimizni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularni turli zararli va yot g'oyalar ta'siridan asrashga alohida e'tibor qaratish lozimligi"ni ta'kidlab o'tdi.

Xususan, 5 ta tashabbusni amalga oshirish doirasida 2019-2020 yillarda 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob'ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulash, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazish hamda axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish, har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish kabi vafalar belgilangan.

Bundan tashqari yoshlar siyosiy faolligini oshirish borasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yoshlarning iste'dod va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish bo'yicha mustahkam tizim ishlab chiqildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko'magi asosida yoshlar hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan jami 50 ga yaqin Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi va 26 dan ortiq davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan shuningdek, 11 ta xorijiy davlat yoshlar tashkilotlari bilan o'zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik bitimlari imzolandi.

Shunga qaramasdan, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o'rganib borish, amalda aprobatsiyadan o'tgan xalqaro tajribaning mahalliy sharoitida yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga joriy etishda qator ishlarni amalga oshirish vazifasi o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoevning 2017 yil 30 iyundagi Yoshlar bilan uchrashuvida "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o'ziga xos markaz bo'lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun "sotsial lift" vazifasini bajarishi kerak" degan vazifani qo'yib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida "Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti"ni tashkil etish yuzasidan topshiriq berildi. Ushbu institutda ta'lim olgan yoshlar siyosiy va huquqiy jabhalarni atroflicha o'rganib, kelajakda hayotiy faoliyatlarida qo'llay oladigan kadrlar bo'lib yetishadilar.

Shaxsda siyosiy va huquqiy faollikni oshirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- shaxsning hayotiy tajribasi;
- shaxsning tajribasini u mansub bo'lgan jamoa tajribasigacha kengaytiruvchi shaxslararo aloqalar;
- turli ijtimoiy guruhlarining tajribasini tarqatuvchi institutlar (maktab, tartiya tashkilotlari, ijtimoiy-siyosiy birlashma, diniy muassasalar);
- inson hayotining barcha yo'nalishlari bo'yicha turli halqaro, omma va shaxslarning tajribasidan foydalanish imkonini beruvchi ommaviy axborot vositalari.

Demak, siyosiy faollikni oshirishda shaxs va uning atrofidagi muhit alohida ahamiyatga ega ekan. Xo'sh, huquqiy madaniyatni yoshlar orasida targ'ib qilish masalasichi?

Huquqiy madaniyat madaniyatning boshqa siyosiy, axloqiy, estetik, diniy sohalari va tarmoqlari bilan o'zaro

aloqada ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyatning o'ziga xos mazmunida ham umumiy madaniyatga, ham uning alohida tarmoqlariga doir xususiyatlar va xossalar namoyon bo'ladi. Shu holat bilan bog'liq ravishda barcha madaniyatlarining o'zaro ta'siri katta ahamiyat kasb etadi. Haqiqatan ham demokratik davlatda qonunga itoatkor xulq-atvorni ta'minlash uchun bir vaqtning o'zida buni ham axloqiy, ham huquqiy ong orqali amalga oshirish kerak bo'ladi.

Huquqiy madaniyat deganda, huquqiy bilim andazalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek, huquqiy xatti-harakatlar sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar, normalar, an'ana va andazalar mazmun-mohiyatini tushunish kerak. Huquqiy madaniyati yuksak inson davlat tomonidan chiqarilgan Qonun va qonunosti hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushunadi, unga amal qiladi. Huquqiy normalarga ongli ravishda bo'ysunadi. Ijtimoiy faol bo'ladi. Jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy sohalarida amalga oshiriladigan jarayonlarda o'z fikrini bildira oladi.

Agar inson o'z huquqlari va burchlarini yaxshi anglasa, huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lsa, uning vayronkor g'oyalar, turli oqimlar ta'siriga tushish imkoniyatlari kengayadi. Huquqiy madaniyatli shaxs faqat qonunlarni yaxshi bilib, huquqiy bilimlardan ancha-muncha boxabar bo'libgiga qolmasdan, ularga amal qiladi. O'z huquqlarining boshqalar tomonidan buzilishiga yoki bo'lmasa, amaldagi qonunlarning poymol qilinishiga befarqlik bilan, indamay turmaydi. Adolat tantanasi uchun kurashadi. O'zini va o'zgalarni ham huquqiy jihatdan himoyalaydi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik davlat va inson haq-huquqlari ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bog'liq islohotlar xalqning siyosiy ongi, siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatining ham oshib borishiga sabab bo'lmoqda. "Davlat – jamiyat – shaxs" tamoyiliga asoslangan holda, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlarini, haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilmoqda. Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirishga harakat qilinmoqda. Bu holatda albatta, yoshlarning huquqiy madaniyati masalasi ham alohida rol o'ynaydi. "Xalq qonunlarining tom ma'noda yagona manbai va muallifi", "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi", "Davlat – inson uchun" kabi tamoyillarning mazmun-mohiyati birinchi navbatda yoshlar tomonidan anglanishi lozim. Shundagina O'zbekiston "inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifatini, hukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi" mumkin.

Yoshlar ijtimoiy guruhining jamiyatdagi o'rni to'g'risida so'z yuritganda, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi",– degan fikrlarni ko'p bor ta'kidlab o'tadi.

Xulosa va tavsiyalar. Demak, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har qaysi odam mamlakatda olib borilayotgan va ko'zda tutilayotgan barcha islohotlar, avvalambor, uning manfaati, oilasi va farzandlari uchun, shu yurtning farovonligi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotganini anglashi lozim. Buning uchun har bir kishi, ayniqsa yosh avlod bugungi tezkor va talabchan zamondan

ortda qolmay, o'zining huquqiy madaniyati, huquqiy ongi va xabardorlik darajasini, islohotlar samarasi uchun ijtimoiy mas'ullik tuyg'usini yanada oshirishi, fuqaro sifatida faol bo'lishi, jamiyat hayotida, dunyoda, yon-atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmasligi, ularning ma'no-mohiyatini to'g'ri anglashi va to'g'ri xulosa chiqarishi lozim bo'ladi.

Globallashuv davri yoshlarda katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu holat kimlargadir ijobiy, kimlargadir salbiy ta'sirlarini o'tkazdi. Shunday ekan, yoshlarni har qanday ta'sirlardan himoyalash, ularning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, daxldorlik tuyg'usini shakllantirish oldimizdagi dolzarb vazifa bo'lmoqda. Yoshlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy bilimlar bilan qurollantirish, siyosiy faolligini oshirish, huquqiy bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qo'llay olish

malakasini shakllantirish lozim. Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, va uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglab yetmas ekan, bizning islohot va yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz va sa'y-harakatlarimiz ham besamar ketaveradi.

Biz "Uchinchi Renessansni yaratamiz", degan mutloq maqsadni oldimizga qo'yar ekanmiz, unda albatta yoshlar orasidagi siyosiy faollik va huquqiy madaniyat masalalari dastlabki o'rinlardan joy oluvchi vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish esa yoshlarda liderlik, ijodkorlik va innovatsiyalarni puxta egallashlari lozimligini ko'rsatsa, pedagog xodimlar hamda ota-onalar, jamoatchilikdan yuksak salohiyat va ularni qo'llab-quvvatlashda mahorat talib qiladi. Ana shunday vazifani amalga oshira olsakgina, oldimizga qo'ygan aniq maqsadga erisha olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Odilqoriyev X. G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2004.



UDK:152.26:157.2

Gulnoza QARSHIBOEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixol.f.f.d.
E-mail: gulinoza.ru@bk.ru

Psix.f.d B. Jurayev taqrizi asosida

SUITSIDENTLAR SHAXSINI O'RGANISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada o'smirlar bilan amalga oshiriladigan psixoprofilaktik chora-tadbirlar haqida so'z yuritilib, suitsid muammosida ko'proq psixologik omillar – insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlar, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, ular uchun hayotning mazmuni, o'z-o'zini baholash xususiyatlarini shakllantirish zarur bo'lib, o'smirlardagi suitsid muammosining bartaraf etilishi psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'smir, profilaktik chora-tadbirlar, suitsid muammosi, psixologik omillar, shaxsiy xususiyatlar, qadriyatlar, e'tiqod, hayot mazmuni, o'z-o'zini baholash, psixologik xizmat, sifat, ilmiy tadqiqot.

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИЧНОСТИ СУИЦИДОВ

Аннотация

В статье говорится о психопрофилактических мероприятиях, проводимых с подростками, о необходимости формирования в проблеме суицида дополнительных психологических факторов – личностных характеристик людей, ценностей, их мировоззрения, веры, смысла жизни для них, особенностей самооценки, устранит проблему суицида среди подростков, направленную на повышение качества психологической службы и углубление научных исследований.

Ключевые слова: Подросток, профилактика, проблема суицида, психологические факторы, личностные характеристики, ценности, убеждения, смысл жизни, самооценка, психологическая служба, качество, научное исследование.

METHODS FOR STUDYING THE PERSONALITY OF SUICIDES

Annotation

The article talks about psycho-prophylactic measures taken with teenagers, about the need to form additional psychological factors in the problem of suicide – personal characteristics of people, values, their worldview, faith, meaning of life for them, features of self-esteem, to eliminate the problem of suicide among adolescents, aimed at improving the quality of psychological services and deepening scientific research.

Key words: Adolescent, prevention, suicide problem, psychological factors, personal characteristics, values, beliefs, meaning of life, self-esteem, psychological service, quality, scientific research.

Kirish. Ijtimoiy, iqtisodiy hayotda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, undagi ilg'or yutuqlarning kundalik hayotimizga, odamlar turmush tarziga chuqur kirib borishi, urbanizatsiya – bularning barchasi bugungi kun shaxsida har qachongiga qaraganda ko'proq ham jismoniy, ham emotsional zo'riqishlarni keltirib chiqarmoqda. Odamlarning emotsional zo'riqishlar olishi, uzoq vaqt ruhiy siqilishi, asabiylik holatida bo'lishi ularning har xil stresslarga beriluvchanligining oshishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda erishayotgan olamshumul yutuqlarimiz bilan bir qatorda, odamlar o'rtasida asabiy toliqish holatlarining ortishi, o'z joniga qasd qilish (suitsid) kabi noxush holatlar ham kuzatilmoqda.

Bunday holatni turmush sharoitining og'irligi, ekologik vaziyatlarning buzilishi kabi holatlar natijasi sifatida ham izohlash mumkin. Albatta, bu omillarning ham inson ruhiyatiga, organizmiga o'ziga xos ta'siri mavjud. Lekin ular muammoning asosi bo'la olmaydi. Agar turmush tarzining murakkabligi, yashash sharoitining og'irligi, xizmat mashaqqati yuqorida keltirib o'tilgan noxushliklarga sabab bo'lsa, unda, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ikkinchi jahon urushi yillari jang maydonlaridagi, front ortidagi vaziyat bundan ham og'ir bo'lgan. Biroq shu singari og'ir kunlarni boshidan kechirgan fuqarolar o'z jonlariga qasd qilmaganlar, ularda hozirgidek suitsid holatlari kuzatilmagan.

Bu muammolarning asosida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tibbiy omillardan ko'ra, ko'proq psixologik omillar, ya'ni odamlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlar, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabati, ular uchun hayotning mazmuni, o'z-o'zini baholash, o'ziga va atrofidagilarga bo'lgan munosabat xarakteri yotadi.

Shuning uchun suitsid kabi noxush hodisalarning sababini, avvalo, shu hodisalarni sodir etayotgan shaxsning o'zidan, uning ruhiy olamidani qidirish lozim. Ularni oldini olish, bartaraf etish uchun esa shunday holatlarga tushib qolishi mumkin bo'lgan odamlarning ichki dunyosini, qadriyatlarini tizimini, u yashayotgan oiladagi va xizmat qilayotgan jamoadagi psixologik muhitni o'rganish hamda o'zgartirish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taniqli olim A.Adlerning fikricha, odam bo'lish, avvalo, o'zining nomukammalligini his etishdir. Hayot anglanmasligi mumkin bo'lgan maqsadga intilishdan iborat, biroq u individning barcha harakatlarini yo'naltiradi va yashash uslubini shakllantiradi. Nomukammallik hissi ilk bolalik davrida paydo bo'ladi va turli yetishmovchiliklar bilan yomonlashadigan jismoniy va psixologik zaiflikka asoslanadi. Inson uchun boshqa odamlar bilan mushtaraklikni ekzistensial (hayotiy) his etish muhimdir. Ekzistensial – lotincha so'zdan olingan bo'lib, existe – ajratib turish, paydo bo'lish, mavjud bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun inson butun hayoti

davomida nomukammallikni yengish yoki o'rmini to'ldirish harakatida bo'ladi. Ushbu harakat odam xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadigan va hayotini mazmunli qiladigan o'zini ko'rsatishda, hokimiyatga intilishda amalga oshadi.

Biroq bunday izlanish, harakat jiddiy to'siqlarga duch kelishi va suitsidga «qochish» bilan boshlanadigan inqirozli vaziyatga olib kelishi mumkin. Bu holatda mushtaraklik hissi yo'qoladi, odam va atrofdagilar o'rtasida qiyinchilikni ko'tara olmaslikni oqlovchi «masofa» o'rnatiladi, emotsiya sohasida «start oldi qattiq hayajon» (talvasa)ni eslatuvchi, affektiv jazava, nafrat va o'ch bilan yo'g'rilgan nimadir paydo bo'ladi. A.Adlerning ta'kidlashicha, odamga ko'pincha ongsiz ravishda maqsad sari ichki intilish xos ekan, bunda autoagressiv holatidagi xatti-harakatlar ketma-ketligini bilgan holda uning oldini olish mumkin.

Suitsidal xulq-atvor identifikatsiya orqali, ya'ni taqlid qilish tendensiyasi bilan bog'liq bo'lgan nusxa olinuvchi suitsid orqali ham ko'rilishi mumkin. A.G.Ambrumova va O.E.Kalashnikovlarning ma'lumotlariga ko'ra, suitsidal xulq-atvorga moyil bemorlarni ko'pchiligi ijtimoiy mavqening juda quyi darajasi va o'z hayotini anglashning zaifligi bilan o'zaro farq qiladi. Hayotni anglash qanchalik past bo'lsa, qiyin vaziyatlarda inson muammolarini bevosita hal etishga shunchalik kam yo'naladi, sodir etilgan voqea uchun javobgarlikni shunchalik o'z zimmasiga kamroq oladi, faol harakat va vaziyatni to'g'rilashga intilish kam namoyon bo'ladi.

O'smirlar orasida yashirin yoki oshkora formada suitsidal xulqqa moyilligi borlar mavjud bo'lib, bu muammo tushunishning yuqori darajasini talab qiladi. Suitsidal xulqqa moyilligi bo'lgan o'smirlarga ijtimoiy psixologik yordam berishning tashkiliy tomoni, mazkur muammoni bartaraf qiluvchi belgilar tizimi o'rtasida aloqani o'rnatish va voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan mutaxassislar faoliyatini tartibga soluvchi va faoliyat chegarasini belgilovchi normativ huquqiy hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda o'zgarishlar sodir bo'layotgan sharoitda o'smirlarning psixik va psixologik salomatligini saqlash dolzarbligicha qolmoqda.

1- jadval

Ruhiy holatga shaxsning o'z bahosi metodikasi bo'yicha tadqiqot natijalari

T.r.	Tumanlar	Xavotirlik		Frustratsiya		Tajovuzkorlik		Keskinlik	
		o'smir	ota-ona	o'smir	ota-ona	o'smir	ota-ona	o'smir	ota-ona
11	Paxtakor tumani	6,0	7,0	7,0	8,3	9,0	7,3	8,0	8,6
22	Sh.Rashidov tumani	5,2	6,9	6,1	5,1	5,6	6,5	6,6	6,8
33	G'allaorol tumani	6,5	6,4	7,2	6,7	9,0	7,8	7,8	11,3
44	Baxmal tumani	6,3	7,7	6,6	5,5	9,0	7,0	7,8	7,5
55	Jizzax shahri	6,0	7,2	7,0	6,2	7,2	6,0	6,2	7,4

Xavotirlik shkalasi tadqiqotda ishtirok etgan barcha tumanlardagi maktab o'quvchilarning ko'rsatkichlari o'rtacha baldan past natijani ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda ta'kidlash lozimki, o'smirlar o'z ruhiy holatiga ijobiy baho berishi ulardagi suitsidal xulq-atvorning shakllanmasligidan dalolat beradi.

Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Frustratsiya holati frustratorning kuchiga, jadalligiga bog'liq. Frustratsiya holatida shaxsning vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati o'ta muhimdir. Shu bois turmush tarzining noqulay ta'sirlariga qarshi kurashish uchun odam fe'l-atvorida barqarorlikni shakllantirish lozim. Frustratsiya ham boshqa ruhiy holatlar singari kishi fe'l-atvoriga xos yoki yangi xislatlarning boshlanishini ko'rsatuvchi o'tkinchi holat bo'lib, salbiy hissiyotlarni uyg'otadi. Frustratsiyaning turlariga tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g'amginlik tuyg'usi, o'ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma'yuslik va boshqalar kiradi. Frustratsiyaning tajovuzkor holati, ko'pincha, o'zini tuta olmaydigan, qo'pol odamga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaydigan shaxsga taalluqlidir. Ba'zan og'ir tabiatli kishilarda ham shu xildagi holatni vujudga keltirish mumkin, lekin bu vaziyat uzoqqa cho'zilmaydi.

Aytish joizki, suitsidal xulq-atvorni namoyon bo'lishi Osiyoning bir qancha davlatlarida ancha past ko'rsatkichga ega, jumladan Qirg'izistonda 9,1 kishi tashkil qilsa, bu holat O'zbekistonda 7,4 kishiga to'g'ri kelmoqda.

Suitsidal xulq-atvorga moyillikni tadqiq qilishning sotsiologik yo'nalishi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri M.I.Fenomenov o'z tadqiqotlarida suitsidal urinish sabablarini jamiyatdagi ijtimoiy institutlardan emas, balki, mamlakatda hukm surayotgan ichki nosog'lom muhit va insoniy munosabatlar nosog'lomligidan izlash o'rindir, deb E.Dyurkgeym ta'kidlab o'tdi. Ijtimoiy inqiroz «eski hayot tarzining buzilishidan dalolat berib, yangi hayot tarzining yaratilganligiga imkoniyat tug'diradi». Bu o'rin almashish insonlar jamoasiga tegishli bo'lib, keksalar o'rniga yangi avlodning kelishini ta'minlaydi.

A.T.Bek va D.Lesterlarning fikriga ko'ra, tushkunlik va umidsizlik kabi holatlar suitsidal omil sifatida belgilanadi, chunki suitsidal reaksiya depressiyaga nisbatan rivojlanish bosqichida ta'sirchan ko'rsatkichga ega deb hisoblaydilar.

Ta'kidlash joizki, suitsidal reaksiyaga depressiya ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu borada A.G.Ambrumova boshqacha fikr bildiradi, ya'ni uning fikriga ko'ra, depressiv holatlarni suitsidal xulq-atvor negizida atrof-muhitning ta'siri, shaxsning ijtimoiy psixologik tuzilishi va uning patopsixologik belgilarini ham inobatga olish lozim.

Tahlil va natijalar. O'smirlarning suitsidal xulq-atvorini o'rganishda G.Ayzenkning o'smirlar uchun mo'ljallangan «Ruhiy holatga shaxsning o'z bahosi» so'rovnomasidan foydalanildi. Mazkur so'rovnoma o'smirlardagi suitsidal moyillikni shakllanishiga ta'sir etuvchi shaxsning xavotirlik darajasi, frustratsiya holati, tajovuzkorlik xislati va keskinlik holatini aniqlashda foydalaniladi. (1-jadval)

Xavotirlik shkalasi. Psixologiya fanlari doktori, professor M.B.Davletshin muxarrirligida nashr qilingan «Psixologiya» qisqa izohli lug'ati risolasida «Xavotirlanish – individning boshdan kechirish jarayoni bo'lib, u noaniq bir xavf oldidan paydo bo'ladi» deb ta'rif berilgan.

Keyingi shkala tajovuzkorlik bo'lib, tajovuzkorlik – bir odamga va odamlar guruhiga jismonan, ruhan zarar ko'rsatishga qaratilgan yakka yoki jamoa xulqining xatti-harakati, tajovuzkorlik odamning qahr-g'azab, dushmanlik, ko'ra olmaslik kabi emotsional holatlarida namoyon bo'ladi.

O'smirlardagi suitsidal xulq-atvorni yuzaga chiqishida tajovuzkorlik ham alohida ahamiyat kasb etishi, o'smirlarning jinoyat ko'chasiga kirib ketishi, o'z joniga yoki o'zgalar joniga qasd qilishi ko'plab olimlarning tadqiqot ishlarida bayon qilingan.

O'smirlarda suitsidal xulq-atvorni shakllanishida keskinlik xislati ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Keskinlik xislati o'smirlarda o'z odatlarini o'zgartira olmaslik, ma'lum bir sharoitga, muhitga moslashishida qiyinchilikka uchrashi, hayotida bo'ladigan o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyotkorlik, boshqalar bilan muloqotda ishonchsizlik, ongidagi salbiy fikrlar, xavotirlik, o'ziga xos o'jarlik, tushkunlik kabi xususiyatlarda yuzaga chiqadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlardagi keskinlik holati bo'yicha metodikaning o'rtacha balidan past natijani ko'rsatdi.

O'smirlardagi suitsidal xulq-atvorni namoyon bo'lishida frustratsiya holati ham ma'lum jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'smirlarda suitsidal xulq xavfini yuzaga kelish xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. O'smirlardagi suitsidal xulq xavfini yuzaga chiqaradigan bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularga «ota-onani yo'qotish», «oilani ajralishi», «oiladagi psixologik muhit», «tarbiyaning adolatsiz uslublari, tushkunlik» kabi holatlar o'smirlarning suitsidal xulqini namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkinligi dalillandi.

2. O'smirlardagi suitsidal xulq xavfini shaxslararo munosabatdagi o'zaro kelishmovchiliklarga bog'liq bo'lgan holatlar ham sabab bo'lishi tadqiqot ishining natijalari asosida aniqlandi, bunda «o'smirlar jamoasida yakkalanish», «shaxsga urg'u berish», «nazoratning buzilishi, impulsivlik» kabi omillarning ta'siri ham ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo'ldi.

3. O'smirlardagi suitsidal xulq xavfini yuzaga chiqishida «passivlik, jur'atsizlik, tobelik» xususiyatlarining

ta'siri aniqlandi, bu xususiyatlar o'smirlardagi hayotga, atrof muhitga va insonlarga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligi tadqiqot natijalari asosida dalillandi.

4. O'smirlardagi suitsidal xulq xavfi namoyon bo'lishiga o'ziga past baho berish, pubertat davrining og'ir kechish, alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish holatlari ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suitsidal xulq ularda g'ayritabiiylik, voqea-hodisalarga real baho bera olmaslik, o'zidan qoniqmaslik holatlari asosida yuzaga chiqishi aniqlandi.

5. O'smirlardagi suitsidal xulqning yuzaga chiqishida «xavotirlik, frustratsiya, tajovuzkorlik va keskinlik» kabi holatlarning ham ta'siri tadqiqot natijalarida namoyon bo'ldi. O'smirlarning o'z ruhiy holatiga real baho berishi, qiyinchiliklarni tabiiy qabul qilishlari, o'zlarini idora qilishlari, har qanday holatlarda o'zini boshqara olishi, o'zining ruhiy holatiga ijobiy baho berishi kabi xislatlar suitsidal xulqni namoyon bo'lishini kamaytirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Амбрумова А.Г., Бородин С. В., Михлин А. С. Предупреждение самоубийств. — М., 1980. -105 с.
2. Амбрумова А.Г. Роль личности в проблеме суицида. Тр. Моск. НИИ психиатрии МЗ РСФСР. - М., 1981. -89 с.
3. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists.2020. Т. 1. №. 10 (79). С. 48-49.
4. Каршибаева Г.А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. 2022. Т. 1. №. 4. С. 459-464.
5. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари//Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. 2022. Т. 2. №. 4.
6. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установакаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. 2022.Т. 2. №. 4.
7. Каршибаева Г.А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //Editor coordinator. 2021. С. 304.
8. Каршибаева Г.А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. 2022. Т. 1. №. 2. С. 651-656.
9. Каршибаева Г.А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков: Каршибаева Гульноза Абдукодировна, Джизакский государственный педагогический институт-старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал.2021.№. 2-Махсус сон. С. 298-305.
10. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.
11. Каршибаева Г.А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.
12. Abduqodirovna G.A., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2021. Т. 1. №. 7. С. 54-59.
13. Karshibayeva G.A. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. 2021. №. 22.С. 84-89.
14. Каршибаева Г.А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. 2021. С. 90-96.
15. Karshibayeva G.A. Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.
16. Karshibayeva G.A. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. Psychology and education (2021) 58(2)
17. Karshibayeva G.A. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
18. Karshibayeva G.A. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021



UO‘K: 373.8.155

Zebiniso QURBONOVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qurbonova@terdupi.uz

Termiz davlat pedagogika institute dotsenti, p.f.d, Q.B Qodirov taqrizi asosida

USING THE TEACHING OF MAHMUD AZ ZAMAXHARI IN IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND
ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS UNDER GLOBALIZATION (IN THE EXAMPLE OF THE WORK
"ATWAQ UZ-ZAHAB FI-L-MAVOI'Z VA-L-KHUTAB")

Abstract

In this article, "Atwaq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-khutab" which is one of Mahmoud Zamakhshari's educational works on improving the spiritual and moral education of students in the process of globalization (beads) the question of the unique interpretation of education and the characteristics of this interpretation is analyzed. Alloma's works of advice, advice, good qualities and wise words are considered. In addition, the author's personal point of view on the issue is mentioned in the article.

Key words: Global, education, science, education, universal values, good behavior, honesty, lying, friendship, goodness.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕНИЯ МАХМУДА АЗ ЗАМАХАРИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ
ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ
РАБОТЫ «АТВАК УЗ-ЗАХАБ ФИ-Л-МАВОЙ'З ВА-Л-ХУТАБ»)

Аннотация

В данной статье «Атвак уз-захаб фи-л-мавой'з ва-л-хутаб» являющейся одним из учебных трудов Махмуда Замахшари по совершенствованию духовно-нравственного воспитания учащихся в процессе глобализации (четок) рассматривается вопрос анализируется уникальная интерпретация образования и особенности этой интерпретации. Учитываются труды Алломы, советы, добрые качества и мудрые слова. Кроме того, в статье упоминается личная точка зрения автора на проблему.

Ключевые слова: Глобальный, образование, наука, образование, общечеловеческие ценности, хорошее поведение, честность, ложь, дружба, добро.

GLOBALASHUV SHAROITIDA TALABALARNING MA'NAVYIY-AXLOQIY TARBIIYASI TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MAHMUD AZ ZAMAXSHARIY TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH ("ATVOQ UZ-
ZAHAB FI-L-MAVOI'Z VA-L-XUTAB"ASARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda Mahmud Zamaxshariyning tarbiyaga oid asarlaridan biri bo'lgan "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'g'it va nasihatlarining oltin munchoqlari) asari orqali tarbiyaning o'ziga xos talqini va bu talqinning xususiyatlari masalasi tahlil qilinadi. Allomaning asarlaridagi pand, nasihat, yaxshi xislatlar va hikmatli so'zlar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari maqolada muallifning masalaga doir shaxsiy nuqtai nazari ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Global, pand-nasihat, ilm, o'g'it, umuminsoniy qadriyatlar, yaxshi xulq, rostgo'ylik, yolg'onchilik, do'stlik, yaxshilik.

Kirish. Ijtimoiy hayotning tobora rivoj topib yuksalishida ma'naviy hayot va tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Yer sharining, fan-texnika yutuqlari tufayli jamiyat ixtiyorida global so'zini tahlil etib, uning bugungi kun yoshlarida tarbiya tizimi bilan o'rganishimiz o'rindir. "Global" tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida "umumiy", lotin tilida esa "globus"-Yer shari" ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni, "sayyoraviy", "dunyoviy" muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o'ziga qamrab oladi.

Ma'anaviy axloqiy fazilatlar hech qachon o'z -o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqaradigan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zarurat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yo'sinda insondagi xaatti-harakatni tartibga solinishining ifodasi bo'lib insonga bo'lgan xurmat e'tibor va mehr-muhabbatni bildiradi. Insonning ma'naviy-

axloqiy tarbiyasi qachondan boshlangan? Bunday tarbiya inson tug'ilishdan boshlanishi kerak. Bolani oilada ham, maktabda ham mehr-oqibat va muhabbat, go'zallik va poklik muhiti o'rab olishi kerak. Ma'naviy axloqiy tarbiya tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda talabalarning butun ichki va axloqiy dunyosiga - kelajakka intilish, qadriyat yo'nalishlari, qiziqishlari va ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va ongiga ta'sir qiladi[1].

Ularga muvofiq, inson hayotning barcha sohalarida harakat qiladi, bu uning ijtimoiy va axloqiy yetukligini belgilaydi, ya'ni ma'naviy kamolot. Samimiylilik va mehr-oqibat, ertangi kunga ishonch va Vatan ravnaqi yo'lida bunyodkorlik mehnati ana shunday insonga xos fazilatlaridir. Rostlik va rostgo'ylik, adolat va kattalarga hurmat, o'zgalarga manfaat uchun xizmat qilishga tayyorlik - insonning mana shu fazilatlarini uning ma'naviyatining eng yaxshi o'lchovidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yangi taraqqiyot bosqichidagi ma'naviy tarbiya mazmuni ajdodlarimizning bebaho merosini tadqiq qilish va o'rganish bilan qimmatlidir. Buyuk olim Mahmud az-Zamaxshariy ta'liloti uning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab"

ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asari talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini shakllantirishga yordam beradi. Manaviy-axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalaridir. Odob axloq talabalarining ongiga singdirish ularda axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi[2].

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqida so'z ketar ekan biz ulug' siymo, iste'dodli olim, mashhur tarbiyachi Mahmud az-Zamaxshariy ta'limotini yodga olamiz. Mutafakkirning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy bo'lib, 1075 yil 19 martda Xorazmning katta qishloqlaridan biri – Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini Qur'on tilovati-yu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan. Alloma haqidagi manbalardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: "Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi", – deb yozganlar. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi[3]. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Tahlil va natijalar. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So'ng talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi.

Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, maqsadlarining ushaliishiga umid bog'laydi. 1118 yili Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmatini, mansab va mol-dunyodan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi. Zamaxshariyning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo'lgan. Mana shunday ustozlardan biri – til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jarir Dabbiy Isfahoniydir. Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o'lkada mutaziliylar ta'limotining joriy bo'lishi ham mana shu Isfahoniy nomi bilan bog'liqdir[4].

Zamaxshariy Bag'dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr Xorisiy, Abu Saad Shaqqoniy, Abul Xattob ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oldi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmini Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh Yabiriy Andalusiyy, shayx Sadid Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn Xadar Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi. Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy

qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi, bu mintaqa geografiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh ("Allohning qo'shnisi") degan sharafli laqabga muvassar bo'ladi. O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham ko'pdan-ko'p shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini o'shalarga bag'ishlardi. U qarindosh-urug'larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib Xorazmda bir necha yil yashaydi va 1144 yil 14 aprelda vafot etadi.

Buyuk alloma tarbiyashunoslikka ham oid boy ilmiy adabiy meros qoldirgan. Quyida ana shu bebaho merosidan biri bo'lgan asari "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asarining tarbiyaviy jihatini o'rganamiz. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida doimo uzluksiz ta'sir o'tkazish hukm surishi lozim[5].

Mard mag'lub bo'lsa ham, tuban tushmaydi. Past (nomard) kishi o'z naslining balandligi bilan maqtanadi. Mard kishi mag'lub bo'lsada lekin razillik, pastkashlik qilmaydi. Tubanlik insonlarni yolg'on gapirishga, razolatga chorlaydi. Past nomard kishi o'zgalardan o'zini ustun qo'yuvchi va havolanib manmanlik sari harakat qiluvchilardir.

Yaxshilik bilandur inson jamoli, oni qilurga-chi yo'qdir majoli. Yomon yo'ldoshga ergashsang uni yomonligi senga yuqadi. Seni xavf-xatar, nochorlikka tushib qolishdan qo'rqituvchiga yondosh, "qo'rqma, bu ishda ziyon yo'q" deyuvchidan saqlan. Og'zingni misvoq (tish tozalovchi vositalar) bilan pok qilding, koshkiydi endi uni yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, bo'xtan bilan iflos qilmasang. Agar tilingni tiymasang, jilovingni shaytonga berib qo'lasan. Til qilichining yarqiroqligi, uning to'g'ri so'zidir. Shuning uchun tilingni faqat to'g'ri so'z bilan aylantir. Yamanliklar o'z qilichini qinida saqlagani kabi, sen ham tilingni qilichini yolg'onlik xatosidan saqla. Qilichning yarqirog'ini zang yeydi. Yolg'on esa til uchun zangdan ham yomonroqdir. Sen bilmaysanki, to'g'rilikning sharofatida najot topib baxtli bo'lishingni. Yolg'on esa qo'qqisidan o'zining shumligi bilan biroz foyda berib, so'ng o'ldiradi. Qo'y, ishlar o'z yo'lga yursin. Yolg'on gapirib g'alaba qozonganidan, rost gapirib mag'lub bo'lganing ma'quldur. Rostgo'y odamga uning rostgo'yliki kifoyadir. Yolg'onchiga uning yolg'onchiligi yetarlidir. To'rvasi to'lib kelgan yolg'onchidan idishi bo'sh kelgan rostgo'y yaxshidir. Agar rostgo'ylik odam shaklida ifodalansa, eng dahshatli armon bo'lar. Yolg'onchining surati esa qo'rqoq tulki bo'lar edi...Va'da qilgan bo'lsang, unga vafo qilgin yoki va'dangni bajarishga shoshil... Chaqmog'idan oldin yomg'iri kelgan, va'dasidan oldin beradigan narsasi kelgan erkakka o'xshagin. Birovni koyimoqchi bo'lsang, xat bilan koyi, yuzma-yuz turib koyish ko'ngil sindirur va so'z o'lchovsiz ketar. Hayvonni silasa, shodlanib egasini tepadi, odam bolasi erkalansa, shodlanib ota-onasini azobga qo'yadi. Insonning kiyinishiga qarama-bilimiga qara. Mardlik shunday bir ulug' xislatki, u Allohning roziligini topishga vasiladur.

Saxovat shunday bir buyuk fatki, uni doimo maqto'v ila yod eturlar. Nomardlik esa shunday bir illatki, uningdek xunuk bir narsani ko'rmadim. Do'stlik va birodarlikka faqat saxovat ahligina loyiqdurlar. Ular sababli dardli dillar shifo topur va sinik so'ngaklar bitur. Ne'matlar sendan uzoqlashganda ular yaqinlashtirurlar, kulfatlar senga hujum qilganlarida ular kuch ato eturlar. Kimiki hayotlik davrida man etilgan yomon ishlardan hazar qilib yurgan bo'lsa, albatta, u

o'lim paytida rohat topgusidir. Unday kishini Podshoxi olam o'z farishtalari bilan birga qarshi oladi. Ular unga roxat va farog'atda bo'ladigan jannat uni kutayotgani to'g'risida bashorat bergaylar. Demak, kimki savobli ishni ko'rganda xursand bo'lib, uni darhol bajarishga shoshilsa, gunoh ishni ko'rganda uni yoqirmay o'zini chetga olsa hamda yomonlarni tahqirlash to'g'risidagi Allohning amriga itoat qilib, ularga g'olib kelsa va yaxshilarga yordam ko'rsatib hojatlarini ravo etishga harakat qilsa, bilingki, u baxtli odam ekan.

Olimning tarbiyaga oid ushbu fikrlari talabalarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish ma'lum o'ziga xos tarbiyaviy ta'limni olishi bilan o'rindir. Quyida keltirilgan hikmatli so'zlarda g'iybatchilik yolg'onchilik, vafosizlik kabi insondagi illatlar qoralanadi. Talabalarda qanday axloqiy fazilatlar shakllanishi, eng avvalo, uning atrofidagi insonlari, o'qituvchilar va kattalarga, ular uni qanday tarbiyalashiga, qanday taassurotlarni boyitishiga bog'liq. Ma'naviy-axloqiy tarbiya har bir ishtirokchining ichki o'zgarishini o'z ichiga olgan uzoq muddatli jarayon bo'lib, u bu erda va hozir emas, balki maktabgacha yoshdagi bolalik

davrida ham aks etgan, Bola go'zallikni his qilsin, unga qoyil qolsin, uning qalbi va xotirasida Vatan timsoli bo'lgan timsollar mangu saqlanib qolsin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Mahmud az-Zamaxshariyning "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asarida tarbiyaga oid eng odilona fikr asoslari keltirilgan. Bu asar orqali bugungi globallashuv sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda milliy ruhni o'zida aks etgan darslik, tarbiyaviy o'quv qo'llanmalar yaratishda dasturulamal vazifasini bajaradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mahmud az-Zamaxshariy fikrlarida kishining tarbiyasiga oid muhim fikrlar sifatida ko'tarilgan bu masala bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Biz tarbiyashunos olim Mahmud az-Zamaxshariy "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ya'ni (o'git va nasihatlarining oltin munchoqlari) asaridagi axloqiy qarashlarni, ta'lim tarbiya jarayonida talablarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda qo'llasak juda yaxshi samara beradi.

ADABIYOTLAR

1. Rustamov A. "Mahmud Zamahshariy". T., «Fan», 1971 32b
2. Islomov Z.M. (2002). Mahmud Zamaxshariy. V Buyuk allomalarimiz. Toshkent:
3. Toshkent islom universiteti nashriyoti.
4. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R." Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanma, T., "O'qituvchi" 1996, 340b
5. Jo'rayev O., Muhiddinov A. "Mahmud Zamaxshariy" Mutafakkirlar" Bolalar uchun risolalar turkumi. T., Tafakkur nashriyoti 2014, 38b
6. Turdibayev A. "Buyuk allomamiz Mahmud az-Zamaxshariyning asarlarida yaxshilik, do'stlik, oila tarbiyasi va diniy fikrlari haqida" maqola Science and Education" Scientific Journal 2020, Volume 1 Issue 2 , 410-418 b.



Naima MAVLONOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

P.f.f.d., PhD Sh Raximov taqrizi asosida

IMPLEMENTATION OF INTEGRATION IN TEACHING PHYSICS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH

Abstract

The article discusses the integration of physics based on a competent approach in learning for a holistic study of knowledge about nature, given its inextricable link with other disciplines, as this allows a deeper study of the process of understanding. In particular, the relationship of physics with astronomy, chemistry and mathematics was studied and laboratory work was modeled called « Body movement in the gravity field » as an example. The reason is to create integrated tables that will help combine the basic concepts of science, absorb new knowledge from these tables, perform laboratory work, solve quality problems, use them to summarize repetition lessons.

Key words: Element, atom, electrolysis, differentiation, magnetic field, space, amount of heat, electron, proton, nucleus.

РЕАЛИЗАЦИЯ ИНТЕГРАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье обсуждается интеграция физики на основе компетентностного подхода в обучении для целостного изучения знаний о природе, учитывая ее неразрывную связь с другими дисциплинами, так как это позволяет глубже изучить процесс понимания. В частности, изучена связь физики с астрономией, химией и математикой и была смоделирована лабораторная работа которая называется «Движение тел в поле земного тяготения» в качестве примера. Причина заключается в создании интегрированных таблиц, которые помогут соединить основные концепции науки, впитать новые знания из этих таблиц, выполнять лабораторные работы, решать проблемы качества, использовать их для обобщения уроков повторения.

Ключевые слова: Элемент, атом, электролиз, дифференциация, магнитное поле, космос, количество теплоты, электрон, протон, ядро.

FIZIKANI O'QITISHDA KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA INTEGRATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada fizika fanini o'qitishda kompetentli yondashuv asosida integratsiyasini amalga oshirish uning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rib chiqqan holda, tabiat haqidagi bilimlarni birgalikda yaxlit holda o'rganish bilish, anglash jarayonini chuqurroq o'rganish imkonini berishini ko'rib chiqilgan. Aniqroq qilib aytganda, fizikaning astronomiya, kimyo va matematika fanlari bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan holda misol tariqasida jismning Yer og'irlik maydonidagi xarakati haqidagi laboratoriya ishini modellashtirildi. Sababi fanlarning asosiy tushunchalarini bir-biriga bog'lab o'rganishda yordam beradigan integratsiyalashgan jadvallar tuzish, bu jadvallardan yangi bilimlarni singdirish, laboratoriya ishlarini bajarish, sifat masalalari yechish, umumlashtiruvchi takrorlash darolarida foydalanish yaxshi samara beradi.

Kalit so'zlar: Element, atom, differentsiatsiya, elektroliz, magnit maydon, kosmos, issiqlik miqdori, elektron, yadro, proton.

Kirish. Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida kompetentli tavsifdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan keng foydalaniladi. Bunda talabalar uchun qiziqarli bo'lgan, hayotiy, muhim ahamiyat kasb etgan fanning amaliy yo'nalishlariga katta e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Integratsiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik adabiyotlarda tabiat qonuniyatlarining mohiyati ochib beriladi, shuningdek, ularning inson faoliyatiga ijobiy ta'siri yoritiladi. Biroq ularda talaba, fanlardan erishilgan bilimlarini umumlashtirgan holda tafakkur qilishga o'rgatish va ularning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmagan. Bilimlarning integratsiya jarayoni, bilish jarayonining yana bir yangi umumiy qonuniyatini namoyon qilib, bunday jarayonning rivoji, chuqurlasha borib, bizni yangi ufqlarga olib chiqadi. Bilimlar integratsiyasi, faqat tabiiy fanlari bilangina chegaralanmaydi. Bir vaqtlar inson faoliyatining tabiatga ta'siri (antropogen omil) juda arzimom bo'lgan davrlarda, u o'zini tashqi bir kuzatuvchi sifatida his etar edi. Biroq bugun tabiatga antropogen ta'siri keskin ortib, kritik holatga yaqinlashganda, inson endi tabiatni tashqaridan turib emas, balki ichkaridan turib, o'zi bilan bog'lanishda, jamiyatdagi bo'ladigan jarayonlarni hisobga olgan holda,

o'rganishni kasb qilishi lozimligi inson va tabiat orasida vujudga kelayotgan munosabatlarda, uning muammolarida yorqin namoyon bo'lmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida kompetentli tavsifdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan keng foydalaniladi. Bunda talabalar uchun qiziqarli bo'lgan, hayotiy, muhim ahamiyat kasb etgan fanning amaliy yo'nalishlariga katta e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Integratsiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik adabiyotlarda tabiat qonuniyatlarining mohiyati ochib beriladi, shuningdek, ularning inson faoliyatiga ijobiy ta'siri yoritiladi.

Fizikadan laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanish, ya'ni integratsiyani amalga oshirish quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- tabiiy-ilmiy bilimlarni dialektikaning yagona birligi asosida qarashini shakllantirish;
- bilimlarni tizimlashtirishini tashkil etish;
- o'qitishning kasbga yo'nalishini kuchaytirish;
- talabalarda hodisalar, qonunlar, tushunchalar, nazariyalor orasida har tomonlama bog'lanish borligining anglash ko'nikma va malakasini rivojlantirish .

Fanlararo bunday bog'lanish asosida, darslarni tashkil etish uchun, birinchi navbatda, kompetentli tavsifdagi o'quv materiallarining mazmunini aniqlash zarur. Aynan shu masalalar bo'yicha oliy ta'lim tizimida fizik bilimlarga oid kompetentli materiallarni, ular dasturlarining tahliliga tayanib o'rganiladi. Integratsiya tendensiyasi, fan va texnikada, ta'limda mavjud bo'lib, u fan asoslarini, bilimlarni amaliyotda qo'llashga, predmetlar mazmunini takomillashtirishga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida bajarish texnikasi va texnologiyasi takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Fizikaga oid adabiyotlarda fanlararo bog'lanish va integratsiyadan foydalanib, laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida bajarishning samarali bo'lishi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Jumladan, fanlar integratsiyasini o'rnatgan rus olimi, faylasuf M.Chepikov «Integratsiya nauki» kitobida – qadimgi Yunoniston va Sharqda faylasuflar diqqatini dunyoning bir qancha qismini bilish, tabiatning umumiy ilmiy manzarasini tushuntiradigan yagona tabiatshunoslik fani mavjud bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflari bir vaqtning o'zida tabiatshunos ham bo'lganlar – degan fikrlarni bayon qiladi [95; 253 s.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiat haqidagi har qanday fanni, jumladan, fizikani o'rganish jarayonida talabalarda bir qancha fanga doir bo'lgan bilimlar bilan ish ko'riladi. Masalan talabalar «Modda tuzilishi», «Fotosintez» tushunchalari bilan fizika, biologiya, kimyoni o'rganishda, «element», «atom», «elektroliz», «elektrolitik dissotsiatsiya» kabi tushunchalar bilan fizika, kimyo fanlarini o'rganishda; «Gidroenergetika»ga doir bilimlar bilan fizika, geografiya fanlarini o'rganish jarayonida; «Magnit maydon», «Modda tuzilishi», Koinotga oid «Kosmik muhit»ga doir bilimlar bilan fizika va astronomiya fanlarini o'rganish jarayonida duch keladilar. Fizikada «Bug'lanish», «Bug' hosil bo'lishi solishtirma issiqlik miqdori» mavzularini o'rganishda talabalarining zoologiya va biologiya fanlaridan olgan tushunchalaridan foydalanishi o'rinli deb hisoblaymiz. Masalan, 1 g suv bug'langanda jism 2430 J energiya yo'qotkanda, odam terlamaganda uning tana temperaturasi 1000 S gacha ko'tarilgan bo'lishi mumkinligini misol tariqasida keltirilsa, talabalar fizika, kimyo, zoologiya va biologiya fanlarining bir-biriga aloqadorligini yanada chuqurroq tushunib oladilar va ularning tibbiyot sohasiga ham qiziqishlari ortadi. Fizika va kimyo fanlariga doir umumiy tushunchalar: agregat holat,

Jismni moddiy nuqta deb qarab uning ox va oy o'qlari bo'yicha proyeksiyasini olsak,

$$\begin{cases} v_x = v_{0x} + \varepsilon_x t, \\ v_y = v_{0y} + \varepsilon_y t, \\ x = x_0 + v_{0x} t + \frac{1}{2} \varepsilon_x t^2, \\ y = y_0 + v_{0y} t - \frac{1}{2} \varepsilon_y t^2 \end{cases}$$

Vertikal harakatlanayotgan jism uchun shu formulalar yetarli.

A) vertikal yuqoriga harakatlanayotgan jism uchun $v_{0x} = 0$, $g_x = 0$, $v_{0y} = v_0$, $g_y = -g$.

$$\begin{cases} v_x = 0, \\ v_y = v_0 - g t. \end{cases}$$

moddalar, mol, elementlar, atom, elektron, neytron, proton, yadro, pozitron, gaz, gaz qonunlari, Mendelyev-Klapeyron tenglamasi, zarracha, energiya, kimyoviy energiya, ichki energiya, energetik daraja, energetik qobiq, elektr o'tkazuvchanlik, elektroliz, potensial, spektr, nurlanish, radioaktivlik, rentgen nurlari, kosmik nurlar, kvant, foton, yorug'lik xossalari, lazer, issiqlik, termodinamika, entropiya, yadro energiyasi va boshqalar.

Kimyo va fizika kurslarida modda tuzilishini; bunda dastlab molekula tushunchasi fizika kursida kiritiladi, keyin esa, uning tuzilishi, kimyo kursida o'rganiladi. Kimyoviy reaksiyalarning sodir bo'lish shartlaridan asosiysi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning molekulari orasidagi bog'lanish. Hamma molekularlar o'zaro to'qnashganda reaksiyaga kirisha olmaydi. Faqat o'rtacha kinetik energiyasidan (bu fizik tushuncha) kattaroq energiyaga ega bo'lgan molekularlar reaksiyaga kirisha oladilar. Bunday energiya aktivatsiya energiyasi deyiladi (100 kJ/molga yaqin).

«Ideal gaz» mavzusini o'rganishda, ideal gazning o'rtacha kinetik energiyasini aniqlash, kimyoviy reaksiyalarning yuz berish temperaturasini topish ko'nikma va malakalarini talabalarga singdirish foydali. Fizika va kimyo fanlarining asosiy tushunchalarini bir-biriga bog'lab o'rganishga yordam beradigan integratsiyalashgan jadvallar tuzish, bu jadvallardan yangi bilimlarni singdirish, laboratoriya ishlarini bajarish, sifat masalalari yechish, umumlashtiruvchi takrorlash darslarida foydalanish yaxshi samara beradi.


Fizika va matematika fanlariga doir tushunchalar: masofa, trayektoriya, shakl, vektor, skalyar, harakat nisbiyligi, matematik modellar, hisoblash tenglamalari, funksiyalar, koordinata va boshqalar.

Fizika va matematika fanlarining o'zaro bog'liqligi fizika qonunlarini isbotlashda matematik apparatlardan foydalanishni taqozo qiladi. Matematik apparatlar fizikaviy qonuniyatlarni isbotlash, masalalar yechish hamda laboratoriya ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega. Matematikadagi «funksiya» kabi fundamental tushuncha fizikaviy qonuniyatlarni mazmunini yechishda asosiy rol o'ynaydi.

A.Eynshteyn zamonaviy fizikaning eng muhim xarakterli tomonlaridan biri haqida gapirib, boshlang'ich g'oyalardan keltirib chiqarilgan xulosalar nafaqat sifat xarakterga, balki miqdoriy xarakterga ham egaligini, miqdoriy xulosalar chiqarishda matematika tilidan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi va eksperiment natijalari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan xulosalar chiqarish uchun fizikaga matematika tadqiqot quroli sifatida zarurligini aytadi.

Misol sifatida jismning Yer og'irlik maydonidagi harakati haqidagi laboratoriya ishini keltiramiz.

Ushbu laboratoriya quyidagicha bayon etiladi: bir jism og'irlik maydonida qandaydir boshlang'ich tezlik bilan tashlangan; uning harakat qonuni va trayektoriyasi topilsin. Biz bu yerda fizik modelni soddalashtirganimizni eslatib o'tamiz – Yerning og'irlik maydonini bir jinsli maydon deb oldik, bu esa harakat davomida jism bilan Yer sirtigacha bo'lgan masofa yer radiusidan ancha kichik bo'lganda o'rinli xolos. So'ngra, real jism moddiy nuqta deb modellashtiriladi;




B) Gorizontal otilgan jism harakati $v_{0x} = v_0$, $g_x = 0$, $v_{0y} = 0$, $g_y = -g$, $x_0 = 0$,

$$\begin{cases} v_x = v_0, \\ v_y = -gt, \\ x = v_0 t, \\ y = y_0 - \frac{1}{2} g t^2. \end{cases}$$


Harakat trayektoriyasini aniqlash uchun birinchi tenglamadan vaqtni topib uni ikkinchi tenglamaga qo'yish yetarli ya'ni u parabola bo'ylab harakatlanadi.

$$y = y_0 - \frac{1}{2} g \frac{x^2}{v_0^2}.$$



B) Gorizontalga burchak ostida otilganda $v_{0x} = v_0 \cos \alpha$, $g_x = 0$, $v_{0y} = v_0 \sin \alpha$, $g_y = -g$, $x_0 = y_0 = 0$, и потому

$$\begin{cases} v_x = v_0 \cos \alpha, \\ v_y = v_0 \sin \alpha - gt, \\ x = (v_0 \cos \alpha) t, \\ y = (v_0 \sin \alpha) t - \frac{1}{2} g t^2. \end{cases}$$



Barcha ko'rib chiqqan hollarimiz uchun umumiy holda quyidagi formulani (vektor ko'rinishda) ishlatish bo'ladi.

$$m\vec{a} = \vec{F}_T.$$

Masalani umumiy holda hal etgandan so'ng, ma'lum xususiy hollarni ko'rib o'tish foydalidir, ularni ballistik pistolet yordamida ko'rsatish maqsadga muvofiq va hokazo. Mos fizik va matematik modellarni tanlashda faraz qilingan cheklanishlarni real sharoitlar bilan taqqoslab, yana tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

«Issiqlik miqdori», «Tok kushi, kuchlanish, qarshilik» mavzulariga doir laboratoriya ishlarini bajarish, sifat va miqdoriy masalalarni yechishda, fizik kattaliklarning funksional bog'lanishlarga amal qilinadi. Masalan, tok kuchi, kuchlanish va qarshilik orasidagi funksional bog'lanish Ohm qonuni. Shuningdek, o'tkazgichning solishtirma qarshiligi haqida tushuncha berilganda qarshilikning o'tkazgichning uzunligi, ko'ndalang kesim yuzasi va materialga bog'liqligini o'zaro mutanosib bog'lanish orqali tushuntirish qulay.

Fizika va biologiya fanlariga doir umumiy tushunchalar: biopotensial, molekulyar biofizika, biotok, biomexanika, bioenergetika, biosfera, nanobiologiya, ultratovush diagnostika, mikroskop, radioizotop, kardiograf, elektrokardiogramma, elektroforez va boshqalar.

Xulosa va takliflar. Fizika, astronomiya, kimyo va matematika fanlari mazmuni bo'yicha o'qitishda, kompetentli yondashuv asosida integratsiyasini amalga oshirish modda, energiya va vaqt tushunchalarining mohiyatini mukammal anglashga imkon berishi bilan muhim. Shu bois bu xildagi tushunchalarni o'rganishni ularning kompetentli mazmuni negizida tashkil etilsa, talabalar uchun bu tushunchalar va bilimlar haqida to'la, umumlashgan tasavvurga ega bo'lishi ancha oson kechadi va o'qitishda o'rinsiz qaytarishlarning oldi olinadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni. Qonunhujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2019 y., 03/19/576/3970 son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y.,/20/6097/1431-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.
4. Vorontsova V. G. Humanitarian and axiological foundations of postgraduate education of a teacher / V. G. Publishing House, 1997. -p.
5. Usmonov B.Sh., Raximov F.X., Duxmuxamedova M.X. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. - T.: "Adabiyot uchqunlari", 2017 y. 75 b.
6. Pedagogicheskoy deyatelnosti v vishey shkole /Kosolapova M.A.; Tomskiygos. ped. un-t. - Tomsk, 2007. - s. - Bibliogr. : s. 104 - 110. Dep. V INION RAN №60426
7. Zeyer E.F., Pavlova A.M., Symanuyuk E.E. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: Kompetentnostniy podxod. - M.: MPSI, 2005. - 216s.
8. Zimnyaya I.A. Klyuchevyye kompetentsii - novaya paradigma rezul'tata obrazovaniya // - 2003. -№ 5. - S. 34-42; Kompetentnostnyy podxod...
9. Chullieva Gulchekhra Toshpulot; "Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema", Middle European Scientific Bulletin, 8, ISSN 2694-9970 142,141-148,2021.



UDK:796.08:378(575.1)

Abrorbek MO'MINOV,
O'zDJTSU dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)
E-mail: abrorbek10.03.90@gmail.com

P.f.n, dotsent T.E Nabiev taqrizi asosida

EXPERIENCE IN EXPERIENCED HANDBALL PLAYERS FOR THE BALL SHOT ACCURACY AND THE BASIC COORDINATING SKILLS PROVIDING ITANNOTATION

Abstact

This article describes in detail the results of a survey on traditional handball exercises to maintain dynamic balance, differentiation of the required time interval and the limit of muscle tension.

Key words: Dynamic balance, time difference, coordination, muscle strength limits, questionnaire.

MALAKALI GANDBOLCHILARDA TO'P OTISH ANIQLIGI VA UNI TA'MINLOVCHI ASOSIY KOORDINATSION QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TAJRIBASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, gandbol bo'yicha olib boriladigan an'anaviy mashg'ulotlar dinamik muvozanatni saqlash, zarur bo'lgan vaqt-oraliqni va mushaklarning kuchlanish chegarasini farqlash yuzasidan so'rovnom natijalarida to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Dinamik muvozanat, vaqt-oraliqni farqlash, koordinatsiya, mushaklarning kuchlanish chegarasi, so'rovnom.

ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧНОСТИ БРОСКА ПО МЯЧУ И ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ ЕЕ ОСНОВНЫХ КООРДИНАЦИОННЫХ НАВЫКОВ У ОПЫТНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье подробно описаны результаты опроса по традиционным гандбольным упражнениям на поддержание динамического равновесия, дифференцирование необходимого временного интервала и предела мышечного напряжения.

Ключевые слова: Динамическое равновесие, разница во времени, координация, пределы мышечной силы, опросник.

Kirish. Dunyo miqyosida gandbol, xilma-xil murakkab texnik usullarni bajarish sifatini ortishi bilan tobora ommalashib bormoqda. Gandbolchilar harakatlarining uyg'unligi va murakkab texnik usullarning ko'pligi ushbu sport turi bo'yicha qiziquvchilar sonini ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, jamoalar o'rtasida raqobatning ortib borishi mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilishda o'yin natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, muvozanat saqlash va darvozaga to'p otish aniqligini takomillashtirish yo'llarini inobatga olgan holda mashg'ulotlar jarayonini rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'p yillik kuzatuvlar shundan darak beradiki, gandbol bo'yicha o'tkazilib kelinayotgan an'anaviy mashg'ulotlarda darvozaga to'p otish usullarini turli vaziyatlarda, turli masofalardan, turli qanotlardan qarshiliksiz va qarshiliklar ta'sirida muntazam shakllantirib borishga ustuvorlik berilar ekan. Bu, albatta to'g'ri va tahsinga sazovordir. Lekin, shunga qaramasdan, musobaqa o'yinlari davomida, ayniqsa o'yinning ikkinchi yarmi yoki uning yakuniy qismlarida hatto o'ta mahoratli gandbolchilar ham to'pni darvozaga aniq yo'llay olmaydilar. Ehtimol qilish joizki, buning asosiy sabablaridan biri – bu o'yin davomida ijro etiladigan o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishli tezkor harakatlar (yugurish, sakrash, sapchib hatlash, egilish – yozilish, burilish – aylanish) vestibulyar apparatining retseptorlariga ta'sir etib, tananing chayqalishiga olib keladi. Natijada dinamik muvozanat saqlash yo'qolib boradi. Bunday holat nafaqat to'p otish koordinatsiyasi va uning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki to'p otishda zarur bo'lgan vaqt-oraliq va mushaklarning kuchlanish chegarasini farqlash qobiliyatlarini ham susaytirib yuboradi [2, 4, 5, 6, 7, 8, 9].

Ishning maqsadi. Gandbolchi-talabalarning qobiliyatlarni gandbolchilar tayyorlash amaliyotida alohida va integral holda shakllantirish tajribasini o'rganish.

Ilmiy izlanish o'z ichiga quyidagi vazifani o'z ichiga olgan;

malkali gandbolchilar bilan so'rovnom o'tqazish

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Gandbol bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, ayniqsa musobaqa o'yinlarida o'yinchi maydon bo'ylab harakatlanayotgan o'z sherigi o'rtasidagi oraliqni bashorat asosida aniqlash, to'pni qaysi vaqtda va qanday vaziyatda unga uzatish zarurligini payqashi (bilishi) talab qilinadi. Bunday harakat koordinatsiyasi va aniqligini shakllantirish uchun modellastirilgan mashg'ulotlarda harakatlanmaydigan va turli tezlikda hamda yo'nalishda harakatlanuvchi nishonga turli oraliqlardan (masalan, 3, 5, 7 va h.k. metrdan) to'pni aniq uzatish mashqlari qo'llaniladi. Yoki darvozaning pastki va ustki burchaklariga to'pni otish aniqligini shakllantiruvchi mashqlarni muntazam qo'llab borish foydali natija berishi V.I. Lyax tomonidan maktab o'quvchilari ishtirokida basketbol misolida isbotlab berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, bunday mashqlarni ko'z nazorati bilan, ko'z nazoratsiz, turli holat va harakatlar ijrosi bilan, turli tezlikda qo'llash tavsifiya etiladi.

Sport o'yinlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni namoyish etishda, masalan, muvozanat saqlash va to'pni nishonga aniq tashlashda vestibulyar analizatorining funksional imkoniyati ustuvor ahamiyatga ega ekan [V.I. Lyax, A.A. Pulatov, F.A. Pulatov].

Gandbol sport turida, jumladan futbolda ham, tezkor va o'zgaruvchan yo'nalishli shiddatli harakatlar, vaqt tanqisligida va favqulotli vaziyatlarda ijro etiladigan texnik usullar vestibulyar analizatorining funksional imkoniyatini zaiflashtirib, muvozanatni izdan chiqarishi, harakat aniqligini

susaytirishi mumkin ekan. Agar vestibulyar analizatorining funksional imkoniyatini to'g'ri va o'zgaruvchan yo'nalishli (burilma va aylanma harakatlar) mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borilsa, statik va dinamik harakatlar davomida muvozanat saqlash turg'unligi ortib borishi kuzatilar ekan. Natijada koordinatsion qobiliyatlar, ularning tarkibiy komponentlari, shu jumladan harakat aniqligi yanada sayqal topishi mumkin ekan.

Ushbu mualliflarning yana bir boshqa tadqiqotlarida [2013, 38-44 b.] shunday ma'lumotlar keltirilganki, sport bilan muntazam shug'ullanish, ayniqsa tarkibida burilma va aylanma harakatlar ko'plab qo'llaniladigan sport turlari (gimnastika, akrobatika, sport o'yinlari) bilan shug'ullanish davomida vestibulyar analizatori bunday yuklamalarga moslashib borar ekan. Natijada yurak-tomir sistemasi ham sustroq reaksiya ko'rsatish rejimiga o'tishi mumkin ekan. Eng asosiysi, bunday sport turlari bilan shug'ullanuvchilarda muvozanat saqlash turg'unligi o'sib, koordinatsion qobiliyatlar nisbatan jadal shakllanishi aniqlangan.

Tadqiqot ishlari asosan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining gandbol ixtisosligida ta'lim oluvchi va "Sport-pedagogik mahoratini oshirish" guruhlarida shug'ullanuvchi I-IV kurs talabalar bilan o'tkaziladigan 58 nafar malakali gandbolchi-talabalar tanlab olindi.

Pedagogik kuzatuv shuni ko'rsatdiki, harakat aniqligi yoki to'pni boshqarish (uzatish, darvozaga otish) aniqligi, shu harakat davomida uning barqarorligini ta'minlovchi dinamik muvozanatni saqlash, to'p uzatish yoki uni darvozaga otishda zarur bo'lgan vaqt-oraliq va kuchlanish chegarasini farqlash qobiliyatlarini o'quv-mashg'ulot jarayonida alohida ham, 1-jadval

Malakali gandbolchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari – n=58

t/r	Savollar	Javoblar			
		Ha		Yo'q	
		soni	%	soni	%
1.	TTHni ijro etishda vaqt-oraliqni farqlash reaksiyasining ahamiyati haqida tasavvurga egamisiz?	11	18,9	47	81,1
2.	TTHni ijro etishda kuchlanish chegarasini farqlash reaksiyasi haqida tushunchaga egamisiz	7	12,1	51	87,3
3.	Mashg'ulotlarda vaqt-oraliqni farqlash qobiliyatini shakllantiruvchi mashqlar qo'llaniladimi?	9	15,5	49	84,5
4.	Mashg'ulotlarda kuchlanish chegarasini farqlash qobiliyatini shakllantiruvchi mashqlar qo'llaniladimi?	5	8,6	53	91,4
5.	Mashg'ulotlarda muvozanat saqlash mashqlari qo'llaniladimi?	17	29,3	41	70,7
6.	Mashg'ulotlarda to'psiz va to'p bilan burilish-aylanish mashqlari qo'llaniladimi	21	36,8	37	63,8
7.	Mashg'ulotlarda harakatlanmaydigan nishonlardan foydalaniladimi?	14	22,4	44	77,6
8.	Mashg'ulotlarda harakatlanadigan nishonlardan foydalaniladimi?	0	0	58	100
9.	Seriyali burilma-aylanma harakatlar ta'sirida to'p uzatish va uni darvozaga otish aniqligi shakllantiriladimi?	9	15,5	49	84,5
10.	Mashg'ulotlarda vaqt-oraliq va kuchlanish chegaralarini farqlash aniqligini shakllantirishga mo'ljallangan asbob-uskunalar qo'llaniladimi?	0	0	58	100

Izoh: TTH – texnik-taktik harakatlar

Olingan so'rovnoma natijalariga asosan shunday to'xtamga kelish mumkinki, gandbolchi-talabalar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda yuqorida qayd etilgan koordinatsion qobiliyatlarni haqiqatan ham maxsus mashqlar yordamida shakllantirishga urg'u berilmas ekan. Respondentlar tomonidan berilgan javoblar shuni ham tasdiqlaydiki, gandbol bo'yicha o'tkaziladigan akademik darslarda ushbu qobiliyatlarning mantiqiy mohiyati, amaliy ahamiyati, ularni individual va guruhli mashg'ulotlarda shakllantirish metodlari hamda vositalari haqida chuqur bilim va tushunchalar berilmas ekan. Masalan, "TTHni ijro etishda vaqt-oraliqni farqlash reaksiyasining ahamiyati haqida tasavvurga egamisiz?", deb nomlangan 1-nci savolga 58 nafar respondentdan 11 tasi "Ha" (18,9%) va 47 tasi "Yo'q" (81,1%) deb javob berdilar. Yuqorida qayd etilganidek, turli masofalardan, maydonning turli joylaridan darvozaga to'p otishda yoki harakatlanayotgan sherikka to'p uzatishda zarur vaqt-oraliqni his qilish, farqlash va mo'ljalga olish kabi koordinatsion elementlarni yuksak aniqlikda amalga oshirish shu texnik usullar samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

To'pni darvozaga otishda uning natijadorligi ko'p jihatdan muvofiq mushaklarning zarur bo'lgan kuchlanish (mushaklarning qisqarish tezligini ham) chegarasini farqlash aniqligiga ham bog'liqdir. Lekin, afsuski, "TTHni ijro etishda

integral tartibda ham maqsadli shakllantirilmas ekan. To'g'ri, ta'kidlash mumkinki, o'yin vaziyatlarini modellashtirilgan sharoitlarda to'pni uzatish yoki uni darvozaga otish usullari va hujum bilan bog'liq texnik-taktik kombinatsiyalarni shakllantirishga mo'ljallangan mashqlarni qo'llash davomida qayd etilgan koordinatsion qobiliyatlar ma'lum darajada sayqal topadi. Lekin, ushbu qobiliyatlarni bunday metodik yondashuv asosida o'z-o'zidan shakllanishi, ularni uzoq muddatli va shiddatli mashg'ulotlar, ayniqsa musobaqa o'yinlari davomida barqaror va turg'un xususiyat bilan ijro etilishiga imkon bermaydi.

Alohida shuni ham e'tirof etish joizki, mazkur qobiliyatlarning psixofiziologik va kinematik mohiyati, tarkibiy tuzilishi, ularning amaliy ahamiyati, shakllantirish metodlari va vositalari muvofiq fan dasturida ham, ishchi o'quv dasturlarida ham ochib berilmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Yuqorida qayd etilgan muammolarni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida biz 58 nafar gandbolchi-talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik. So'rov o'tkazishda avval unga respondent sifatida jalb qilingan gandbolchi-talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, unda taqdim etilayotgan savollarga xolisona, mustaqil va to'g'ri javob berish, hujum bilan bog'liq texnik-taktik usullarni samarali ijro etishga imkon yaratuvchi koordinatsion qobiliyatlarni (to'p otish koordinatsiyasi va aniqligi, dinamik muvozanat saqlash, to'p otishda vaqt-oraliq va mushaklarning kuchlanish chegarasini farqlash) maqsadli shakllantirish choralari qo'llashga yordam berishi haqida tushunchalar berildi. So'rovnoma natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

kuchlanish chegarasini farqlash reaksiyasi haqida tushunchaga egamisiz?" deb nomlangan 2-nci savolga 58 ta respondentdan faqat 7 tasi "Ha" (12,1%) va 51 tasi "Yo'q" (87,9%) variantlari bilan javob qaytarishdi. Ma'lumki, turli masofalardan va joylardan darvozaga to'p otishda zarur bo'lgan vaqt-oraliq mo'ljallangandan keyin muvofiq mushaklarni kuchlantirish chegarasini farqlash qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Afsuski, mazkur savol bo'yicha olingan javoblardan ko'rinib turibdiki, "Sport-pedagogik mahoratini oshirish" guruhlarida shug'ullanuvchi gandbolchi-talabalar bilan o'tkaziladigan an'anaviy mashg'ulotlarda qayd etilayotgan koordinatsion qobiliyat maxsus mashqlar asosida shakllantirilmas ekan. Bunday fikr so'rovnomada qayd etilgan 3 va 4-nci savollarga javoblar bilan ham tasdiqlanadi. Masalan, "Mashg'ulotlarda vaqt-oraliqni farqlash qobiliyatini shakllantiruvchi mashqlar qo'llaniladimi?" deb nomlangan 3-nci savolga 58 nafar respondentdan 9 tasi (15,5%) "Ha" javobini, 49 tasi (84,5%) esa "Yo'q" javobini yo'llashdi. "Mashg'ulotlarda kuchlanish chegarasini farqlash qobiliyatini shakllantiruvchi mashqlar qo'llaniladimi?" deb nomlangan savolga ham shunga o'xshash ovoz berildi ("Ha" – 5 ta yoki 8,6%, "Yo'q" – 53 ta yoki 91,4%).

Dastlab ta'kidlanganidek, o'yin davomida darvozaga to'p otish aniqligi to'g'ridan-to'g'ri vestibulyar analizatori tomonidan boshqariladigan dinamik muvozanat saqlash turg'unligiga bog'liqdir. Gap shundaki, mashg'ulot va musobaqa o'yinlari davomida ko'p martalab takrorlanadigan o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishli tezkor harakatlar (yugurish va keskin to'xtash, turli tomonlarga siltanib hatlash va sakrash, ayniqsa burilish va aylanishlar) vestibulyar retseptorlariga ta'sir etib, chayqalish holatini yuzaga keltiradi, natijada muvozanat izdan chiqadi. Bunday reaksiya harakat koordlinatsiyasi va uning aniqligini keskin susayishiga olib keladi. Mazkur holat birinchi navbatda vestibulyar apparatining funksional imkoniyati yetarli rivojlanmaganligi uchun vujudga keladi. Afsuski, "Mashg'ulotlarda muvozanat saqlash mashqlari qo'llaniladimi?" deb nomlangan savolga respondentlarning 17 tasi "Ha" (29,3%), 41 tasi "Yo'q" (70,7%) deb ovoz berishdi.

Pedagogik kuzatuv natijalariga asoslangan holda e'tirof etish mumkin, mashg'ulotning tayyorgarlik va yakuniy qismlarida statik holatlarda muvozanat saqlash mashqlari, muntazam bo'lmasada, qo'llanib turilishi kuzatilgan edi. Lekin, gandbolda to'pni urib yugurish, to'p uzatish yoki uni darvozaga aniq otishda dinamik muvozanatni saqlash qobiliyati ustuvor ahamiyatga loyiqdir. Biroq, bunday qobiliyatni shakllantirishga mo'ljallangan maxsus mashqlar (o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'yab chizilgan chiziqlar ustidan chiqmasdan to'psiz va to'pni urib yugurish, to'pni urib, goh chap tomonga, goh o'ng tomonga burilib va aylanib yugurish) deyarli qo'llanilmas ekan. Mazkur holat "Mashg'ulotlarda to'psiz va to'pni urib burilish-aylanish mashqlari qo'llaniladimi?" deb nomlangan 6-nchi savolga olingan javoblar bilan ham tasdiqlandi: "Ha" – 21 ta (36,2%), "Yo'q" – 37 ta (53,8%).

Gandbol bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan aksariyat trener-o'qituvchilar darvozaga to'p otish mahoratini shakllantirishga mo'ljallangan individual, guruhli va jamoali mashqlarni modellashtirilgan vaziyatlar talablariga muvofiq qo'llash davomida natija samarali yakunlanmasa (to'p darvozaga aniq yo'llanmasa yoki uni darvozabon ushlab olsa, to'p bilan yugurishda yoki to'pni sherikka uzatishda xatoliklar qayd etilsa), bunday holatning yuzaga kelish sababini u yoki bu hujumchida tezlikning sustligi, ko'pincha esa texnik-taktik tayyorgarlikning pand berishi bilan asoslaydilar. Lekin, ular bunday sababni mashqlarda ishtirok etuvchi gandbolchilarda dinamikmuvozanatni saqlash koordinatsiyasi izdan chiqishi bilan bog'lamaydilar.

So'rovnomaning 7 va 8-nchi savollariga taqdim etilgan javoblar nisbatlaridan ma'lum bo'ldiki, gandbolchi-

talabalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda darvozaga to'p otish aniqligini "charxlash" va uning turg'unligini oshirish maqsadida harakatlanmaydigan "baland-past" va harakatlanadigan nishonlardan umuman foydalanilmas ekan. Javoblar muvofiq ravishda quyidagi nisbatlarda qayd etildi: 7-nchi savol javoblari – "Ha" – 10 ta (22,4%), "Yo'q" – 48 ta (77,6%); 8-nchi savol bo'yicha – "Ha" (0%), "Yo'q" (100%).

"Seriya burilma-aylanma harakatlar ta'sirida to'p uzatish va uni darvozaga otish aniqligi shakllantiriladimi?" deb nomlangan 9-nchi savolga 9 nafar respondent "Ha" (15,5%), 49 tasi "Yo'q" (84,5%) javobini berishdi. Ko'rinib turibdiki, o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'yab to'p bilan harakatlanishlar davomida dinamik muvozanatni saqlash faoliyatini boshqaruvchi vestibulyar analizatorining funksional imkoniyatini shakllantirishda ustuvor ahamiyatga loyiq aylanma va burilma mashqlarni qo'llashga jiddiy e'tibor berilmas ekan.

Xulosa. Pedagogik kuzatuv, so'rovnoma natijalarining qiyosiy tahliliga asosan quyidagi xulosalarni e'tirof etish mumkin:

Pedagogik kuzatuv natijalaridan ma'lum bo'ldiki, gandbolchi-talabalar bilan o'tkaziladigan an'anaviy mashg'ulotlar davomida ushbu sport turida to'pni darvozaga otish aniqligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muvozanat saqlash, vaqt-oraliq va zarur bo'lgan kuchlanish chegarasini farqlash qobiliyatlari alohida ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida muntazam shakllantirilib borilmas ekan. Shuning uchun ham mashg'ulotlar davomida, ayniqsa musobaqa o'yinlari jarayonida kuzatuvda bo'lgan gandbolchi-talabalar to'pni turli oraliq va qanotlardan darvozaga otishda muvozanat saqlash koordinatsiyasini izdan chiqishi tufayli xatoliklarga yo'l qo'yishlari ehtimol qilinadi. Bunday koordinatsion qobiliyatlarni maxsus mashqlar yordamida shakllantirimasligi mazkur gandbolchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bilan tasdiqlandi.

Sport o'yinlariga xos, shu jumladan gandbolchilar faoliyatida alohida ahamiyat kasb etuvchi, texnik-taktik harakatlar samaradorligini belgilovchi koordinatsion qobiliyatlar, ayniqsa ob'ektni kuzatish, unga taalluqli bo'lgan yoki sarflanadigan vaqt-oraliqni farqlash, statik hamda dinamik muvozanatni saqlash qobiliyatlari, ularni shakllantirish va baholash masalalarini nihoyatda tor doirada o'rganilganligi ma'lum bo'ldi. Gandbol amaliyotida vaqt-oraliqni, mushaklarning kuchlanish chegaralarini farqlash aniqligi soddaga, ommabop, shu bilan bir qatorda ob'ektiv axborot beruvchi instrumental metodlar yordamida o'rganilmaganligi ochib berildi.

ADABIYOTLAR

1. Лях В.И. Координационные способности; диагностика и развитие – М; ТВГ, Дивизин., 2006 йил с. 133-144.
2. Назаренко А.С. Чинкин А.С, Влияние вестибулярного раздражения на статокинетическую устойчивость спортсменов различных специализации. / Наука спорт; Современные тенденции. № 2 (г7), 2015. – С. 78-85.
3. Pulatov F.A. Sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi 7-10 yoshli bolalarda o'naqay va chapaqay harakatlarni simmetrik tartibda shakllantirish ustuvorligi. 2020 yil, 29 b.
4. Пулатов А.А. Влияние укачивания при занятиях волейболистом и его влияние на результативность подачи. // В сб. статья международного конкурса «Лучшая научная статья 2017. / МЦНС «Наука и просвещение», Пенза, 2017 йил. С. 215-222.
5. Назаренко Л.Д. Средства и методы развития двигательных координаций. // Монография. М.: 2003. – 258 с.
6. Mo'minov A.Sh. (2021). Gandbolchi-talabalarda turli funksional holatlardan to'pni darvoza burchaklaridagi nishonlarga otish aniqligini o'quv yili davomida o'zgarish dinamikasi. FAN-SPORTGA ilmiy nazariy jurnal, S. 33-36.
7. Mo'minov A.Sh. (2021). Tochnost differensirovki prostranstvenno-vremennyy otnosheniy po dannym RDO u gandbolistov do i posle vestibulyarnoy nagruzki na raznykh etapax godichnogo sikla podgotovki. FAN-SPORTGA ilmiy nazariy jurnal, S. 69-71.
8. Mo'minov A.Sh., & Roziboev M.M., & Azimqulov B.A. (2021). Tools and methods of development of handball players at the preliminary preparation stage / Proceedings of 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference Global Technovation, Granada, Spain – S. 5-6.

9. Mo'minov A.Sh. (2021). Gandbolchi-talabalarda tanani chap va o'ng tomonga aylantirish ta'sirida vaqt-oraliqni farqlash reaksiyalarining o'zgarish dinamikasi. International Multidisciplinary Scientific Conference on Educational Advancements and Historical Developments. Berlin, Germany -Sydney, Australia – S. 5-6.
10. Xabibjanova X.M., & Mo'minov A.Sh., & Yusupova Z.E., (2021). Musobaqa sharoitida markaz amplusida o'ynovchi gandbolchilarning hujumdagi texnik-taktik harakatlarini tahlil qilish va baholash. "FAN-SPORTGA" ilmiy nazariy jurnal, Chirchiq – B. 36-38.



UDK: 74.261.7.81.3

Aziza MUSOYEVA,

Senior teacher of the Department of English Teaching Methodology of the Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
E-mail: musoeva@samdchti.uz

Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti p.f.f.d.(PhD) B.H.Xoliyorov taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF RESEARCH COMPETENCE FOR PRE-SERVICE AND IN-SERVICE TEACHER EDUCATORS

Abstract

This article examines the significance of competency-based approaches in Uzbekistan, using the terms competence and competence-based approach. It also stresses the basic competencies for instructors of foreign languages. In addition, the article references previous publications on this subject and provides definitions of writers' research competency. The article concludes with a discussion of the pedagogical support for the development of competences based on "pre-service" and "in-service" programs.

Key words: Competence, competence-based approach, "pre-service" programs, "in-service" programs.

PRE-SERVICE VA IN-SERVICE DASTURLARI O'QITUVCHILARI UCHUN TADQIQOT KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompetentlik va kompetensiyaga asoslangan yondashuv atamalarining O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqola chet tillari o'qituvchilari uchun muhim bo'lgan asosiy kompetensiyalarga urg'u beradi. Bundan tashqari, maqolada ushbu mavzu bo'yicha oldingi nashrlarga havolalar qilingan va olimlarning tadqiqot qobiliyatining ta'riflari keltirilgan. Maqola "pre-service" va "in-service" dasturlari asosida kompetensiyalarni rivojlantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasi bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Kompetentsiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, "pre-service" va "in-service" dasturlari.

ЗНАЧЕНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОГРАММЫ «PRE-SERVICE» И «IN-SERVICE»

Аннотация

В данной статье рассматривается значение компетентностных подходов в Узбекистане с использованием терминов «компетенция» и «компетентностный подход». Он также подчеркивает основные компетенции для преподавателей иностранных языков. Кроме того, в статье даны ссылки на предыдущие публикации по этой теме и даны определения исследовательской компетентности писателей. Статья завершается обсуждением педагогической поддержки развития компетенций на основе программ «pre-service» и «in-service».

Ключевые слова: Компетентность, компетентностный подход, программы «pre-service», программы «in-service».

Introduction. The ongoing evolution of society has resulted in the emergence of a number of relatively new duties, including those pertaining to the definition of content, the organization of courses, and the modification of curricula. According to the primary approach defined in the state education standards of the Republic of Uzbekistan, which is the competence approach, the potential of individuals in the world's higher education institutions who have developed, professional competences at the level of an international expert is becoming increasingly apparent.

The cultivation of general and specialized skill sets is a precondition for the institutionalization of a competency-based approach to higher education, which is dependent upon the former. Candidates for jobs teaching a foreign language need to have linguistic, psychological-pedagogical, and professional-methodological skills.

Researchers are held to the same standards of competence regardless of the field of expertise they choose to pursue as their primary focus. Yet, depending on the area of education in which an educator specializes, it may also be regarded a component of a teacher's linguistic, professional, methodological, and pedagogical qualities. This is something that may occur in a wide range of settings.

Literature review. The capability of doing research is not only an essential component of the expert's skill, but it is also a prerequisite for its growth and application. This demonstrates that the prospective specialist is now ready to engage in professional activity. It is not a coincidence that one of the goals of higher education is to train future professionals for the kinds of work that include research. The inclusion of both students and faculty in basic research will not only contribute to the development of novel concepts, but it will also encourage the emergence of new academics.

Several scholars researched on this issue and concluded that research is necessary for the beneficial growth of society. Research is recognized as one of the most important success elements for higher education institutions worldwide [1]. As a consequence, fostering research competence in future professionals is crucial at higher education institutions.

The ability to do independent research and convey its conclusions is referred to as research competence [2]. Research competency is the fundamental goal of professional and methodological competence development as well as a means of developing other professional, cultural, and general competencies [3].

A.Kh. Makhmudov defined the concept of "competence" as follows: "Competence is a person's integrative quality (socio-psychological component), encompassing special aspects of interrelated and mutually impacting integrative knowledge, abilities, and qualifications (cognitive component), as well as socially meaningful attributes (readiness for decisions, suitability and responsibility)" [4].

Teacher competence is the right method for imparting information, skills, and programs to pupils, as well as a process connected to the teacher's instructional environment. Teachers with the proper credentials create effective learning environments for their pupils. To do so, pupils must acquire various abilities and have a thorough comprehension of the CEFR's general and communicative competencies.

Sociocultural and intercultural awareness is, in our opinion, the most important general ability outlined by the CEFR for prospective teachers. The teacher simultaneously creates the objective of transmitting to future generations all social and cultural patterns of the foreign language being learnt. Also, the potential educator should gain intercultural competence. Together with this, existential competence is fairly crucial, as it enhances the prospective teacher's self-confidence and lifts him to the level of a mature personality and harmoniously formed person. This broadens his

perspective and boosts his desire or motivation to learn and teach the language. The development of study skills is an additional crucial aspect of general competence. Important competences include self-education, information reception, comprehension, and transfer, as well as the use of new technologies and ICT.

The aforementioned CEFR-listed abilities are crucial for prospective foreign language teachers; however, there are a number of other competencies that are as important. One of them is pedagogical competence, which enables future teachers to organize classes, solve problems, design activities, be creative and adaptable, understand students, improve their speech, motivate students, involve them in all types of activities regardless of their ability, and listen in an audience [5].

The textbook "General Pedagogy" by scientists N. Atayeva, M. Salaeva, and S. Khasanov has several descriptions of pedagogical brilliance, such as "the capacity to thoroughly examine related disciplines, possessing the system of raising and education in its entirety" [6].

Research methodology. As a result of our study, we have chosen to show in the table below (see table 1) the following competencies that are essential for future educators, including those stated and those not included in the CEFR [12]:

Table 1

Types of competencies that are important for future teachers

Competencies outlined in the CEFR document	Competencies that are not outlined in the CEFR
General competence Declarative knowledge Practical-skills and know-how Existential competence Ability to learn Communicative language competence Linguistic competence Sociolinguistic competence Pragmatic competence Other competences Assessment competence (self-assessment) ICT competence (digital)	Pedagogical competence Professional competence Appropriate use of humor Competence to make changes The impact of studying abroad on teacher competence Lifelong learning Research competence Curriculum competencies

According to the majority of educators, research competency includes not only the ability to conduct a study, but also the understanding of how to design and conduct one, as well as a set of values, a sense of drive, and a spirit of inquiry [7].

In many countries, action research is now an established element of the training of teachers [8]. Several academics see action research as a way to close the gap between theoretical knowledge and practice in the context of the current system of pre-service teacher education, which presents significant problems [9].

Analysis and results

Pre-service teachers' capacity for reflection and analysis, as well as their familiarity with research, are both said to benefit by participation in action research [10]. Therefore, action research encourages prospective teachers to think critically about their own teaching methods [11].

Based on the "pre-service" and "in-service" programs, we also produced practical recommendations for the development of future foreign language teachers' general and communicative language competencies (Table 2) [13].

Table 2

Didactic support for the development of competencies on the basis of "pre-service" and "in-service" programs

"Pre-service" program
To be familiar with the Common European Framework of Reference (CEFR), its background and introduction to Uzbekistan, the changes taking place in our country, and the rules and regulations;
to understand and be able to implement the core skills outlined by the Common European Framework of Reference for Languages;
To be familiar with and capable of using the CEFR-recognized communicative language abilities;
Possessing the skills necessary to design a test and an in-depth understanding of assessment, its many forms, and its guiding principles;
Familiarity with modern computing and information and communication technologies (including but not limited to the following: a computer, LCD projector, digital board, iPad, Google Docs, Microsoft Word, Excel, PDF, Power Point, Prezi, video watching software VLC, Windows Media player);
Having knowledge of TPACK, SAMR, UNESCO competence programs aimed at developing digital competence, as well as using platforms that have become popular in recent years, namely Zoom, Google Meet, WebEx, Microsoft Teams, MOOC, Moodle, TED, Gmail, Google Classroom, Canvas and educational have the ability to correctly and effectively use content, authentic YouTube video and audio materials;
To have theoretical knowledge of language teaching methodology and educational technologies, to be able to organize lessons and use them effectively during pedagogical practice;
In the course of pedagogical practice, using the theoretical knowledge and skills acquired during the bachelor's period, he can plan a lesson (eng. lesson-planning), observe the lesson of fellow students (eng. peer-observation) and be able to give them his thoughts and opinions in writing (eng. feedback), and the practice leader able to complete the assignments given by and create a teacher's portfolio (eng. teacher's portfolio);
To have lifelong learning competence and independent learning skills, to be aware of changes and news related to his profession;
To have research competencies, to study the laws of conducting scientific research, to know research methods and techniques, to be able to find articles and books online using various platforms (Research Gate, Academia, Elsevier, Scopus, Springer Nature, knowledge of Mendeley, Zotero, Web of Science, Google Scholar, SPSS, Nvivo, ANNOVA, Survey Monkey, Google sheets, Grammarly platforms and applications);
"In-service" program
To know about the CEFR document and effectively use it in their teaching activities;
Inculcate and increase the general competencies mentioned in the CEFR to their students during their activities;
Organize a lesson using the communicative language competencies listed in the CEFR, develop these competencies in students and create and select exercises and assignments aimed at developing skills;
To have evaluation competence and to be able to evaluate students correctly and fairly, to be able to create a test, to be able to develop evaluation criteria (eng. rubrics);
Able to use ICT and new pad technologies (computer, LCD projector, digital board, iPad, Google Docs, Microsoft Word, Excel, PDF, Power Point, Prezi, video viewing applications VLC, Windows Media player) and use them in the teaching process and the student - development of this competence in students;

Developing students' digital competence via the use of widely used platforms like Zoom, Google Meet, WebEx, Microsoft Teams, MOOC, Moodle, TED, Gmail, Google Classroom, Canvas, and genuine YouTube videos and audio recordings containing instructional information;
To have pedagogical skills, master the secrets of pedagogical techniques and have high professional potential, organizational skills, ability to organize spiritual-educational and educational work;
Effectively use different teaching methods, participate in and observe mutual lessons, and express written and oral feedback, as well as lead and guide students participating in pedagogical practice;
Effective use of the competence of lifelong learning and working on oneself, implementing the innovations related to the profession;
Possess research abilities, plan and execute studies, and collaborate with peers and experts (using resources like Research Gate, Academia, Elsevier, Scopus, Springer Nature, Mendeley, Zotero, Web of Science, Google Scholar, and SPSS, Nvivo, ANNOVA, Survey Monkey, Google Sheets, and Grammarly);
Learning how to pick and regulate information, how to teach it, and how to arrange for assessments are all part of developing a curriculum, as is developing the skills necessary to do so.

Conclusion and recommendations. The previously given guidelines help in the development of reflection, which is a crucial approach for the growth of professional autonomy. Second, in their future professional endeavors, our students will profit from this course's research abilities, proficiency with numerous methodologies and instruments, and accumulated practical experience. Graduates are more self-confident and able to defend what they teach, how they teach it, and the reasoning behind their judgements. Lastly, demonstrated research competency changes a teacher from a passive spectator into a change agent who not only repeats current methods of instruction, but also seeks for and

introduces new technologies and procedures. As a result of their position of purposeful inquiry, teachers actively participate in the transmission of their own teaching experience and benefit from the experience of others via seminars, conferences, professional organization meetings, and the publication of professional periodicals. This allows educators to learn from both their own and others' experiences. Hence, the given technique for strengthening the research skills of pre-service teachers is a sufficiently trustworthy instrument for assuring continuous personal and professional development and contributing to the improvement of the quality of English instruction throughout the nation.

LITERATURE

1. Marin E., Iftimescu, S., Ion, G., Stingu, M., & Proteasa, C. (2017). Academic managers' perspective on research management in higher education institutions across Romania. In: J. Domenech i Soria, M. Cinta Vincent Vela, E. de la Poza, & D. Blazquez (Eds.), *Proceedings of the 3rd International Conference on Higher Education Advances* (pp. 1185-1192). Valencia, Spain: Valencia Polytechnic University.
2. Aleksandrova N. N., & Sluchayna, L. (2018). Formation of research competence of future economists in the process of mastering foreign languages. *Journal of Advanced Research in Law and Economics*, 9(8/38), 2517-2529.
3. Gorshkova O. O. (2017). Preparing students for research activities in the context of competence-oriented engineering education. *Journal of Fundamental and Applied Sciences*, 9(S2), 1445-1467.
4. Makhmudov A.Kh. Improvement of didactic provision of competent training of future masters. Doctor of Pedagogical Sciences (DSc) abstract. - T.: 2017. - P. 16.
5. Newby D. Supporting good practice in teacher education through the European Portfolio for Student Teachers of Languages // *Innovation in Language Learning and Teaching*, 6 (3), 2012. – P. 207-218.
6. Ataeva N., Salaeva M and Hasanov S. General pedagogy (fundamentals of theory and practice of pedagogy), Study guide book II based on the general editing of Kh. Boboev - T.: "Science and Technology", 2013. - P. 736.
7. Oolbekkink-Marchand, H.W., Oosterheert, I., Lubberink, L.S., & Denessen, E. (2022). The Position of Student Teacher Practitioner Research in Teacher Education: Teacher Educators' Perspectives. *Educational Action Research*, 30(3), 445-461.
8. Vaughan M., & Burnaford, G. (2016). Action Research in Graduate Teacher Education: A Review of the Literature 2000–2015. *Educational Action Research*, 24(2), 280–299.
9. Burns, A. (2009). *Doing Action Research in English Language Teaching: A Guide for Practitioners*. Routledge.
10. Lattimer H. (2012). Action Research in Pre-Service Teacher Education: Is There Value-Added? *Inquiry in Education*, 3(1), 1-25.
11. Cochran-Smith, M., Barnatt, J., Friedman, A., & Pine, G. (2009). Inquiry on Inquiry: Practitioner Research and Student Learning. *Action in Teacher Education*, 31(2), 17–32.
12. Musoyeva A.B. "Formation and development of professional skills of future foreign language teachers through CEFR (with specific reference to English)". Abstract for PhD dissertation, Samarqand, 2022.
13. Musoyeva A.B. "Formation and development of professional skills of future foreign language teachers through CEFR (with specific reference to English)". PhD dissertation, Samarqand, 2022.



UDK:378.046.46.3

Nilufar MUXIDDINOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: nilufar84@gmail.com

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti M.M.Raupova taqrizi asosida

MODUL-KREDIT TIZIMI SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kredit-modul tizimi sharoitida ta'lim sifati oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarini amalga oshirish, hamda bo'lajak pedagoglarni kasbiy kompetentligini shakllantirishning amaliy ahamiyati yuritib berilgan. Bundan tashqari maqola mazmuni yoritib beruvchi kered, modul, kredit-modul tizimi, kompetentlik, kasbiy kompetentlik kabi kategoriyalarning mazmun mohiyati, olimlarning fikr va qarashlari mavzu mazmunini yoritishda foydalanilgan.

Kalit so'zlar: kredit, modul, ECTS kredit-modul tizimi, kompetentlik, Erasmus dasturi, tizim, amaliy, nazariy, shaxsiy, kasbiy kompetentlik, o'zlashtirish

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ МОДУЛЬНО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В данной статье описывается практическая значимость реализации целей и задач, направленных на повышение качества образования в условиях кредитно-модульной системы, а также формирование профессиональной компетентности будущих педагогов. Кроме того, для освещения содержания статьи использовано содержание таких категорий, как кered, модуль, кредитно-модульная система, компетентность, профессиональная компетентность, мнения и взгляды ученых.

Ключевые слова: кредит, модуль, кредитно-модульная система ECTS, компетентность, программа Erasmus, система, практическая, теоретическая, личностная, профессиональная компетентность, овладение

THE SIGNIFICANCE OF FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS UNDER THE CONDITIONS OF THE MODULAR CREDIT SYSTEM

Annotation

This article describes the practical significance of the implementation of goals and objectives aimed at improving the quality of education in a credit-modular system, as well as the formation of professional competence of future teachers. In addition, to highlight the content of the article, the content of such categories as kered, module, credit-module system, competence, professional competence, opinions and views of scientists was used.

Keys words: credit, module, ECTS credit-module system, competence, Erasmus program, system, practical, theoretical, personal, professional competence, mastering.

Kirish: Mamlakat ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarimizni davom ettirish, ta'lim sifati oshirish bo'yicha qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyovning 2022 yil 20 dekabrda parlamentga qilgan murojaatnomasida ta'lim masalasiga alohida e'tibor qaratib, "Ta'lim sifati oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir!"[5] deb ilgari surgan g'oyalari, yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashda ta'lim tizimi izchil rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. Shu bois, oliy ta'lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, barcha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini kredit-modul tizimiga o'tkazish, o'qitilayotgan fanlarni mazmunan qayta ko'rib chiqib, ortiqcha takrorlanishlarni qisqartirish, bo'shagan dars soatlari o'rniga mutaxassislik fanlarni ko'paytirish hamda talabalarga mustaqil ilmiy izlanish uchun imkoniyat yaratish vazifalarini amalga oshirish ta'lim sohasi vakillarining bugungi kundagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilganligi[1], oliy ta'lim muassasalarida asosan ECTS kredit-modul tizimi joriy etilishi, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga juda katta ijobiy xususiyatlarni yaratib beradi. Jumladan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kiritilishiga, o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishiga, oliy ta'lim tizimida o'qish jarayonining shaffoqlashishiga, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Tarixiy nuqtai nazardan shuni eslatib o'tish kerakki, kredit modulli ta'lim tizimi o'zining asl ko'rinishida o'tgan asrning 60-yillari oxirida paydo bo'lgan va keyinchalik ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlar - AQSh, Buyuk Britaniya va Kanadaga tarqaldi. Dastlab, modulli tizim individual ta'lim uchun qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik u yanada kengroq qo'llanila boshlandi va yangi shakl sifatida ko'rib chiqildi.

ECTS kredit-modul dastlab Erasmus dasturi 1988-1995 yillar doirasida ishlab chiqilgan va Evropa Kengashining barcha mamlakatlaridagi 145 ta universitetda joriy etilib,

kimyo, tarix, texnik mexanika va tibbiyot yo'nalishlarini qamrab olgan. 1995 yilning kuzida Yevropa Komissiyasi fanlar doirasini kengaytirish va oliy ta'limning universitetdan tashqari sektorini tizimga jalb qilishni taklif qiladi va natijada 1996-1997 yillarda 348 ta fakultetga ega 38 ta yangi universitet va 206 ta fakultetga ega 36 ta universitet ECTS kredit-moduldan foydalana boshlagan. Tajriba natijalariga ko'ra, ECTS kredit-modul tizimi shaffof o'quv dasturlarini yaratish va akademik e'tirofga ko'maklashish uchun samarali vosita ekanligini isbotladi va natijada 1995 yilda ECTS kredit-modul tizimi oliy ta'limning alohida komponenti - Erasmus - Sokrat dasturi sifatida kiritildi. 1997-1998 yillarda 772 ta universitetda ECTS tizimi joriy etilgan bo'lib, yana 290 ta universitet ECTS kredit-modul tizimini joriy qilish uchun grant so'ragan.

ECTS tizimida 3 ta muhim tushuncha mavjud:

ECTS krediti;

Erishilgan bilim - (Learning outcomes) shaxsning o'rganilayotgan fan bo'yicha erishgan bilimlari, uni amalda qo'llay olishi, fanning mohiyatini tushuna olishi, mushohada yurita olish darajasi va boshqalar;

Ish hajmi va turi - (Workload) ma'ruza, amaliyot, mustaqil ish, laboratoriya. Xalqaro tajribada ECTS tizimida bir o'quv yilida jami 60 kredit yig'ish mumkin. Shundan 3 yillik bakavr darajasini olishda 180 kredit, 2 yillik magistratura darajasini olishda 120 kredit olish ko'zda tutiladi.

Natijalar: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiga ECTS kredit-modul tizimini o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatini takomillashtirishni amaliy jihatdan aniq maqsadli va mobiligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Navoiy davlat pedagogika institutida ham kredit-modul tizimining joriy etilishi bo'lajak pedagoglarning amaliy kompetentligini oshirishda o'z samarasini bermoqda.

Kredit – bu, olingan bilimni qachon yoki qayerda olinganidan qat'iy nazar, hisobini chiqarish va tan olish demakdir.

Kredit bu – talabning o'quv yuklamasi bo'lib, 1 kredit 25-30 soatga teng deb olinishi nazarda tutiladi. Demak, kreditlar soniga qarab, talabning o'quv-tarbiya jarayonida o'zlashtirish soatlari tushuniladi. Xalqaro tajribaga ko'ra, o'quv yili mobaynida talaba har semestrda 30 kreditdan, bakalavr bosqichida jami 8 semestrda 240 kredit, magistraturaning 4 semestrda esa 120 kreditni to'plashi kerak bo'ladi.

Modul – bu alohida individual o'quv fani o'z ichiga oladi. Modul har bir fan doirasida o'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi. Ya'ni tor ma'noda "tugallangan mazmun"ni ifodalaydi. Chunki o'qitiladigan fanlar mazmunini yoki sillabus (o'quv dastur)larni ishlab chiqishda fanlarning ketma-ketligi, uzviyligi va bog'liqligi ya'ni, integrativligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Ta'limning kredit tizimi oliy ta'limga ta'limning mukammal o'lehov birligini olib kiradi, shu bilan birga talabaga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim berish va baholashning oshkorligi tamoyiliga asoslangan bo'lib, sinov birliklarini yig'ish va ko'chirib o'tkazishdan iborat. Mazkur tizim sinov birliklarining jamg'arib boriladigan ta'limning barcha bosqichlari bo'yicha ilgari yig'ilgan o'sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi.

Kredit modul tizimida 3 ta asosiy tushuncha:

➤ o'qituvchi bilan yuzma-yuz vaqt (contact hours);

➤ talabning sarflagan vaqti (student committed time);

➤ bilim olish davri (learning time) **mavjud bo'lib**, o'qitish tizimida o'quv jarayonining quyidagi shakllari:

➤ **auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyot davrida;**

➤ **auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lim oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi orqali** talaba bir muddat birligini o'zlashtirib, malaka talablaridagi kompetensiyalarning elementlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan ko'rinadiki, yangi tizim amaldagi oliy ta'lim tizimining to'g'ridan-to'g'ri takomillashtirilgan ko'rinishini ifodalaydi. Shuning uchun ham kredit-modul tizimining joriy etilishi oliy ta'limning isloh qilinishi va professor-o'qituvchilarning kelgusi kasbiy-pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etish hamda bo'lajak pedagoglarni modul-kredit tizimi sharoitida amaliy kompetentligi rivojlantirishga asos bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan malakaviy talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyati, kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

"Kompetentlik"-lotincha competens-munosib, muvofiq, tegishli, layoqatli, bilimli-ma'lum sohada har taraflama bilimlarga ega bo'lgan insonning sifatidir. Aytish lozimki, manbalarda kompetentlik tushunchasi turli talqinlar negizida tahlil qilingan. Jumladan, T.S.Zelenetskaya fikriga ko'ra, kompetentlik shaxsning o'qitish jarayoni va ijtimoiylashuvida vujudga keladigan hamda uning faoliyatga mustaqil, samarali ishtirokiga qaratiladigan bilim, tajribaga asoslangan umumiy qobiliyatlari, faoliyatni samarali tashkil etishida namoyon bo'ladigan integral xususiyatlaridir [4,108]. V.A.Demin kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergan: kompetentlik bu kompetensiyalarning aniq darajasini aks ettiruvchi va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda konstruktiv harakat qilishga imkon beruvchi shaxsning ko'nikmalari darajasi rivojlantirish uchun katta ahamiyat kasb etadi, - deb hisoblaydi[7]. Jumladan, V.D.Shadrikov ilmiy izlanishlarida o'qituvchining shaxsiy sifatleri, faoliyat maqsad va vazifalarini belgilash, o'quv faoliyati motivatsiyasi, axborot kompetentligi, kasbiy faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonini tashkil qilish kabi sifatlarini kiritgan holda kompetentlik tushunchasiga yondashish masalalariga keng e'tibor qaratilgan Bundan tashqari, manbaalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "kompetentlik" tushunchasini ta'riflashga quyidagi uch xil asosiy yondashuvni ajratish imkonini beradi: umumilliy, aniq-ilmiy, va kasbiy-amaliy. Ularning barchasida kompetentlik – sub'ektiv samarali hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning yetarlicha keng spektri bilan bog'liq holda aniqlangan.

Mulohaza: Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan har xil yo'nalishlarda o'rganilgan, olimlarda A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlash haqida o'z fikrlarini qayd etib o'tishgan.

I.A.Zimnyaya esa, kompetentlikning asosiy uchta guruhini ajratib ko'rsatadi:

- hayot faoliyati sub'ekti hisoblanuvchi shaxsning o'ziga taalluqli bo'lgan kompetentligi;
- insonning boshqalar bilan o'zaro aloqalariga taalluqli bo'lgan kompetentligi;
- inson faoliyatining barcha turlari va shakllarida namoyon bo'ladigan kompetentlik[6].

N.N. Lobanova kasbiy kompetensiya tuzilmasida kasbiy mazmun, kasbiy faoliyat va professional-shaxsiy komponentlarni belgilaydi:

- kasbiy tarkib komponenti ba'zi nazariy bilimlarning mavjudligini nazarda tutadi;
- kasbiy faoliyat shaxs tomonidan eng samarali sifatida o'rganiladigan kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi;
- kasbiy va shaxsiy komponent faoliyat sub'ekting pozitsiyasini belgilaydigan individual xususiyatlarni o'z ichiga oladi[6].

V. I. Baidenkoning fikriga ko'ra, kompetensiyalar uchta komponent guruhini o'z ichiga oladi: instrumental, shaxslararo va tizimli:

- instrumental -instrumental funktsiyaga ega va kognitiv va uslubiy qobiliyatlarni, texnologik va lingvistik qobiliyatlarni o'z ichiga oladi;
- shaxslararo - individual qobiliyatlar, o'z his-tuyg'ularini ifodalash, o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyati, jamoada ishlash va odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati;
- tizimli - tizimlar bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar, ular tushunish, sezgirlik va bilimlarning kombinatsiyasini anglatadi, bu esa shaxsga butunning qismlarini ularning o'zaro bog'liqligi va birligida kuzatish imkonini beradi[2,3-12].

Terminologiyadagi farqlarga qaramay, olimlar kasbiy kompetensiya tuzilishi bo'yicha o'xshash pozitsiyalarga ega va uchta umumiy komponentni topadilar: nazariy, amaliy, shaxsiy.

Mashhur olim Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya) professori doktor Jon Raven kasbiy kompetensiyani ma'lum bir fan sohasida muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat sifatida belgilaydi va yuqori ixtisoslashgan, maxsus turdagi mavzu ko'nikmalarini, fikrlash usullarini, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni o'z ichiga oladi.

G.V. Muxametzyanova kasbiy kompetensiya – "kasbiy faoliyatni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlitligi; insonning o'z malakasini amalda qo'llash qobiliyati" deb hisoblaydi.

Pedagogika fani va amaliyotida kasbiy kompetensiyaning metodologik ahamiyati kasbiy faoliyatning mazmunli tomonini tavsiflaydi va faoliyatning akmeologik darajasiga erishish maqsad, vosita, metodlari va shakllaridan tizimli foydalanish tushuniladi.

B.G. Ananiev, A.I. Dontsov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkachlar akmeologik yondashuv doirasida kasbiy kompetensiyani shaxs kasbiy mahoratining asosiy kognitiv tarkibiy qismi deb belgilab, kasbiy kompetensiya sohasi, hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator masalalar sifatida, yuqori mahsuldorlik bilan kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi bilimlar tizimini doimiy ravishda kengaytirish taklifini ilgari surishadi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarni tahlil qilsak, kasbiy kompetentlik – bo'lajak pedagogning shaxsiy sifatleri, faoliyat maqsadi va vazifalarini, o'z navbatida modul-kredit tizimi sharoitida qo'llay olish, o'ziga xos tadqiqotchilik qirralari ham ko'shilishi, mazkur tushunchaning mohiyatan to'liq izohlanishiga imkon beradi. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni amaliy kompetentligi oshirishda axborot metodik ta'minotning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari bo'lajak pedagogning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilganligi, uzluksiz bilim olishni ta'minlashi bilan muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847- сон билан тасдиқланган «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривож лантириш концепцияси», 1-илоvasи, 9-банди
2. Baidenko V. Competence in vocational education/V.Baidenko Higher education in Russia.-2004.-No.11.-S.3-12.
3. Демин В. А. Профессиональная компетентность специалиста, понятие и виды // Стандарты и мониторинг в образовании. 2000. №4.
4. Зеленецкая Т.С. О формировании компетентности.//Высшее образование в России, №6/2005. -С.108.
5. <https://kun.uz/news/2022/12/20/>
6. <https://center-yf.ru/data/Kadroviku/prakticheskaya-kompetentnost-pedagoga.php>
7. <https://studfile.net/preview/6268118/>
8. <https://topuch.ru>
9. <https://kartaslov.ru>



UDK: 623.64

Raxmat NAVRUZOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi.

E-mail:rahmatnavruzov99@gmail.com

Zarifboy JABBAROV,

O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi dotsenti

E-mail:jabborovzarifboy70@mail.com

Mansur IMINJANOV,

O‘zMU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi.

E-mail:mansurjoniminjonov@gmail.com

T.f.d. professor Y.G. Shipulin taqrizi asosida

GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARINI QUROLI KUCHLARDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Аннотасија

Usbu maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi paytda fan va texnikaning rivojlanib borayotganligi sababli kartografik ma'lumotlarga xususan elektron-raqamli xaritalarga bo'lgan ehtiyoj va talablar ham oshib bormoqda. Geografik axborot tizimi va elektron-raqamli xaritalar yordamida joyni batafsil o'rganish, baholash va jangovar texnikani va qurolni qo'llash hamda topografik xaritalarni yaratishda va yangilashda qo'llanilishi maqolada keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geografik axborot tizimi, «Panorama» dasturi, raqamli, electron xarita, SXF, DXF, VPF, SDTS, DX-90, MIF/MIC, F20S formatlar va «Elektron jang maydoni».

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ

Аннотация

Актуальность данной статьи обуславливается тем, что в настоящее время с темпами развития науки и техники растет потребность и требования к современной картографической информации. Географические информационные системы и электронные цифровые карты применяются для изучения и оценки местности, применения боевой техники и вооружения, а также создание и обновления топографических карт подробно раскрываются в статье.

Ключевые слова: Географические информационные системы, программа «Panorama», электронные цифровые карты, SXF, DXF, VPF, SDTS, DX-90, MIF/MIC, F20S форматы и «Электронная местность боевых действий».

PROSPECTS FOR THE USE OF GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS IN THE ARMED FORCES

Abstract

The relevance of this article is due to the fact that at present, with the pace of development of science and technology, the need and requirements for modern cartographic information are growing. Geographical information systems and electronic digital maps are used to study and assess the terrain, the use of military equipment and weapons, as well as the creation and updating of topographic maps are described in detail in the article.

Key words: Geographic information systems, Panorama program, electronic digital maps, SXF, DXF, VPF, SDTS, DX-90, MIF/MIC, F20S formats and «Electronic terrain of combat operations».

Kirish. Jahondagi etakchi davlatlarda fan va texnikaning rivojlanib borayotganligi sababli kartografik ma'lumotlar xususan elektron-raqamli kartalarga bo'lgan ehtiyoj va talablar ham oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda, Qurolli Kuchlarda geografik axborot tizimlari aynan elektron-raqamli kartalarni qo'llash uchun me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va ular imkoniyatlaridan foydalanib kelinmoqda.

Geografik axborot tizimlari va elektron-raqamli kartalar Qurolli Kuchlarda joyni batafsil o'rganish, baholash va qo'shinlarni jangovar harakatlarini rejalashtirish, texnikalarini va qurol yaroqlarni qo'llash hamda topografik xaritalarni yaratish va yangilashda va harbiy bilim yurtlarida kadrlarni tayyorlashda keng foydalanilmoqda. Kuchayib borayotgan ma'lumotlar oqimi hamda ularni qo'llash va qayta ishlash imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik shubhasiz yangi geografik axborot tizimlarini ishlab chiqish zaruratini tug'diradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Geografik axborot tizimlari (GAT) – funksional bir maqsadga qaratilgan geografik axborot tizimi bo'lib, harbiy maqsadlardagi

vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan. GAT qo'shinlarni va qurollarni avtomatlashtirilgan boshqaruvida qo'llash, qo'mondonlik tomonidan qaror qabul qilishga ko'mak berish hamda qo'shinlar jangovar harakatlari va jangovar ta'minot turlarini rejalashtirish uchun mo'ljallangan.

An'anaviy xaritalarni raqamli xaritalarga almashtirish borasidagi ilk ilmiy-tadqiqot va sinov ishlari Kanada, AQSh, sobiq SSSR Ittifoqi va boshqa mamlakatlarda boshlangan. Qator davlatlar Mudofaa vazirliklarining an'anaviy topografik xaritalarni raqamli ko'rinishga keltirish muammosini hal etishga zo'r berib harakat qilishi raqamli kartografik geoinformatika nazariyasi va amaliyotining vujudga kelishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

XX-asrning o'rtalariga kelib zamonaviy qurollarni sinab ko'rish maqsadida raqamli xaritalar tuzish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Jumladan AQShning ilk qanotli raketalarini 2000-2500 km masofadagi nishonga ekstremal tizimdan foydalanib yo'naltirish borasida uchish-konstruktorlik sinovlari o'tkazildi. Bunda uchirilgan 24 raketadan o'n sakkiztasi belgilangan aniqlikda nishonlarga yetib bordi. Raketalarining yer yuzasidan unchalik katta bo'lmagan

balandlikda (30-100 m) uchishi sababli nishonga yo'naltirish tizimi ularni havo hujumidan mudofaa vositalari tomonidan aniqlanmasligi va yakson etilmasligini to'liq ta'minlab berdi. Shunday qilib qanotli raketalar dunyodagi to'satdan hujum qiladigan dahshatli qurollardan biriga aylandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun raqamli-elektron xaritalarni tuzish ishlari asosan 2005 yilda Mudofaa vazirligi Kartografiya markazida boshlandi. Hozirgi davrga kelib respublikamiz hududining barcha masshtabdagi elektron-raqamli xaritalari to'liq tuzib bo'lindi. Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qismlarda va harbiy okrug shtablarida raqamli elektron xaritalarni qo'llash, shu jumladan turli o'quv va mashq jarayonlarida joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlardan foydalanish keng yo'lga qo'yildi.

Harbiy kadrlarni elektron - raqamli xaritalar bilan ishlashga o'rgatish maqsadida bugungi kunda respublikamizning harbiy bilim yurtlarida o'quv jarayonida qo'llash bo'icha tizimli ishlar olib borilmoqda. Harbiy topografiya o'quv dasturlariga geografik axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha mavzular qo'shilgan holda tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Xo'sh, joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlar deyilganida nima tushuniladi? Eng avvalo shuni aytib o'tishimiz kerakki, "Joy to'g'risidagi raqamli ma'lumot" atamasi umumiy tushuncha bo'lib, o'z ichiga bir necha raqamli kartografik va fotogrammetrik ma'lumotlarni oladi, va ular turli vazifalarni, shu jumladan harbiy yo'nalishdagi vazifalarni hal etish uchun qo'llanilishi mumkin.

Boshqaruv organlari va shtablarning faoliyatida zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibini qavat-qavat qilib pishirilgan pirogga o'xshatishimiz mumkin. Bunda qavatlar miqdori, ya'ni foydalaniladigan ma'lumotlar soni va turi doimo ko'payib boradi. Joy to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari qo'shinlar boshqaruvida foydalaniladigan tezkor-taktik, razvedka, meteo va geofizik ma'lumotlar oqimi ham tinimsiz ko'payib boradi. Ularni albatta tahlil qilish hamda operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida hisobga olish kerak bo'ladi.

Kuchayib borayotgan ma'lumotlar oqimi hamda ularni qo'llash va qayta ishlash imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik shubhasiz yangi vositalar ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Hozirgi kunda bunday vositalar yaratilgan va ulardan harbiy sohada ham keng qo'llanib kelinmoqda. Ular orasida qo'shinlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib borayotgan harbiy geografik axborot tizimi o'ziga xos ahamiyatga molikdir.

GATda qo'llaniladigan ma'lumotlarning asosini joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlar tashkil qiladi. Ulardan operatsiyalarni rejalashtirish hamda qurol turlarini qo'llash uchun zarur bo'lgan har xil ma'lumotlarni koordinatalar orqali bog'lash maqsadida foydalanish mumkin. Bunday ma'lumotlar qatoriga kosmik, agenturali, quruqlikdagi hamda havo razvedka vositalari orqali olingan ma'lumotlar, geofizik vositalar orqali olinadigan meteorologik ma'lumotlar, yuqori aniqlikdagi qurollar uchun maxsus ma'lumotlar va qo'shinlar uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni kiritisa bo'ladi.

GAT yordamida hal etiladigan asosiy vazifalar sohalarini o'rganib chiqamiz. Mutaxassislar elektron xarita va joy to'g'risidagi boshqa makonga oid ma'lumotlardan foydalanilganida qo'shinlarni va qurollarni boshqarish samaradorligi 40 va undan yuqori foizga ko'tarilishini bashorat qilishmoqda.

Qurolli Kuchlarda GAT foydalanuvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-joy to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, to'plash va vizuallashtirish, shu bilan birgalikda turli mavzudagi boshqa ma'lumotlarni joyning raqamli ma'lumotlariga bog'lash va bir vaqtda foydalanish;

-topografik va maxsus xaritalarni tuzish va nashr etish;
-joyni tahlil qilish va baholashdan tortib toki bo'limning yoki butun qo'shinlar harakatlarini modellashtirishgacha bo'lgan vazifalarning keng doirasini hal qiladigan GAT-ilovalarni yaratish va ulardan qo'shinlarni va qurollarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarida foydalanish.

Birinchi navbatda Qurolli Kuchlarda GAT foydalaniladigan barcha turdagi: kartografik, tezkor-taktik, razvedka, bir maqsadga qaratilgan maxsus, meteorologik va geofizik ma'lumotlarni yagona negizida ko'rgazmali tasvirlash va ularga kompleks ishlov berish evaziga vaziyatni baholash hamda qo'shinlar harakatlarini rejasini ishlab chiqishga sarflanadigan vaqtni keskin kamaytiradi.

GAT joy relefini hisobga olgan holda qurollarni boshqarish hamda o't ochish vositalarining va nishonlarning joylashuv o'rnini belgilash bilan bog'liq vazifalarni avtomatlashtirilgan rejimda hal etish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari GAT quyidagilarni ta'minlaydi:

-elektron va foydalanuvchilar xaritalari vositasida mansabdor shaxslarga joy va unda sodir bo'layotgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish evaziga ularning ish samaradorligini oshirish;

-kartografik ma'lumotlarni atributiv ma'lumotlar bilan birgalikda manipulyasiya qilish imkoniyatini;

-kartografik, tezkor-taktik, razvedka, bir maqsadga qaratilgan maxsus, meteorologik va geofizik ma'lumotlarni hamda javobgarlik zonasini monitoring qilish natijalarini samarali tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyatini.

Geografik axborot tizimlariga qo'yiladigan asosiy talab bu vaziyatni o'rganish, baholash va tahlil qilish, operatsiyalarni rejalashtirish, nishonlarni aniqlash va parvoz bilan bog'liq vazifalarni bajarishda boshqaruv organlariga turli xildagi, vaqt va koordinatalar bilan bog'liq yirik hajmdagi ma'lumotlarni foydalanish uchun qulay ko'rinishga keltirish va taqdim etishdan iborat [2].

GAT quyidagi tizimosti funksiyalarni o'z ichiga oladi:

elektron xaritalarni (GAT-yadro) joy to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bilan boshqarishni;

elektron shartli belgilar bazasi yordamida tezkor vaziyatni elektron xaritalarda tasvirlashni;

tezkor axborot ma'lumotlar bazasi bilan hamkorlikni;
harbiy-amaliy vazifalar kutubxonasi bilan hamkorlikni;

harbiy GATga kirishni boshqarishni.

Barcha tizimosti funksiyalari umumiy axborot, matematik, dasturiy hamda texnik ta'minotdan foydalanib ishlashni.

Harbiy sohada GAT quyidagilarni ta'minlashi lozim:

-joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlarni kiritish;
-SXF, DXF, VPF, SDTS, DX-90, MIF\MIC, F20S formatlarida tuzilgan vektorli elektron xaritalarni yaratish;

-PCX, TIFF, JPEG formatlarida tuzilgan rastri elektron xaritalarni yaratish;

-PCX, TIFF, JPEG formatlaridagi foto tasvirlarni yaratish;

-SUBD Linter VS, dBase, Paradox, Oracle, SGL Server, Netware SGL formatlaridagi astronom-geodezik ma'lumotlarni yaratish [3];

-joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlarni kerakli (O'R QK da qo'llaniladigan) proektsiyalarga o'tkazish, koordinatalar tizimlari va ularni yagona mantiqiy massivlar ko'rinishida saqlash va taqdim qilish;

-mavzuli ma'lumotlarni kiritish;

-joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlar, mavzuli ma'lumotlar va hisob-kitob vazifalari natijalarini tanlangan koordinata tizimida turli o'zaro bog'liqlikda tasvirlash;

-kerakli ma'lumotlardan real vaqt rejimida foydalanish imkoniyatlarini;

dinamik o'zgaruvchan mavzuli ma'lumotlarni hamda hisob-kitob vazifalari natijalarini kiritish (qabul qilish) va tasvirlash;

-ob'ektlarni yaratish, yo'q qilish va tahrir qilish;

-geoaxborot ob'ektlarining mavzuli ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro muvofiqligini va ularning birini ikkinchisi orqali qidirib topish imkoniyatlarini;

xaritaning turli varaqlaridagi ob'ektlarni mantiqan bog'lash;

-GATda saqlanadigan geografik axborotlarning yaxlit butunligini, xavfsizligi va ularga kirish yo'llarini chegaralashni ta'minlash;

-bazaviy axborot ta'minotini (kodlash qoidalari, elektron xaritalardagi ob'ektlarning raqamli tavsifi va vizualizatsiyasi) qo'llab quvvatlash;

-joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlarga kirishni cheklash va ma'lumotlarga noqonuniy kirishdan himoyalash;

-harbiy-amaliy hisob-kitob va axborot bilan bog'liq vazifalarni modellashtirish.

GAT oson rasmiylashtiriladigan hamda arzon qiymatda bo'lishi lozim, chunki undan bir necha yuzlab ish o'rinlarida turli darajadagi komandirlar tomonidan foydalaniladi.

Har qanday darajadagi komandirlarning qarori makonda joylashish bilan uzviy bog'liq. Harbiylar uchun joyni bilish doimo eng aktual masala bo'lib kelgan. Ma'lumki, komandirlarning qarorlari, strategik va taktik darajada qog'oz xaritalarda qabul qilingan. Shuning uchun ham qo'shinlarni topogeodezik ta'minotining asosiy vazifalaridan biri topografik va maxsus xaritalarni an'anaviy ko'rinishda tuzish va uni qo'shinlarga yetkazishdan iborat. Ammo hozirda vaziyat sezilarli darajada o'zgarmoqda [4].

Keyingi vaqtlarda paydo bo'lgan "Raqamli jang maydoni" yoki "Elektron jang maydoni" tushunchalari bevosita jang maydoniga tegishli elektron ma'lumotlarni va ulardan bevosita GAT orqali foydalanish vositalarini o'z ichiga oladi. Harbiy operatsiyalarni rejalashtirishda elektron jang maydonidan foydalanish GATni qo'llash sohasidagi juda keskin o'zgarishdir. Bu degani an'anaviy xaritalar joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlar bilan to'liq almashtiriladi degani emas albatta. Gap faqatgina ulardan birgalikda foydalanish va qo'shimchalar kiritish haqida bormoqda.

GAT foydalanuvchining talablariga aniq mos keladigan ma'lumotlarni ko'rsatuvchi informatsion maxsulot yaratish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari shuni ham esda tutish kerakki, GAT kartografik ma'lumotlarni uch o'lchamli ko'rinishda tasvirlay oladi. Uch o'lchamli ko'rinishdagi joyni istalgan kuzatish nuqtasidan turib kuzatish yoki jangovar vaziyat tushirilgan uch o'lchamli joy tasviri ustida virtual parvoz qilish har qanday darajadagi komandirga joy to'g'risida qog'oz xaritadan ko'ra ko'proq va aniqroq tasavvur uyg'ota oladi. O'z-o'zidan ma'lumki elektron xaritada turli funksiyalar maxsus vositalar orqali amalga oshiriladi, har qanday xarita tarkibi kartografik proeksiya, masshtab, ob'ektlarning to'g'ri nomlanishi va boshqalardan iborat bo'lgan geografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Namoyish qilish, tahlil, nashr qilish, shartli belgilarni joy-joyiga qo'yish vositalarisiz elektron xaritalardan foydalanib bo'lmaydi. GAT

esa elektron xaritani foydalanish qulay bo'lgan to'laqonli maxsulotga aylantirish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari GATda raqamli xaritani boshqa proeksiyaga va koordinatalar tizimiga, masalan, ehtimoliy dushman joylashgan hudud proeksiyasi va koordinatalar tizimiga o'tkazish imkoniyati mavjud.

Qo'shinlarni boshqarish talablaridan kelib chiqqan holda GAT oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

-jangovar vazifalarni tezkor hal etish, harbiy GATning vaqt bilan bog'liq xarakteristikalari qo'shin turlari tomonidan o'rnatilgan talablarga mos kelishi lozim;

-yirik hajmdagi geografik makon ma'lumotlarini talab qilingan darajadagi aniqlikda va tezlikda qayta ishlash samaradorligiga erishish;

-joy to'g'risidagi raqamli ma'lumotlarda tasvirlangan ob'ektlar o'zining joylashuv o'rnini, geometrik shaklini, chiziqli, maydonli va hajmiy o'lchamlarini xarita masshtabiga mos holda saqlab qolishi;

-harbiy-amaliy vazifalarni hal etishda hisob-kitoblarni aniqligi talab darajasida bo'lishi hamda raqamli xaritaning turi va masshtabiga mos kelishi;

-yashovchanlik;

-dasturning ishonchliligi: xatolardan xolilik, xatolarga chidamlilik va qayta harakatga keltirish imkoniyati.

Qurolli Kuchlarda GATni qo'llashning eng muhim yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

-qo'shinlarning topogeodezik ta'minoti;

-jangovar operatsiyalarni rejalashtirish va o'tkazish;

-quruqlikda va havoda harakatlanishning eng maqbul marshrutlarini belgilash;

-jangovar vaziyat, joyning holati, vaqt va jangovar texnikaning imkoniyatlarini hisobga olib ularning harakatlanishini rejalashtirish;

-havoda zarba berish, razvedka qilish, yuk va shaxsiy tarkibni tashish maqsadlarida aviatsiya parvozlarini rejalashtirish;

-harakatlanish marshrutlari va jadvalarini optimallashtirish;

-dushmanning harakatlanish marshrutlarini aniqlash va unga qarshi kurash vositalarini joylashtirish;

-joyni hajm jihatidan modellashtirish;

-aeronavigatsiya;

-mobil ob'ektlar navigatsiyasi va dispetcherlik nazoratini tashkillashtirish.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash lozimki, geografik axborot texnologiyalarini harbiy sohada qo'llashning istiqbollari juda kengdir. Geografik axborot tizimlarini qo'llagan holda kelajakda jangovar harakatlarni tashkillashtirish tezkorligini oshirish, unga sarflanadigan vaqtni esa kamaytirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari jangni tashkillashtirish va olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning aniqligi va tasvir sifati, almashish tezligi sezilarli darajada oshadi. Albatta yangi GAT va qo'shinlarni avtomatik boshqarish tizimining zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va GAT maxsulotlarini ishga tushirish uchun katta mablag' talab etiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng mazkur muammo ham hal etilishi maqsadga muvofiq deb o'ylamaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Беленков В.В., М.М.Корж, "Основные направления применения геоинформационных технологий в военном деле", ЗАО "КБ Панорама", город Винница.
2. Харисов В.Н., Перов А.И., Болдин В.А. и др. Глобальная спутниковая радионавигационная система ГЛОНАСС. - М.:ИПРЖР, 1999 г.
3. Малышев В.В., В.В. Куршин «Навигация авиационного потребителя с использованием цифровых карт «ПАНОРАМА».
4. Navro'zov R.M., "Panorama GAT dasturida ishlash", 2023 y.
5. Интернет - страница «ПАНОРАМА интернешл» - <http://www.панорама.com>.



UDK: 81-139.

Feruza NEGOVA,
Department of English Samarkand State University Assistant
E-mail: n-feruza@samdu.uz

Based on the review of Odilov B. Candidate of philological sciences, associate professor of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

ESP IS A LEARNER-CENTERED APPROACH TO TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN OR SECOND LANGUAGE

Annotation

The present article intends to highlight the different strategies that students can use in order to enhance their reading skills. Since my students are from the discipline of Chemistry, the focus will be on the reading in the context of Chemistry. Emphasis will be on reading comprehension and on knowledge of lexicon and grammar. This article will draw on data from actual classroom teaching, learning and tests related to them. English for specific purposes (ESP) is a subset of English as a second or foreign language. It usually refers to teaching the English language to university students or people already in employment, with reference to the particular vocabulary and skills they need.

Key words: English for Specific Purposes (ESP), aspect, ability, lack, learner, experience, international journals and conferences.

ESP - ОСОБЫЙ ПОДХОД К ИЗУЧАЮЩИМ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ ИЛИ ВТОРОЙ ЯЗЫК

Аннотация

Настоящая статья предназначена для освещения различных стратегий, которые учащиеся могут использовать для улучшения своих навыков чтения. Поскольку мои студенты изучают химию, основное внимание будет уделяться чтению в контексте химии. Упор будет делаться на понимание прочитанного и на знание лексики и грамматики. Эта статья будет опираться на данные фактического преподавания в аудитории, обучения и тестов, связанных с ними. Английский для специальных целей — это подмножество английского как второго или иностранного языка. Обычно это относится к обучению английскому языку студентов университетов или людей, которые уже работают, со ссылкой на определенный словарный запас и навыки, которые им нужны.

Ключевые слова: Английский для специальных целей, аспект, способность, недостаток, учащийся, опыт, международные журналы и конференции.

ESP-INGLIZ TILINI CHET YOKI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANUVCHILARGA MAXSUS YONDASHUV

Аннотация

Ushbu maqola talabalarning o‘qish qobiliyatlarini oshirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan turli strategiyalarni ta’kidlashni maqsad qilgan. Mening talabalarim kimyo fakultetidan bo‘lganligi sababli, asosiy e’tibor kimyo kontekstida o‘qishga qaratiladi. Asosiy e’tibor o‘qishni tushunish va leksika va grammatika bo‘yicha bilimlarga qaratiladi. Ushbu maqola auditoriyadagi o‘qitish, o‘rganish va ular bilan bog‘liq testlardan olingan ma’lumotlarga asoslanadi. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘rganayotgan talabalarga qaratilgan. Bu odatda universitet talabalari yoki ishda bo‘lgan odamlarga ingliz tilini o‘rgatish, ular uchun zarur bo‘lgan maxsus lug‘at va ko‘nikmalarga ishora qiladi.

Kalit so‘zlar: Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, aspekt, qobiliyat, kamchilik, o‘rganuvchi, tajriba, xalqaro jurnallar va konferentsiyalar.

Introduction. ESP, a relatively recent field in the area of the teaching English as a foreign language, has been spreading quickly from the 1950s onwards, as the result of many stimuluses. Most important ones are: international trade and the increasing interest in Science and Technology throughout the world reaching the developing countries. This chapter will be devoted to the discussion of some definitions, to different types predicable to ESP and to a brief account relating to the historical development of ESP. The new trend in education has put learner-centeredness in the forefront of the learning/teaching process, where the learner’s needs and aims are essential elements in ESP courses; thus, many scholars have tried to set up the most important substructure of ESP. That is why the last part of this chapter will emphasize the different concepts primary this new approach in language teaching.

Literature review.

ESP: Origin and Principles

The trouble to make language courses more responsive to learner’s needs has also led during this period to the uprising of the Languages for Specific Purposes (LSP) movement, known in English-language teaching circles as ESP. The original blossoming of ESP movement resulted from general developments in the world economy in the 1950s and 1960s, growth of science and technology, increasing use of English as the international language of science, technology and business and increasing economic power of certain oil-rich countries and increasing numbers of international students studying in UK, USA and Australia (Dudley-Evans and St John, 1998). Hutchinson and Waters (1987:6) state that: “In ESP context, the effect of the historical occurrences resulted from a mass of people across the globe who wanted to learn English language because of the key language for the fields of science, technology and commerce. This branch of English Language Teaching (ELT) comes from learners’ language needs in accordance with their professions or job description.”

Results and Discussion. ESP is not a monolithic universal phenomenon. As Hutchinson and Waters (1987) illustrated, it has developed at different speeds in different countries. Examples of the variety of ESP can be found everywhere in the world at the present time. Although ESP approaches appear to be complex in their practice and development, they are basically language-centered besides being learner-centered. Throughout the last four decades of the history of ESP, the areas of theoretical development and interest in teaching and learning of ESP, relating to the two main branches of ESP: EST and NON-EST, seem to include an interest in register, discourse analysis, specification of students' needs, wants, study skills, or in various methodological approaches to the development of communicative competence (Flowerder, 1990). Additionally, the analysis of students' language needs has been considered as a most essential prerequisite of an ESP course design and material preparations by researchers, course designers and practitioners of ESP (e.g. Arden- Close, 1993; Hutchinson & Waters, 1980, 1984, 1987; Johns, 1981; Johns & Dudley-Evan, 1991; Mackay & Mountford, 1978; McDonough, 1984; Robertson, 1983; Shoemaker, 1983; Strevens, 1977a; Swales, 1985; Weddel & Van Duzer, 1997; Widdowson, 1974, 1979; 1998).

Some researchers talk about two or three main sections of ESP. Robinson (1991) described two big differences, English for Occupational Purposes (EOP), and English for Academic Purposes (EAP), with English for Science and Technology (EST) crossing them. Kennedy and Bolito (1984) view EST as the third important subdivision in the ESP family tree. They say it is important to acknowledge that EST contributed to the development of ESP because

scientists and technologists needed to learn English in order to deal with a language specific to the nature of their professions. Celce-Murcia (2001) said the ESP split is far from exhausted and mentioned ESP courses even for limited ones. She added that the diversity of curriculum and setting is what helps make ESP courses practically adaptable to the context and needs of learners. It further classified EST as a branch of English for English for Academic Purposes (EAP) along with English for Business and Economics (EBE), English for Medical Purposes (EMP), and English for Law Purposes (ELP). She named the other major division English for Occupational Purposes (EOP) and lists two divisions in it: English for Professional Purposes (EPP), which in turn is subdivided into English for Medical Purposes (EMP) and English for business goals" (EBP).

The analysis of the data collection from part D of the questionnaire has given answers to one main question in this research. It intentions at knowing the awareness's of the first-year Bachelor's students of the Faculty of Chemistry about their English-language needs in connection to their proposed-future ESP course content of Faculty of Chemistry, Department of English. This section is divided into four main parts: Language functions, rhetorical categories, language structure, and language skills; the analysis of these four aspects of the language will be used for the design of the new ESP course available on the students' English language needs. The periodicity distributions of the students' responses to the 54 parts from chapter D of the research questionnaire are presented in Appendix 5. Moreover, the tabulated frequencies and percentages of students' answers to combined categories of "Very Important" (VI) and "Modestly Important" (MI) are shown in Tables 2.D-1 through 2.D-4 and the classification data in every table are showed in falling order.

Responses to the First Two Levels of Importance			
Language Structures	Item No	Count	Percentage
Glossology, terminology used in scientific texts	1	34	85%
Glossology, terminology used in area of specialization	3	30	75%
Grammatical structures used in scientific discourse	5	23	57.50%
Word structures	4	21	52.50%
General terms used in scientific texts	2	20	50%
Signaling syntactic boundaries using punctuation marks	6	16	40%
Two Levels of Importance are "Very Important" (VI) and "Modestly Important" (MI)			

The 23 paragraphs in this part move around one key question which was "What most important skills from each of the four language skills do they suppose important in these English courses?" The frequency data represent that these chemist informants received all the chapters for Listening, Speaking, Reading and Writing to be significant in their first-year Bachelor's English courses. The results are showed by average to very high percentages of students' responses of those 23 chapters (52.5% to 75%). As can be resulted from

Table 2.D-4 through 2.D-7, five chapters these informants most likely measured less necessary to focus on in their English courses. These five chapters are Chapter 1 of Reading Skills (50%), Chapter 13 of Writing Skills (40%), Chapter 18 and 19 of Speaking Skills (45%) and (40%) respectively and Chapter 20 of Listening Skills (42.5%) as shown in Tables 2.D-4 to 2.D-7, accordingly. These chapters are Reading textbooks, writing e-mails, speaking to foreign visitors, small talk and following lectures.

Responses to the First Two Levels of Importance			
Reading Skill	Item No	Count	Percentage
Reading text on Chemistry	4	29	72.50%
Reading specialized articles	2	28	70%
Reading instructions for laboratory	5	25	62.50%
Reading course handouts	3	23	57.50%
Reading study notes	6	21	52.50%
Reading textbooks	1	20	50%
Two Levels of Importance are "Very Important" (VI) and "Modestly Important" (MI)			

According to the participants, there is no pre-determined syllabus or course book they are required to follow and the ESP course maintenance is not clearly specified. The selection and organization of the materials are entirely left to the teachers who noted that they faced many difficulties. In that case, all teachers announced they had to define the students' language needs as well as the themes arising from

these contexts. The problem of belongings was also pointed by the three teachers since the only materials used during the lectures were handouts and articles in their sphere of research due to the lack of audio-visual materials to carry out the English lectures. In addition, the obtainable libraries are not equipped with specialized references and there are bounded resources when installation an ESP course since they have

acceptance either to course book obtained by them or articles retrieved from the web. Another problem faced by the teachers, is the substance of the course. The language teacher, not being specialist in the specific sphere cannot consider by herself how to adapt the text in glossologies of subject matter; at that point she accented on the value of working arm in arm with the subject specialist to select the appropriate courses.

Conclusion. By making ESP learner-centered teaching, the learners in this research were able to have a positive learning practice. When ESP learners take on some responsibility for their own learning and are asked to take part some aspects of course development, the subject and course content will be proper to them as they feel motivated to participate more actively in their learning and want to participate more enthusiastically in the class. The purpose of this chapter are to analyze students' performance and progress as well as their feedback in order to evaluate proposed English courses to improve their effectiveness. Assessment can be

done in two ways: implicitly and explicitly. Implicit grading occurs throughout the semester when students, based on their ranks, participation, and motivation, give the teacher clues about how their learning is going. Whereas, explicit assessment can take place at the end of the course using a questionnaire, informal discussion, etc. to express your attitude towards teaching methods, activities, teachers' roles, etc. Evaluating a course is a great step for teachers as they must listen, accept, and implement student comments objectively in a friendly atmosphere. In the last part of this chapter, the researcher put forward some suggestions in line with the research findings for the exchange of ideas and mentioned the main challenges that most ESP teachers face as course designers, teachers, staff and evaluators. hoping that these suggestions will help to better understand the problem and conduct further research in the area of teaching and learning ESP.

REFERENCES

1. Practical English language teaching: listening. New York: McGraw Hill. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987).
2. English for specific purposes. NY: Cambridge University Press. Krashen, S.D. & Terrell, T. (1983).
3. Domański P., 1996. English in Science and Technology. Warszawa: Wydawnictwa Naukowo-Techniczne.



UDK: 316:344.233(575.1)

Dilfuza NEMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: dilfuzanematova58@gmail.com

SamDU dotsenti G.G. Tagiyeva taqrizi asosida

МЕРЫ ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ ОБНИЩАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ТУРЦИИ

Аннотация

В статье говорится о недопущении обнищания населения, особенно женщин и детей и обеспечении дешевым жильем населения, нуждающегося в жилье. Выявлены преимущества применяемых методов и их полезность в проводимых реформах по сокращению бедности в нашей стране. выделено.

Ключевые слова: ТОКИ, пенсия, проект, партия, Евросоюз, подоходный налог, семейный кодекс, урбанизация, практика, ипотечные кредиты.

MEASURES TO PREVENT IMPOVERISHMENT IN TURKEY

Abstract

The article talks about preventing the impoverishment of the population, especially women and children, and providing cheap housing for the population in need of housing. The advantages of the methods used and their usefulness in the ongoing reforms to reduce poverty in our country are revealed. allocated.

Key words: TOKI, pension, project, party, European Union, income tax, family code, urbanization, practice, mortgage loans.

TURKIYADA AHOLINI KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TUSHIB QOLMASLIGI UCHUN QILINADIGAN CHORA TADBIRLAR

Аннотация

Maqolada Turkiya Jumhuriyatida aholini, xususan, ayollarni va bolalarni kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi va axolini uy-joyga ehtiyojmand qismini arzon uylar bilan ta'minlash haqida so'z yuritiladi. Ularda qo'llanilayotgan usullarning afzalliklari va uni mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun olib borilayotgan islohotlarda foydali bo'lishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: TOKI, pensiya, loyiha, partiya, Yevropa Ittifoqi, daromad soliqlari, oila kodeksi, urbanizatsiya, amaliyot, ipoteka kreditlari.

Kirish. Turkiyada kambag'allikni qisqartirish uchun 2002 yillardan harakat boshlandi. Bu davrda hokimiyat tepasiga Oq partiya vakillari kelgan edi. Ular ishni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini isloh qilish va mamlakatda moliyaviy barqarorlik siyosatiga amal qilishdan boshladilar. Bu esa aholi daromadlarini oshishiga va aholi bandligini ta'minlashga erishishga turtki bo'ldi. Turkiya statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2002 va 2015 yillar orasida mamlakatda kambag'allik darajasi qisqara boshladi va mutlaq kambag'allikni tugatishga erishildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aholini kambag'allik darajasiga tushib qolmasligini ta'minlashda Turkiya tajribasini mamlakatimizda qiyosiy tahlil qilish orqali amaliyotga tadbir etish.

Tahlil va natijalar. Turkiya Yevropa Ittifoqiga uyg'unlashishi bilan birgalikda uning standartlariga rioya qilayotganligini kuzatish mumkin. Turkiyani Yevropada obro'sini va mavqeyini oshirish uchun harakatlar jadallashdi. Soliq tizimiga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi va yashirin iqtisodiyot bilan kurashish boshlandi. 2015 yilda qishloq va shahar aholisi kambag'alligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, shahar aholisi kambag'alligi 9% ni va qishloq aholisi kambag'alligi esa 39%ni tashkil etgan. Shahar aholisi kambag'alligi asosan uy-joy muammolari bilan bog'lik bo'lib ijaraga uy berish tartibi va qoidalari davlat tomonidan nazoratga olinib narxlar esa o'tacha va eng kam ish haqlarini hisobga olgan xolda belgilab berilgan. Bu bilan shahar aholisi kambag'alligi profilaktika qilingan. Qishloq yerlaridagi ijtimoiy mahrumlikni qishloq infratuzilmasini yaxshilash orqali qisqartirishga erishilgan. Qishloqda yashayotgan aholini

yer va daromad soliqlarini kamaytirish, ularni turmush darajasini yaxshilashga yordam berdi. Bundan Turkiyada oila va xotin-qizlarni kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi uchun ijtimoiy va xuquqiy himoyalani masalasi diqqatimizni tortdi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatda oilalarni kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi uchun Turkiya Jumhuriyati Oila kodeksining (tsk madde233) onalar va xotin-qizlar xuquqlarini davlat tomonidan himoya kilinishi alohida norma bilan mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, ushbu kodeksga ajralish uchun davo ochilayotgan oilada xotin va bola nafaqasi, ajrayotgan er turmush o'rtog'i va bolasi uchun nafaqa to'lash, farzandi bo'lmagan hollarda ham turmush o'rtog'i oila qurgunigacha yoki fuqarolik nikohigacha ushbu nafaqani olish huquqi berilgan. Bunday nafaqa 2 yildan 12 yilgacha davom etishi mumkin «Madeni kanun 169 ve 197 maddeleri»[1].

Turkiyada yolg'iz ona, tul xotin va ajrashgan ayollar, ota nafaqasini (vafot etgan otaning pensiyasini olish huquqi) ham oladilar. Ota nafaqasi shuki, oilasidan ajrashgan ayol vafot etgan otasining nafaqasini olish huquqiga ega bo'ladi. Agar oilada ikki qiz oilasidan ajrashsa bu nafaqa ikkiga bo'linadi. Eng oz nafaqa 700 turk lirasi bo'lib, tahminan 100 AQSH dollar qiymatidagi mablag'ni tashkil etadi. Turkiya qonunchiligiga binoan 2019/8410 sonli va 2020/1070 sonli «Erkakning doimiy va uzuluksiz daromad manbaining yo'qligi uni nafaqa to'lay olmasligini isbotlovchi sabab bo'lishi uni bu vaziyatdan qutqara olmasligi» to'g'risidagi qarorlariga muofiq xech qaerda ishlamaydigan va moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lmagan erkak ham bu nafaqani to'lash majburiyati bo'ladi.

Aks xolda unga nisbatan tegishli qonuniy choralar davlt tomonidan qo'llaniladi[2].

TOKI (Ijtimoiy uy-joy boshqarmasi) Turkiya Respublikasi Atrof-muhit, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi vazirligiga qarashli davlat muassasasi bo'lib, ijtimoiy uy-joylar qurish uchun tashkil etilgan. Bu tashkilot 1984 yilda «Ijtimoiy uy-joy boshqarmasi» davlat sherikchiligi asosida tashkil etilgan.

Ushbu loyihani ishga tushirilishi natijasida uy-joyisiz, nomida hech qanday mol-mulk bo'lmagan, kam ta'minlangan fuqarolar o'zlari orzu qilgan uylarga belgilangan to'lovlar asosida ega bo'lish imkoniyati yuzaga keldi. Fuqarolar ijtimoiy uy-joy yoki arzon hovlilar uchun ariza berishlari mumkin bo'ladi. Arizalar yagona darcha kabi Ye-davlat nomli saytga arizalar qabul qilinadi. Arizalar qabul qilingandan so'ng qur'a tashlash yo'li bilan uy-joyga egalik qilish huquqi beriladi. Bu usulda uy-joy bilan ta'minlashning afzalliklari shundaki, boshpanasiz ijarada yashovchi insonlar bir uyda ikki va uch oila bo'lib yashaydiganlarni ehtiyojlari qondiriladi. TOKI tomonidan quriladigan turar-joylar uchun mamlakat fuqarolirig daromadi Istanbul shahrida 16 ming liradan (850 AQSh dollari)dan, boshqa viloyatlarda esa 14 ming liradan (743 AQSh dollari)dan past bo'lgan va doimiy yashash joyi bo'lmagan fuqarolarlar ijtimoiy loyihaga murojaat qilishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, daromad chegarasidan tashqari uy-joyga ega bo'lmaslik sharti ham so'raladi. Ushbu shartlarga javob beradiganlar loyihalar e'lon qilingandan keyin ariza topshirishadi[3].

Bizningcha, Turkiyadagi ushbu loyihani ishga tushirilishi mamlakat aholisini kambag'allikdan chiqarish va mamlakatda umumiy kambag'allik darajasini qisqartirishda muhim sotsial omil hisoblanadi. O'zbekistonda ham bunday ishlar amalga oshirilmoqda masalan. 2016 yildan buyon olti yil ichida mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi. Ilgari o'rtacha 50 ming uy qurilgan. Ammo O'zbekistonda bunday amaliyot ipoteka kreditlari asosida amalga oshiriladi va bunda aholini uy-joy bilan ta'minlashda ko'prok banklar ishtirok etadi. Turkiyada aholini uy-joy bilan ta'minlashda banklardan tashqari ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlar davlat sherikchiligi asosida ish olib boradilar.

Turkiyada kambag'allikni qisqartirish uchun 2002 yillardan harakat boshlandi. Bu davrda hokimiyat tepasiga Oq partiya vakillari kelgan edi. Ular ishni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni isloh qilish va mamakatda moliyaviy barqarorlik siyosatiga amal qilishdan boshladilar. Bu esa aholi daromadlarni oshishiga va aholi bandligini ta'minlashga erishishga turtki bo'ldi. Turkiya statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2002 va 2015 yillar orasida mamlakatda kambag'allik darajasi qisqara boshladi va mutlaq kambag'allikni tugatishga erishildi.

Turkiya Yevropa Ittifoqiga uyg'unlashishi bilan birgalikda uning standartlariga rioya qilayotganligini kuzatish mumkin. Turkiyani Yevropada obro'sini va mavqeyini oshirish uchun harakatlar jadallashdi. Soliq tizimiga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi va yashirin iqtisodiyot bilan kurashish boshlandi. 2015 yilda qishloq va shaxar aholisi kambag'alligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, shahar aholisi kambag'alligi 9% ni va qishloq aholisi kambag'alligi esa 39%ni tashkil etgan. Shahar aholisi kambag'allili asosan uy-joy muammolari bilan bog'lik bo'lib ijaraga uy berish tartibi va qoidalari davlat tomonidan nazoratga olinib narxleri esa

o'rtacha va eng kam ish haqlarini hisobga olgan xolda belgilab berilgan. Bu bilan shahar aholisi kambag'alligi profilaktika qilingan. Qishloq yerlaridagi ijtimoiy mahrumlikni qishloq infratuzilmasini yaxshilash orqali qisqartirishga erishilgan. Qishloqda yashayotgan aholini yer va daromad soliqlarini kamaytirish, ularni turmush darajasini yaxshilash yordam berdi. Bundan tashqari Turkiyada xotin-qizlarni kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi uchun ijtimoiy va xuquqiy himoyalani masalasi diqqatimizni tortdi.

Mamlakatda oilalarni kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi uchun Turkiya Jumhuriyati Oila kodeksining (tsk madde233) onalar va xotin-qizlar xuquqlarini davlat tomonidan himoya kilinishi alohida norma bilan mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, ushbu kodeksga ajralish uchun davlo ochilayotgan oilada xotin va bola nafaqasi, ajrayotgan er turmush o'rtog'i va bolasi uchun nafaqa to'lashi, farzandi bo'lmagan hollarda ham turmush o'rtog'i oila qurgunigacha yoki fuqarolik nikohiga kirgunigacha ushbu nafaqani olish huquqi berilgan. Bunday nafaqa 2 yildan 12 yilgacha davom etishi mumkin «Madeni kanun 169 ve 197 maddeleri»[4].

Turkiyada yolg'iz ona, tul xotin va ajrashgan ayollar, ota nafaqasini (vafot etgan otaning pensiyasini olish huquqi) ham oladilar. Ota nafaqasi shuki, oilasidan ajrashgan ayol vafot etgan otasining nafaqasini olish huquqiga ega bo'ladi. Agar oilada ikki qiz oilasidan ajrashsa bu nafaqa ikkiga bo'linadi. Eng oz nafaqa 700 turk lirasi bo'lib, tahminan 100 AQSh dollar qiymatidagi mablag'ni tashkil etadi. Turkiya qonunchiligiga binoan 2019/8410 sonli va 2020/1070 sonli «Erkakning doimiy va uzuluksiz daromad manbaining yo'qligi uni nafaqa to'lay olmasligini isbotlovchi sabab bo'lishi uni bu vaziyatdan qutqara olmasligi» to'g'risidagi qarorlariga muvofiq xech qaerda ishlamaydigan va moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lmagan erkak ham bu nafaqani to'lash majburiyatida bo'ladi. Aks xolda unga nisbatan tegishli qonuniy choralar davlt tomonidan qo'llaniladi[5].

TOKI (Ijtimoiy uy-joy boshqarmasi) Turkiya Respublikasi Atrof-muhit, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi vazirligiga qarashli davlat muassasasi bo'lib, ijtimoiy uy-joylar qurish uchun tashkil etilgan. Bu tashkilot 1984 yilda «Ijtimoiy uy-joy boshqarmasi» davlat sherikchiligi asosida tashkil etilgan.

Ushbu loyihani ishga tushirilishi natijasida uy-joyisiz, nomida hech qanday mol-mulk bo'lmagan, kam ta'minlangan fuqarolar o'zlari orzu qilgan uylarga belgilangan to'lovlar asosida ega bo'lish imkoniyati yuzaga keldi. Fuqarolar ijtimoiy uy-joy yoki arzon hovlilar uchun ariza berishlari mumkin bo'ladi. Arizalar yagona darcha kabi E-davlat nomli saytga arizalar qabul qilinadi. Arizalar qabul qilingandan so'ng qur'a tashlash yo'li bilan uy-joyga egalik qilish huquqi beriladi. Bu usulda uy-joy bilan ta'minlashning afzalliklari shundaki, boshpanasiz ijarada yashovchi insonlar bir uyda ikki va uch oila bo'lib yashaydiganlarni ehtiyojlari qondiriladi. TOKI tomonidan quriladigan turar-joylar uchun mamlakat fuqarolirig daromadi Istanbul shahrida 16 ming liradan (850 AQSh dollari)dan, boshqa viloyatlarda esa 14 ming liradan (743 AQSh dollari)dan past bo'lgan va doimiy yashash joyi bo'lmagan fuqarolarlar ijtimoiy loyihaga murojaat qilishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, daromad chegarasidan tashqari uy-joyga ega bo'lmaslik sharti ham so'raladi. Ushbu shartlarga javob beradiganlar loyihalar e'lon qilingandan keyin ariza topshirishadi[6].

TOKI loyihasi uchun ajratiladigan uy-joylar soni va kategoriyasi

TOKI loyihasiga kiritiladigan iinsonlar kategoriyasi	Ajratiladigan uy-joylar soni	Uy-joylar miqdori foizda
Pensionerlar	50 000	20%
Yoshlar	50 000	20%
Faxriylar va shaxidalarning yaqin qarindoshlari	12 500	5%
Nogironlar	12 500	5%
Daromadi o'rtava undan past bo'lgan fuqarolar	125 000	50%

Bizningcha, Turkiyadagi ushbu loyihani ishga tushirilishi mamlakat aholisini kambag'allikdan chiqarish va mamlakatda umumiy kambag'allik darajasini qisqartirishda muhim sotsial omil hisoblanadi. O'zbekistonda ham bunday ishlar amalga oshirilmoqda masalan. 2016 yildan buyon olti yil ichida mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi. Ilgari o'rtacha 50 ming uy qurilgan. Ammo O'zbekistonda

bunday amaliyot ipoteka kreditlari asosida amalga oshiriladi va bunda aholini uy-joy bilan ta'minlashda ko'prok banklar ishtirok etadi. Turkiyada aholini uy-joy bilan ta'minlashda banklardan tashqari ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlar davlat sherkhiligi asosida ish olib boradilar. So'z oxirida shuni ta'kidlash joizki joriy yilning oltinchi fevralida ro'y bergan yer qimirlashi jarayonida TOKI loyihasidagi uylarning hech biri zarar ko'rmagan.

ADABIYOTLAR

1. Türk medeni kanunu. Kabul Tarihi: 22/11/2001. 161, 173, 174, 175, 176, 177, 178- Maddeleri/
2. <https://barandogan.av.tr/blog/medeni-hukuk/nafaka-davasi-nedir-istirak-nafakasi-yoksulluk-nafakasi-tedbir-nafakasi>.
3. TOKİ hakkında bilgiler ve son haberler. URL: <https://www.dunya.com/konu/toki>.
4. Türk medeni kanunu. Kabul Tarihi: 22/11/2001. 161, 173, 174, 175, 176, 177, 178- Maddeleri/
5. <https://barandogan.av.tr/blog/medeni-hukuk/nafaka-davasi-nedir-istirak-nafakasi-yoksulluk-nafakasi-tedbir-nafakasi>.
6. TOKİ hakkında bilgiler ve son haberler. URL: <https://www.dunya.com/konu/toki>.



UDK: 372.3/4

Dilfuza NOSIROVA,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent D.E.Toshtemirov taqrizi asosida

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS

Annotation

This article presents the theoretical foundations of improving the professional competence of students based on digital technologies, the definition of the concept of professional competence, and the stages of improving professional competence based on digital technologies.

Key words: Competence, professional competence, education, digital technology, information, pedagogical skills, improvement.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлены теоретические основы повышения профессиональной компетентности студентов на основе цифровых технологий, определение понятия профессиональной компетентности, этапы повышения профессиональной компетентности на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: Компетентность, профессиональная компетентность, образование, цифровые технологии, информация, педагогическое мастерство, совершенствование.

TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Anontatsiya

Mazkur maqolada talabalarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida oshirishning nazariy asoslari, kasbiy kompetentlik tushunchasi ta'rif hamda kasbiy kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bosqichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ta'lim, raqamli texnologiya, axborot, pedagogik mahorat, takomillashuv.

Kirish. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagog xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: Bu pedagog va professor o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur”, - degan fikrlari kata ahamiyat kasb etadi [1]. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimi oldida turgan shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Kompetentlik – lotincha so'z bo'lib, kompetens – layoqatli, qobiliyati bor degan ma'noni anglatadi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Kompetensiyalarni

shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir [10]. Raqamli ta'lim – ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma'lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan realik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko'lami kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o'rin tutadi [10]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha pedagogning kasbiy mahorati quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) ta'lim tizimining global axborot jarayonlariga jalb qilinishi to'g'risida xabardorlik; b) deyarli cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga va ushbu ma'lumotlarni tahliliy qayta ishlashga samarali kirish usullarini o'zlashtirishga tayyorlik; d) innovatsion pedagogik natijalarni olish uchun zamonaviy axborot muhitida pedagogik g'oyalarni shakllantirishga imkon beradigan shaxsiy ijodiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga intilish, shuningdek, o'ziga

xos axborot muhitini yaratish; e) ilmiy va ijtimoiy tajribani birgalikda rivojlantirishga, axborotning o'zaro ta'sirining barcha subyektlari bilan birgalikda aks ettirish va o'z-o'zini aks ettirishga tayyorligi; f) ma'lumotlarni olish, tanlash, saqlash, takrorlash, taqdim etish, uzatish va integratsiya qilish madaniyatini o'zlashtirish; g) doimiy o'zgarib turadigan axborot jamiyatida, uzluksiz ta'lim sharoitida kasbiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida zamonaviy interfaol telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik; h) axborot va ta'lim muhitini modellashtirish va loyihalashtirish va o'z kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyati.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quv faoliyatining psixologik nazariyasida (P.Ya. Galperin, V.V. Davidov, A.N. Leontev, A.K. Markova, S.L. Rubinshteyn, N.F. Talizina, D.B. Elkonin va boshq.) o'qitish mazmunining o'zlashtirilishi va tahsil oluvchining rivojlanishi (rivojlantirilishi) unga ba'zi ma'lumotlarni uzatish orqali sodir bo'lmasligini, faqat uning o'zining faol faoliyati jarayonida har doim malaka va ko'nikmalar orqasida ma'lum xarakteristikalariga ega bo'lgan harakati mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu holat XX asrning ikkinchi yarmi davomida ta'limning maqsadlari, mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatib kelayotgan o'rganish faoliyatiga asoslangan yondashuvning psixologik asosini tashkil etadi. N.F. Talizina ta'lim jarayonini "talabalarining turli xil vazifalarni yechishi, ular uchun tegishli faoliyatni amalga oshirish jarayoni" deb hisoblaydi. V.I. Zagvyazinskiyning fikriga ko'ra, ta'lim faoliyatiga asoslangan yondashuv bo'lib "barcha pedagogik tadbirlar jadal, tobora murakkablashib boradigan faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilganligini" nazarda tutadi, zero inson faqat o'z faoliyati orqali ilm-fan va madaniyatni, dunyoni bilish va o'zgartirish usullarini o'zlashtiradi, shaxsiy sifat-fazilatlarini shakllantiradi va takomillashtiradi. Ta'lim jarayonida talabalarni rivojlantirish uchun asos – talabaning o'zini o'qish-ta'lim olishning sub'ekti sifatida o'zgartirishga yo'naltiradi". A.V. Xutorskoyning fikriga ko'ra, "ma'lum bir sohada kompetent inson unga bu soha doirasida asoslangan tarzda mulohaza yuritish va unga samarali amal qilish imkonini beruvchi tegishli bilim va qobiliyatlarga ega" [2].

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi. O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir [3]. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat: 1. Kasbiy. 2. Shaxsiy. 3. Umuminsoniy. 4. Madaniy. 5. Maxsus. Kasbiy kompetensiya: pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish; o'z ustida ishlash; -ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish; talabalar ehtiyojini ang'lay olishi; talabalarda motivatsiyani shakllantirish; AKTni bilishi; ta'lim muhitiga yangilik kiritishi; o'z fanini mukammal bilishi; xorijiy tillardan birini bilishi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari: 1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni ang'lay. 2. O'zini rivojlantirish maqsad va vazifasini belgilash. 3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarni tuzatish. Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- Zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv

dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

- Ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

- O'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompg'yuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-kusurlari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan etarlicha ta'minlanganligi;

- Ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarining o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

- Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi [4].

«O'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlardan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun u: - ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi; - ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Ta'lim tizimini texnologik yondashuv asosida tashkil etish o'quv jarayonining barcha darajalarini takomillashtirishga olib keladi va quyidagilarni ta'minlaydi:

- Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish;

- Kognitiv faoliyatni faollashtirishni shart qiluvchi rag'batlantiruvchi motivlar (rag'batlantiruvchi) bilan ta'minlash;

- Turli fan sohalardagi muammolarni hal qilishda zamonaviy axborotni qayta ishlash vositalaridan foydalanish orqali tarmoqlararo aloqalarni chuqurlashtirish. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi [5]. Tadqiqotimiz doirasida, biz V.Xutorskoyning yondashuviga rioya qilamiz va quyidagi ta'riflarni beramiz [2]:

1) "Kasbiy-metodik kompetensiyani" bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining kasbiy-metodik bilimlari, kasbiy-metodik malakalari va shaxsning kasbiy ahamiyatli fazilatlarining o'quv-uslubiy faoliyatning muayyan/konkret turlarini sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan yig'indisi/to'plami sifatida;

2) Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining "kasbiy-metodik kompetensiyani" kasbiy-metodik kompetensiyalar to'plamini egallaganlik sifatida; va bunday egallaganlik uning kasbiy-metodik faoliyatni ongli va sifatli bajarishga tayyorligini anglatadi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi

paqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to' soliqni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullariga ham yangilikliklar kiritiyapti. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta'lim – ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf

o'qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma'lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko'lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni tashkil etilsa, samaradorlik darajasi yanada oshadi. Bunda ta'lim vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, SMART televizorlar, telefon, SMART doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi. Demak, raqamli ta'limda: xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega; internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyatini shakllanadi; ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi; vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishga kabilar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish uchun, avvalambor, yetarli shart-sharoit yaratilishi lozim, shundagina kerakli maqsadga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston. Toshkent, 2017, 45-bet.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // Журнал "Народное образование". – 2003. – № 2. – С. 58-64.
3. Quchqorov N.M., Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik. Darslik. Toshkent, "Bookmany Print", 2022.
4. Шарипов Ш., Муслимов Н., Исмоилова М.: "Касбий таълим педагогикаси". Методик қўлланма. – Т. 2005.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. "Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик" модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т: 2016. – 147 б.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. стр 18.
7. Абдуллажанова М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: автореф. дис. канд. пед. наук / Ташкент, 1991.-23 с.
8. Usmonboeva M., Anorkulova G., Shamaripxodjaeva G. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv-uslubiy majmua. T. 2015-yil. 14-15-b.
9. Nurillaev S.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari / INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 2022.
10. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T., 2008. -150 b.
11. Temurov S.Y. Bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. –T., 2014.



UDK: 372.8

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti professori, Pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail:finaledition2@mail.ru,

Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d. R.D.Shodiyev taqrizi asosida

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'lim jarayonida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish usullari, ulardan foydalanish yo'llari hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar va muammoli ta'lim texnologiyalaridan boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi, o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, mustaqil fikr, muammo, muammoli ta'lim, muammoli savol, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat, o'qituvchi-o'quvchi munosabati.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье рассмотрены способы формирования у младших школьников навыков самостоятельного мышления в процессе обучения, способы их использования, а также факторы, влияющие на этот процесс, и возможности использования проблемных образовательных технологий в процессе начального образования.

Ключевые слова: Ученик, учитель, начальное образование, мышление, самостоятельное мышление, проблема, проблемное обучение, проблемный вопрос, проблемное задание, проблемная ситуация, отношения учитель-ученик.

OPPORTUNITIES FOR THE USE OF PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION

Annotation

The article reflects on the methods of formation of independent thinking skills in the educational process in students of younger school age, the ways of their use, as well as the factors affecting this process and the possibility of using problematic educational technologies in the process of primary education.

Key words: Student, Teacher, Primary Education, thinking, independent thought, problem, Problem learning, problem question, problem assignment, problem situation, teacher-student attitude.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir. Olib borilgan kuzatishlarga qaraganda ta'lim metodlarining barchasi ham o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish vositasi bo'la olmaydi. Ammo darsda turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga, bilimlarni egallash jarayonining zerikarli bo'lmasligiga erishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim metodlari xilma-xil bo'lib, o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlarga birlashtiriladi. Ta'lim metodlarining tasnifiga oid turli qarashlar mavjud: Ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim olimlar o'qituvchi faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy. Chunki ta'lim metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'limning muammoli metodi faqat o'qituvchini bilimlarni bayon etishga emas, balki o'quvchilarni mustaqil ravishda izlanishga, fikr yuritishga yo'naltirishi lozim. A.G'ulomov va M.Qodirovlar xususiy metodlar, ya'ni ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan

metodlar borasida to'xtalib o'tadilar. Ular ta'limni ikkiyoqlama jarayon ekanligini hisobga olib, ta'lim metodlarini ikki katta guruhga ajratadilar: 1) o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar; 2) o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar [1]. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar bilimlarni tayyor holda bayon etish va muammoli bayon qilish metodlariga ajratilgan. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar guruhiga qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va izlanishga asoslangan metodlar kiradi [1]. Ta'lim metodlarini tahlil qilib chiqar ekanmiz, ulardan unumli va o'rnida foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda juda qo'l kelishini ko'ramiz. Ammo ta'lim metodlarining barchasi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilmaydi. Binobarin, reproduktiv metod o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etmasa, muammoli-izlanish metodi orqali bu borada yuqori natijalarga erishish mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xilma-xil o'quv materiallarini hal qilishlari orqali izlanish g'oyasining joriy qilinishi mustaqil fikrlashga o'rgatish usullaridan biridir. O'quvchilar tafakkurining mustaqilligini shakllantirishda bu usuldan oqilona foydalanish nihoyatda samarali bo'lib, tadqiqotchilik ko'nikmalari va ishga ijodiy yondashishga yordam beradi. Muammo – mohiyatiga ko'ra, zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan masaladir. O'qituvchi o'quvchi oldiga muammo qo'yar ekan, uni hal qilish yo'lidagi harakat davomida o'quvchi izlanadi, ijod qilishga intiladi, muammo

ustida avvalgi tajriba va bilimga tayangan holda fikr yuritadi. O'quvchilar ta'lim obyekti bo'lib qolmay, subyekti ham bo'lishlari lozimligi davr talabidir. Ular o'qituvchining talabini shunchaki o'zlashtirmay, balki o'z shaxsiy tajribalari, aqliy rivojlanish darajalariga qarab faol o'zlashtirishlari, qayta ishlashlari lozim. Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga harakat qilishga qobil yosh avlodni tarbiyalash lozim. Shu bois ko'pgina olimlar va ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarda o'quv faoliyatiga mustaqil va ijodiy yondashuvni tarkib toptirish yo'lida izlanmoqdalar. Bu borada olib borgan izlanishlarimiz natijasi o'laroq, ta'limning muammoli metodining o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rni ustida alohida to'xtalib o'tish joiz. Bu metoddan foydalanish bilish jarayonining samaradorligini oshiradi, bilimlarni chuqur, ongli, mustahkam o'zlashtirishga, mustaqil fikrlash va izlanishlar natijasida o'ziga xos kashfiyotlar qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ta'limning muammoli metodi nuqtai nazaridan ta'limdagi asosiy yo'nalishtirish o'quvchilarda o'quv topshiriqlarini hal etish, bilish va mustaqil fikrlash faoliyatini shakllantirishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar subyekt sifatida jalb qilinib, o'qituvchi rahbarligida o'zlari bilim oladigan sharoitga solinadi. Shu jarayonda yangidan yangi, murakkablashib boruvchi uzluksiz muammolarga daxldor ta'lim tashkil etiladi. Bunday ta'limda butun bir dars bitta asosiy muammoni hal etishga bag'ishlanishi mumkin. Yoki bir dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialini bir qancha ichkil muammolarga bo'linishi mumkin. Muammolar ketma-ket hal qilingach, bilimlarni bir tizimga solish, umumlashtirish amalga oshiriladi. Muammoli ta'lim o'quvchilar oldiga muammoli savol yoki topshiriqlar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish, muammolarni hal etishga o'quvchilarni jalb etish, ular faoliyatini nazorat qilish, yakuniy xulosalar chiqarishni o'z ichiga olgan jarayon bo'lib, uning o'quv muammosi, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli topshiriq kabi kategoriyalari mavjuddir. O'quv muammosi ilmiy bilish zaruriyatining subyektiv ifodasidir. U muammoli vaziyatning in'ikosi, ya'ni ta'lim jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida yuzaga keluvchi obyektiv ziddiyatdir. Ziddiyatli masala esa o'ziga xos muammoli topshiriq, muammoli savol shaklida bo'lib, o'quvchilardan mustaqil fikr yuritishni talab etadi. Muammoning hal etilishi natijasida yangi bilimlar bilan qurollantiriladi. Ayrim olimlar muammoli vaziyatni mavhum, ya'ni uncha aniq bo'lmagan va kam anglanadigan holat deb baholasalar, boshqa olimlar bilish va amaliy qiyinchilikni boshdan kechirayotgan subyektning psixologik holati, bilish va inson faoliyati o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholaydilar. Jumladan, tadqiqotchi R.Ibragimov muammoli vaziyat deganda «topshiriqni bajarish jarayonida yuzaga keluvchi o'quvchining psixik holatini tushunamiz» deb ta'riflaydi [2]. A.G'ulomov va M.Kodirovlar ona tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi hollarda yuzaga kelishini ko'rsatib o'tadilar:

-Noma'lumni izlab topish, qiyinchilikni bartaraf etish zaruriyati tug'ilganda;

-Ona tilidan egallangan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash ehtiyoji yuzaga kelganda;

-Muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelganda [1].

Bizningcha, muammoli vaziyat muammolarni hal etishning yangi yo'llari va usullarini topish jarayonida yuzaga keladigan holatdir. Muammoli savollar o'zlashtirilgan bilimlar asosida javob berishni taqozo qilishi bilan ajralib turadi. Muammoli savollar «Nima uchun?», «Qanday tushunish mumkin?», «Siz nima deb o'ylaysiz?», «Sababi nimada?» kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida berilgan topshiriqni an'anaviy usullarda hal etish mumkin bo'lmasa, hal etishning yangi usulini qo'llash zaruriyati tug'iladi. Muammoli topshiriq shu tariqa yuzaga keladi. Muammoli

metod haqida V.Okon shunday fikr bildiradi: «Umumiy ko'rinishdagi muammoli ta'lim deganda, biz muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammolarni shakllantirish (o'quvchilarning o'zi shunga sekin-asta jalb etiladi), muammolarni hal etishda o'quvchilarga zarur yordam berish, ularni tekshirish, nihoyat sistemalashtirish jarayoniga rahbarlik va olingan bilimlarni mustahkamlash kabi harakatlar yig'indisini tushunamiz» [3]. M.I.Maxmutov muammoli metodning asl mohiyatini ma'lum va noma'lum ma'lumotlar o'rtasidagi ziddiyatlarda ekanligini ta'kidlab, shunday deydi: «Muammoli metod asosida tushunish va tushuntirish uchun ilgari bilimlar yetarli bo'lmagan, o'quvchiga ma'lum bilim, uquv va ko'nikma, yangi dalil, hodisalar o'rtasida dialektik ziddiyat kasb etuvchi o'quv muammosi yotadi» [4]. Muammoli ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi to'g'ri savol qo'ya bilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'pincha, muammoli vaziyat topshiriqning mazmuni yoki masalaning shaklida aks etadi. Topshiriq shartlari o'quvchi ongida muqarrar sur'atda muayyan bir savol tug'iladigan va shu savolga javob qaytarish istagi paydo bo'ladigan qilib tuziladi. O'quvchilar muammoni mustaqil hal etishga intilar ekanlar, yangi bilimlarni egallash bilan bir qatorda, mustaqil fikrlashga ham o'rgana boshlaydilar. Bilish vazifalarini qo'yishning bu usuli tadqiqot refleksiga asoslanadi.

Muammoli ta'limning ahamiyati o'quvchilarda bilish faoliyatini boshqarish masalalarini hal etishdagi o'rni bilan ham belgilanadi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi mavjud obyektiv ziddiyatlar ta'limga muammoli yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili va ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga muammoli yondashuvning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilashga imkon beradi:

- Boshlang'ich sinflarda yuzaga kelgan o'quv muammolari o'zida qandaydir hayotiy vaziyatni namoyon etmog'i lozim;

- Ona tilining o'quv predmeti sifatidagi ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan yaqin aloqasiga ko'ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir;

- Faqat boshlang'ich sinflarning ona tili darslari uchun xarakterli bo'lgan metodik usullarda ish ko'rilishida;

- O'quvchilarga o'quv materialining hissiy ta'sir etishida;

- Faqat ona tili darslarida yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlar tipologiyasida;

- Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida nafaqat muammoli ta'lim, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi (hatto bilimlarni o'qituvchi muammoli bayon etgan sharoitda ham), chunki o'quvchilar bunday bayonni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim;

- Boshlang'ich sinflardagi muammoli ta'limda mashg'ullik elementi muhim rol o'ynashi bilan bog'liq.

- Boshlang'ich sinf ona tili darslari yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijasida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullarini ishlab chiqdik:

1. O'quvchilarni bayon qilinayotgan mavzudagi umumiylik va xususiylikni aniqlash maqsadida berilgan mashqlarni tahlil etish va qiyoslash.

2. Tanish topshiriqni hal etishda o'quvchilar oldiga yangicha yondashuvni talab etadigan amaliy topshiriqlarni qo'yish.

3. O'quvchilarning amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishda yuzaga keluvchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni muammoni belgilash maqsadida tahlil etish.

4. Ortiqcha ma'lumot berilgan yoki ma'lumotlar yetarli bo'lmagan mashqlar orqali muammoli vaziyat yaratish. Ortiqcha ma'lumotni yoki yetishmayotgan ma'lumotni topish

uchun o'quvchilar yangi ma'lumotni bilishlari lozim bo'ladi va muammoli vaziyat yuzaga keladi.

5. Dars maqsadini amalga oshirishda tegishli savollar yordamida muammoli vaziyat yaratib, o'quvchilarning hayotiy tajribalari orqali muammoni hal etish. Bunday muammoli savollar «Nima uchun shunday yozilgan?», «To'g'rimi?», «Kim haq?» kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Muammoli darsni tashkil etishning mazkur sxematik rejasi boshlang'ich sinflarda va u yoki bu o'quv muammosiga qarab to'liq yoki qisman bajariladi. Bu o'rinda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar o'ziga xos xususiyatga egadir. Ulardan ba'zilari o'z yechimlari uchun avvalo xulosalarni, tushunchalarni, qonunlar va nazariyani tahlil qilishni talab etadi, boshqalari faktlarni umumlashtirishni talab qiladi, uchinchilari hodisalarni, tushunchalarni taqqoslashga ko'proq tayanadi va hokazo.

Muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga amal qilish joiz:

- O'quvchilar ma'lum bilimlar doirasidan o'zlariga yetishmayotganlarini aniq chegaralab olishlari, ya'ni noma'lumni «ko'rishlari»;

- O'qituvchi yangi bilimga ehtiyoj uyg'otuvchi muammoli masalani darsdan avval loyihalashtirishi;

- Har bir o'quvchining va butun sinfning alohida individual psixologik imkoniyatlarini qat'iy hisobga olishi;

- Muammoli vaziyat yaratishni darsning istalgan bosqichida amalga oshirilishi (o'rganilganlarni takrorlashda, yangi materialni tushuntirishda, yangi mavzuni mustahkamlashda);

- Muammoli vaziyat yaratish uchun vosita sifatida o'qituvchi so'zi, darslik (qo'llanma) materiali, o'quvchilarning kuzatishlari natijalari, laboratoriya ishlari, ta'limning texnik vositalarini namoyish etish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Фуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Университет, 2001.222-бет.
2. Ибрагимов Р. Бошланғич мактаб ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фан. ном. ... дис. –Тошкент, 2002.
3. Оконь В. Основы проблемного обучения.-Москва:Просвещение, 1978.
4. Махмутов М.И. Проблемное обучение. Основные вопросы теории. – Москва: Педагогика, 1975.
5. Нуруллаева Ш.У. Ўқитувчиларнинг ўз устида ишлаши узлуксиз касбий ривожланишнинг асоси сифатида. Халқ таълими. 2022. №4. 93-98-б.
6. Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari. Pedagogik akmeologiya. 2022 №1. 12-19-b.
7. Нуруллаева Ш.У. Бўлажак ўқитувчилар касбий тайёргарлиги моделида педагогнинг профессионал компетентлигини ривожлантириш йўллари. Таълимда узвий касбий ривожланишнинг жамият тараққиётидаги роли, ривожланиш масалалари: мақсад ва вазифалар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Қарши-2022.150-152-б.
8. Nurullaeva Sh. Modern pedagogical models of professional training of future teachers in Uzbekistan. Excerpts from Uzbekistan. The special periodical journal of Uzbekistan writers and scholars held in Egypt Alexandria University. Alexandria University, 2022. P. 95-97.



UDK:377.1:801.612

Safina OLIMJONOVA,
National University of Uzbekistan
Student of the Faculty of English Philology
E-mail: safiyana27@mail.ru

Based on the review of Abdullayeva N. E. Associate Professor of the Department of English Linguistics of NUUZ and Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

THE WAYS OF DEVELOPING SPEAKING SKILLS FOR ELEMENTARY LEVEL

Annotation

Elementary education can also be called primary education. The first stage in formal education traditionally begins at the age of 5 and 7 and ends at the age of 11 and 13. First of all, it is necessary to find out what kind of knowledge young students have. They mainly have some information about their hobbies, family, travel, favorite sport and favorite science. In this case, it is the pedagogue's responsibility to direct students to the right path. In addition, the role of the teacher in teaching elementary school students is considered a priority. Therefore, it is important for the teacher to know how to use methods and materials correctly for students.

Key words: Elementary level, Pass Ball Game, group work, pair work, speaking skills, pronunciation, communication, discussion.

СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ РАЗГОВОРНЫХ НАВЫКОВ ДЛЯ НАЧАЛЬНОГО УРОВНЯ

Аннотация

Начальное образование можно назвать первичным образованием. Первый этап формального образования традиционно начинается в 5-7 лет и заканчивается в 11-13 лет. Прежде всего необходимо выяснить, какими знаниями обладают учащиеся. У них в основном есть информация об увлечениях, семье, путешествиях, любимом виде спорта и любимой науке. В этом случае на педагога возлагается ответственность направить учащихся на правильный путь. Кроме того, приоритетной считается роль учителя в обучении учащихся начальных классов. Поэтому учителю важно уметь правильно использовать методы и материалы для учащихся.

Ключевые слова: Начальный уровень, игра «Передай мяч», работа в группе, работа в парах, навыки говорения, произношение, общение, обсуждение.

BOSHLANG‘ICH DARAJA UCHUN NUTQ QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Аннотация

Boshlang‘ich ta‘limni dastlabki ta‘lim deb ham atash mumkin. Birinchi bosqich rasmiy ta‘limda an’anaviy tarzda 5 va 7 yoshdan boshlanib, 11 va 13 yoshda tugatiladi. Birinchi navbatda yosh o‘quvchilar qanday bilimlarga ega ekanligi haqida bilib olish talab qilinadi. Ular asosan sevimli mashg‘ulotlari, oilasi, sayohati, sevimli sporti hamda yo‘qtirgan fani haqida ba‘zi ma‘lumotlarga ega. Shu o‘rinda o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish pedagog zimmasiga yuklatiladi. Bundan tashqari, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini o‘qitishda o‘qituvchining roli ustuvor vazifa sanaladi. Shuning uchun o‘qituvchi talabalar uchun metodika va materiallardan to‘g‘ri foydalanishni bilishi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich daraja, “To‘p uzatish” o‘yini, guruh bo‘lib ishlash, juftlik bo‘lib ishlash, nutq qobiliyati, talaffuz, muloqot, muhokama.

Introduction. “From now on, graduates of schools, lycées, colleges and universities must be fluent in at least 2 foreign languages” [1]. According to the President, today all young people are eager to learn a foreign language in primary school. The demands of the time demand the same. Of course, in order to teach a language to young learners, the teacher must be experienced and have sufficient knowledge. Aside from listening, writing, and reading, one of the abilities is speaking. Speaking is the first criterion for determining whether or not someone can communicate in English. Furthermore, if a person is competent at speaking, he or she feels at ease and is willing to master other skills like writing, listening, reading, and grammar. Speaking in English is a difficult task for young learners in elementary school since it is a new and confusing experience for them. On the other hand, there are several issues that make it difficult for pupils to communicate in English. The first issue is that the teaching style is not suited for young students. The second issue is that English is novel to young learners, making it difficult for them to learn because English is linguistically so different from

their mother tongue and national language. As a result, the instructor must be innovative in order to employ tactics that will increase students’ willingness to study English and enhance their speaking skills.

Literature review. In order to overcome the difficulties mentioned above, the creator invites you to play through the Pass Ball Game. The fiction writer chooses this remedy on the basis of the fact that all kids adore playing with the ball. Students will love the whole class while they learn to intuitively say any of the texts that the mentor highlights. The purpose of the provided note is to ascribe how the introduction of the ball game has the ability to be a candidate as an effective means of global information improve the conversational ability of students [2]. Using a game in the classroom may make the assignment more fascinating and intriguing. According to the Oxford Dictionary, a game is an image of a sport or a depiction of a sport in which individuals or teams play against each other. Meanwhile, Kim states, in fact, that in fact, that this is a delusion, if the study should be serious. Students take part in this game by displaying boldly

reactions such as feet, hands, heads, and voices, depicting body movements that make learning more fun. As a result, students have every chance to remember and preserve specific texts stronger and faster. Plus, there are other benefits to improving speaking skills as well. For example:

□□ Surround yourself by English. Try to listen to English as much as possible: people, TV, radio, internet, etc.

□□ Don't be afraid to make mistakes when speaking as mistakes are part of the learning process. Concentrate on communication.

□□ Make the most of your opportunities to speak English: native speakers, Skype, specific forums, teachers...

□□ Don't forget the other skills (reading and writing) as they are a great source of grammar and vocabulary.

□□ Stick to simple structures if you are not confident enough. When speaking, it is easy to make mistakes.

□□ Record yourself to listen to your voice speaking in English. It will help you assess your progress, particularly in terms of pronunciation.

□□ Learn new structures and vocabulary and make a conscious effort to use them for the first time.

□□ Ask your interlocutor to repeat or tell them you don't understand. They will understand [3].

The benefit sides of language teaching and learning:

□□ Teaching approaches that work.

□□ Make a welcoming atmosphere.

□□ It is simple to inspire learners to attend.

□□ Pupils can learn rapidly without remembering.

□□ Encourage a more innovative way of teaching.

□□ Lead to the growth of tongue fluency (it focused on grammatical competence) and accuracy (it focused on pronunciation problems) [4].

Research Methodology. There are several methods for organizing a class, including whole-class instruction, customized learning, pair work and, group work. The decision is influenced by the class goals as well as the intended type of communication between the students and teacher. Class as a whole vs partnerships or groups. The educator must constantly determine whether to teach the entire class together or to divide the pupils into pairs or groups [5]. Pair work is more ideal for tasks that are brief and quick, and also well-controlled in terms of technique. A small or large group is a team of six or fewer students. It is, of course, effective way of learning speaking skills than individual work. Every teacher must know how to divide students into groups and pairs. First of all, we need to learn how to set up pair and group work. Second of all, we will consider pair and group work activities. The exercises listed below can also enable pupils to practice speaking as an ability. These activities are for young learners who are learning at the elementary level.

Organization pair and group work:

- Before separating the classes, make sure to properly explain the method.

- Always show what they need to achieve, either by yourself or with the help and support of a friend.

- To ensure that they understand, ask them to tell you what they need to do before they do it (in their native tongue if necessary).

- Prepare fill-in tasks for the rapid finishers – but first check that they did the work correctly and not everyone is merely finishing early because they misunderstood what they needed to do.

- Shouldn't miss to providing feedback following pair work so that the kids don't think they are wasting their time. It is essential that they share their work as a group, but this isn't always systematic.

- Set a specific time limitation.

- Manage who tends to work with groupmates, as teenagers are not always controlled by others [6].

Activities which lend themselves to group work and pair work:

□□ Information-gap:

This activity is also called "Describe and Draw". Give a photo to each partner. The images should be roughly identical, with two or three pieces missing from each. Teenagers should explain the missing things without showing each other the images.

They should learn color, location prepositions, and adjectives such as "huge", "tiny", and so on. They may then analyze their photos.

□□ Favorite objects:

A variant on encouraging learners to share their own stories is an exercise in which learners are invited to discuss their best-loved things (for example, pictures, MP3 players, clothes, jewelry). They consider how they would explain their favorite items, such as when and why they obtained them, what and why they are so important to them, and whether they have any stories about them. They then speak to everyone about their items in groups, and the groups inform the class which object was the most extraordinary in their group.

□□ Roll and ball:

This may be used to practice any tongue with a discussion structure. They can pass the ball to each other and must recite the relevant statement as they do so. For example, "Hello. Hello! What's your name? My name is Ann." and so on. Keep in mind that the phrases they practice should be quite brief.

□□ Task completion:

This activity also called meeting and greeting and it functions as a role-play task. This cause a difficult position for brainstorming and problem solving.

□□ Telephone conversations:

Standing next to each other, they can exercise telephone speech or just ordinary dialogues that aren't necessarily related to the phone directly. Standing side by side should excite their awareness and help them develop their listening abilities. It's difficult, but it's very enjoyable!

□□ Acquiring knowledge:

These students will gather knowledge and communicate it in one form.

□□ Posters:

Used to develop classifying abilities, as well as memorizing colors and toy descriptions. The youngsters can be responsible for looking for images of toys, organizing them according to color or type of item, and showing their effort.

□□ Discussion:

- use the available words to create four chats;

- role-play with cue cards;

- make some games, such as finding other groups'

faults;

- observing activity and determining what they wish to express [7].

Analysis and results. The teacher may see that when students work with a small team or partner, they gain more information and knowledge. But it, of course, has advantages and disadvantages. Advantages and disadvantages of group work and pair work.

□□ Advantage sides:

- allows students additional speaking time;

- varies the lesson's pace;

- it shifts the focus away from you and onto the youngsters;

- allowing them to interact with everybody in the group;

- giving them a sense of accomplishment when they complete a team objective;

- allows you to watch, circulate about the class, and truly understand the words they are speaking;

– team members get more information than individuals;

- teamwork fosters creativity;
- learners can remember clearly what they discuss;
- pupils can learn from the mistakes and successes of their friends.

□□ Disadvantage sides:

– members may try to emulate the population's decision;

- students may be able to control a group;
- individuals may rely excessively on others;
- it takes more time and money;
- teamwork is time intensive and difficult to define;
- the layout design of most classes discourages group work;

– the teacher has to be prepared to give up discipline in schools and must be ready to deal with an unpleasant situation;

- a few groups require more control than others;
- tasks must be properly prepared and understood.

The exercises listed below can also enable pupils to practice speaking as an ability. These activities are for young learners who are learning at the elementary level [8].

Conclusion and recommendations. Teachers can interfere effectively during a communicative skill provided they do it quietly and unobtrusively. It is necessary, as with any type of correction, not to single out pupils for specific criticism. There are no hard and fast rules when it comes to correction. Some pupils want to be notified when they make a mistake, but we must always be cautious to ensure that our activities do not damage the activity at issue. The most effective way to correct speech mistakes is to talk to students about them and teach them how to correct mistakes. At the end of the lesson or during speaking time, the teacher should list the mistakes and flaws of the students, correct the students' speech, and give individual advice to each learner. For young learners, every reprimand or praise is important. As a result, the educator must understand how to use both rewards and punishment.

Correcting speaking. Teachers should very certainly need to rectify mistakes and flaws made during speaking activities similarly to those made during study practice. When

pupils are repeating words and attempting to get their pronunciation just perfect, the teacher will frequently correct every time there is a mistake. However, if the same instructor did this when students were engaged in a heated debate on whether smoking should be prohibited on tourist beaches, for instance, the result may have been to disrupt the flow of the debate. If, just as one of the pupils is about to make a significant point, the instructor comments to the student. For example, "You said, "is" but it should be "are". Wolves are... repeat" and the meaning is rapidly lost. The goal of the speaking activity would be defeated if the teacher constantly stopped. During speaking exercises, many teachers observe and listen. They take notes on things that might go well as well as times when students couldn't make themselves known or made serious errors. After the activity, they ask students how they think it went before providing their own evaluation. They could remark that they enjoyed how Student A articulated it and how Student B was able to argue with her. They will then state that they did hear one or two mistakes and will either analyze them with the class, post them on the board, or deliver them to the students concerned directly. For each situation, they will ask the pupils to identify and solve the mistake. It is necessary, as with any type of correction, not to single out pupils for specific criticism. Numerous teachers cope with the mistakes they hear without identifying who is to blame. In fact, there are no hard and fast rules when it comes to correction. Instructors who have a good rapport with the pupils may be able to interfere effectively during a communicative skill provided they do it quietly and unobtrusively. One type of mild correction might take the form of a new formulation, in which the educator repeats what the pupil has said, but properly this time, and does not give the question to repeat the corrected version. Some learners want to be notified when they make a mistake, but we must always be cautious to ensure that our activities do not damage the activity at issue. By far the most effective technique to fix speaking actions is to talk to pupils about them. We can ask them how and when they like to be corrected and describe how we intend to correct them at these stages, so we can demonstrate how various tasks may result in very different corrective behaviors on your side [10].

REFERENCES

1. From the speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at a video conference on measures to improve the system of teaching foreign languages.
2. Ainul D.S., Zul A. – Improving elementary school students' speaking skill using Pass Ball Game. – Copyright © 2017 Journal of English language teaching. – P.232 – 233 – 234 – 235.
3. https://t.me/EFL_ana.
4. <https://teachmiddleeastmag.com/develop-speaking-listening-skills-young-learners/>.
5. <https://images.app.goo.gl/6hnBAixh5JiarwR98>.
6. <https://ppt-online.org/348563> .
7. Jeremy H. – How to teach English. – Pearson Education Limited, 2007. – P.129 – 130 – 131.
8. <https://slideplayer.com/slide/4219621/14/images/24/Cont.+Pairs+or+Small+Group+Work.jpg>.
9. <https://cf2.pptonline.org/files2/slide/r/rbR7FCWOGzmpTSc6Z3I5IDv8YtVMdoPnHLUNskgy/slide-6.jpg>.
10. Jeremy H. – How to teach English. – Pearson Education Limited, 2007. – P.131.



UDK: 518.1

Oybek OTAQULOV,
TATU Farg'ona filiali dotsenti, t.f.n.
E-mail:oybek.otaqulov.63@bk.ru,
Otadavlat NASRIDDINOV,
TATU Farg'ona filiali katta o'qituvchisi
E-mail:otadavlat@umail.uz,
Odilaxon ISOMIDDINOVA,
TATU Farg'ona filiali magistranti
E-mail:otadavlat@umail.uz,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, f-m.f.d. Sh.T.Karimov taqrizi asosida

SOLUTION OF BERNOULLI'S EQUATION USING MAPLE PROGRAM DURING THE STUDY PROCESS

Annotation

We know that students studying in higher educational institutions are taught differential equations in higher mathematics. Because not only the problems of mathematics, but also the mathematical model of a number of processes occurring in nature are brought to the differential equation. Most of the quantities found in nature have their own laws. Finding these laws directly is a more complicated matter. It is very easy to find the connection between the considered quantity, its rate of change and acceleration. Simple differential equations are created as a mathematical expression of this connection. It is important and important to use modern computer programs to find a quick and accurate solution to such equations. In this article, finding the general solution of Bernoulli's equation was done in Maple program and the result was obtained.

Key words: Maple program, first order linear ordinary differential equation, numerical methods, analytical solution, Bernoulli's equation, function, general integral, approximate methods.

РЕШЕНИЕ УРАВНЕНИЯ БЕРНУЛЛИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММЫ MAPLE В ПРОЦЕССЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

Мы знаем, что студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, в высшей математике учат дифференциальными уравнениями. Потому что к дифференциальному уравнению сводятся не только задачи математики, но и математическая модель ряда процессов, происходящих в природе. Большинство найденных величин в природе есть свои законы, найти эти законы напрямую - дело более сложное. Найти связь между рассматриваемой величиной, скоростью ее изменения и ускорением по своей природе довольно просто. Простые дифференциальные уравнения формируются как математическое выражение этой связи. Важно и важно использовать современные компьютерные программы для быстрого и точного решения таких уравнений. В данной статье нахождение общего решения уравнения Бернулли было выполнено в программе Maple и получен результат.

Ключевые слова: Программа Maple, линейное обыкновенное дифференциальное уравнение первого порядка, численные методы, аналитическое решение, уравнение Бернулли, функция, общий интеграл, приближенные методы.

O'QUV JARAYONIDA MAPLE DASTURIDAN FOYDALANIB BERNULLI TENGLAMASINI YECHISH

Annotatsiya

Biz bilamizki, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga differensial tenglamalar oliy matematika fanlarida o'rgatiladi. Chunki, nafaqat matematikaning masalalari balki, tabiatda ro'y beradigan bir qator jarayonlarning matematik modeli differensial tenglamaga keltiriladi. Tabiatda uchraydigan miqdorlarning ko'pchiligi o'zining qonuniga ega. Bu qonunlarni to'g'ridan-to'g'ri topish ancha murakkab masala. Qaralayotgan miqdor, uning o'zgarish tezligi va tezlanishi orasidagi bog'lanishni topish tabiatan ancha yengil. Bu bog'lanishning matematik ifodasi sifatida esa oddiy differensial tenglamalar hosil bo'ladi. Bunday tenglamalarni tez va aniq yechimini topishda kompyuterning zamonaviy dasturlaridan foydalanish muhim va ahamiyatlidir. Ushbu maqolada Bernulli tenglamasini umumiy yechimini topishni Maple dasturida amalga oshirilgan va natija olingan.

Kalit so'zlar: Maple dasturi, birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama, sonli usullar, analitik yechim, Bernulli tenglamasi, funksiya, umumiy integral, taqribiy usullar.

Kirish. Prezidentimiz tomonidan ta'lim sohasida juda ko'p islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har

tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish; o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish kabilar belgilab qo'yildi [1]. Oliy o'quv yurtlarida talabalarga oliy matematika fanlarida differensial tenglamalar o'rgatiladi. Chunki differensial tenglamalarning tadbirlari juda keng bo'lib, ko'pgina fizik jarayonlar matematik fizikaning asosiy tenglamalarini o'rganish zaruratiga olib keladi. Nafaqat fizik

jarayonlar, balki mexanika, ximiya, biologiya, astronomiya, iqtisod, boshqaruv nazariyasining muhim masalalari ham differensial tenglamalar yordamida ifodalanadi va tadqiq qilinadi. Demak differensial tenglamalarni o'rganish uchta maqsaddan iborat: Hodisa yoki jarayonni ifodalovchi differensial tenglamani tuzish; topilgan tenglamani aniq yoki taqribiy yechimini topish; topilgan yechimni tahlil qilish va xulosa chiqarish [2]. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarining texnika yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning o'quv rejasida axborot texnologiyalari bilan ishlash, axborotlarga zamonaviy texnik vositalar bilan ishlov berish va uni tahlil qilish, sonli usullarni amaliy masalalarni yechishda tadbir qilishga katta e'tibor qaratilmoqda [3]. Mana shunday imkoniyatlardan foydalanib talabalarning differensial tenglamalarning yechimini tez va aniq topishda axbotot texnologiyalarining zamonaviy dasturlaridan foydalana bilishlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda kompyuter yordamida ko'plab masalalarni, xususan matematik masalalarni katta tezlikda hal qilishga mo'ljallangan Maple, MathCad, Matlab paketlari mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maple — dasturiy paket, kompyuter algebra (aniqrog'i, kompyuter matematikasi) sistemasi. U 1984-yildan e'tiboran dasturiy mahsulot ishlab chiqayotgan Waterloo Maple Inc. (ingl) kompaniyaning murakkab matematik hisoblashlarga, ma'lumotlarni vizuallashtirish va modellashtirishga mo'ljallangan mahsulotini hisoblanadi. Maple sistema differensial tenglamalarni sonli yechish va integrallarni topishga qaratilgan qator vositalarga ega bo'lishiga qaramay, simvollik hisoblashlarga mo'ljallangan. U rivojlangan grafik vositalarga egadir. Paskal tilini eslatuvchi o'zining shaxsiy dasturlash tiliga ega [4]. Boshlang'ich yoki chegaraviy masalalarni yechish – bu juda keng ma'noda bo'lib, ular aniq analitik usullar va taqribiy sonli usullardir. Analitik usullar bilan biz differensial tenglamalar fanidan tanishmiz. Bu usullar faqat tor doiradagi tenglamalar sinfinigina yechish imkonini beradi. Xususan, bu usullar o'zgarma koeffitsiyentli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalarni yechishda keng qo'llaniladi. Bunday tenglamalar ko'plab fizik jarayonlarni tadqiq qilishda uchraydi, masalan tebranishlar nazariyasida, qattiq jismlar dinamikasida va shunga o'xshash. Taqribiy usullar kompyuterlar paydo bo'lmisidan ancha avval ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ham ularning ko'pchiligi amaliyotda o'z mazmunini yo'qotgani yo'q. Taqribiy usullar umumiy holda ikki guruhga bo'linadi: Taqribiy-analitik usullar boshlang'ich yoki chegaraviy masalaning berilgan kesmadagi taqribiy yechimini biror funksiya ko'rinishida izlash; sonli yoki to'r usullar (boshlang'ich yoki chegaraviy masalaning berilgan kesmadagi taqribiy yechimini qurish). Zamonaviy hisoblash texnikasi va yig'ilgan hisoblash tajribalari differensial tenglamalarning katta va murakkab masalalarini taqribiy yechish imkonini bermoqda. Sonli hisoblashlarda eng muhim jihat bu yetarlicha aniqlikda izlanayotgan taqribiy yechimga erishishdir. Bu aniqlikning muhim jihatlari esa EHMdan foydalanish aniqligi, kiritilayotgan ma'lumotlarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar va yaxlitlash natijasida paydo bo'ladigan xatoliklardan qutilishdir. Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy matematik paketlar mavjudki, ular oddiy differensial tenglamalarni yetarlicha aniqlikda ham analitik va ham sonli yechib berish imkoniyatga ega. Buning uchun esa oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechishning hisoblash usullari va ularning xususiyatlari bilan yaqindan tanishish kerak. Bu bilan birga shunday masalalar ham uchraydiki, ularni mavjud usullar bilan emas, balki ularning modifikatsiyasi, yangi uslubi va algoritmi bilan yechish lozim bo'ladi. Umuman olganda, oddiy differensial tenglama bilan berilgan chegaraviy masala: yagona yechimga ega; yechimga ega emas; bir nechta yoki cheksiz ko'p yechimga ega bo'lishi mumkin [5].

Ko'p jarayonlarning matematik modeli Bernulli tenglamasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu $y'+P(x)y=Q(x)y^n$ (1) ko'rinishidagi tenglamani Bernulli tenglamasi deyiladi. Bu yerda $P(x)$ va $Q(x)$ – biror J intervalda aniqlangan uzluksiz funksiyalar. (1) tenglamada $n \in \mathbb{R}$ va $n \neq 0, n \neq 1$ deb faraz qilamiz, chunki $n=0$ va $n=1$ da u chiziqli tenglamaga aylanadi. (1) tenglamani quyidagi usul bilan chiziqli tenglamaga keltirish mumkin:

tenglamani har ikki tomonini y^{-n} ga ko'paytiramiz, ya'ni $y'y^{-n} + P(x)y^{1-n} = Q(x)$. (2) So'ng $z = y^{1-n}$ almashtirish bajaramiz. U holda $z' = (1-n)y^{-n}y' \Rightarrow \frac{z'}{1-n} = y'y^{-n}$. Buni (2) tenglamaga qo'ysak, z ga nisbatan chiziqli differensial tenglama hosil bo'ladi: $\frac{z'}{1-n} + P(x)z = Q(x) \Rightarrow z' + (1-n)P(x)z = (1-n)Q(x)$. Bundan $z=z(x, C)$ umumiy yechimni topgan holda Bernulli tenglamasining umumiy integralini aniqlaymiz: $y = [z(x, C)]^{\frac{1}{1-n}}$.

Misol: $x \frac{dy}{dx} - 4y = x^2 \sqrt{y}$ differensial tenglamani umumiy yechimini toping. Bu tenglamani har ikki tomonini x ga bo'lamiz. Natijada $\frac{dy}{dx} - \frac{4}{x}y = x\sqrt{y}$ bo'lib, bu Bernulli tenglamasidir. Bu yerda $P(x) = -\frac{4}{x}$, $Q(x)=x$, $n = \frac{1}{2}$ ga teng.

```
Maple dasturi
> restart;
> p:=x->-4/x;g:=x->x;n:=1/2;
g := x -> x
> Bernoulli_ode:=diff(y(x),x)+p(x)*y(x)-g(x)*y(x)^n;
Bernoulli_ode := (d/dx y(x)) - 4 y(x)/x - x sqrt(y(x))
> with(DEtools,odeadvisor); [odeadvisor]
> odeadvisor(Bernoulli_ode);
[[_homogeneous, class G], _rational, _Bernoulli]
> with(PDEtools,dchange); [dchange]
> ITR:={y(x)=u(z)^(1/(1-n)),x=z};
ITR := {x = z, y(x) = u(z)^2}
>
new_ode:=dchange(ITR,Bernoulli_ode,[u(z),z]):new_ode2:=s
olve(new_ode,{diff(u(z),z)}):op(factor(combine(expand(new_
ode2),power)));
d/dz u(z) = 1/2 * 4 u(z)^2 + z^2 * sqrt(u(z)^2) / z u(z)
> ans:=dsolve(Bernoulli_ode);
ans := sqrt(y(x)) - (1/2 ln(x) + _C1) x^2 = 0
```

Natijalar va muhokama. Differensial tenglamalarni yechimini Maple dasturida analitik hamda sonli ko'rinishda topish mumkin. Maple dasturida oddiy differensial tenglamalarni analitik usulda yechish uchun dsolve (eq, var, options) komandasi ishlatiladi, bu yerda eq-tenglama, var-no'malum funksiya, options-parametrlar. Parametrlar oddiy differensial tenglamalarni analitik usulda yechish usulini ko'rsatishi mumkin, masalan, sukut saqlash prinsipiga asosan, analitik yechim olish uchun type=exact parametri beriladi. Olingan analitik yechimda C-o'zgarma son qatnashadi. Yuqoridagi misolda bitta o'zgarma son qatnashadi. O'zgarma sonni Maple dasturida _C1 ko'rinishida yoziladi. Demak umumiy yechimda ixtiyoriy o'zgarma son qatnashar

ekan bitta differensial tenglamani bir necha funksiyalar qanoatlantirishi mumkin. Agar differensial tenglamani berilgan boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish talab qilinsa, uning yechimi sonli usullar yordamida izlanadi va natija aniq sonlarda bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytsak, Maple matematik paketi yordamida matematik masalalardan tashqari boshqa texnik fanlar masalalarini ham analitik va grafik ko'rinishlarda yechish mumkin. Bundan tashqari Maple ko'plab mexanizmlarni harakatini ko'rsatish, animatsiyalarini hosil qilish uchun juda qulay dasturlash vositasi hisoblanadi. Maple

sistemasini maktablar va oliy o'quv yurtlarida chuqurroq o'rganilsa, faqat matematika masalalarini emas boshqa fanlarning murakkab masalalarini ham ixcham dasturlar orqali yechish mumkin bo'ladi. Bunda o'quvchi va talabalar masalaning mohiyatiga yetish, ularning grafiklari va animatsiyalarini yaqqol ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maple elektron hujjatlarni tayyorlash va grafik vizuallashtirish vositalariga ham ega. Maple kompyuter matematikasini chuqur o'rganish dasturchiga turli fan va texnika masalalarini yechishda katta imkoniyatlar ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 06.11.2020. PF-6108-son O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. O'rinov Q., Mirzakarimov E.M. Differensial tenglamalar Maple tizimida. "Farg'ona" nashriyoti-2020(Differential equations in the Maple system. "Fergana" publishing house 2020).
3. Mirzakarimov E.M. Maple dasturi yordamida oliy matematika masalalarini yechish. O'quv qo'llanma. 1-qism Toshkent. "Adabiyot uchqunlari", 2014-yil. (Solving higher mathematics problems using the Maple program. Tutorial. Part1 Tashkent. "Sparks of Literature", 2014).
4. Mamarajabov M.E. Ixtisoslashgan dasturiy vositalar. Toshkent-2019 (Specialized Software Tools. Tashkent 2019).
5. Abdurashidov A. Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni "o'q otish usuli bilan sonli yechish". Uslubiy ko'rsatmalar. Samarqand. SamDU. 2016-yil("Numerical solution of boundary value problems for ordinary differential equations by the shooting method").
6. Soatov Yo.U. Oliy matematika. Darslik. 4-qism. "O'qituvchi" nashriyoti. 2017(Higher mathematics. Textbook. Part 4. "Teacher" publishing house. 2017).



UDK: 355.1:151:17.022.01.(575.1)

Lochinbek RAVSHANOV,

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi "Ilmiy tadqiqot" ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig'i, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.

O'zMU Psixologiya kafedrasini mudiri, psix.f.d., prof. D.G.Muxamedova taqrizi asosida

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF POSITIVE IMAGE FORMATION IN COMMANDER

Annotation

In this article, the socio-psychological determinants of the formation of a positive image of commanders in the Ministry of Defense system were analytically described. Emphasis was placed on the socio-psychological determinants of the image. Achieving high results through the development of socio-psychological determinants of the image of commanders was justified.

Key words: Commander, officer, patriot, professional training, determinant, military unit, military discipline, military image, psychological image, socio-psychological image, military rank, professional dedication.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ИМИДЖА КОМАНДИРА

Аннотация

В данной статье аналитически описаны социально-психологические детерминанты формирования положительного имиджа командиров в системе Министерства обороны. В ней внимание уделялось социально-психологическим детерминантам имиджа. Обосновано достижение высоких результатов за счет развития социально-психологических детерминанты имиджа командира.

Ключевые слова: Командир, офицер, патриот, профессиональная подготовка, определитель, воинская часть, воинская дисциплина, воинский имидж, психологический имидж, социально-психологический имидж, воинское звание, профессиональная преданность.

KOMANDIRLARDA IJOBIY IMIJ SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mudofaa vazirligi tizimidagi komandirlarda ijobiy imij shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari tahliliy bayon etildi. Unda imijning ijtimoiy-psixologik determinantlariga urg'u berildi. Komandirlardagi imijning ijtimoiy-psixologik determinantlarini rivojlantirish orqali yuqori natijalarni qo'lga kiritish asoslandi.

Kalit so'zlar: Komandir, ofitser, vatanparvar, kasbiy tayyorgarlik, determinant, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy qiyofa, psixologik qiyofa, ijtimoiy-psixologik qiyofa, harbiy unvon, kasbiy fidoyilik.

Kirish. Dunyo davlatlarida amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ayniqsa, siyosiy sohalarda ko'zlatilayotgan keskin o'zgarishlar, insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi hamda ularning kasbiy faoliyatiga ta'sir etib, bu sohalarda jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shu bois, bugungi kunda har bir soha fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, innovatsion g'oyaga boy, ijtimoiy faol, yangicha boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan, optimist, mustqil fikrga ega, o'ziga ishongan kabi sifatlariga ega rahbarlarga ehtiyoj sezmoqda. Bu holat harbiy xizmat faoliyatining subyektlari uchun muhim hisoblanib, ijobiy imijning ijtimoiy-psixologik determinantlari bilan shakllangan harbiy rahbar-komandir uchun har qanday sharoitda muvaffaqiyatga erishish garovi hisoblanadi. Harbiy xizmat har doim harbiy rahbar-komandirdan liderlik, o'ziga ishonch, mustaqillik, g'ayratlilik, aqliy yetuklik, kasbiy kompetentlik, qat'iyatlik, mardlik, jasurlik kabi imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan shakllanganligini talab etishi tabiiy. Bundan tashqari, harbiy rahbar-komandirning ijobiy imij fenomeni harbiy topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida bajarish, qo'l ostidagi bo'ysinuvchi harbiy xizmatchilarni mohirona boshqarish, harbiy jamoa uchun doim namunali rahbar bo'la olish, har qanday murakkab sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilish, topshiriqlarni bajarilish holatini to'g'ri tashkil eta olish kabilarni ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik sifatlardan shakllanganligidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi L.Rossning aniqlashicha, imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik sifatlariga ega rahbarlar har xil qobiliyatlarga ega bo'lishadi. Shuningdek, o'z xatti-harakatlarini qiyin vaziyatlarga tez moslashtira oladilar va shu orqali jamoaning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi, shunda u vazifani bajarishga birinchilardan yordam beradigan shaxs sifatida tan olinadi[1]. Demak, rahbarning imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik sifatleri bilan shakllanganligi nafaqat o'zining balki, u rahbarlik qilayotgan guruhning faoliyatiga ta'sir qilar ekan.

Bu borada tadqiqotchi V.Poznyakov olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, rahbar imijning quyidagi ijtimoiy-psixologik determinantlarini ta'kidlab o'tadi[2]:

Guruh muammolarini hal qilishda yuqori faollik va tashabbuskorlik;

Guruh a'zolari va hal qilinayotgan muammolar haqida xabardorlik yoki umumiy vaziyatga nisbatan sezgirlik;

Guruhning boshqa a'zolariga ta'sir o'tkazish qobiliyati egaligi;

Guruhda qabul qilingan munosabatlar, qadriyatlar va meyorlarga maksimal darajada rioya qiluvchi;

Guruhga mos keladigan aniq shaxsiy fazilatlar ega a'zolaridan biri ekanligi va hokazo. Mazkur tasniflardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, vaziyatlarga yaxshi moslashgan insonlar boshqalarga qaraganda ancha yetakchi rahbarlar sanaladi. Shu bilan birga, ustunlik va liberalizm kabi xususiyatlar ham imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik

determinantlari hisoblanadi. Rahbarning shaxsiy fazilatlariga guruhda rivojlanayotgan ijtimoiy-psixologik munosabatlarga asoslanadi.

Ta'kidlash joizki, harbiy rahbar-komandir ishtirok etishi mumkin bo'lgan jangovar harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog'lar, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xizmatchilarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotchi A.G.Maklakovning fikricha, harbiy rahbar-komandirlarning harbiy faoliyatini aqliy jihatdan tartibga solish mexanizmi, xususan, subyektning ushbu faoliyatga kasbiy muvofiqligi, ya'ni kasb imijining ko'p bosqichli va nihoyatda dinamik tizimi ekanligini ta'kidlaydi[3]. Demak, harbiy rahbar-komandirni har qanday faoliyatining pirovardida kasb imijining namoyon bo'ladigan, tashqi va ichki kuzatilgan hatti-harakatlari va faoliyat natijalariga erishish darajasining ko'rsatkichlari ortida motivlar, maqsadlar, rejalar, va boshqa tarkibiy qismlarni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarning ulkan va juda murakkab tizimi yotar ekan. Yevropa tadqiqotchisi A.D.Larsonning ta'kidlashicha, harbiy rahbar-komandir faoliyatini boshlagan ilk davrlari bilan oradan o'n yoki o'n besh yil o'tgandan keyingi faoliyat jarayoniga e'tibor qaratisa, o'tgan davrda ularning shakllanganligini katta tafovutini ko'rish mumkinligini e'tirof etgan[4]. Buning asosiy sababi, imijning ijtimoiy-psixologik determinantlari bo'lgan tajriba, izlanish, o'qish va o'rganish komponentlari harbiy-kasbiy faoliyatidagi rivojlanishiga balki uning intellektual salohiyati, motivlari, ehtiyojlari, maqsadlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Janubiy Kaliforniya universiteti professori H.R.Atuyelning ta'kidlashicha, harbiy rahbar-komandirlarda imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini takomillashtirishning yana bir muhim jihati – bu harbiy-kasbiy mahoratni shakllantirish hisoblanadi[5]. Xulosa qilib aytganda, harbiy-kasbiy mahorat ko'p jihatdan imij subyektining kasbiy tayyorgarligi kabi tizimli xususiyat va holatlarni aks ettiradi chunki, u subyektning qobiliyat darajasi, intilishlari, maqsadlari hamda o'ziga xos dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchi A.V.Moshenkonning ta'kidlashicha, oliy harbiy ta'lim muassasalarida shakl va mazmun jihatidan samarali ya'ni, imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllantiradigan, o'quv jarayonini kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradigan, ta'lim subyektlarini faollashtirishga keng imkon beradigan bo'lajak harbiy rahbar-komandirlarda yangicha tafakkurini rivojlantiradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish – bugungi kun talablaridan biridir[6]. Bu jarayon keyinchalik, harbiy xizmat faoliyatida komandirlik majburiyati muammolarini hal qilish, harbiy jamoa faoliyatini boshqarishda nostandart qarorlar qabul qilish, bo'ysinuvchi harbiy xizmatchilar bilan to'g'ri munosabatlarni amalga oshirish kabi imijning ijtimoiy-psixologik determinantlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rus olimi S.A.Drujilovning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, harbiy xizmatda imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini belgilovchi, o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishda quyidagilar hisobga olinadi[7]:

Bo'ysunishga asoslangan kursantlar guruhi va harbiy pedagoglarning o'zaro aloqalari;

Qurolli kuchlar nizomlari, qo'mondonlik buyruqlari va turli meyoriy hujjatlarda belgilangan intizomiy tartib qoidalar;

O'qish vaqtini qat'iy tartibga solish, jumladan mashg'ulotlarga faqat mashg'ulot guruhlari ya'ni, belgilangan tarkibning kirishi va unga qo'yilgan maxsus vaqt;

Maxsus fanlarning ayrim mavzularini o'rganishdagi maxfiylik rejimiga qo'yiladigan cheklovlar;

Harbiy-kasbiy faoliyatning zamon talabiga asosan shiddat bilan o'zgarib borayotganligi hamda yuqori harbiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish bilan bog'liq shart-sharoitlar va hokazo. Demak, bo'lg'usi harbiy rahbar-komandirlardagi imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hozirgi, zamonaviy harbiy xizmat maqsadi va vazifalariga mos bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bo'lg'usi harbiy rahbar-komandirlardagi imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarining shakllanishini ta'minlovchi omillar sifatida, oliy harbiy ta'lim muassasasidagi o'qish va yashash uchun yaratilgan qulay sharoitlar ham kiritiladi. Natijada, har tomonlama imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlariga ega bo'lg'usi harbiy rahbar-komandirlarni tayyorlash bilan bog'liq xizmatlarning garovi hisoblanadi. Tadqiqotchi V.A.Voloshinning ta'kidlashicha ko'ra, muvaffaqiyatli harbiy rahbar-komandir ijobiy imij determinantlarining asosi sifatida quyidagi shaxslilik sifatlarini ajratadi[8]:

Harbiy jamoaning ijtimoiy hayotiga bo'lgan faollik;

Yuqori kasbiy tayyorgarlik, harbiy majburiyatlar va burchlarni chuqur bilish, yuksak harbiy-texnik tayyorgarlikka egalik;

O'z kasbiga sadoqat, xizmat vazifalariga mas'uliyatlilik;

Poklik, halollik, rostgo'ylik, mehnasevarlik, kamtarlik, kundalik hayotda va oilada o'zini munosib tutish;

Tashkilotchilik qobiliyati, samaradorlik salohiyati, amaliy tajriba, innovatsiyalarni o'z vaqtida sezish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati;

Intizomlilik, mehnasevarlik, fidoyilik, tashabbuskorlik, chidamlilik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlilik, jasorat, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklarni sabot bilan yengish qobiliyati;

Xushmuomalalik, yuqori talabchanlik, ehtiyotkorlik, adolat va xizmatdoshlariga hurmat, empatiyaga moyillik va hokazo.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, harbiy rahbar-komandir ijobiy imijning ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllanishining psixologik omillar sifatida, kundalik tadbirlarni rejalashtirish va ta'minlash, belgilangan xizmat vazifalarni bajarish uchun, shaxsiy tarkibni safarbar eta olish, jamoaviy tadbirlarni tartibga sola bilish, shaxsiy tarkibni uyushtira olish, ularning jangovar ruhini oshira olish, jamoada yagona intizomni o'rnatish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish kabilar ham kiritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Harbiy rahbar-komandir imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini R.Kettellning "Kattalar shaxsini o'rganish 16 RF (A variant)" psixologik metodikasining quyidagi kirishimlilik (A), intellektuallik (B), hissiy barqarorlik (C), yetakchilikka intilish (E), beg'amlik (F), ijtimoiy meyorlarga rioya qilish (G), ijtimoiy dadillik (H), ta'sirchanlik (I), shubhalanuvchanlik (L), hayoliy timsollari boy (M), murasokorlik (N), bezovtalilik (O), yangilikka sezgirlik (Q1), mustaqillik (Q2), o'zini o'zi tartibga solish (Q3), zo'riqqanlik (Q4), xavotirlanish (F1), ekstroversiya-introversiya (F2), sezgirlik (F3), komformlik (F4) kabi 20 ta yetakchi omillarning miqdoriy hamda shaxs komponentlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlashga harakat qildik. Aniqlangan 20 ta omillardan, yuqori koeffitsiyentga ega bo'lgan yetakchi 6 ta omillar aniqlandi. Mazkur 6 ta yetakchi omillar harbiy rahbar-komandir imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlashning uslubiy ta'minotini ifodalab berishga imkoniyat yaratdi.

Tahlil va natijalar. Harbiy rahbar-komandir faoliyat uchun birinchi yetakchi omil "intellektuallik" (0,642 V), "hissiy barqarorlik" (0,563 C), "yetakchilikka intilish" (0,618 YE), "beg'amlik" (-0,542 F) "xavotirlanish" (0,556 F1) va

“ekstroversiya-introversiya” (0,685 F2) dan iborat. Ushbu omilni “Harbiy rahbar-komandirning yetakchilikka intilish omili sifatida” nomlash mumkin. Ikkinchi faktorda “o’zini o’zi tartibga solish” (0,687 Q3) dan iborat yuqori yuklamali omil kuzatildi. Ushbu omilni “Harbiy rahbar-komandirning regulyativlik qobiliyati faktori” deb nomlash mumkin. Harbiy rahbar-komandirlar uchun o’zining xatti-harakatlarini tartibga solishi, nazorat qilish va ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilishni taqozo etadi. Uchinchi omilda birigina yuqori vaznli, ya’ni “kirishimlilik” (0,544 A) aniqlandi. Bu esa, harbiy rahbar-komandirning kommunikativ xususiyatlarini aks ettirmoqda. Demak, harbiy rahbar-komandirlarda ham ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun yuqori darajada kommunikativ sifatlarini kamol topishi muhim hisoblanar ekan. Ushbu omilni “Harbiy rahbar-komandirning kommunikativlik qobiliyati faktori” deb atash mumkin. Ushbu omil harbiy rahbar-komandirning shaxslararo munosabatlarda samimiy tutishi, atrofda qilargalarga nisbatan e’tiborli, yengil moslashuvchanligini ifodalaydi. To’rtinchi omilda esa, “ijtimoiy meyorlarga rioya qilish” (0,578 G), “konformlik” (0,556 F4) dan iborat yuqori yuklamali omillar aniqlandi. Ushbu omilni umumiy holatda “Harbiy rahbar-komandirning mas’uliyatlilik faktori” deb nomladik. Harbiy rahbar-komandirlar uchun mas’uliyatlilik muhim harbiy-kasbiy sifat hisoblanadi. Beshinchi omilda esa “ijtimoiy dadillik” (0,712 N), “hayoliy timsollari boy” (0,585 M) iborat yuqori yuklamali omillar aniqlanib, mazkur omilni “Harbiy rahbar-komandirning innovatsion yaratuvchanlilik faktori” deb nomladik. Mazkur omilning mohiyatiga ko’ra, harbiy rahbar-komandirdan o’z kasbiy faoliyatiga nisbatan innovatsion

yondoshuvligini ta’minlaydi. Oltinchi faktorda esa bir nechta yuqori yuklamali “yangilikka sezgirlik” (0,552 Q1), “mustaqillik” (0,581 Q2) va “sezgirlik” (0,684 F3) kabi omillar aniqlandi. Ushbu omilni ma’nosiga ko’ra, “Harbiy rahbar-komandirning faollik va tahlil qiluvchanlik faktori” deb nomlandi. Mazkur omilning mohiyatiga ko’ra, harbiy rahbar-komandirni o’z xizmat majburiyatiga nisbatan faol, barqarorlik, vaziyatlarni tahlil qiluvchan, qat’iyatlilik va ma’lumotlarni aniq tushunib yetishini taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Harbiy rahbar-komandirlardan olingan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ularning berilgan so’rovnomalarga nisbatan mulohazalari faktorli analiz mezoni bo’yicha shkalalarning ahamiyatli ravishda farqli namoyon etishi ularning harbiy-kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, harbiy jamoa komandiri imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlari bilan ifodalanishi ayni muddao hisoblanadi. Yetuk harbiy rahbar-komandir harbiy qism maqsadlarini bo’ysinuvchi harbiy xizmatchilar manfaati bilan uyg’unlashtirgan holda boshqaruv jarayonini tashkil etishi lozim hisoblanadi. Aynan shu omil, ayniqsa, harbiy xizmat faoliyatidagi yuqori malakali harbiy rahbar-komandirni xizmat obro’si ko’tarilishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Harbiy rahbar-komandirning imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlariga ega bo’lishi tabiiy hamda ijtimoiy muhit ta’sirida ro’yobga chiqadi hamda ijtimoiy-psixologik omillarga bog’liq bo’lib, obyektiv va subyektiv aloqalar ustida shakllanadi. Imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik determinantlarini rivojlanishi har jihatdan yetuk harbiy rahbar-komandir sifatida shakllanishiga muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Росс Л., Человек и ситуация (уроки социальной психологии) Текст. / Росс Л., Нисбетт Р. М.: Аспект Пресс, 1999 г. – С. 77.
2. Позняков В.П., Психологические отношения и деловая активность. М.: Изд-во ИП РАН, 2001 г. – С. 89.
3. Маклаков А.Г., Психология и педагогика. Военная психология / Маклаков А.Г. – СПб.: Питер, 2007. – С. 96.
4. Larson A.D., Military professionalism and civil control: a comparative analysis of two interpretations // Journal of Political & Military Sociology. – 2004. – P. 72.
5. Atuel H.R., Military cultural competence // Clinical Social Work Journal. – 2018. – Т. 46. – №. 2. – P. 81.
6. Мошенко А.В., Психологические особенности принятия решения в экстремальной ситуации. М.: Управление военного образования Сухопутных войск, 1995. – С. 33.
7. Дружилов С.А., Психология профессионализма: Инженерно-психологические аспекты: Учеб. пособие. - Новокузнецк: Сиб. гос. индустр. ун-т, 2000. – С. 88.
8. Волошин В.А., Общество. Культура. Цивилизация: учебно-методическое пособие / Волошин В.А., Татаринцев В.Г., Филиппенко А.М. - Курган: Изд-во Курганского пограничного института, 2007. – С. 111.



UDK:316.453-053.81(575.1)

E'tibor RAJAPOVA,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi,
E-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

ToshDAU dotsenti, falsafa doktori (PhD) M.Aytboyev taqrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY- HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada, Tadbirkorlikning umuminsoniy, umumijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida qaralishi, u milliy- hududiy jihatlardan mosuvo emasligi hamda tadbirkorlarni hududiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlaridagi faol ishtiroki, tadbirkorlarga turli, ya'ni soliqlar hajmini qisqartirish, kreditlar ajratish, yer va mulklar ajratish, mulkiy huquqlarini himoya qilish, tovarlarini tashqi va ichki bozorlarga olib chiqishda yordam berish kabi masalar tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: texnika vositalar, imtiyozli kreditlar, klassifikatsion toifalar, subsidiya va investitsiyalar kiritish, texnoparklar tashkil etishga yo'naltirish, xorijiy kompaniyalar, mahalliy hokimiyat, tadbirkor, soliq, subsidiya, kredit foizlari, kompensatsiya, kafillik berish, infratuzilma.

НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье предпринимательство рассматривается как универсальная, социально-экономическая реальность, оно не равнозначно национально-территориальным аспектам, а активное участие предпринимателей в региональных процессах социально-экономического и культурного развития, снижение различных налогов на предпринимателей, выделение кредитов, выделения земли и имущества, изучаются вопросы собственности, такие как защита прав, помощь в экспорте товаров на внешние и внутренние рынки.

Ключевые слова: техническое оснащение, льготные кредиты, классификационные категории, субсидии и инвестиции, ориентация на создание технопарков, иностранные компании, местное самоуправление, предприниматель, налог, субсидия, проценты по кредиту, компенсация, гарантия, инфраструктура.

NATIONAL-TERRITORIAL CHARACTERISTICS OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

In this article, entrepreneurship is considered as a universal, socio-economic reality, it is not equal to national-territorial aspects, and the active participation of entrepreneurs in regional socio-economic and cultural development processes, reduction of various taxes to entrepreneurs, allocation of loans, allocation of land and property, ownership issues such as protection of rights, assistance in export of goods to foreign and domestic markets are studied.

Key words: technical equipment, preferential loans, classification categories, subsidies and investments, orientation to the establishment of technological parks, foreign companies, local government, entrepreneur, tax, subsidy, loan interest, compensation, guarantee, infrastructure.

Kirish. Tadbirkorlik umuminsoniy, umumijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida qaralsa- da, u milliy-hududiy jihatlardan mosuvo emas. Aynan ushbu milliy-hududiy jihatlarini tufayli u mahalliy muammolarni (masalan, yoshlarni ish bilan band etish, ularni kasb-korga tayyorlash, o'zini farovon yashashga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash) hal etishning muhim imkoniyati hisoblanadi. Tadbirkorlik to'g'risida tadqiqotlar olib borilgan, mahalliy hokimiyat bilan aloqalarining huquqiy jihatlarini o'rganilgan bo'lsa-da, yoshlar tadbirkorligini hududiy kesimlarda klassifikatsiya qilish masalasi hal etilmagan. Bizda ko'pincha "kichik biznes" va "xususiy tadbirkorlik" degan umumiy xususiyatga ega atamalar ishlatiladi, biroq ular voqeliklarga klassifikatsion yondashuv emas. Hatto yoshlar tadbirkorligining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini, tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga ta'rif berilmagan. Iqtisodiy rivojlanishga oid statistik ma'lumotlarda ham yoshlar tadbirkorligi alohida yo'nalish, ijtimoiy mehnat turi sifatida keltirilmaydi, shu bois yoshlar tadbirkorligi dinamikasi aniqlash (hududiy belgi). O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaat bilan chiqish qilib, o'z nutqida yoshlarni qo'llab-

quvvatlash dolzarb ekanligi to'g'risida alohida to'xtalib o'tdi va 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholining sog'lig'ini mustahkamlash yili" deb e'lon qilishni taklif qildi [1]. Ushbu taklif jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xuddi shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha kun oldin O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqida ham yoshlarimizni "O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini" deb ta'rifladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar tadbirkorligi 2016-yili qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi qonunda yoshlarni ish bilan band etish, ularning tashabbuslari va mehnat faolligini qo'llab-quvvatlash tarzida tilga olinadi. Keyingi yillarda yoshlar siyosatiga oid 5 ta qonun, Prezidentimizning 7 Farmoni va 14 qarori, 2 Farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23 farmoni va 4 farmoyishi qabul qilindi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba 30-iyun Yoshlar kuni, 20-avgust Tadbirkorlar kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Oliy Majlis Senatda Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Tadbirkorlar huquq va erkinliklarini himoya qilishga

qaratilgan Biznes Ombudsman, Innovatsiya vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi, Yoshlar parlamenti, Yoshlar agentligi, mahallalarda 9 500 nafar yoshlar yetakchisi lavozimi tashkil etildi. O'rtta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlar bilan ishlovchi tyuterlar joriy etildi. Yoshlar tadbirkorligi qo'llab-quvvatlash uchun keyingi ikki yilda 147 ming yoshning loyihalari uchun 4 trillion 400 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi, 560 ming nafariga dehqonchilik uchun yer maydonlari ajratib berildi.

Xalq bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yish maqsadida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonlari va Virtual qabulxonasi, joylarda biznes markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga "yo'l xaritalari", sektorlar, "mahallalar kesimida ishlash", "xalq ichiga kirish", "aholi dardiga quloq solish", "odamlarning dardiga sherik bo'lish", "yoshlarni ish bilan band etish, bo'sh vaqtini uyushtirish" kabi tamoyillar joriy etildi. "Yoshlar-kelajagimiz", "Besh tashabbus" kabi 20 dan ziyod ijtimoiy dasturlar ishlab chiqildi, barcha mahalla, tuman va qishloqlarda manzilli ishlashning yangi tizimi "Yoshlar daftari", "Xotin qizlar daftari" kabi ish usullari yo'lga qo'yildi, natijada 5 million oiladagi muammolarga yechim topildi, yoshlar ish bilan band etildi [3].

Hududlarda yoshlar tashabbuslari, innovatsion g'oyalari va ishbilarmonligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Loyihalar fabrikasi" ishga tushirildi, shahar, tuman, viloyat va Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlar lavozimi joriy qilindi. Yoshlar bilan muloqotni uzluksiz yo'lga qo'yish uchun "Yoshlar qabulxonlari" tashki qilindi, ularga tajribali, ma'naviy tarbiyaviy ishlarni olib borishga layoqatli mutaxassislar jalb etish yo'lga qo'yildi.

"Yoshlar-kelajagimiz" dasturi bo'yicha yoshlarning 7 690 ta biznes loyihaga jami 1 trillion 614 milliard so'm kredit ajratildi, natijada 39 577 ta ish o'rinlari yaratildi. Dastur doirasida yoshlarning 30,2 milliard so'mlik 57 ta loyihasi kafillik taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko'maklashildi. Bugun hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" kovoring markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi, 24 ta Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi tashkil qilindi. Birgina 2021 yilning o'zida "Yoshlar daftari" jamg'armalarida 167 milliard 539 million so'm mablag' shakllantirildi. Ushbu mablag'lar hisobidan 34 ming 253 nafar yosh tadbirkor qo'llab quvvatlanib, ularga jami 42 milliard 371 million so'm ajratildi. Tadbirkorlikka qiziquvchi xotin qizlarga biznesi (navbatdagi xududiy belgi)ni boshlashi uchun 33 million so'mgacha mikro kreditlar ta'minotsiz, mikro firma va kichik korxonalar ta'sislariga 225 million so'mgacha mikro kredit ajratildi. 125 ming yoshni tadbirkorlikka o'qitish, ularni kasb- korli qilish uchun esa 50 million AQSh dollari ajratilgan.

"Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan yoshlarni uy sharoitida daromad topishga chorlovchi "Uyda qol-foйда ol!" onlayn tanlovi o'tkazildi. Unda 35 ming yosh qatnashgan, ulardan 36 tasi mukofotlanishga sazovor bo'lgan. Jamg'arma tomonidan 8 mingdan ortiq videodarslar joylashtirilgan maxsus o'quv portali yaratilib, tarqatilgan [4]. Shu bilan birga, mutaxassislar fikricha, O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat ichki resurs va imkoniyatlardan foydalanishga, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi muammolarga ham bog'liqdir.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori O.Hakimovning ta'kidlashicha, bugun dunyoda, ayniqsa g'arb davlatlarida iqtisodiy faollikning pasayishi, tashqi savdo, logistika, oziq ovqat va xomashyo narxlarini, energiya bilan ta'minlash kabi qator muammolar yuzaga kelmoqdaki, ular tadbirkorlikka salbiy ta'sir etmoqda. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun "yana qo'shimcha 6 milliard dollar sarmoya kerak. Tadbirkorlardan 1,5 tasi soliq

ma'muriyatchiligi, byurokratiya kabi to'siqlarga duch kelayotganidan o'z faoliyatini davom ettirmayapti. Tadbirkorlik uchun sharoitlar barcha tuman va shaharlarda ham bir xil emas. Buni yaqinda joriy etilgan hududlarning investitsiyaviy reytingi yaqqol ko'rsatib berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tuman va shaharlarda tadbirkorlikni teng rivojlantirishni ta'minlash uchun har bir hudud uchun alohida yondashuvlar zarur. Infratuzilmaga ulanish, yer va joy ajratish masalalari bo'yicha biznes vakillarining ko'plab muammolari hal etilmasdan turibdi. Mulk daxlsizligi, tadbirkorlik faoliyatiga aralashish ham biznes vakillarini jiddiy tashvishga solmoqda. Kichik va o'rtta biznes tushunchalari, ularni qo'llab-quvvatlashning alohida choralari ishlab chiqilmagan" [5]. Faqat 2021-yilning birinchi yarmida Bosh vazir qabulxonasiga tadbirkorlardan 37 379 ta murojaat tushgan. Murojaatlarda keltirilgan masalalarning 39 778 tasi (59, 6%) tuman va shaharlar 13 206 tasi (33, 2%) viloyatlarga tegishlidir. Bosh vazir qabulxonlari orqali tadbirkorlarning ijro uchun yuborilgan murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan 547 nafar (105 nafari mahalliy hokimiyat organlari, 325 nafari bank muassasalari, 117 nafari tashkilot va idoralarning) mas'ul rahbar va xodimlariga nisbatan chora ko'rilgan. Ularning 359 nafariga hayfsan, 106 nafariga maoshdan ushlab qolish jarimasi qo'llanilgan, 64 nafari lavozimidan ozod qilingan, 18 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan [6]. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 22-avgust kuni Xalqaro kongress markazida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot uyushtirib, sohada yangicha yondashuvlar yetmayotganini, mavjud muammolarni hal etishda avvalo mahalliy hokimiyat, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga da'vat etilgan institutlar, organlar va tuzilmalar xalqni rozi qilish uchun ahil izlanishlari kerakligini ta'kidlaydi. Bu borada u beshta yo'nalishni ilgari suradi. Birinchi yo'nalishga korxonalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish, tadbirkorlarga klassifikatsion yondashuv lozim. Ya'ni yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan korxonalar mikro biznes, 10 milliard so'mgacha bo'lgani kichik biznes, 100 milliard so'mgacha bo'lgani o'rtta biznes toifasiga kiritiladi. Ha, bu mutlaq yangicha yondashuv. Shu paytgacha biz "kichik biznes" va "xususiy tadbirkorlik" degan tushunchalarni takrorlash bilan yashab keldik, endi ular yangicha klassifikatsiya qilinayapti. To'g'ri, Prezidentimizning ushbu taklifi ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi va uning parametrlari ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Mikro biznes nima, kichik biznesning undan farq qiladigan jihatlari nimalardan iborat? O'rtta biznes sub'ektlarini faqat topadigan daromadlari, aylanmalariga qarab belgilash ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan qanchalik real holatga muvofiq keladi? Bunday klassifikatsion yondashuvning boshqa parametrlari ham bormi, bor bo'lsa, ular nimalardan tashkil topgan? Ammo davlatimiz rahbari shu paytgacha to'siq, muammo bo'lib kelgan klassifikatsion yondashuv (buni umummilliy belgi deyish mumkin)ni boshlab berdi, bu borada tadbirkor va biznes sub'ektlarini muhazalaroga chorladi. Prezidentimiz bu borada avvalo moliyaviy-iqtisodiy jihatga urg'u berar ekan, tadbirkorlarni aylanmalariga qarab farqlash soliqlar to'lashda yengilliklar yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Masalan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizidan 25 foizigacha bo'lgan stavkalari o'rni yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etiladi. Uzoq hududlardagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizli stavkalar saqlanib qolinadi. Agar bu tadbirkorlar ixtiyoriy ravishda yiliga 20 30 million so'm to'lasa, buxgalteriya hisobini yuritish va soliq idoralarga taqdim etish majburiyatdan ozod qilinadi. Aylanmasi 1 milliard so'mdan oshib, umumiy soliq to'lash tartibiga o'tgan tadbirkorlar bir yil davomida foyda solig'ini 2 baravar kam



UDK: 316:37.018.11-053.6

Munira RAUPOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsent
E-mail: [gmail:muniraraupova@gmail.com](mailto:muniraraupova@gmail.com)

Navoiy davlat pedagogika instituti p.f.d, (DSc) D.H.Narzuqulova taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI HUQUQIY IJTIMOYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada huquqiy ishtimoiylashtirishning mazmun mohiyati, huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifalari, huquqiy ijtimoiylashtirish omillari hamda huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlari tushunchalari yoritib berilgan. Jamiyat a'zosi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishda huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlari kasbiy maqomni takomillashuvini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: huquq, ijtimoiy, huquqiy ijtimoiylashtirish, huquqiy munosabat, shaxs, kasbiy maqom, mega omil, makro omil, meza omil, mikro omil, mexanizm, pedagogik mexanizm.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРАВОВОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье раскрываются содержание правовой социализации, задачи регулирования правоотношений, факторы правовой социализации, концепции педагогических механизмов правовой социализации. Текст научной работы на тему педагогические механизмы правовой социализации в повышении социальной активности будущих учителей как членов общества, обеспечивающих повышение профессионального статуса.

Ключевые слова: право, социальное, правовая социализация, правовая установка, личность, профессиональный статус, мегафактор, макрофактор, мезафактор, микрофактор, механизм, педагогический механизм.

PEDAGOGICAL BASIS OF LEGAL SOCIALIZATION OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article describes the content of legal socialization, the tasks of regulating legal relations, the factors of legal socialization, and the concepts of pedagogical mechanisms of legal socialization. Pedagogical mechanisms of legal socialization in increasing the social activity of future teachers as members of society ensure the improvement of professional status

Keys words: right, social, right socialization, right institution, personality, professional status, megafactor, macrofactor, mezafactor, microfactor, mechanism, pedagogical mechanism.

Kirish. Ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirish barobarida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuv masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxsni huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi uning turmush tarzi va hayotidagi barcha muammolarni hal qilishga ko'maklashadi.

Huquqiy ijtimoiylashtirish dinamikasida vorislik nafaqat jamiyatning huquqiy normalariga mos keladigan ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, balki ushbu normalardan xabardorlik darajasi yuqori bo'lishi lozim.

Bu jarayonning boshlanishi bolalikda ijtimoiy xulq-atvor normalarini, odamlarning ijtimoiy va axloqiy taqirlari va talablari bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatini o'zlashtirishdir. Keyinchalik huquqiy ijtimoiylashtirish yanada aniq shakllarga ega bo'ladi: bu voyaga etgan shaxs huquqiy munosabatlarning to'la huquqli ishtirokchisiga aylanganda va o'z huquqlarini mustaqil ravishda himoya qilish, boshqa odamlar bilan ijtimoiylashgan munosabatlarga kirishish zarurati bilan duch kelganida sodir bo'ladi. Jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishda inson insoniylik fazilatlarini milliy shaxs sifatida milliy individuallik orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'z xalqiga xos bo'lgan ma'lum belgilar, ma'nolar, qadriyatlarining semantik sohasida o'z millatining munosib vakili sifatida tarbiyalanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Sifatli ta'lim va tarbiya bevosita ijtimoiylashuvning ijobiy munosabatlar mahsulini hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning huquqiy-pedagogik jihatlari bekosita muhit, o'qish, o'qitish va

tarbiya bilan bog'liq bo'lib inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadigan jarayon hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatni boshqarish, voqea hodisalarga huquqiy jihatdan to'g'ri, ob'ektiv munosabatda bo'lish-bu huquqiy ta'lim tarbiya asosida huquqiy-pedagogik ijtimoiylashuvning natijasidir.

Metodlar. Jamiyatda ta'lim taraqqiyoti natijasida fanlar aro integratsiyaning takomillashuvi jarayonida pedagogika fani va sohalariga bir qancha yangi-yangi atamalar, tushunchalar kirib kelmoqda. Ana shunday tushunchalardan biri "huquqiy ijtimoiylashuv" atamasi bo'lib, ushbu atama "huquqiy" va "ijtimoiylashuv" so'zlarining birkmalaridan tashkil topgan. "Huquqiy" huquqqa oid tushuncha bo'lib, tartib-intizom, tarbiya rioya qilish kabi huquqqa xos degan ma'noni anglatadi. "Ijtimoiylashuv" kategoriyasi o'zbek tilining izohli lug'atida "ijtimoiy" tus olmoq, "umumlashmoq" ma'nolarini ifodalash bilan bir qatorda muayyan darajada huquqiy jihatdan faollashishni ham anglatadi. E.Dyurkgeym "ijtimoiylashuv" tushunchasini jamoa ongining faoliyat yuritish muammolari, eng avvalo, ijtimoiy me'yor va an'analarning avlodan-avlodga o'tishi bilan bog'laydi.

Ijtimoiylashuv kontseptsiya doirasida M.Veber ijtimoiy rag'batlantirish va majburlash yordamida jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarni shaxsga singdirish orqali asosan, ixtiyoriy va institutsional sotsializatsiyani amalga oshirishini ajratib ko'rsatadi. T.Parsons esa

ijtimoiylashuv tushunchasini individning funksional moslashuv jarayoni deb tushunadi.

Aksariyat zamonaviy sotsiologlar tomonidan ijtimoiylashtirishni jamiyatda o'z strategiyalarini ishlab chiqadigan shaxslar va jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni deb bilishadi. Masalan, G.Rosh ijtimoiylashuv deganda "shaxs o'z muhitining ijtimoiy-madaniy unsurlarini idrok etishi va o'zlashtirishi, ularni muhim ijtimoiy omillar ta'sirida o'z shaxsiyati tarkibiga qo'shishi va shu orqali ijtimoiy muhitga moslashishi jarayoni"[5,149] deb ta'riflaydi. Ijtimoiylashuv o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsda me'yoriy ong va xulq-atvoriga ega bo'lish, o'zboshimchalikni cheklash, o'zgalarni hurmat qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni, bir so'z bilan aytganda, odob-axloqni shakllantirish tizimli jarayoni hisoblanadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv esa – bu shaxs tomonidan huquqiy bilimlar, qadriyatlar va normalar tizimini o'zlashtirish jarayoni, buning natijasida shaxs ijtimoiy va huquqiy jihatdan hayotga muvaffaqiyatli moslashadi.

"Huquqiy ijtimoiylashuv" atamasi fanda XX asrning 60-yillarida qo'llanila boshlandi. Amerika huquqiy psixologiya maktabining namoyondalari "Huquqiy ijtimoiylashtirish" hamda "ijtimoiylashtirish" tushunchalarini semantik mazmunidan kelib chiqib, yoshlarni huquqiy ongini shakllantirish jarayoni deb talqin qilishadi. Huquqiy jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi hayotning ijtimoiy sharoitlari, odamlar, ijtimoiy munosabatlar va turli faoliyat bilan o'zaro uzviylikda amalga oshiriladi.

V.N. Kudryavsev, V.P.Kazimirchuklar huquqiy ishimoiyashuv shaxsning, fuqaroning o'zining ijtimoiy rolini, ijtimoiy tuzilmadagi o'rnini to'liq anglashi, jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglashda ijtimoiy – huquqiy munosabatlarda shaxsiy mazmuning rivojlanib borishi bilan izohlashadi.

Huquqiy ijtimoiylashtirishning uch turi o'rganish orqali ijtimoiylashtirish, tajriba o'tkazish orqali ijtimoiylashtirish va "ramziy ijtimoiylashtirish" ni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'rganish orqali ijtimoiylashtirish – bu ta'lim orqali ijtimoiylashtirish bo'lib, elementar huquqiy bilimlarni egallash va tegishli normalarni o'zlashtirish hisoblanadi.

Natijalar. Tajriba o'tkazish orqali ijtimoiylashtirish – o'zining va boshqa odamlarning tajribasida ijtimoiylashtirish o'z xatolarini va o'z tajribasidagi voqealarni, shuningdek, atrofdagi odamlarning hayotiy tajribasini tushunish natijasida yuzaga keladi.

"Ramziy ijtimoiylashtirish" -ramziy ijtimoiylashtirish shaxsning huquq, davlat, mamlakat, millat haqidagi o'ziga xos mavhum g'oyalarga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy ijtimoiylashuv tushunchasi jarayon sifatida ifodalaniib, shaxsni muayyan shakllanish darajasidan kelib chiqqan holda huquqiy munosabatlarga kirishish o'quv va darsdan tashqari faoliyatda egallagan huquqiy kompetensiya, huquqiy bilim, huquqiy voqelikka nisbatan ongli pozitsiya saqlagan holda, insonlar va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda kundalik va kasbiy faoliyat doirasida ijtimoiy va huquqiy tajribani amalga oshirish vazifasi deb ham ifodalangan.

Funksional jihatdan shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

-ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish;

-huquqiy bilimlarni ichki bilimga e'tiqodga aylantirish;

-o'z qarashlari, o'z e'tiqodlarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish;

-huquqiy voqelikka munosabat bilimlarini amalga oshirish;

-amaliy jihatdan ijtimoiy va huquqiy tajriba tadbirlarini amalga oshirish.

Huquqiy ijtimoiylashtirish jarayoniga ko'plab omillar ta'sir etadi. Bu omillar ijtimoiylashtirish omillariga o'xshash shartli ravishda to'rt guruhga bo'linadi.

-mega omillar (kosmos, sayyora, dunyo);

-makro omillar (mamlakat, etnik guruh, jamiyat, davlat)

-mezo omillar (tuman, shahar joylashish joyi, mansubligi bo'yicha ajralib turadigan katta guruhlarining ijtimoiylashuvi);

-mikro omillar (to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi omillar, oila, mahalla va h.k)

Shaxsning ijtimoiy-huquqiy shakllanishi – ijtimoiy muhitning tashqi ta'siri, ta'lim, tarbiya ta'sirida shaxs yoki uning har qanday jihatlari, fazilatlarining maqsadli rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti va ob'ekti sifatida kasbiy maqomga ega bo'lish jarayoni bilan ham izohlanadi.

Kasbiy maqom – ma'lum ijtimoiy rol ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lgan kasbiy munosabatlarning ijtimoiy o'zaro bog'liqligidagi o'rnini ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotchilar kasbiy xususiyatlarni shaxsning eng muhim ijtimoiy-madaniy mavqeiga bog'laydilar. Demak, bo'lajak pedagoglar jamiyatning boshqa a'zolari bilan munosabatlarni tartibga solish uchun zarur huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lgan holda, nafaqat ular bilan samarali o'zaro aloqada bo'lishi, balki o'ziga yuklangan ijtimoiy rolni muvaffaqiyatli bajarib o'z mavqeini mustahkamlab borishi mumkin bo'ladi.

Jamiyatda o'qituvchi shaxsning "huquqiy ijtimoiylashuvi" turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator pedagogik mexanizmlar asosida amalga oshadi. Ma'lumki, "mexanizm" tushunchasi fanlararo ta'rif bo'lib, uning ma'nosi qo'llanilish sohasiga qarab o'zgaradi. Ilmiy va pedagogik tadqiqotlarda "mexanizm" tushunchasiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi o'zaro bog'liq elementlar to'plami sifatida qaraladi[4, 400-403].

Pedagogik mexanizmlar pedagogik sababdan (ta'sir, ta'sir qilish) pedagogik oqibatga o'tishdagi tabiiy o'zgarishlardir. Pedagogik ta'sirlar ta'sirida o'quvchilar va o'qituvchilarning ongi, xulq-atvori, shaxsiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar: eshitgandan anglash va eslab qolishgacha, bilimdan e'tiqodgacha, ko'nikmadan odatgacha, harakat va odatlardan – sifatlargacha, kasbiy mahoratdan kasbiy madaniyatgacha rivojlanishi pedagogik mexanizmlarning tizimli tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Pedagogik mexanizmlar sabab va oqibat, pedagogik ta'sir va natija o'rtasida ishlaydi. Ko'pincha ulur psixologik va pedagogik xususiyatga ega bo'lib, uni tushunish pedagogik ta'sirni tanlashda unga tayanish, uning "operatsiyasi"ni tartibga solish pedagogik ishning eng nozik qismidir. Kasbiy faoliyatning tizimli tuzilishida inson – inson munosabatlarning ongli va maqsadli bajarilishi hisobiga pedagogik mexanizmlar yotadi. Kasbiy faoliyatning tizimli tuzilishi va faoliyati asosida inson va jamiyat hayotidagi pedagogik voqelik, pedagogik hodisalarining asosiy tizimli turlari- ta'lim, tarbiya, o'qitish, rivojlanish bilan ifodalaniadi. Ularning har biri o'ziga xos pedagogik faktlar, qonuniyatlar va mexanizmlarga ega.

Munozara. Shuni aytish mumkinki, "mexanizm" tushunchasi pedagogik adabiyotlarda shaxsning ma'lum bir qobiliyati yoki sifatini shakllantirishning o'zaro bog'liq tizimi va jarayonlarini tavsiflash uchun faol qilinadi. Voqelikning har bir murakkab hodisasi singari, mexanizm ham statik, ham dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, ular birgalikda harakatlar, murakkab o'ziga xos funkcionallik va ko'p o'lchovli jarayonlar majmuasini ifodalaydi. A.V. Suyushkov "mexanizm tushunchasini" tushunish uchun quyidagi qo'shimcha fikrni aytib o'tgan. Pedagogik mexanizm – bu

ma'lum bir boshlanishi va natijalarining o'zaro bog'liqligiga ega bo'lgan ko'p darajali o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq jarayonlarning yaxlit tizimidir[2]. O'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ishtimoiylashtirish mexanizmi pedagogik strategini amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagicha tavsiflanadi:

-pedagogik tizim funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydigan barcha elementlarning majmui;

-moddiy-texnik, tashkiliy, boshqaruv va ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishni ta'minlaydigan sub'ektlar va vositalar;

-bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini huquqiy, ilmiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashda professor-o'qituvchilarning faoliyat tizimidir [3].

Bo'lajak pedagoglarni huquqiy ijtimoiylashtirishni amalga oshirish mexanizmi konsepsiyasining ana shunday talqilaridan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmini amalga oshirishda – rejalashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy amalga oshirish imkoniyatini belgilaydigan o'qituvchining pedagogik maqsad va unga erishish vositalari haqida ishlab chiqilgan g'oyalarga mos keladigan, ilmiy-huquqiy natijaga yo'naltirilgan harakatdir.

Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarni huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlarining umumiy ko'rinishi quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

- bo'lajak pedagoglarni huquqiy ijtimoiylashtirish yaxlitligini ta'minlashda o'zaro bog'liq elementlarning umumiylikini;

- bo'lajak pedagoglarni huquqiy ijtimoiylashtirishni amalga oshirishga qaratilgan o'ziga xos ajralmas harakatlar majmui sifatida;

-bo'lajak pedagoglarni huquqiy ishtimoiylashtirish uchun moddiy-texnikaviy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy pedagogik yo'nalish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishni ta'minlaydigan barcha elementlar va vositalarni belgilash va ishlab chiqishning aniqligini;

- bo'lajak pedagoglarni huquqiy ishtimoiylashtirishni pedagogik mexanizmini tashkil etuvchi elementlarning integratsiyalashuvini sinergik ta'sirini;

-bo'lajak pedagoglarni huquqiy ishtimoiylashtirishni pedagogik mexanizmining dinamikligi, bu o'qituvchining rejalashtirilgan harakatlar majmuasini amaliy amalga oshirish imkoniyatini;

bo'lajak pedagoglarni huquqiy ishtimoiylashtirishni pedagogik mexanizmining funksional yo'nalishi, bu pedagogik maqsad va unga erishish vositalari haqidagi ishlab chiqilgan g'oyalarga mos keladigan, huquqiy natijaga yo'naltirilganligini belgilaydi.

Xulosa o'rinida shuni aytishimiz mumkin-ki, bo'lajak pedagoglarni huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlarni amalga oshirishga qaratilgan vazifalarnig bajarilishi, huquqiy pedagogik bilimlarni nazorat qilish uchun vositalar, usullarning to'g'ri tanlanishi, pedagogik soha vakillari oldiga turgan maqsadga erishishga imkon beradi. Huquqiy ijtimoiylashtirish jarayonida shaxsning keng ijtimoiy kontekstga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi, uning fuqarolik jamiyati va davlat faoliyatida to'liq ishtirok etishga o'tishi sodir bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiklangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi», 1-ilovasi, 9-bandi
2. Сужиншов А.В. Педагогические аспекты формирования механизмов иноязычного речевого дежательности на основе устного речи: дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. Саратов, 2000.
3. Ивочкина Т.Н. Научно-педагогическое сопровождение - механизм реализации стратегии развития образовательного учреждения // Проблемы современного образования. 2012. № 3. С. 104-109
4. Торгунскажа Н.Л. Условижа и механизми реализаци педагогических инноваций в образовании // Известия Рос. гос. пед. ун-та им. А.И. Герцена. 2007. № 32, т. 11. С. 400-403.
5. Цит. по: Individu et societe. Introduction a la sociologie / R. Campeau, M. Sirois, E. Rheault, N. Dufort. 2 ed. Montreal; Paris; Casablanca, 2008. P. 149



UDK: 510/510.2

Gulora RAXIMOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:raximovagulora1976@gmail.com

URDPI kafedra mudiri, Phd. Nafasov D taqrizi asosida

INTERNATIONAL STUDY OF THE QUALITY OF MATHEMATICAL AND NATURAL SCIENCE EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION.(TIMSS)

Аннотация

The article discusses the international study of the quality of mathematical and Natural Science education (Trends in Mathematics and Science Study, TIMSS) – periodic monitoring of the quality and trends in the development of mathematical and natural science areas of national education systems.

Keywords: TIMSS, mathematical literacy, natural science literacy, international studies, special document "TIMSS Assessment Frameworks and specifications", requirements of the TIMSS standard, ETS.

МЕЖДУНАРОДНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КАЧЕСТВА МАТЕМАТИЧЕСКОГО И ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.(TIMSS)

Аннотация

В статье рассматривается международное исследование качества математического и естественнонаучного образования (Trends in Mathematics and Science Study, TIMSS) – периодический мониторинг качества и тенденций развития математического и естественнонаучного направления национальных систем образования.

Ключевые слова: TIMSS, математическая грамотность, естественнонаучная грамотность, международные исследования, специальный документ "TIMSS Assessment Frameworks and specifications", требования стандарта TIMSS, ETS.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIK VA TABIIY FANLAR TA‘LIMI SIFATINI BAHOLASH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOT.(TIMSS)

Аннотация

Maqolada matematik va tabiiy fanlar ta'limi sifatini xalqaro o'rganish (Trends in Mathematics and Science Study, TIMSS) — milliy ta'lim tizimlarining matematik va tabiiy fanlar yo'nalishi sifati va rivojlanish tendentsiyalarini davriy monitoring qilish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: TIMSS, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi, xalqaro tadqiqot, "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications" maxsus hujjati, TIMSS standarti talablari, ETS.

Kirish. Maktab matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi (inglizcha – TIMSS – Trends in Mathematics and Science Study) – bu dastur bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidan tashkil qilingan (IEA). Ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta‘limning 4-sinf o‘quvchilari va 8-sinf o‘quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta‘lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Ushbu tadqiqot 4 yilda bir marta o‘tkaziladi. Shu kunga qadar 6 marta o‘tkazilgan. 1995, 1999, 2003, 2007, 2011 va 2015 yillarda.

1995 yildan 3 marotaba (oxirgisi 2015 yilda) maktab bitiruvchilarining (Rossiyada 11-sinf, AQShda -12-sinf) yutuqlarini aniqlashni o‘z ichiga olgan holda kengaytirilgan tadqiqot ishlari (Advanced TIMSS) olib borilgan.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta‘limi sifatiga solishtirma baho berish. Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining ta‘lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko‘nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo‘lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta‘limga bo‘lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o‘quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo‘sinda

maktabning boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dastlabki adabiyotimiz “Timss xalqaro tadqiqotining mamlakatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati,-deb nomlanadi. Bu kitob boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo‘llanma sifatida ishlab chiqilgan.Unda tadqiqotning

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim sohasiga kirib kelishining sabablari aytilgan. Bu tadqiqot 2023- yilga mo‘ljallangan bo‘lib, davlatimiz bu loyihada 1-marta ishtirok etadi. Shu sababli unga alohida ishtiyok bilan tayyorgarlik ko‘rish zarur. Chunki rivojlangan davlatlar aynan xalqaro tadqiqotlarda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishadi.Keyingi metodik qo‘llanma “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash”. Undan matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassisleri metodik qo‘llanma sifatida foydalanishi mumkin.Bu kitobda matematikaga oid masalalar, ularning yechimlari va mantiqiy fikrlash bosqichlari berilgan. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash o‘quv qo‘llanmasi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, soha mutaxassisleri uchun metodik qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-

yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etdi. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialni takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o'sishining eng muhim omillari hisoblanmoqda.

Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlari va xalqaro tashkilotlari uchun dolzarbdir. Shu munosabat bilan innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo'ljallangan baholash tizimi mavjudligi katta ahamiyatga ega. Bunday baholash tizimlari sifatida obro'li xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan xalqaro reyting tizimlari qo'llanilmoqda.

Tadqiqot o'tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta'limning mazmun mohiyati va o'quv jarayoni, ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning oilalari bilan bog'liq omillar qo'shimcha o'rganiladi. Xalqaro testga qo'shimcha bo'lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma'muriyati, o'quvchilar va o'qituvchilar so'rovnomanadan o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar test natijalariga ya'ni o'quvchilarning bilimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga, tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarning matematika va tabiiy fanlarning holatini ko'rsatib berishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda va majmua ishlanmasida dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari va professional tashkilotlar ishtirok etadi. Ta'lim sohasidagi test xizmatlari: (ETS- Educational Testing Service SSHA), Kanadaning statistik markazi (Statistics Canada), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining Sekretariati (IEA, Niderland(gollandlar)lar), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlar markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya) va hokazo. Turli davlat mutaxassislarining koordinatsiyasini kuchaytirish uchun dunyoning yetuk mutaxassislaridan iborat bo'lgan maslahat qo'mitalari tashkil etildi. Hozirgi tadqiqot koordinatsiyasi Boston kollejida xalqaro koordinatsiya markazi tomonidan amalga oshirilgan. (ISC – International Study Center, Boston College SSHA)

Rossiyada ushbu tadqiqot (ta'lim sifatini baholash markazi) Rossiya ta'lim akademiyasining fan, ta'lim mohiyati va uslubi instituti xamda fan va ta'lim vazirligi va regionlarning ta'lim boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

TIMSS tadqiqotini ishlanmasiga asos qilib maxsus hujjat olingan "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications", unda ushbu yo'nalishlarga umumiy yondashgan holda matematika va tabiiy fanlarga test va test topshiriqlariga tushuncha berilgan, shuningdek o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlari namoyish etiladi, so'rovnoma davomida olinayotgan ma'lumotlar o'quvchiga, o'qituvchiga va ta'lim muassasiga berilgan tariflarning sanab o'tilgan turlari va topshiriqlari ko'rsatiladi.

Matematika va tabiiy fanlarni baholash bo'yicha TIMSS tadqiqoti ta'lim samaradorligini monitoring qilishda qimmatli manba hisoblanadi, chunki, odatda, STEM deb nomlanadigan tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika o'quv dasturining asosiy yo'nalishidir. Shubhasiz, hatto bugungi kunga ham ko'pgina ish o'rinlari uchun matematika va tabiiy fanlardan asosiy tushunchalarga ega bo'lish talab qilinadi va bu kelajakda ham o'z dolzarbligini

yo'qotmaydi. STEM kasblarida ishlaydiganlar ochlikka qarshi kurash va yashash joylarining yo'qolishi kabi dunyo muommolariga yechim topish, shuningdek, global iqtisodiyotda o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga mas'uldirlar.

Shuningdek, matematika va tabiiy fanlar kundalik hayotning asosi hisoblanadi. Tabiiy fanlar- bu tabiat, jumladan, bizning ob-havo, yer va suv, oziq-ovqat va yoqilg'i manbalarimiz. Matematika bizga kundalik vazifalarni bajarishga yordam beradi va biz tayanadigan kompyuter, smartfon, televizor kabi texnologiyalarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

60 dan ortiq mamlakatlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari: **bilish, qo'llash, mulohaza yuritish** baholanadi.

"**Bilish**" bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va

diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar,

tabiiy-ilmiy atamalar va o'lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

"**Qo'llash**" ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

"**Mulohaza yuritish**" ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin

Tahlil va natijalar. TIMSS & PIRLS xalqaro o'rganish markazining TIMSS 2019ni ishlab chiqish, amalga oshirish va natijalarini hisobot qilish uchun foydalanilgan usul va tartiblari haqidagi texnik hisobotda (Maykl O. Martin, Matias fon Davier va Ina V.S. Mullislar) TIMSS 2019 ga o'tishning dastlabki bosqichi bo'lgani uchun turli xil texnik qiyinchiliklar mavjud edi. eTIMSSga, qariyb yarim mamlakatlar baholashni kompyuter orqali boshqaradi, qolgan mamlakatlar esa qog'oz va qalam formatidan foydalanadi. Shunday qilib, TIMSS 2019 baholash va so'rovnomalari "e" va qog'oz formatlarida ishlab chiqildi va boshqariladi. Keyinchalik, yutuqlarni masshtablashtirishga ko'p qirrali yondashuv TIMSS shkalasi bo'yicha har ikkala mamlakatlar to'plami uchun taqqoslanadigan tendentsiyalar haqida hisobot berishga imkon berdi. TIMSS 2019 muvaffaqiyati barcha ishtirokchilarga, jumladan, TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi, IEA Amsterdam, IEA Gamburg, Statistics Canada hamda ishtirokchi mamlakatlardagi Milliy tadqiqot koordinatorlari va ularning jamoalariga berilgan hurmatdir. 2023-yilda IEA va TIMSS & PIRLS xalqaro o'quv markazi to'rtinchi va sakkizinchi sinflarda TIMSS (Xalqaro matematika va fanlarni o'rganish tendentsiyalari) sakkizinchi siklini o'tkazib, o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlari bo'yicha qariyb 30 yillik trend ma'lumotlarini taqdim etadi.

TIMSS 2023 TIMSS ning TIMSS 2019 bilan boshlangan raqamli baholashga o'tishini yakunlaydi, bu texnologiya maktablar va jamiyatda keng qo'llanilishini aks ettiradi. TIMSS 2023 baholashlari o'quvchilarni rag'batlantiradigan va raqamli muhitdan foydalanadigan yangi

va jozibador element formatlari, interfaol xususiyatlar hamda ssenariy asosidagi muammolarni hal qilish va so'rov vazifalarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, TIMSS tadqiqotida o'quvchilar, ularning ota-onalari yoki vasiylari, o'qituvchilari, maktab direktorlaridan ularning uydagi va maktabdagi faoliyati hamda matematika va tabiiy fanlarni o'rganishdagi shart-sharoitlar haqidagi so'rovnomalarni to'ldirishlari so'raladi. So'rovnomalalar puxta ishlab chiqilgan qamrov doirasiga muvofiq holda tuziladi, u TIMSS milliy tadqiqot koordinatorlari va TIMSS so'rovnoma savollarini ko'rib chiqish qo'mitasining xalqaro ekspertlari tomonidan takroriy ko'rib chiqishlar orqali har bir baholashda yangilanadi. Ushbu so'rovnomalardan olingan ma'lumotlar ta'limni yaxshilash yo'llarini taklif eta oladigan va muhim masalalarni ko'tara oladigan ta'lim siyosati va amaliyotlarining amalga oshirilishi haqida tasavvur hosil qiladi.

TIMSS tadqiqotida o'zlashtirish dinamikalarini muntazam baholashga, mazmun sohasi va ta'lim olish uchun kontekstlarda paydo bo'ladigan muammolarga e'tibor qaratiladi hamda samarali usul va faoliyat ishtirokchi mamlakatlarda ta'limga oid qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TIMSS tadqiqotida o'zlashtirish to'g'risida olingan ma'lumotlar bilan kontekstli so'rovnomalalar shkalalari birgalikda quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin:

- tizim darajasidagi o'zlashtirish dinamikalarini global kontekstda monitoring qilish;
- TIMSS tadqiqotlari natijalaridan ta'lim siyosatini yurituvchilarni xabardor qilish va yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan siyosatning samaradorligini monitoring qilishda foydalanish;

- Past natija ko'rsatayotgan har qanday hududlarni aniqlash va o'quv dasturlarini isloh qilishni rag'batlantirish;
- o'tgan davriylikdagi to'rtinchi sinf kogortasi keyingi davriylikda sakkizinchi sinfda qanday ishlashini kuzatish;
- uy va maktabda ta'lim olish va ta'lim berish sharoitlariga bog'liq holda o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirishlari haqidagi muhim ma'lumotlarni olish.

Xulosa va takliflar. 4- va 8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlarning nazariyasidan foydalaniladi (inglizcha, ruscha). Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini (so'rovnoma asosan) aniqlab beradi.

Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Statistik o'rganishlar natijasida har bir o'quvchini 1000 ballik shkala bo'yicha baholab, matematika va tabiiy fanlarga alohida ballar beriladi.

1995 yilda xalqaro shkalalar 4-va 8-sinflarda o'rnatilgan. Bunda tadqiqotda ishtirok etgan davlatlarning o'rtacha bali 500 ball deb hisobga olingan. Keyingi tadqiqot natijalari 1995 yilgi shkala bo'yicha o'rnatilmoqda, bu natijalarni solishtirishga va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. IEA, TIMSS&PIRLS International Study Center, Boston. College, 2005. 28. TIMSS 2007 Encyclopedia: A Guide to Mathematics and Science Education round the World 22 страницы
2. Краснянская К.А., Рыдзе О.А. Инновационные задания по математике для начальной школы в международном исследовании TIMSS // Отечественная. 25 страниц
3. Ковалева Г.С., Результаты международного исследования TIMSS-2011 // Вопросы образования, 2012
4. Blum, W., & Ferri, R.B. (2009). Journal of Mathematical Modelling and Application, 1(1), 45-58.
5. Gerdes, P. (1996). Ethnomathematics and Mathematics Education. In BISHOP, A.J. et al.(eds.). International Handbook of Mathematics Education. Kluwer Academic Publishers, Dordrecht/ Boston/ London, 909-943.
6. Grønmo, L. S., Kjærnsli, M., & Lie, S. (2004). Looking for cultural and geographical factors in patterns of response to TIMSS items. In C. Papanastasiou (Ed.), Proceedings of the IRC-2004 TIMSS (Vol. 1, pp. 99-112). Nicosia: Cyprus University Press.
7. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Arora, A. (2012). TIMSS 2011 International Results in Mathematics. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
8. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" 997-son 08.12.2018.//http://lex.uz/docs/4097073.
10. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti – TIMSS & PIRLS International Study Center.
11. <https://www.timss.org/>



UDK:796.08:378(575.1)

Mirzoxid RAXMATILLAEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail; mrxmatillaye@gmail.com
Mirzaraxim ROZIBOEV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi
E-mail; mirzo.0709@gmail.com

O'zDJTSU dotsenti Sh.F. Tulaganov PhD taqrizi asosida

CHECKING THE LEVEL OF PHYSICAL-TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF GENERAL STUDENTS OF THE SPORTS FACULTY IN HANDBALL

Abstract

In this work, great importance is attached to the physical development and physical, technical and tactical training of handball players, as well as the application of development methods in practice. The effectiveness of the means and methods for ensuring the physical and technical-tactical training of handball players was determined by physical and technical-tactical training.

Key words: sports games, handball players of the general category, circuit training, general physical training.

ПРОВЕРКА УРОВНЯ ФИЗИКО-ТЕХНИЧЕСКОЙ И ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ОБЩИХ СТУДЕНТОВ СПОРТИВНОГО ФАКУЛЬТЕТА ПО ГАНДБОЛУ

Аннотация

В этой работе большое значение придается физическому развитию и физической, технической и тактической подготовке гандболистов, а также применению методов развития на практике. Эффективность средств и методов обеспечения физической и технико-тактической подготовки гандболистов определялась физической и технико-тактической подготовкой.

Ключевые слова: спортивные игры, гандболисты общего разряда, круговая тренировка, общая физическая подготовка.

SPORT O'YINLARI FAKULTETI UMUMIY BOSQICH TALABALARINING GANDBOL SPORT TURI BO'YICHA JISMONIY TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK DARAJASINI TEKSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu ishda gandbolchilarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligi hamda amaliyotda rivojlantirish uslubiyotlarini qo'llanishga katta ahamiyat qaratilgan. Gandbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini ta'minlash uchun vosita va uslublarini samaradorligini jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligi bilan aniqlandi.

Kalit so'zlar: sport o'yinlari, umumiy bosqich gandbolchilari, aylanma mashg'ulot, umumiy jismoniy tayyorgarlik.

Kirish. Umumiy jismoniy mashqlarni bajarish, harakat ishini boshqaradigan, mexanizm takomillashishiga yordam beradi. Harakat markazi uzoq muddat davomida bir hildagi impulslarni yuborish va qabul qilishga moslashadi. Uzoq muddatli mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanish natijasida mushaklarda yuzaga keladigan o'zgarishlar morfologik va biokimyoviy hususiyatlar bilan belgilanadi[2,4,5].

Ulardagi moddalar almashinuvi jarayoni, bajarilayotgan ish darajasiga moslashadi. Bunday mashg'ulotlarni bajarishda vegetativ organlarda yuzaga keladigan o'zgarishlar ayniqsa yurak - qon tomirlari va nafas organlari termoregulyatsiyasi takomillashishi kuzatiladi. Bu holat asosan nerv gumoralregulyatsiyasi orqali boshqariladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashda sport mashg'ulotlarini uslublari: standart o'zgaruvchan, kombinatsiyalashgan, aylanma mashg'ulot, musobaqa va mahsus umumiy jismoniy tayyorgarlik, sport turlari talabiga qarab bajariladi va o'yin uslublaridan foydalaniladi[6,9].

Ishning maqsadi: Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich gandbolchilarni umumiy jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish.

Ilmiy izlanish o'z ichiga xar xil vazifalarni olgan.

1. Mavzuga ta'luqli adabiyot manbaalaridan foydalanish.

2. Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich gandbolchilarni jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini aniqlash.

3. Tajribadan keyin gandbolchilar natijasini qiyoslab tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzu bo'yicha xorij olimlarining fikriga ko'ra, L.P. Matveevning kuzatuvlariga qaraganda sport turlarining jahon chempionati ishtirokchilarining musobaqa davomida ijro etgan tehnik malakalari o'z samarasini keskin susaytirgan. Ushbu vaziyat ana shu sport o'yin turlari ishtirokchi sportchilarning mahsus chidamliligi yuqori darajada shakillanganligiga e'tibor qaratadi [7,8].

O'zbek olimlari Pavlov Sh.K., Akramov J.A., Abduraxmonov F.A va boshqalar tezkor-kuch va mahsus mashqlar sifatlarini rivojlantirishga mashg'ulotlar bilan uzoq muddat mobaynida muntazam shug'ullanish natijasida gandbolchilarning tehnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli shakillanishi mumkinligini tadqiqot asosida isbot qilib berganlar [1,2,4,5].

Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich gandbolchilarni mashg'ulotida turli shiddatlarda umumiy jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirish: Mashg'ulot jarayonini 60% ni umumiy jismoniy tayyorgarlik va qolgan 40% ni texnik-taktik tayyorgarlik tashkil etadi. Gandbol o'yinida umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish o'yin texnikasi va taktikasini tarbiyalashga olib

keladi. Tehnikani mukammal bajarishga fundament yaratib beradi [4].

Tadqiqot ishlari asosan, 2021-2022 yillar davomida "O'zDJTSU" Sport o'yinlari fakultetining umumiy bosqich talabari bilan o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra "O'zDJTSU" Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich talabalarini 12 ta talaba nazorat guruhlar qatoriga kiritildi. 12 ta talabalar aniq jismoniy sifatlarni rivojlanishi bo'yicha (jismoniy rivojlanishi, jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligi) tajribadan o'tdi. Olib

borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi, oldingi olingan natijalar solishtirildi hamda matematik statistika usullari bilan olingan ma'lumotlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zgaruvchan mashg'ulot «fartleka» turi bo'yicha o'tkaziladi uzunligi bo'yicha turli masofalar turli tezliklarda bosib o'tiladi, yoki bir hil kesmalarni navbat bilan yuqori va past tezlikda bosib o'tiladi. Masalan, konkida 10 davra yugurishda, 1 davra tez -1 davra past o'zgaruvchan tezlikda o'tiladi.

1-Jadval

Yosh gandbolchilarning tadqiqot va nazorat guruhlarida chidamlilikni tarbiyalash (1600 metrga yugurish).

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	R
Tajriba	1600 m	6.45±0.03	6.00±0.16	2.8	<0.05
nazorat	(daq. soniya)	6.45±0.03	6.23±0.05	2.03	>0.05

Yosh gandbolchilarni tezkor-kuch sifatlari "turgan joyda uzunlikka sakrash" va "bir daqiqada arg'amchida sakrash" testlari orqali aniqlandi.

Tekshiriluvchi gandbolchilarda qayd etilgan tezkor-kuch ko'rsatgichlari;

2-jadval

Tezkor-kuchlilik sifatlarni tarbiyalash (dastlabki va tajribadan keyingi ko'rsatgichlar).

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	R
tajriba	Turgan joydan uzunlikka sakrash	175.6±1.67	184.5±1.93	2.97	<0.05
nazorat		172.7±0.41	174.1±0.40	2.24	<0.05

3-jadval

Bir daqiqada arg'amchida sakrash

(mashqlarni tajribagacha va tajribadan keyingi ko'rsatgichlari).

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	R
Tajriba	Bir daqiqada arg'amchida sakrash	91±0.97	108±1.06	3.46	<0.01
nazorat		69.08±1.01	80±1.14	3.25	<0.01

Gandbolchilarning chaqqonlik sifatini ko'rsatuvchi "4x10 metrga mokisimon yugurish" testi bo'yicha sportchilarning o'rtacha ko'rsatgichi 9.02 soniyaga teng bo'ladi.

4-jadvalda "4x10 metrga mokisimon yugurish" testi bo'yicha sportchilarni o'rtacha ko'rsatgichi 9.02 soniyaga teng bo'lsa, tadqiqot guruhidagi o'quvchilarning o'rtacha ko'rsatgichi 9.02 soniyaga teng bo'ladi.

Gandbol sport turiga hos bo'lgan barcha holatlar harakatlar (tehnika-taktik malakalar xujum va himoya hamda qarshi usullarini qo'llash) ning yuqori darajada shakillangan bo'lishi va ular tezkor-kuch asosida ijro etilishi musobaqa olishuvlarida g'alabaga erishish garovidir.

4-jadval

Natijalar muhokamasi

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	P
Tajriba	4x10 metrga yugurish	9.08±0.47	9.05±0.67	2.87	<0.05
nazorat		10.02±0.02	9.07±0.04	2.85	<0.05

Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich gandbolchilarning kuch sifatlarni o'rganish maqsadida talabalarining jismoniy tayyorgarligi mahsus testlar orqali nazorat qilinadi.

5-jadvalda berilgan ma'lumotlar;

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki «1 kg to'pni uloqtirish» testi bo'yicha baholanadigan qo'llarning

5-jadval

Tadqiqot natijalari ko'rsatgichlari.

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	R
Tajriba	1 kg to'pni uloqtirish	12.00±1.05	13.15±0.70	0.91	>0.05
nazorat		10.01±1.10	11.17±0.92	0.81	>0.05

Sportchilarning tezkorligini aniqlash maqsadida 30 metrga yugurish testi qo'llaniladi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki gandbolchilarning tezkorlik sifatini o'rtacha ko'rsatgichi 10.01

6-jadval

Tadqiqot natijalari ko'rsatgichlari

Guruhlar	Testlar	X±m	X±m	T	r
Tajriba	60 metr yugurish.	8.9±0.34	8.7±0.58	3.46	<0.01
nazorat		9.07±0.27	9.04±0.45	4.32	<0.05

Xulosa va tavsiyalar. 1. Adabiyotlar tahlilini ko'rsatishicha umumiy jismoniy, texnik - taktik tayyorgarlik bu yosh sportchilarning jismoniy sifatlarni har tomonlama garmonik ravishda rivojlanishi sportdagi natijalarni o'sishiga olib kelishini ko'rsatilgan.

2. Gandbolchilarni umumiy jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishda chidamlilikni tarbiyalash

soniyaga teng bo'lsa, nazorat guruhidagi ko'rsatgich 22 % foizni ko'rsatdi.

Nazorat va tadqiqot guruxlari o'rtasida statistik farq yo'q.

3. Chidamlilikni tarbiyalashda takroriy intervalli maksimal quvvatda (2-10 daqiqa) bajarish tajriba guruxlarni t-student. 2.8 daq. 18.4-r <0.001 statistik farq bilan rivojlanganligi aniqlandi.

4. Tezkor-kuchlilik sifatini tarbiyalashda dinamik kuchlanish uslubidan foydalanish, ya'ni mashqlarni maksimal tezligini 30 % ga o'g'irlilik bilan bajarganda, natijalarni yuqori darajada o'sganligi isbotlandi.

5. Chaqqonlik sifatini tarbiyalashda faol, sust va aralash usullardan foydalanish tajriba guruhidagi yosh sportchilarni natijalarini oshganligi $t=2.97-3.25$ r <0.01 statistik farqli ravishda rivojlanishga olib keldi.

6. Sport o'yinlari fakuleti umumiy gandbolchilarda kuch sifatini rivojlantirishda «qayta kuchlanish» uslubidan foydalanib mashg'ulot o'tkazish kuchni yuqori darajada o'sishini isbotlaydi.

7. Tezkorlik sifatini tarbiyalashda ishlatilgan vositalar statistik farq qilmaganligini sportchilarda statistik farqli ravishda o'sganligini aniqladik.

ADABIYOTLAR

1. Pavlov Sh.K., Isroilov R.I., Abdalimov O.X., Shelyagina I.N. "Sport pedagogik maxoratini oshirish" (GANDBOL) O'quv qo'llanma. Toshkent 2018 yil.
2. Pavlov Sh.K., Yusupova Z.E. Yosh gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini samaradorligini oshirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma 2015 y
3. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshaya teoriya i yee prakticheskie prilozheniya. Olimpiyskaya literatura, 2004. - S. 458.
4. Pulatov F.A. Sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi 7-10 yoshli bolalarda o'naqay va chapaqay harakatlarni simmetrik tartibda shakllantirish ustuvorligi. 2020 yil, 29 b.
5. Mo'minov A.Sh. (2021). Gandbolchi-talabalarda turli funksional holatlardan to'pni darvoza burchaklaridagi nishonlarga otish aniqligini o'quv yili davomida o'zgarish dinamikasi. FAN-SPORTGA ilmiy nazariy jurnal, S. 33-36.
6. Kotov Yu.N. Kontrol effektivnosti texniki broska v pryjke gandbolistok raznoy kvalifikatsii: avtoref. dis.... kand. ped. nauk : Ros. gos. un-t fiz. kultury, sporta i turizma. - M.: 2009 – 24 s.
7. Matveev, L.P. Obshaya teoriya sporta i yee prikladnye aspekty: ucheb. dlya zavershayushogo urovnya vyssh. fizkultur. obrazovaniya: dop. Gos. kom. RF po fiz. kulture, sportu i turizmu / L.P. Matveev. - 4-ye izd., ispr. i dop. -SPb [i dr.]: Lan, 2005. – S. 213-224.
8. Mo'minov A.Sh. (2021). Gandbolchi-talabalarda tanani chap va o'ng tomonga aylantirish ta'sirida vaqt-oraliqni farqlash reaksiyalarining o'zgarish dinamikasi. International Multidisciplinary Scientific Conference on Educational Advancements and Historical Developments. □Berlin, Germany -Sydney, Australia – S. 5-6.
9. Kozlov Ya.Ye. Ob'ektivnye problemy dvigatelnoy asimmetrii u futbolistov razlichnogo vozrasta i urovnya podgotovlennosti. // J: TiMFk, – M.: 2008, № 7. – S. 23-26.



UDK: 373.5.091.3:811.111

Muhabbat RUZMETOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti;
E-mail: muhabbat_ruzmetova@mail.ru

Dotsent G.Sobirova taqrizi asosida

ВНЕДРЕНИЕ КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНЫХ И КОММУНИКАТИВНО-КУМУЛЯТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ДЕЛОВОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье описана классификация коммуникативно-когнитивных и коммуникативно-кумулятивных методов обучения деловому английскому языку. Как известно, в нашей стране имеется достаточный опыт преподавания английского языка, но проблема выбора, обобщения и использования подходящих эффективных подходов к обучению деловому английскому языку до конца не решена. Данная статья направлена на устранение упомянутых недостатков.

COMMUNICATIVE-COGNITIVE AND COMMUNICATIVE-CUMULATIVE METHODS IN TEACHING BUSINESS ENGLISH

This article describes the classification of communicative-cognitive and communicative-cumulative methods of teaching business English. As you know, there is sufficient experience in teaching English in our country, but the problem of choosing, generalizing and using suitable effective approaches to teaching business English has not been completely solved. This article is aimed at eliminating the mentioned shortcomings.

BIZNES INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV-KOGNITIV HAMDA KOMMUNIKATIV- KUMULYATIV METODLAR TADBIQI

Аннотация

Ushbu maqolada biznes ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ-kognitiv hamda kommunikativ-kumulyativ metodlar tasnifi bayon qilinadi. Ma‘lumki, mamlakatimizda ingliz tilini o‘qitishda yetarlicha tajriba to‘plangan, biroq biznes ingliz tilini o‘qitish uchun samarali yondashuvlarni tanlash, umumlashtirish hamda muvofiqlaridan foydalanish muammosi to‘liq hal qilinmagan. Ushbu maqolada ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga e‘tibor qaratilgan.

Kirish. Chet til jahon tajribasidan ma‘lumki, turli davrlarda turli xil metodlardan foydalanib o‘rgatilgan. Batafsil muhokama qilinsa, XIX asrning to‘rtinchi hamda XX asrning birinchi choragigacha chet til tarjima metodi orqali o‘rgatilgan. Yevropa chet til o‘qitish metodikasining reformasi bo‘lgandan so‘ng to‘g‘ri (direct) metod ishlab chiqildi. Buning natijasida ko‘plab yangi metodlar tavsiya etildi. Zamonaviylashtirilgan ongli-qiyosiy metoddan Rossiyada keng foydalanilgan. Keyinchalik audiolingval metod AQSh mutaxassislari tomonidan ommalashtirildi, audiovizual metod Frantsiyada keng tadbiiq qilindi. O‘tgan asrning 80–yillaridan boshlab Yevropada, yanada aniqrog‘i Buyuk Britaniyada

xozirgi paytda ommalashgan kommunikativ metodlar inglizabon mamlakatlar mutaxassislari va boshqalar tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amaliy tilshunoslar Jak S. Richards hamda Teodor S.Rodgers, Raman Akbari ayni damda chet til o‘qitish uchun metodlardan keyingi davr (The Post-Methods Pedagogy Era) kelganini e‘tirof etishadi [1; 2;]. Xullas, chet til metodikasida qo‘llanilgan metodlar tarixan tavsiflansa, turli davrlarni qamrab oladi hamda ulardan foydalanilganda o‘quvchilar turli malakalarni egallashgan. Metodlar ketma-ketligi quyidagi (1-jadvalga qarang) jadval asosida tavsiflanadi.

1-Jadval

Chet til o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar tavsifi

№	Metodlar tavsifi	Metod vositasidagallanadigan malakalar
1	Grammatika-tarjima yoki klassik metod (GT/CM). XX asr boshlarida vujudga keldi. Mazkur metod o‘quvchilarga o‘qish nutq faoliyatini mustahkamlash hamda chet tilda yozilgan turli badiiy adabiyotlarni o‘qish maqsadida qo‘llanilgan. Natijada o‘quvchilar o‘z ona tili grammatikasini samarali o‘zlashtirgan. Til materiali deduktiv (avval qoida beriladi, so‘ngra misollar bilan tushuntiriladi) yo‘l orqali o‘rgatilgan.	O‘quvchilar adabiy kitoblardan yoki ingliz tilida o‘qiganlarini tarjima qila olgan. Kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati yetarli bo‘lmagan, biroq, amaliy bosh maqsad o‘qish, yozuvga qaratilgan, gapirish va tinglab tushunishga kam e‘tibor berilgan, talaffuzni o‘rgatishga kam e‘tibor qaratilgan. Ingliz tilida o‘rgangan so‘zlarning ekvivalentlarini ona tili ishtirokida aniqlash imkoniyati berilgan. Ingliz tilida grammatik birliklar muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan.
2	To‘g‘ri, induktiv yoki tabiiy metod (D/I/N.M). Chet til o‘qitishda kommunikativ maqsadlarda ko‘p yillar davomida qo‘llanilgan. Yagona qoidasi butkul ona tilidan voz kechilgan. Tarqatma materiallar hamda illyustratsiyalardan foydalanilgan. Grammatik minimum induktiv (oldin nutqda ifodalaniadi, so‘ngra qoida tushuntiriladi) usulda o‘rgatilgan.	O‘qish, gapirish hamda tinglab tushunish kompleks o‘qitilgan. Muayyan lisoniy birliklarni o‘rgatish rasmlar, demonstrativ buyumlar orqali amalga oshirilgan. Ona tilidan foydalanmasdan, til materiali demonstratsiya qilingan. Talaffuzni o‘rgatishga keng e‘tibor qaratilgan. Yozuvni rivojlantirish alohida inobatga olingan. O‘rganilayotgan til sohiblari yashash tarzi haqida o‘quvchiga yangi ma‘lumotlar berilgan, kundalik leksik birliklarni qo‘llash orqali nutqiy situatv gaplar tuzish o‘rgatilgan.
3	Og‘zaki nutq yoki situatv til o‘rgatish metodi (SLLM). Bu metod asoschilari Garold Palmer. Ushbu metod S.Tornberi tomonidan qayta ishlangan. So‘z tarkibiga, so‘zlarni tizimli turli gaplarda qo‘llashga e‘tibor qaratilgan. Ushbu metod natijasida o‘quvchi, ingliz tilini xorijiy til maqomida mustaqil egallash bilan shug‘ullangan.	Asosiy e‘tibor og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Til materiali yozma emas, balki og‘zaki hamda turli situatv holatlarda o‘rgatiladi. Leksik hamda grammatik birliklar mustahkam o‘rgatilgandan so‘ng o‘qish, yozuv tanishtiriladi. Induktiv yondashuv asosida grammatika o‘qitiladi. Natijada, dars jarayonida, darsdan tashqari turli hayotiy vaziyatlarda kommunikatsiyani amalga oshirishga kirishiladi.
4	Audio-lingval yoki og‘zaki nutqqa asoslangan metod (ALM). 1945 yilda Michigan universiteti amaliy tilshunosi Charles Friz tomonidan taklif qilingan, G‘arbda ba‘zan Michigan metod deb ham atalgan. Ushbu metodda, grammatik qoidalar o‘rgatishga vaqt sarflanmagan.	Nutqiy vaziyatlarni o‘rgatish turli tabiiy kontekstlarda amalga oshiriladi. O‘qituvchi asosiy sub‘ekt sifatida turli dialoglar va vaziyatlarni o‘qib beradi yoki so‘zlab beradi, so‘ngra o‘quvchilar jo‘r bo‘lib qaytarishadi. Lisoniy birliklar to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi faol sub‘ekt vazifasini bajaradi hamda o‘quvchilarni tez-tez rag‘batlantirib boradi.

5	Sokin o'rgatish metodi (SWM). 1960 yillarda Galib Kattegno tomonidan asos solingan. Turli rangli figuralar har xil tovushlarni ifodalagan. O'quvchilar turli xarflar yoki rangli figuralar yordamida o'zlari so'zlarni talaffuz qiladilar, gaplar tuzadi.	Konstruktivizm g'oyasiga tayaniladi. O'quvchilar xotirani mustahkamlagan tarzda gaplar tuzadilar. Guruh bo'lib til o'rganishga qiziqish ortadi. Ingliz tilini qanday darajada o'rganishini nazorat qilishga qulay. Nutq faoliyatining barcha turlari – integrativ mustahkamlanadi.
6	Motor/jismoniy harakatlarning yordamida javob berish metodi (TPRM). Jon Asher tomonidan taklif qilingan. Asosan kichik yoshdagi o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda ma'qul.	O'qituvchini tinglash orqali jismoniy harakatlar yordamida til materiali egallashga kirishiladi. Masalan, ingliz tilida o'rganilgan so'zlarni, so'z birkimlarini non verbal ifodalay oladilar. O'qituvchi yordamida o'rganilgan lisoniy birliklarni jo'r bo'lib takrorlaydilar.
7	Jamoaviy til o'rganish metodi (CLLM) Ba'zi lingvodidaktiklar tomonidan gumanistik usul deb nomlanadi. Charles A Karren tomonidan tatbiq qilingan bo'lib, asosan yoshi kattalarga chet til o'rgatishda ma'qul. Til o'rganuvchilar har xil kichik guruhlarda faoliyat olib borishadi. O'quvchilarni turli kichik guruhlariga ajratib, xorijiy tilni o'rgatish amalga oshiriladi.	O'qituvchi dars jarayonida maslahatchi, o'quvchiga esa mijoz sifatida murojaat qiladi. Darslik orqali til materiali o'rganishga ahamiyat berilmaydi. Dars jarayonida o'quvchilar o'zlarining ona tilidan foydalanadi. O'qituvchi ularning fikrlarini ingliz tiliga tarjima qiladi. Ular o'qituvchining nutqini mobil telefonlari yoki audio tasimga yozib olishadi, so'ngra o'qituvchi yordamida fikrlarini umumlashtirib jo'r bo'lib takrorlashadi.
8	Disuggestopidiya metodi (DeSM). Jorji Lozanov tomonidan taklif qilingan bo'lib, musiqa ostida jonli harakatlar yordamida obrazli ingliz tili o'rganiladi.	O'qituvchi o'quvchilarga ingliz tilida so'zlarni, gaplarni o'rgatish jarayonida turli harakatlar yordamida ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchini harakatlari bilan ingliz tilini jo'r bo'lib aytib o'rganadi. Ingliz tilini o'rganish qiziqarli jarayonga aylanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston sharoitida ta'lim muassasalarida turli metodlardan foydalanib, ingliz tili o'qitilmoqda. Masalan, Audiolingval, Audio-vizual (Audio-lingual and Audio-visual), Jismoniy xarakterli yordamida javob berish (TPR), Kommunikativ til o'qitish (CLT), kompetentsiyalarga asoslanib til o'qitish (Competence-Based Teaching), jamoaviy til o'qitish (Cooperative Language Teaching), aniq mazmunga asoslangan ta'lim (Content-Based Education), vazifalarga asoslangan o'qitish (Task-Based Teaching) ommalashgan. Biznes ingliz tilini samarali o'qitishda ham ushbu metodlar orqali qo'shimcha texnologiyalarni qo'llashga ehtiyoj seziladi. Bizga ma'lum bo'lgan kommunikativ metodda 2 ta yondashuv kommunikativ-kognitiv va kommunikativ-kumulyativ amaliyotga tatbiq etilgan. Kommunikativ-kognitiv metodika orqali umumiy ingliz tilini o'qitishga va yangi ma'lumot berishga e'tibor qaratiladi. Kommunikativ-kumulyativ metod orqali turli mamlakatlar madaniyatiga tegishli ma'lumotlar ya'ni sotsiolingvistik kompetentsiyani rivojlantirishga ahamiyat beriladi.

Ayni damda kommunikativ idrok etayotgan (tinglab va o'qib tushunayotgan) diskursni og'zaki tarzda ona tiliga tarjima qilish mutlaqo o'zini oqlamaydigan usulga aylandi. Chet tildagi yangi so'zlarni quruq yodlash mashqi eskirgan va har qanday til birligi nutqiy jarayonda o'rganilishi o'rgatilishi innovatsion texnologik topshiriqlar tarkibiga kiradi. Til xodisalari (leksika, grammatika, talaffuz) qoidaviy yo'l bilan emas, balki nutqiy mashqlarda o'zlashtirilishi asosiy ish turiga aylanmoqda. Nutq jarayonida qo'llaniladigan til birliklari aproksimatsiya – og'zaki nutqning ilgarilashi printsipiga ko'ra ishlatiladi. Bunda leksik, grammatik, talaffuz birliklarini talaba nutqda qo'llaganda, til sohibini to'liq tushunganlik mezoniga hamda lingvistik, psixologik, metodik printsiplarga rioya qilinadi.

Har qanday nutqni egallashning 2 ta tomoni mavjud. Idrok etib tushunish (retseptiv nutq – tinglab tushunish va o'qib tushunish), o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etish (produktiv nutq – gapirish va yozuv)dan iborat. Demak, retseptiv – o'zga shaxs nutqini idrok etib tushunuvchi, produktiv – o'z fikrini tilda og'zaki va yozma bayon etuvchi shaxs tushuniladi. Ko'rinadiki, chet tilda asosiy nutq faoliyati turlaridan foydalanib muloqot yuritiladi. Muloqot ob'ekti esa, turli xalqlarning madaniyatiga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Bular madaniyatni aks ettiruvchi illyustrativ materiallar (predmet va suyuqlik rasmlar, ashulalar, inglizcha ismlar, haykaltaroshlik namunalari, joy nomlari, qo'hna tarixiy yodgorliklar, kinofilmlar, moda, ovqatlar, oziq-ovqatlar oila, maktab hayoti, ob-havo va boshqalar)ni inobatga olish maqsadga muvofiq. Ingliz tilini o'rganishda talaba amaliy mashqlar bajarish bilan mashg'ul bo'ladi. Ta'kidlash joizki, chet tilda amaliy mashg'ulot birlamchi vazifa hisoblanadi. Bunday mulohaza chet til o'rganuvchilarning barchasiga taalluqli.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishimizning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, kommunikativ masalasini biroz kengroq tahlil etishga to'g'ri keladi. Bu borada "Chet til o'qitish metodikasi" sohasida yetarlicha ma'lumotlar

keltirilgan. Muloqot termini u yoki bu tilda nutqiy aloqa yurituvchi, boshqacha qilib aytganda, o'zgaral fikrini idrok etib tushunuvchi va o'z fikrini bayon etuvchi shaxsiga tegishli ilmiy-metodik tushunchadir. Buni ikkita terminologik sinonim – kommunikativ va muloqotdosh so'zlari bilan ifodalash ma'quldir. Modomiki, kommunikativ muloqotdosh ekan uning muloqot predmeti xususida so'z yuritish joiz [3;]. Yuqorida bayon etilgan lingvodidaktik mulohazalarga ko'ra muloqot jarayoni uchun tavsif etilgan, kognizant, til sohibi madaniyatidan xabardor shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida tan olingan davrlarda muloqot va muloqotdosh haqida metodik ma'lumotlar yoritilgan edi. XX asr oxirigacha "Til va tafakkur" muammosi keng miqyosda tadqiq qilindi. Ushbu nazariyani inkor qilmagan holda, chet til o'qitish metodikasida "Til va madaniyat" uyg'unligi masalasi tadqiqot ob'ekti aylandi. Ya'ni ilk yondashuvda tilni o'rganish orqali dunyoni idrok qilish bo'lsa, keyingi tushuncha til orqali xalqlarga xos madaniyatga tegishli barcha me'yorlarni egallash nazarda tutilgan. Ushbu davrdan nutq faoliyatini egallash g'oyasi ilgari surildi. Nutqni egallash turlari psixolingvistikada aniqlangan. Nutqning turi haqidagi ilmiy manbalarda nutq faoliyati turlari, nutq faoliyati toifalari va nutq shakllari alohida ta'riflangan. Psixolingvistik ma'lumotlarga ko'ra nutqning uchta turi mavjud: nominativ, kommunikativ, kumulyativ. XX asrning birinchi yarmigacha chet til o'qitish metodikasida nominativ nutq turi ishlatib kelingan. Bunda asosan, ingliz tilini o'rganish jarayonida, predmet va xodisalarning nomlari ingliz tilida o'rgatildi. Mas., a pencil. *This is a pen. A pupil. She is a pupil.* Tilni nominativ tarzda egallashda muloqotni amalga oshirish inobatga olinmagan. Kommunikativ nutq turida muloqotni amalga

oshirishga e'tibor qaratilgan. Mas., *I like English and you? I like it too. In a pupil. Nice to meet you. Me too.* Kumulyativ nutq turida til materiali har bir tilda tovushdan tortib jumlagacha xalqning madaniyatini aks ettiradi. Masalan, ingliz tiliga xos xodisa bo'lgan "th" harfi tovushlari, artikl, oting ko'plik shakli (birlilik shakli leksik birlik hisoblanadi) yoki qaratqich kelishigi, fe'ning hozirgi zamon (Present Simple) uchinchi shaxs birlik shakli (har uchulasi ham [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etilishi qoidasining qo'llanilishi o'zbek tilida mavjud emas (bular til ichki interferentsiyasiga sabab bo'ladi). Kommunikativ-kognitiv metodda asosan mavzu doirasida fikr bayon etish, o'zga shaxs fikrini idrok etish hamda umumiy bilim olish amali bajariladi. Bunda nutqning chegaralash vositasi bo'lmish mavzular mavhumligicha qoldi. Kommunikativ-kumulyativ metodda esa, aniq nutqiy mavzular va nutqiy vaziyatlar doirasida muloqot qilish yetakchi amaliy maqsad qilib qo'yiladi. Demak, qiyosiy madaniyatshunoslikda o'rganiladigan chet til va ona tili sohiblarining madaniyatiga asosiy e'tibor qaratiladi. Bir so'z bilan ingliz madaniy stereotiplarini egallash jarayonida ona tilidagi madaniyat modellarini chuqurroq o'zlashtirish diqqat markazida turadi.

Muayyan mavzular doirasida yuqorida bayon qilingan metodlarga binoan o'qitishning o'ziga xos texnologiyalarini tanlash hamda ularni biznes ingliz tilini o'rgatishda qo'llash bugungi kunda ma'qul hisoblanadi. Kommunikativ-kognitiv

va kommunikativ-kumulyativ metodlarning nazariy asoslari xususida yuqorida mufassal fikr-mulohazalar yuritildi. Ularning xususiyati bilan bog'liq masalalar quyida muayyan darajada izohlab beriladi. O'zbekiston sharoitida talabalarga biznes ingliz tilini kommunikativ-kognitiv metod asosida o'qitish batafsil isbotlangan, biroq, kumulyativ metod asosida o'qitish texnologiyalari mufassal tadbiq qilinmagan. Chet ellarda ushbu metodga oid ahyon-ahyonda fikrlar bayon

qilinadi. Ushbu metod professor J.J.Jalolov tomonidan tadbiq qilingan. Mazkur metodni qo'llash bo'yicha bir nechta xususiy metodik printsiplar G.T.Mahkamova tomonidan maxsus ishlab chiqilgan [5;]. Ayni damda chet til o'quv predmetining nufuzidan kelib chiqib, kommunikativ-kognitiv/kumulyativ metod asosida bo'lajak iqtisodchi talabalarga biznes ingliz tilini o'qitishning mazmuni, tuzilmasi va metodik tizimini isloh qilish masalasi ilgari yechilmagan. Xullas, iqtisodchi talabalarga biznes ingliz tilini o'qitishda mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinishi, umumlashtirilishi, kommunikativ-kognitiv/kumulyativ metod xususiyatlarini aniqlashda lingvistik va didaktik printsiplarga tayanish tavsiya qilinadi. Printsiplar lingvometodik kompressiya qilinadi ya'ni maxsus minimizatsiyadan o'tkaziladi hamda quyidagicha tasvirlashni lozim topdik. Lingvistik hamda didaktik printsiplarni sharhlashga kirishamiz: 1) O'quv materialni hayot bilan bog'lash printsiipi kognitiv yoki kumulyativ mazmundagi o'quv materiallar talabalarining kundalik hayoti bilan bog'langan holda tashkil qilinishi lozim. Boshqacha aytganda, Skot Tornberining "Kundalik hayot elementlari darsga kiritilishi hamda dars mazmuni kundalik hayotdan olinishi kerak" (The life is need to bring to the class and the lesson content should be taken from life) [4] metodik g'oyasiga tayanildi. 2) Proksimal rivojlanish printsiipi ya'ni o'quvchilar bugun o'qituvchi ko'magida qanday harakat qila olsalar, ushbu harakatlarni kelajakda mustaqil o'zlari erkin qila oladilar (L.S.Vygotskiy). 3) Juft, guruh bo'lib vazifalar

bajarish printsiipi. Gordon Vells fikricha, "Agarda o'quvchilar hamkorlikda faoliyat yuritsalar, boshqalarga yordam bera oladilar hamda boshqalarning biror faoliyatga qo'shgan hissassi yordamida o'zlari xulosa chiqarib o'rgana oladilar. 4) Samimiy, xushmuomala bo'lishga o'rgatish printsiipida asosan, talabalarda kelajakda ingliz tilida nutqiy vaziyatlarda muloqotdoshlari bilan suhbat jarayonida samimiy bo'lish, xushmuomalalik bilan ularga murojaat qilish xususida bilimlar chuqurlashtirib boriladi. 6) O'quvchilar egallagan bilimlarni osondan qiyinga qaratish printsiipi bo'yicha o'rganiladigan o'quv materialli hamda lisoniy miqdorlar soni hamda murakkabligi kengaytirib borishga e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, inobatga olingan psixologik hamda metodik printsiplar quyidagilardan iborat: 7) O'zga mamlakatlar madaniyatini aks ettiruvchi madaniy stereotiplardan foydalanish printsiipida asosan o'quv materiallar nafaqat inglizabonlar, balki dunyo halqlari turmush hayotiga tegishli ekanligiga e'tibor qaratiladi. 8) Talabalarining ehtiyojlar tahlili (needs analyses)ni inobatga olib, muqobil o'qitish usullarini tanlash printsiipiga binoan, kognitiv va kumulyativ mazmundagi matnlar, mashqlar va texnologiyalar talabalar ehtiyojiga muvofiq tanlanadi. 9) Biznes sohasiga oid ijtimoiy-madaniy autentik matnlardan foydalanish printsiiga rioya qilingan tarzda kumulyativ mazmundagi matnlar tanlanadi. Natijada, talabalarining kognitiv qobiliyatlari yanada rivojlanadi. 10) Og'zaki nutqning ilgarilashi, madaniyatlararo kognezant va kommunikantni shakllantirish, ingliz tili o'rgatishga qo'yiladigan zamonaviy talablarni inobatga olish, onglilik kabi metodik printsiiplarni inobatga olish ham maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. Yuqorida muhokama qilingan metodlardan foydalanish tizimini belgilangan printsiiplarga tayanib ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tadbiq qilish chet til o'qitish/o'rganish sohasida samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jack C.Richards and Theodore S.Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching: Third Edition.: 2014. 270–P.
2. Ramin Akbari. Postmethod Discourse and Practice. The Forum. Tesol Quarterly. Vol. 42, # 4, December 2008. 641–652–P.
3. Кадырова Н.Р. Коммуникативно-кумулятивный аспект обучения английскому языку как специальности. "Педагогика и психология". –М.: 2015. – С. 96–102.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – O'qituvchi, 1996. –Б. 402.
5. Махкамова Г.Т. Размышления о коммуникативно-кумулятивной методике обучения иностранному языку. Хоризий филология, №1. 2019. –Т.: –С. 13–18.
6. Коряковцева Н.Ф. Теория обучения иностранным языкам: продуктивные образовательные технологии: учебное пособие. –М.: 2010. –С.192.
7. Леонтьев А.А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. Российская академия образования. –Воронеж: 2001. –186с.



UDK: 378.14

Umida SADIKOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:temperament.mail.ru

psix.f.n. dots B.B.Nurullayeva taqrizi asosida

EXPLANATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRACTICING PSYCHOLOGISTS

Annotation

This article presents the theory of tasks of competence in the professional training of future practicing psychologist students. Types of competence, professional competence, stages, general cultural competence of a psychologist are covered.

Key words: Practitioner psychologist, professional competence, psychologist, psychological service, client, problem, person, psyche

ОБЪЯСНЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРАКТИЧЕСКИХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация

В статье представлена теория задач компетентности в профессиональной подготовке будущих студентов-практиков-психологов. Освещены виды компетентности, профессиональная компетентность, этапы, общекультурная компетентность психолога.

Ключевые слова: Практикующий психолог, профессиональная компетентность, психолог, психологическая служба, клиент, проблема, человек, психика

AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINING YORITILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi amaliyotchi psixolog talabalarning kasbiy tayyorgarligida kompetensiyasini vazifalari nazariyasi berilgan. Kompetensiyaning turlari, kasbiy kompetensiya, bosqichlari, psixologning umummadaniy kompetensiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Amaliyotchi psixolog, kasbiy kompetensiya, psixolog, psixologik xizmat, mijoz, muammo, inson, psixika

Kirish. Butun jahonda zamonaviy ta‘lim tizimi jadal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu jamiyatning uzluksiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq hisoblanib, bunda talaba shaxsini ta‘limiy makonini doimiy ravishda o‘zgartirish sharoitida ta‘lim strategiyalarini samarali amalga oshirishda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning muammoli maydonini kengaytirishga olib kelmoqda. Jamiyatimizda oliy ta‘lim tizimining bugungi kunda o‘zgarishi va magistraturaning ajratilishi, pedagogik-psixologik yo‘nalish bo‘yicha malakali bakalavriat kadrlarini tayyorlash bilan bog‘liq qator masalalarni olib chiqdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, psixolog talabalarini tayyorlash barcha federal universitetlarda amalga oshirilmoqda, ulardagi kompetensiya nafaqat yuqoridagi ta‘lim sohasi masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishni ta‘minlaydi, balki, zamonaviy psixologiya fanida psixolog talabalardagi kompetensiyani, ulardagi mahoratning fundamental asosi va ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirishga qaratiladi [9].

Amaliy psixologiyaning ijtimoiy –siyosiy tus olayotgani va turmushning har bir jabhasiga kirib borishi, shuningdek, o‘z o‘rnini topayotgani, psixologik konsultatsiyalar, maslahatlar, ayt va sotsial treninglar, ishbilarmonlik o‘yinlari, art va psixoterapiya, professiogramma, psixodiagnostika va xakozolarga talab oshishi kuzatilmogda [1].

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) – u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalardir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko‘pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha so‘nggi paytlarda keng qo‘llanilmogda. Ta‘lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o‘tgan asrning 60-yillarida shakllanib boshlagan.

«Kompetentlik» - tushunchasi esa, shaxsning doimo o‘sib boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga

kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanib, aslida «kompetentlik» atamasi ta‘lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Bu atama noan‘anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qay holatda muloqotga kirishish, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar muhimligini ko‘rsatadi.[9]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda ta‘limning kompetensiya modelini mavjud modelga kiritishga urinishlar Kraevskiy-2002, Bolotov va Serikov-2003, Xutorskoy-2003, Bermus-2005, Dahin-2007, Ivanov-2007, Efremova- 2010-yillarda tadqiqot ishlarini olib borganlar.

V. Xutorskoy “kompetentlik” tushunchasiga shaxsiyat, bilim, qobiliyat, ko‘nikma, faoliyat jarayonlarning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fazilatlar majmuini o‘z ichiga oladi deya ta‘kidlagan [8].

N.F.Efremova kompetensiya munosabatlarini quyidagicha belgilaydi. “kompetentlik - bu shaxs va mutaxassisning salohiyati, uning bilimi, malakasi, tajribasi, kompetensiyalar, ya‘ni, fikrning kinetikasi va dinamikasi va uning harakatlari, muammoni tushunish, tahlil qilish, yechimlarni izlash va faoliyatdir

muammolarni hal qilish va natijalarga erishishni kafolatlaydi [7].

E.F.Zer asosiy kompetensiya tushunchasiga-bu bilim va ko‘nikmalar va shuningdek, muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar muayyan vaziyatlarda harakatdir-deya ta‘rifni beradi [6].

Asosiy qism. Kompetensiya-bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni

faoliyatda ko'rinishi hisoblanadi. Amaliyotchi psixologlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, psixologga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan. Buning natijasida o'zidagi kasbiy kompetensiyasi turlarini rivojlantirishga qaratadi.

Psixologning kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy.
2. Shaxsiy.
3. Umuminsoniy.
4. Madaniy.
5. Maxsus.

Shu o'rinda kasbiy kompetensiya;

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- psixologik xizmat ko'rsatish jarayonini rejalashtirish,

baholash va qayta aloqani o'rnatish;

- Mijozlar ehtiyojini anglay olishi;
- Mijozlarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Psixologik xizmat ko'rsatish muhitiga

yangilik kiritishi;

- O'z kasbini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari uchta bosqichdan iborat bo'lib, ular:

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish hisoblanadi.

Psixologning eng muhim hisoblanadigan kompetensiya turlaridan biri bu - shaxsiy kompetensiyadir. Buni:

- Muloqatchanlik;
- Bag'rikenglik (tolerantlik);
- Yetakchilik;
- Faol, tashabbuskor;
- Moslashuvchan;
- Sog'lom turmush tarzi;
- Mas'uliyat;
- Ishchanlik;
- Insonparvarlik kabilar tashkil qiladi.

Psixologning umummadaniy kompetensiyasiga:

- Ma'lumotli;
- Madaniyatli;
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- Milliy madaniyatga ega bo'lish;
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok

etish;

- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi kabilar tashkil qiladi.

Psixologning maxsus kompetensiyalariga esa:

- Mijozlar ehtiyojini bilishi;
- Turli yosh xususiyatlaridagi psixologik xarakterni chuqur bilishi singarilar kiradi.

Tahlil va natijalar. Psixologning kasbiy shakllanishi oliy o'quv yurti dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Psixologiya oliy o'quv yurtlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak psixologlarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy va amaliy bilimlar berish, amaliyotchi psixolog kasbi haqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar

talabalarda tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi psixologning kasbiy shakllanish jarayonida ko'pincha mijozlar bilan ishlash katta rol o'ynaydi. Yosh psixologlarga tajribali amaliyotchi psixologlarni biriktirib qo'yish, ularning ishlash tizimini kuzatish, tajribali psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. Psixolog o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga, ijtimoiy muhit o'rtasida pedagogik-psixologik bilimlarni targ'ib etishiva shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

Shu bilan birga, psixologning kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtda malakasini oshirib, trening mashg'ulotlariga qatnashib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Amaliyotchi psixolog kasbiy faoliyat sifatini oshirishda psixologik kompetensiyaning ahamiyati juda yuqori. O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Tahlil va natijalar. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharfli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir psixolog xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Psixologning mahorati – psixologning ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Psixolog kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning psixologik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori psixologik mahoratga ega bo'lgan psixologgina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Psixologik faoliyatning samarali bo'lishi uchun psixolog o'z kasbini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, treningdagi trening mashqlaridagi materialini mijozlarga tushunarli qilib bayon eta olishi, mijozlarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, mijozlarning muammolarini, yosh xususiyatlarini, va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim.

Psixologning yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish mijoz faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir psixolog yuqori psixologik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Psixolog ishga qobiliyatli, iste'dodli bo'lsagina psixologik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixolog va mijozlar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, jamiyatda egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Amaliyotchi psixologning fikrini bayon etish, o'zini mijozga yaqin tutishi, bildirgan fikr va takliflari, hamda asosli bo'lgan qarashlarini isbotlashi, o'rni kelganda himoya qilishni o'rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali psixolog xizmatining natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Psixolog shaxsiga qo'yilgan talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Psixologiya fani oldida turgan

muammolarning biri ham, aynan, bo'lg'usi amaliyotchi psixolog va pedagog-psixolog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Psixologlarning ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida kishilik jamiyatiga samarali psixologik xizmat ko'rsatish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda amaliyotchi psixolog shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida aniq tashhis qo'ya bilishi va uni yetarli darajada korreksiyalash;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;
7. M.Mamarajabov, R.To'raev. O'rgatuvchi elektron muhitni yaratishga qo'yiladigan metodik talablar. in volume 1, inssue 10 of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021
8. https://studbooks.net/2112311/informatika/osnovnye_etapy_razrabotki_elektronnyh_obuchayuschih_programm
9. <https://studfile.net/preview/3756736/page:8/>
10. Turaev R.N. The importance of the formation of web programming competencies in schoolchildren.// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences – Great Britain, 2022. – vol. 10 № 1. – P.11-19.
11. Turaev R.N. Improving the use of e-learning environment in teaching web programming.// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences – Great Britain, 2022. – vol. 10 № 1. – P.11-19.



UDK: 371.302.2

Barno TO'RAHONOVA,
Andijom davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi
E-mail: Barnoturaxonova@mail.ru

P.f.n., dotsent. T.G.Suleymanova taqrizi asosida

PRINCIPLES OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION IN PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE EDUCATORS-PSYCHOLOGISTS

Annotation

The article describes the theoretical and practical basis of the principles of spiritual and moral education in the professional training of future teachers and psychologists.

Key words: Upbringing, spirituality, social consciousness, morality, attitude, maturity, dialectical character

ПРИНЦИПЫ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-ПСИХОЛОГОВ

Аннотации

В статье описаны теоретические и практические основы принципов духовно-нравственного воспитания в профессиональной подготовке будущих учителей и психологов.

Ключевые слова: Воспитание, духовность, общественное сознание, мораль, мироощущение, зрелость, диалектический характер.

BO'LAJAK PEDAGOG-PSIHOLOGLARNI KASBIY TAYYORLASHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagog-psihologlarni kasbiy tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarini nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, manaviyat, ijtimoiy ong, axloq, munosabat, yetuklik, dialektik xarakter

Kirish. Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishni pedagogik tizimini shakllantirishda manaviy axloqiy tarbiya muhim sanaladi.

Bo'lajak pedagog-psixologlar to'g'risida so'z borganda biz ko'plab savollarga duch kelamiz. Masalan, pedagog kim, yoki psixolog kim ularning kishilar hayotida qanday ahamiyati bor? Bu kabi savollar bugungi kunning eng dolzarb savollaridan hisoblanib bunday savollarga biz ham qisman bo'lsada, javob berishimiz kerak bo'ladi. Shu bois Pedagogik-psixologiyaga to'g'risida biroz ma'lumotlar berib o'tamiz.

Pedagogik psixologiya – ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya XIX asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik-psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turtki berdi. Bixevioristik (qarang Bixeviorizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik-psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari), o'quv

predmetlarining o'ziga xos tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqalar o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi - maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib keladi. Mana nima uchun Pedagogik-psixologiya kishilar hayotida muhim o'rin tutadi [6].

Pedagog-psixologlarni o'z sohasida mutaxassis bo'lib, yetishishida biz asosan nimalarga e'tib qaratishimiz lozimligi to'g'risida so'z borganida albatta, necha yuz yillardan buyon o'z haqiqatini aks ettirib kelayotgan axloq-odob va ma'naviyat qoidalariga katta e'tibor berishimiz joiz ekanligini hech ham ikkilanmasdan ayta olamiz.

Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagog-psihologlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirishda manaviy ahloqiy tarbiyamuhim obyekt hisoblanadi.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezonini

bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq - ijtimoiy ong va tarbiyaviy ta'sir etish shakli sifatida. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. (Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezon bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchun emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur [2]. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalangan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi.

Adabiyotlar tahlili. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan na'muna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi. Misol tariqasida aytishimiz mumkin bo'lgan holat bu, yosh bolalarda juda ko'p kuzatiladigan holat bo'lib, masalan, biron-bir filmda yurt qahramonlaridan zavqlangan bola harbiy bo'lishni yoki, shirin so'z shifokorni ko'rgan bolalarda shifokor bo'lish orzusini rivojlanishini guvohi bo'lamiz. Ba'zi holatlarda bu talabalar orasida ham kuzatiladi. Qaysidir sohada ta'lim olayotgan talaba, o'zining ideal insoni sifatida biron-bir fan mutaxassisi bo'lgan ustoziga havaslashi ham shular jumlasidandir.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) - birdamlik (shaxsiy manfaatlarining umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarni esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

Me'yor - bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Qadriyatlar - ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini. Qadriyatlar xilma-

xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutlaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiyatli (ob'ektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtai nazardan, turlicha munosabatlar va barcha sub'ekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir sub'ektlar uchun ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi [4]. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Bo'lajak pedagog-psixologlarni ma'naviy-axloqiy tushunchalari, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi [1]. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, talabalar tomonidan ularning faoliyatida yorqin namoyon bo'lgandagina, rivojlangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni rivojlantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni rivojlantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Bo'lajak pedago-psixologlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir [2].

Tahlil va natijalar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

Bo'lajak pedagog-psixologlar ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarini tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish. Agarda pedago - psixologlarda bu asosiy vazifalarning biron-tasi yetishmagan holda u o'z sohasining mutaxassisi deyilmaydi. Chunki bizning ona zaminimiz

bo'lgan O'zbekistonda ham necha asirlardirki, o'quvchini axloqiy tarbiyalashning bu uch bosqichdagi vazifasini to'liq bajarish va bir maromda olib borish juda ham muhim vazifalardan sanalib kelinadi. Shu bois pedgog – psixologlar zimmasidagi mashaqqat juda ham og'ir bo'lganligi uchundir balki, pedagoglar davlatimiz va xalqimizda yuksak shartli kasb egalari bo'lib kelmoqdalar. Pedagog bu o'z-o'zidan ham ma'lumki, ustoz degan sharafli maqom egalardir. Insonlar bunday mashaqqatli va zahmati kasb egalarini qadim zamonlardan ardoqlab kelganlar. Ba'zi bir manbalarda “ Ustoz atang kabi ulug' ” - deyilsa, yana ba'zi birlarida “ Ustoz otangdan ulug' ” - deb yuksak darajada e'tirof etiladi. Yana qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, pedagog – psixologlar nafaqat bizning yurtimizda balki butun jahon miqyosida eng sharafli va shu bilan birga mas'uliyatli kasb egalari detiladi. Harbiylar yurtni chegarada himoya qilsalar, shifokorlar be'morni davolasalar, pedagog – psixologlar shunday sharafli kasb egalarini tarbiyalab, halol yo'lga o'rgatib, ruhan baquvvat bo'lishida ko'maklashib, yurt uchun juda katta fidokorlik qiladilar.

Xulosa va takliflar. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida sub'yekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (motivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Kaziyeva T. Pedagogical system in education of children of preschool education through folk fairy tales. (Web of since) European scholar journal Editor In- Chief Dr. Lucia Santana Sardinia Volume 2, Issue 4 April 2021 Journal Impact Factor: 7.235 440-441
2. Sodiqova Sh.A. Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.-T.:TDPU,2009.68 b
3. XodjayeV B. Umumiy pedagogika darslik. Toshkent 2017-yil 159b.
4. Радугина А.А. Психология и педагогика М.:Центр,2002-256с
5. Немов Р.С Психология.Книга 2.Психология образования –М.:Владост,2000.-606с
6. <https://arxiv.uz>



UO'K: 32(082)(575.1)

Nasiba TURGUNOVA,

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tarbiyaviy-psixologik faoliyati kafedrasida dotsenti v.b.

E-mail: nasiba.turgunova24@gmail.com

IIV Akademiyasi dotsenti, p.f.n B.N. Sirliyev taqrizi asosida

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar siyosatining umumdavlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi, uning ilmiy-nazariy asoslari, yoshlarga oid davlat siyosati institutsionallashuvining ustunlik jihatlari borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Davlat, yoshlarga oid davlat siyosati, metodologiya, institutsionallashuv, tendensiya, strategiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются признание молодежной политики составной частью национальной политики, ее научно-теоретические основы, а также приоритетные аспекты институционализации государственной политики в отношении молодежи.

Ключевые слова: Государство, молодежная политика, методология, институционализация, направление, стратегия.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF STATE POLICY REGARDING YOUTH

Abstract

This article deals with the recognition of youth policy as an integral part of national policy, its scientific and theoretical foundations, as well as priority aspects of the institutionalization of state youth policy.

Key words: State, youth policy, methodology, institutionalization, direction, strategy.

Kirish. Yoshlar siyosati davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatini qamrab oladi. Davlat yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi asosiy rol ni bajaradi, shu bois ham aksariyat hollarda manbalarda "yoshlarga oid davlat siyosati" atamasi qo'llanadi. Bu borada davlat hokimiyati o'zida mavjud barcha kuch va vositalarni ishga soladi, zarur hollarda qo'shimcha imkoniyat hamda shart-sharoitlar yaratadi.

Bundan ko'zlangan maqsad — yoshlarni har tomonlamma yetuk shaxs sifatida shakllantirish, ularni o'z qobiliyat hamda salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etishlari hamda yoshlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashdir. Zero, yoshlar jamiyatda yuz berayotgan turli voqea-hodisalar, o'zgarishlarning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, bu borada bir qator o'rinli savollar tug'iladi, jumladan yoshlar siyosatining umumdavlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi nimani bildiradi? Bunday yondashuv qanday ilmiy-nazariy asoslarga ega? Yoshlarga oid davlat siyosati institutsionallashuvining ustunlik jihatlari nimalarda ko'rinadi?

Avvalo ta'kidlash kerakki, yoshlar siyosati muayyan davlatning o'z hududida yashovchi yosh avlodga munosabati o'laroq barcha jamiyat va davlatlarga xos. Shu ma'noda, yoshlar siyosatining umumdavlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi asosida birinchi navbatda, kelajak avlodga bo'lgan kuchli e'tibor va mas'uliyat yotadi. Bu orqali davlatning yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga maqsad va rejalarini tuziladi, ya'ni mamlakat ertangi kuni uchun mustahkam zamin yaratadi. Mutaxassislar fikricha, yoshlar siyosatini tadqiq qilishda ushbu yondashuv eng muhim uslubiy yondashuv hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayni vaqtda, aksariyat mutaxassislar zamonaviy fanlarda "yoshlar siyosati"ga aniq ta'rif berilmaganini e'tirof etishlariga qaramasdan, manbalarda ushbu tushunchaga turlicha

yondashuvlar mavjudligini uchratish mumkin. Xususan, A.Gaydin fikricha, yoshlar siyosati birinchidan, yoshlarning tug'ilishidan tortib 30 yoshgacha bo'lgan davrdagi keng ko'lamli vazifalarni o'z ichiga oladi; ikkinchidan, ixtisoslashgan tuzilmalarni tuzadi hamda faoliyatini muvofiqlashtiradi; uchinchidan, yoshlarning bo'sh vaqti va ta'lim olishi bilan bog'liq siyosatini o'z ichiga oladi[2].

Yana bir olim A. Sharonov esa "yoshlar siyosati"ni fenomen deya atab, uni davlat siyosatining yoshlarga oid qismi sifatida ta'riflaydi. Mutaxassis fikricha, yoshlarga oid davlat siyosati aholining ushbu qatlami bilan bog'liq barcha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi va ayrim hollarda yoshlarning boshqa qatlamga qaraganda davlat ko'magiga ko'proq ehtiyoj sezishi bilan bog'liq[3].

Boshqa olimlar fikricha, yoshlar siyosatini uning mazmun-mohiyati, amaliy tavsifidan kelib chiqqan holda 3 ta asosiy yo'nalishda tadqiq qilish mumkin[4]:

1. Siyosatshunoslik. Bunda siyosiy tizim va yoshlarning o'zaro munosabatlari — siyosiy ijtimoiylashuv, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, yoshlar bilan ishlaydigan nodavlat tashkilotlarning faoliyatiga umuman yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi kabi masalalar kompleks o'rganiladi.

2. Huquqiy. Bu yo'nalish yoshlarga oid davlat siyosatini o'zida aks ettiradigan barcha meyoriy-huquqiy hujjatlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalish yoshlar siyosatini amalga oshiradigan organning vazifa va vakolatlarining qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilishi bilan izohlanadi.

3. Sotsiologik. Bu zamonaviy yoshlar qiyofasini (portreti) yaratish, uning turli transformatsion jarayonlarda o'zgarib borish tendensiyalarini o'rganish va umuman yoshlarning jamiyatdagi o'rni, shu jumladan, ularning ehtiyoj va manfaatlarini tadqiq qilish masalalarini qamrab oladi.

Tadqiqotchi P.Merkulov yoshlarga oid davlat siyosatini o'rganishda siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa

va iqtisodiyot fanlarining o'rmini yuqori baholaydi, biroq ularning qo'shgan hissasini alohida tadqiq qilish maqsadga muvofiq degan fikrni ilgari suradi[5].

Yoshlar siyosati jamiyat, davlatning barcha soha va yo'nalishlarini qamrab olishini inobatga olgan holda, bu fikrga qo'shilish qiyin hamda shu bois, yoshlar siyosatini tadqiq qilishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Rossiyalik olim V.Nexayev yoshlar siyosatini davlat hokimiyati va uning quyi tuzilmalari faoliyatidagi muhim yo'nalish ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aynan ushbu yo'nalish yoshlar uchun siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qulay shart-sharoitlar hamda ularning o'z qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratish orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ta'minlanadi[6].

Shu o'rinda, rossiyalik sotsiologlar Y.Vishnevskiy va V.Shapkolarning quyidagi fikri diqqatga sazovor. Xususan, ushbu olimlarning fikricha, yoshlar siyosatining tub mazmuni ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarida yoshlar va jamiyat o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli holatlarning oldini olish va umumiy manfaatlar yo'lida hamkorlik qilishdan iborat[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Muayyan hududdagi yoshlar siyosatining natijador va samaradorligini aniqlash (baholash) ham muhim ahamiyatga ega. Zero, natijadorlik va samaradorlik bevosita yoshlar siyosatining amalga oshirilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq.

Dunyoda yoshlarning holati va rivojlanish darajasini baholashga qaratilgan xalqaro va milliy darajadagi turli indekslar mavjud[8]. Xususan:

- Yoshlar rivojlanishi indeksi (The Commonwealth Youth Development Index) 5 ta indikator bilan o'lchanadi: «ta'lim darajasi», «sog'liq va farovonlik», «ish bilan ta'minlash va imkoniyatlar», «fuqarolar faolligi». Ushbu indeks yordamida yoshlarning rivojlanishi hozirgacha 2 marotaba monitoring qilingan. 2013 yilda 170 ta davlat va 2016 yilda 183 ta davlat ko'rsatkichlari qamrab olingan.

- Global yoshlar farovonligi indeksi (Global Youth Wellbeing Index) – «gender tengligi», «iqtisodiy imkoniyat», «ta'lim», «sog'liqni saqlash», «fuqarolarning ishtiroki», «xavfsizlik va tartib», «axborot-kommunikatsiya texnologiyalari» kabi 7 ta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi. Indeks asosidagi hisobot 2014 va 2017 yillarda tayyorlangan bo'lib, har birida 30 mamlakat qamrab olingan, ko'rsatkichlar iqtisodiy rivojlanish va statistik ma'lumotlarning ochiqligi asosida tanlangan.

- Yoshlar taraqqiyoti indeksi (Youth progress Index) – 12 komponent va 60 xil ko'rsatkichdan iborat 3 ta indikator asosida o'lchanadi: «yoshlarning ehtiyojlari», «farovonlik» va «imkoniyatlar». Indeks dunyo bo'ylab yoshlarning hayot sifatini o'lchaydi va 150 ta mamlakatni qamrab oladi. Yoshlar taraqqiyoti indeksi bugungi kunda iqtisodiy ko'rsatkichlardan qat'iy nazar, yoshlar hayotining darajasi to'g'risida to'liq ma'lumot beradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi Z.Luxmanovanning fikricha, yoshlar siyosati muayyan makondagi siyosiy rejim va uning barqarorligi bilan bog'liq[9]. Shu bilan birga, tadqiqotchi yoshlar siyosatini baholash amalda quyidagilarga imkon beradi deb hisoblaydi:

- davlat hokimiyati idoralari, biznes-hamjamiyat va fuqarolik jamiyati institutlariga yoshlarning ustuvor ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash, ular duch kelayotgan turli to'siqlarni bartaraf qilish hamda ularning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash (ta'lim, bandlik va h.k.);

- yoshlar rivojlanish darajasini, shuningdek, joylarda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish samaradorligi darajasini baholash;

- xalqaro tashkilotlar va xususiy sektorga yoshlarning ehtiyojlarini baholash imkonini beradi, bu o'z navbatida, mavjud va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini yaratadi;

- yoshlarga oid masalalarni quyi bo'g'inda tushunish va shuning asosida maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- jamiyat va davlatda barqarorlikni ta'minlash.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda aytish lozimki, yoshlar siyosati davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirilishining konseptual modeli yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roliga asoslanadi. Xususan, so'nggi yillarda dunyoning ko'plab davlatlarida yoshlarga muammo sifatida qarashga asoslangan paradigma ham ko'zga tashlanmoqda. Bunday yondashuv o'z navbatida yoshlar siyosatining maqsadi va vazifalari, tamoyillari, strategiya va amalga oshirilishi shakliga ta'sirini o'tkazmoqda.

Umuman olganda, manbalarda yoshlarga oid davlat siyosatining quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- universal model (asosan skandinaviya davlatlariga xos);

- liberal model (birinchi o'rinda jamiyat, keyin davlat manfaatlarini inobatga olinadi);

- konservativ model (yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat bosh rolni bajaradi);

Shuningdek, ayrim davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy maqsadi bevosita ijtimoiy zaif, hayotda o'z o'rniga ega bo'lmagan yoshlarga qaratilgan[10].

Bugungi kunda aksariyat davlatlarga xos yoshlar siyosati modeli quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- yoshlar siyosatini amalga oshirishda avvalo ularning ishtirokini ta'minlash;

- vakillik mexanizmlarining amal qilishi (yoshlar davlat hokimiyati tizimida faoliyat yuritishi);

- yoshlar huquq va erkinliklari uchun kafolatning mavjudligi (yoshlar har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish va kafolatlanishi);

- yoshlar uchun ijtimoiy himoyaning mavjudligi va kafolatlangani;

- yoshlarga oid masalalarning ustuvor ahamiyat kasb etishi.

Tahlillar yoshlarga oid davlat siyosatining tarkibiy qismlari quyidagi omillar bilan bog'liq deb hisoblashga asos yaratadi:

Birinchi, yosh avlod uchun zarur imtiyozlarning mavjudligi va ulardan to'laqonli foydalanish imkoniyatining yaratilganligi. Bu o'z navbatida, yoshlar hayotining farovonligi, ta'lim olishdagi tenglik, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokning qonunlar bilan kafolatlanishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi, yoshlarga oid qarorlarni qabul qilish jarayonida yoshlarning ishtirokini ta'minlash, ular tomonidan bildirilayotgan taklif-mulohazalarni hisobga olish. Bu omil yoshlarning o'z muammolariga befarq bo'lmasliklari, ularni bartaraf etish ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan bog'liq.

Yoshlarga oid davlat siyosatining ilmiy-nazariy asoslari xususidagi yondashuvlarni o'zbekistonlik olimlar izlanishlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, olim N.Jo'rayev fikricha, yoshlar siyosati tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy, gumanitar fanlarda institutsionallasha boshladi. O'tgan asrning 90-yillari boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan keng, tor va muassasaviy ma'nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda[11].

Yana bir o'zbekistonlik mutaxassis E.Kadirov fikricha, «Yoshlarga oid siyosat – davlatning demokratik

taraqqiyot yo'lida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, manfaat va huquqlari to'liq ta'minlanishi va muhofaza etilishiga yo'naltirilgan huquqiy-tashkiliy dastur, vosita, chora va xatti-harakatlar yig'indisi hamda o'zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to'liq bajarishidir. Yosh avlod vakillarining manfaatini boshqa qatlamlar vakillari manfaatiga qarshi qo'ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg'unlashtirish – yoshlar siyosatining asosiy vazifasidir»[12].

Boshqa bir manbada yoshlarga oid davlat siyosati deganda, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bu siyosat mohiyatan davlatni rivojlantirish, istiqbolida

raqobatbardoshligini ta'minlash va milliy xavfsizligini mustahkamlashni ko'zda tutadi[13].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlar siyosatini davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirilishiga oid ilmiy qarashlarning asosini bir tomondan, davlat hokimiyatining yosh avlod oldidagi majburiyati, ikkinchi tomondan, jamiyatning faol qatlami bo'lgan yoshlarning davlat oldidagi burch va majburiyatlarini tashkil qiladi.

Yoshlar siyosatini o'rganishga oid turli yondashuvlarning mavjudligi va ayrim hollarda bir-biridan farqlanishi ushbu fenomenning ko'ptomonlama va murakkab ekanidan dalolat beradi. Ayni paytda, o'rganilgan barcha yondashuv va uslublarni birlashtirib turuvchi jihat sifatida yoshlar siyosatining muayyan davlat siyosatining tarkibiy qismi e'tirof etish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Молодежная политика в системе формирования гражданской идентичности современной молодежи: коллективная монография / под ред. А.В. Бугаева, Т.К. Ростовской. – М.: Издательство РГСУ, 2018. – 198 с.
2. Гайдин Ю. Региональная молодёжная политика: социокультурные аспекты: дисс...канд. полит. наук. Саратов. 2002. С.45-46
3. Шаронов А. Молодежная политика в свете концепции устойчивого развития // Социально-политический журнал. 1996 №6. С.143-149
4. Чурун С. Молодежная политика: теория и практика взаимодействия. Кемерово, 2008. С. 28.
5. Меркулов П. Постсоветский этап развития историографии государственной молодежной политики – обретение нового смысла [Электронный ресурс] /П. А. Меркулов // Сервис в России и за рубежом. – 2012. – № 11 (38). – URL: http://old.rguts.ru/files/electronic_journal/number38/17.doc.
6. Нехаев В. В. Правовое обеспечение государственной молодежной политики России: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2005. С. 46.
7. Вишнеvский Ю.П. Шапко В.Т. Социология молодежи: учеб. пособие. Екатеринбург: Научно-исследовательский центр при институте молодежи, 1997. 211 с.
8. Xalqaro yoshlar indekslari: tahlil // <http://yomi.uz/2021/07/03/indekslar-tahlil/>
9. Luxmanova Z.P. Siyosiy rejimlarning barkarorligini taminlashda yoshlar siyosatini standartizatsiyalash mexanizmlari va texnologiyalari. Siyosiy fanlar buyncha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati // <http://yomi.uz/wp-content/uploads/2023/01.pdf>
10. <https://biglibrary.ru/category43/book279/part13/>
11. Jo'rayev N. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. – T.: Ma'naviyat, 2002. – B. 43
12. Kadirov E. Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida). yurid.f. dok. (DSs) diss. avtoref. 2019. 14 b.
13. "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. T: "Tafakkur-Bo'stoni". 2019. 489 b.



UDK:315.4.423.11

Adxamjon TURSUNOV,
Andijon davlat universiteti v.b.dotsenti
E-mail: adhamjontursunov5@gmail.com

ADPI dotsenti D.Samatov taqrizi asosida

HISTORY OF ORIGIN, CATEGORIES AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF ACTION GAMES

Annotation

In this article, the rise of Uzbekistan to the level of a great country from a social point of view is not only directly dependent on the intelligence, knowledge and skills of the young generation, hardworking citizens, but also on their health and physical fitness. It is thought that every citizen should have qualities such as energy, entrepreneurship, perseverance and business acumen. At the core of these qualities are the qualities of strength, speed, agility and endurance. Of course, the active purposeful formation of these qualities does not occur by itself, but it has been shown that it should be implemented in the course of the ontogenetic development of a person in exchange for regular and planned participation in sports or physical education.

Key words: physical culture, volleyball, modern games sports, Olympiad, independent work, abstract, student, scientific research.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ, КАТЕГОРИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ АКТИВНЫХ ИГР

Аннотация

В данной статье подъем Узбекистана на уровень великой страны с социальной точки зрения находится в прямой зависимости не только от интеллекта, знаний и умений молодого поколения, трудолюбивых граждан, но и от их здоровья и физической подготовленности. Считается, что каждый гражданин должен обладать такими качествами, как энергия, предприимчивость, настойчивость и деловая хватка. В основе этих качеств лежат качества силы, скорости, ловкости и выносливости. Конечно, активное целенаправленное формирование этих качеств не происходит само по себе, но показано, что оно должно осуществляться в ходе онтогенетического развития человека в обмен на регулярное и планомерное занятие спортом или физической культурой.

Ключевые слова: физическая культура, волейбол, современные игровые виды спорта, олимпиада, самостоятельная работа, реферат, студент, научное исследование.

HARAKATLI O'YINLARNI KELIB CHIQISHI TARIXI, TURKUMLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada har tomonlama yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy tomondan buyuk davlat darajasiga ko'tarilishi yosh avlodu, mehnatkash fuqarolarning nafaqat aql-idroki, bilimi va malakasi, balki ularning salomatligiga, jismoniy barkamolligiga ham bevosita bog'liq ekanligi hamda hozirgi davr taqdirini va uning istiqbolini ijobiy hal etish, qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar har bir fuqarodan serg'ayratlik, tadbirkorlik, uddaburonlik va ishbilarmonlik kabi xislatlarni talab qilinishi xaqida fikr yuritiladi. Mazkur xislatlar zamirida esa kuch, tezkorlik, chaqqonlik va chidamkorlik sifatleri yotadi. Albatta, bu sifatleri faol maqsadli shakllanishi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki insonning ontogenetik taraqqiyoti jarayonida sport yoki jismoniy tarbiya bilan muntazam va rejaga muvofiq shug'ullanish evaziga amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, voleybol, zamonaviy o'yinlar sport, olimpiada, mustaqil ish, referat, talaba, ilmiy izlanish.

Kirish. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda ular ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan so'nggi o'yinlar o'yinlar xaqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma'lumotlarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, undan so'ng ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar – avvalda mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruxiy va jismoniy tayyorgarlik) vazifasini o'tagan hamda jiddiy o'ziga xos kichik ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirish, unga yaqinlashishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga tushishni, uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilishga o'rgatishgan. Shu boisdan ham u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, bir tomondan, ovchilar maxoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san'atini shakllantirgan va rivojlantirgan[1].

Ovdan so'ngi o'yinlar ov muvoffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan deb tahlil qilish mumkin.

Chunki obdon o'lja bilan qaytish, bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyo territoriyasida ibtidoiy odamlar xayotida ham ovchilik o'yinlari bo'lgan degan taxminiy isbotni biz paleolit davri Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan bundan yuz ming burungi pespertol (o'rta paleolit) odam suyagini topilishi, Samarqandagi Omonqo'ton qishlog'idagi gordan topilgan tosh qurollar. Surxondaryoning Zarko't kamarida alvon rangdagi suratlar[2]. Xo'jakent qishlog'idagi toshlarga chizilgan kiyik va ho'kiz tasviri va boshqa ko'pgina arxeologik topilmalar va ulardagi tasviriy san'atga oid elementlar, bu raqs o'yinlarining, shu jumladan bolalar folklor o'yinlarining eng sodda shaxobchalarga ega ekanligidan dalolat beribgina qolmay, balki uning tug'ilishi bosqichlarini aniqlashga ham yordam beradi. Mazkur suratlarda ibtidoiy kishilarning qadimgi ovchiligi, hayvonat va tabiiy borliq bilan bog'liq rituellar aks etib, ov vaqtida janivorlar terisidan niqob qilib yurishlari, bir tomondan ov jarayonida yovvoyi hayvonlarni xurkitib yubormaslikni ko'zlasa, ikkinchi jihatdan, ularning tushuncha va e'tiqodlarini etnografik hamda urf-odatleri,

qadriyatlarining ham ifoda etadi. Farg'onaning Saymalitosh tog'i g'orlariga chizilgan rasmlar (Eramizdan oldingi II-I asrlar) hayvon terisini yopinib, o'yinga tushayotgan iskor marosimlaridan dalolat beradi. Hayvonlar to' dasiga yaqinlashish uchun ibtidoiy odam hayvon yoki qushlarga aynan taqlid qilish, buning uchun esa ularning o'ziga xos xususiyatlarini, yurish-turishlarini, o'tlashlarini, bir-birlari bilan olishishlarini, hurkib qochishlarini, hatto tovushlarini ham o'rganishga to'g'ri kelardi. Nihoyat, yovvoyi hayvonlarni ovlash shart-sharoiti odamning chaqqon va abjir, jasur va toliqmas bo'lishini, buning uchun doim tinimsiz shug'ullana borishini talab qilardi. Bularning hammasini o'z navbatida ibtidoiy odamda jismoniy – ritmik harakatning fe'li yoki tabiat hodisalariga taqlid qiluvchi pantomim harakat va o'yinlarning, qahramonlik raqslarining tug'ilishiga olib kelar edi. Tog' qoyalari va g'orlarda chizilgan suratlardagi o'yin tasviri mazmun-ma'no, va shakl-shamoyil jihatdan turlariga va xarakterga ega. Ayrimlari ov va mehnat jarayonini, ba'zilari esa tabiat stixiyalariga taqlid shaklida, boshqalari jangovorlikni, afsunyorlikni, imo-ishora va pantomima sa'natini eslatadi[3]. Dastlabki paytlarda shovqinli betartib o'yinlar bora-bora musiqaviy ohang pantomim hamda plastik harakatlar orqali amalga oshirila boshlangan keyingi davrlarda, bunday etnografik talqindagi o'yinlar turli shakllarga ko'chib "Ayiq o'yini", "Dev o'yini", "Maymun o'yini", so'ngra "Pishiqlik o'yini", "Ot o'yini", "Yumron qoziq o'yini", "Echki o'yini", "Bo'ri o'yini", "Kaltak o'yini", "Burgut o'yini", "It o'yini (irillatar o'yini)", "Quyov o'yini", "Tulki o'yini", "Jak-jaku o'yini" kabi ko'pgina o'yinlar, pantomimalari avloddan-avlodga o'tib suyak surib kelayotgani ma'lum. Ular bevosita, yoxud bilvosita bolalar folklor o'yinlariga aloqadordir. Shu tariqa "o'yin" so'zi turkiy xalqarining o'ynamoq so'zi bilan bog'liq holda (uy, aql, hikmat ma'nolarni beradi). Aql faqimni, harakat va imo-ishoralari vositasida ifoda etmoqlik esa o'yinlarning dunyoga kelishida muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek an'anaviy bolalar folklor o'yinlarining mavzu qamrovi, ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy hayot, kishilar munosabatlarining biron bir jabxasi yo'qki, ular o'yinlar nazariga tushmagan bo'lsin. Xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik, madaniyati deysizmi, kasb-hunar va ilim-bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, ahloqiy yohud ta'lim-tarbiya, ahloq-odob bobidagi qarashlari deysizmi-barchasi an'anaviy o'yinlarga mavzudir. Xususan, o'zbek bolalar folklor o'yinlari boshdan oyoq ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy tushunchalar bilan yo'g'rilgan. Xalqimizning ming-ming yillarda bosib o'tgan tarixiy yo'lida, tajriba-sinovlardan qayta-qayta o'tib, yaxlit va mukammal xolga kelib, bizgacha yetib kelgan bolalar folklor o'yinlarning mazmuni yo'nalishiga qarab quyidagiga turlarga bo'lish mumkin.

1. Mavsumiy bolalar folklor o'yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o'ynaladigan folklor o'yinlar.

2. Marosim bolalar folklor o'yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'anaviy bayramlarda o'ynaladigan o'yinlar.

3. Mehnat bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari: "Yerni tobigi keltirish, xaydash", "Ekin ekish", "Qovun-qovun", "O'rik qoqish", "Qovun sayli", "Yanchiq", "Hush-hush", "Churey-churey", "Sigr sog'di", "Tuya qaytarish", "Ot sug'orish" va boshqalar.

4. Oilaviy-maishiy bolalar folklor o'yinlari: "Mehmon-mehmon", "Kelin tushirish", "Kelin-kuyov", "Ona bola", "Ovqat pishirish", "Uy jihozlash", "Qo'g'irchoq o'yini", "Non yopish", "Er-xotin", "Alla-alla", "Beshik bezash", "Beshikka belash" va boshqalar.

5. Jismoniy harakatli bolalar folklor o'yinlari: "Quvlashmahoq", "Kes-kes", "Ko'rpa yopildi", "Ziyrak", "G'oz-g'oz", "Koptokni quvib yet", "Olar soka", "Oq suyak",

"To'p-tosh", "Sinish", "Chiqildo", "Chopish", "Zuv-zuv", "Oq terakmi-ko'k terak", "Eshak mindi", "Lanka", "Ot o'yini", "Qiz quvdi" va boshqalar.

6. Mantiqiy bolalar folklor o'yinlari: tez aytishlar, topishmoqni topish o'yinlari, sanimoqlar, aytishuvlar, savol javoblar, o'yab toplar, xotirani tiklashlar, chamalashlar va boshqalar.

7. Hayvonlar va tabiat hodisalarini bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari.

8. Ermak bolalar folklor o'yinlari.

9. Musiqa o'yinlari[4].

Xalq o'yinlari, jumladan, bolalar folklor o'yinlari, eng qadim vaqtlarda boshlab xalq xayoti tarzini, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarligini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan xolda shu kunimizga qadar o'sib, mazmun maqsadiga ko'ra teranlashib bizga yetib kelgandir. Boshqa san'at turlaridan farqligi o'laroq o'yinlarda xalq ruxiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan munosabatida yorqin aks etadi.

Tarixiy manbalarga qaraganda, kechki poleolit davrida (taxminan miloddan 40-41 ming yil ilgari) yer yuzining shmoliy qismida Totemga oid "Ayiqlik bayramlari" bo'lgan. Totem – ayiqqa bag'ishlangan afsonalardan bu bayram xaqida ba'zi ma'lumotlarni topish mumkin (ularning birida ayiq odamlarni ofatdan saqlab qoladi, buning evaziga qobilning eng go'zal qizini ayiqqa turmushga berishadi [5]. Ular o'rtasidagi to'y tasviridagi "Ayiqlik bayramiga" oid ba'zi elementlarini bilsa bo'ladi). Shuni eslab o'tish kerakki, "Ayiqlik bayramlari variantlari va elementlari Sibir xalqlarining ba'zilarida XX asr boshlarida ham saqlangan va bunday bayramlarda ayiq obrazidagi kishi bosh qaxramon bo'lib, u ayiq xarakterini qilib, raqsga tushib yurgan. O'rta Osiyoda esa "Ayiqlik o'yini" (pantomimik raqs sifatida) keyingi vaqtlarga yetib kelgan. Xatto hozirgi kunda ham O'zbekiston Respublikasi xududida va shuningdek Turkiya, Xindiston, Kavkaz kabi joylarda ko'chalarda ayiq o'ynatib yurgan odamni ya'ni ayiqchini ko'rish mumkin. Ular odamlar g'ovjum joylarda kichik tomosha ko'rsatib yurishadi. Balki bu qadimgi ayiq o'yinidan bizgacha yetib kelgan elementlarning bir bo'lagi bo'lishi ham mumkin.

Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dexqonchilikka o'tishi (Bu jarayon O'rta Osiyoda miloddan oldingi III- ming yillik oxiri II- ming yillik boshlariga to'g'ri keladi) ana shu yangi soxaga oid odat, marosim va o'yinlarni vujudga keltira boshladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, dexqonlarning xayotida eng quvonchli vaqia-bu xosilni yig'ish va yangi noz-nematlarni totib ko'rish jarayoni bo'lgan. Yil bo'yi kutilgan bunday jarayon, tabiatni, dexqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bunday ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil qilgan, "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, keng ma'noda aytganda, bayram xolatini vujudga keltirgan. Broiza davrlaridan boshlab o'troq dexqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida baxorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda xosilning yg'ib olish yakuniga bag'ishlangan bayramlar va o'yinlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Demak insoning "Birinchilik kasbi" - ovchilik asosida – "Ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa uning dexqonchilikka o'tishi va u bilan shug'ullanishi natijasida "Mehnat o'yinlari" shakllanib, yangi mehnat o'yinlari va bayramlari uchun zamin yaratgan [6].

Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari muhim rol o'ynaydi. Aniqsa "Navroz" kunlarida har xil musobaqalar va o'yinlar "Ko'pkarra, kurash", "Ekin ekish", "Xo'rozlar jangi", poyga bayramining

ko'rki sanalgan. Shu bilan birga bedana, xo'roz, qo'chqor urishtirish o'yinlari ham o'tkazilgan.

Shuning uchun xalq o'yinlarining dastlabki namunalari insoniyat ongi, tafakkuri bilan bog'liqdir. Uning paydo bo'lishida o'sha davr shart-sharoitlari, odamlarning ov va turmush tajribalari, dunyo qarashi, urf-odat va marosimlari asosiy rol o'ynagan. Avvalo oddiy og'zaki bayoning dastlabki namunalari paydo bo'lgan. Ular nixoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov xitoblar va voqialar bayonidan iborat bo'lgan. Ov jarayoni hamda tafakkurning rivojlanishi voqia va xodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirlashga olib keldi.

Eng qadimgi xalq o'yinlari namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha ilgari paydo bo'lgan. Ilk xalq o'yinlari asl xolda, to'laligicha bizga yetib kelmagan. U otadan – bolaga, avloddan-avlodga o'tib har bir o'yin turli xil ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni bosib o'tganligi sababli uning shakli va mazmunida yangi-yangi variantlari yuzaga kelgan [7].

Xalq o'yinlarining eng qadimgi namunalari ba'zi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalar orqaligina bizga yetib kelgan. Eng qadimgi o'yinlar, jangnomalar, miflar, afsona va rivoyatlar, qaxramonlik eposlari, sanoqlar, raqslardan tashkil topgan.

Xulosa va takliflar. Jaxonga mashhur bo'lgan olim, tibbiyot ilmining buyuk nomoyandalaridan biri Abu Ali ibn Sino tibbiyotda jismoniy mashqlarning roli katta ekanligini ilmiy asoslab, o'sha vaqtlardayoq xalq milliy o'yinlari va milliy kurash haqida qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan.

Masalan, u quyidagi o'yinlarni "Yoydan o'q otish", "Kichik kurrolar bilan chovg'on o'yinlar", "Bir oyoqda sakrash", "Yuqoridagi bir narsaga irg'ib osilish", "Nayza otish", "Tosh ko'tarish" va shunga o'xshash o'yinlarni yozib qoldirgan. Unga tevarak-atrofidagi shaxslar sen bilimdon va aqlli o'zing bolalarga har xil fanlardan bilim berasan u, yana ular bilan o'ynaysan, deganlar, Ibn Sino bunday tanqidiy mulohazaga: "Inson hayotining har bir davri o'zining go'zalligiga ega. Bolalikning xususiyati esa o'yin" deb javob bergan edi.

XI asrda yashab, ijod etgan Mahmud Kashg'ariy "Devonu lug'atit-turk", ya'ni turkiy so'zlar devonini tuzib chiqdi, unda xalq o'yinlarining 150 ga yaqin turlari tilga olinadi va shundan 20 ga yaqin o'yinlarga ta'rif beriladi. Olim o'yin turlari, o'yinlarning bola va kattalarning yosh xususiyatlariga nisbatan taqsimoti, mashg'ulot, musobaqa turlarini bayon qiladi. Maxmud Qoshg'ariy bayonida o'yinlar nafaqat jismoniy, balki aqliy mashg'ulotlarga ham bo'linadiki, ular diqqat bilan o'rganilishga loyiq.

Hozirda biz "Sport musobaqalari" - deb qo'llab yurgan ibora, Mahmud Qoshg'ariy devonida "bahs" atamasi bilan berilgan. Bunday "bahslar"ning turlari ko'p bo'lgan. Masalan, merganlikda bahs qilmoq, o'q yoy otib qush va hayvonlarni ovlamoq, shuningdek, arqon taxtali sopqonlarda tosh otmoq baxsi. Buni "Oltin qovoq" o'yini deb ataganlar. Devonda bunday bahslarning qoida va shartlari, xillari, g'oliblarga beriladigan sovrinlar, asbob-anjomlarning nomlari besh fasl bayon etilgan.

ADABIYOTLAR

1. <https://thetargeting.ru/kapitanyi-rossii2> - Kak privilech abiturientov na biznes-fakultet REU im.Plexanova. Murojaat etilgan sana: 22.04.2022 y.
2. <https://www.educationindex.ru/articles/higher-education-in-the-usa/education-system-in-the-usa/kak-ustroeno-vysshee-obrazovanie-v-ssha-osnovnye-otlichiya-ot-rosiykoj-sistemy/> - Kak ustroyeno vysshye obrazovaniye v SSHA: osnovnye otlichiya ot rosiykoj sistemy. Murojaat etilgan sana: 22.04.2022 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.06.2017 yildagi 393-son. <https://lex.uz/docs/3244181>.
4. Teri Clemens, Jenny McDowell. The volleyball Drill book//125 technical and tactical Drills/American volleyball coaches association.2012.-239s.
5. Madaminov, A. E. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ilmiy ishlarini tashkil etish bosqichlari / A. E. Madaminov. — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2022. — № 1 (396). — S. 303-306.
6. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubi. // Oliy o'quv yurtlari uchun Darslik. T.: 2011. - 278 b.
7. Спортивные игры: Техника, тактика, методика обучения. // Учеб. для учащ. колл. и акад. лиц. Под ред. Л.Р.Айрапетьянц. Т.: Илм Зиё.



UDK: 1(5) (091)

Sohibjon UMARJONOV,
TDIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail: fenomen1993@bk.ru

TDTrU professori, f.f.d. J.S. Ramatov taqrizi asosida

FAKHR AL-DIN AL-RAZI'S COMMENTARY ON THE WORK POINTERS AND REMINDERS

Abstract

The personality of Ibn Sina and his works on logic and philosophy is crucial in the history of philosophy. His Pointers and reminders caused most commentaries to be written and became the subject of debates of many philosophers and religious scholars. This factor shows how important the work is. Fakhr al-Din al-Razi is one of the successors and commentators of Ibn Sina's philosophy and logic. The article will consider Fakhr al-Din al-Razi's commentary on Ibn Sina Pointers and reminders. The topic that we are researching below is very little studied in our country, according to the law of the President of the Republic of Uzbekistan PF-60 of January 28, 2022, on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" "Deep study and wide dissemination of the rich scientific heritage of our great ancestors" road map further increases the theoretical basis of our research and the relevance of the emerging problem. In the article, the reasons for writing the narration, the method of the narration, and the content of the commentary on the basis of various sources are revealed through the comparative analysis of the opinions of famous orientalists, commentaries of Fakhr al-Din al-Razi and Sharafiddin al-Masudi.

Key words: "Al-Ishorot va-l-tanbihot", "Sharh al-Ishorot", "Javabat", doubts, puzzles, pointer, reminder, rebukes, erroneous supposition.

КОММЕНТАРИЙ ФАХРИДДИНА РАЗИ НА ПРОИЗВЕДЕНИЕ «УКАЗАНИЯ И ЗАМечАНИЯ»

Аннотация

Личность Ибн Сины и его труды по логике и философии занимают важное место в истории философии. Его «Указания и замечания» вызвали наибольшее количество комментариев и стали предметом споров многих философов и религиоведов. Это показывает, насколько важна работа. Фахриддин Рази — один из последователей и комментаторов философии и логики Ибн Сины. В данной статье мы рассмотрим комментарий Фахриддина Рази к «Указания и замечания» Ибн Сины. Тема, которую мы исследуем ниже, очень мало изучена в нашей стране, согласно указу Президента Республики Узбекистан ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» «Углубленное изучение и широкое распространение богатого научного наследия наших великих предков» дорожная карта еще больше повышает теоретическую базу нашего исследования и актуальность возникающей проблемы. В статье путем сравнительного анализа мнений известных востоковедов, комментариев Фахриддина Рази и Шарафиддина ал-Масуди раскрываются причины написания комментария, метод комментария и содержание комментария на основе различных источников.

Ключевые слова: «Аль-Ишорот ва-л-танбиҳот», «Шарх ал-Ишорат», «Джавабат», сомнения, загадки, указатель, напоминание, упреки, ошибочное предположение.

“ISHORALAR VA TABEHLAR” ASARIGA FAHRIDDIN ROZIYNING SHARHI

Аннотация

Falsafa tarixida Ibn Sino shaxsi va uning mantiq va falsafaga doir asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. "Ishoralar va tanbehlar" asari eng ko'p sharhlar yozilishiga sabab bo'lgan va ko'plab faylasuf va diniy ulamolarning baxs-munozaralari mavzusiga aylangan. Bu esa asarning ahamiyati qanchalik darajada muhim ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino falsafasi va mantiqning davomchisi, sharhlovchilaridan biri Fahriddin Roziy hisoblanadi. Ushbu maqolada Ibn Sinoning "Ishoralar va tanbehlar" asariga Fahriddin Roziyning sharhi haqida fikr yuritimiz. Biz quyida tadqiq qilayotgan mavzu mamlakatimizda juda kam o'rganilganligi, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" yo'l xaritasi tadqiqotimizning nazariy asosi va ko'tarilayotgan muommoning dolzarblilik darajasini yanada oshiradi. Maqolada taniqli sharqshunoslarning mavzuga doir fikrlari, Fahriddin Roziy va Sharafiddin al-Mas'udiy sharhlarining qiyosiy tahlili orqali Roziyning sharh yozish sabablari, sharx uslubi, sharxlarning mazmuni turli manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Al-Ishorot va-l-tanbihot", "Sharh al-Ishorot", "Javabat", shubhalar, jumboqlar, ko'rsatma, eslatma, tanbehlar, asossiz tahminlar.

Kirish. Bugungi kunda ilm-fanga, yoshlar tarbiyasiga har qachongidan-da ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifati, yuksak ma'daniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" [1] Shu asosda ajdodlarimiz

ma'naviy merosini, ularning ibratli hayot yo'lini tadqiq qilish jamiyatimiz uchun, ta'lim-tarbiya uchun juda muhim jarayon hisoblanadi.

Sharafu-l-mulk – Abu Ali ibn Sino insoniyat madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan, jahon fani, falsafa, badiiyati, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandosh mutafakkirlarimizdan hisoblanadi. Ibn Sinoning dunyoqarashi o'zi yashagan

madaniyatini aks ettiradi. Uning dunyoqarashi Hindiston tabiatshunosligi va Yunoniston falsafasi ta'siri ostida shakllandi. Ibn Sino Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen), Yevklid, Arximed, Pifagor, Arastu, Porfiriylarning asarlari bilan yaxshi tanish edi. Ibn Sinoga Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy va Forobiylar juda katta ta'sir o'tkazishdi. [2; 69]

Donishmand umrining oxirida, 1030-1034 yillarda o'zining prinsipial asari "Kitabu-l-ishorot va-t-tanbihot" ni yozdi. Bu asar musannifning bibliografiyasida aytilishicha "boshqalardan sir tutgan so'ngi asari" [3; 155] hisoblanadi. Unda muallifning mustaqil fikrlari bayon etilgan. Shu sababli bu asar talabalar orasida "Kitob ash-shifo" dan ko'ra katta e'tiborga sazovor bo'lgan edi [7; 100]. Ushbu asar ko'plab faylasuf mutafakkirlar e'tiborini torta oldi va bir nechta sharhlar yozildi. Chunki u Ibn Sinoning mantiq ta'limoti, ijtimoiy-siyosiy, ontologik, gnoseologik qarashlarining muhim xususiyatlarini aks ettiradigan asardir [5; 102-103].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fahriddin Roziy Aristotel, Demokrit, al-Kindiy, Zakariyo ar-Roziy, Farobiy va Ibn Sinolarning tafakkur rivojidadagi ilmiy merosi va faoliyatini yuksak baholaydi va o'zini ularning g'oyalari davomchisi deb biladi [6;8]. Fahriddin Roziy birinchi bo'lib Ibn Sinoning "Al-ishorot va-t-tanbihot" asariga mukammal, to'liq dalillash uchun keltirilgan fikrlarga sharh yozgan bo'lsa-da [7], sharhlash an'anasi undan boshlanmagan edi. Roziydan oldingi sharh "Al-Mabahas va-l-shukuk ala kitab al-Ishorot va-l-tanbihot" (Ishoralar va tanbehlar e'tirozlar va tekshiruvlar) deb nomlangan yetarlicha isbotlanmagan sharh muallifi Sharafiddin al-Mas'udiy (v. 600/1204- yildan oldin) hisoblanadi [8]. "Sharh al-Ishorot" Ibn Sinoning "al-Ishorot val-tanbihot" (Ishoralar va tanbehlar) asariga mashhur sharh hisoblanadi va u faqatgina Roziyning sharhidan iborat emas. Uch to'mli asarning ikkinchi to'mi "Ishorot" asari bilan bog'liq. "Lubab al-Ishorot" ("Ishoralarning eng muhim qismi") deb nomlangan uchinchi to'mi "Al-Ishorot va-l-tanbihot" asariga muhim hisoblangan to'liq sharhi hisoblanadi [9]. Bu qism "al-Tafsir al-Kabir" va "Kitab al-Muhassal" kabi Roziyning asarlari qatoridagi shoh asar hisoblanadi. "Javabat al-masail al-buxariyya" ("Buxorodagi [falsafiy] muammolarga munosabat") deb nomlangan Roziyning super sharhi "Sharh al-Isharat" asarining birinchi to'mi bo'lib, quyidagi ikki jihatdan juda muhim hisoblanadi: Birinchidan, Roziyning dastlabki falsafiy asari sifatida faylasuf tafakkurining dastlabki rivojlanishidagi qimmatli yangi ma'lumotlarni beradi. Ikkinchidan, ehtimol eng muhim jihati Roziyning ilmiy muhit bilan qanday munosabatda bo'lganligi haqidagi hayotiy ma'lumotlarni beradi va bu nafaqat "Ishorot" ning to'liq sharhini muhokama qilishga, shuningdek, uning butun falsafiy va ilohiyotshunoslikka oid faoliyati va samaradorligi kengroq bo'lishiga xizmat qiladi. Professor Ayman Shihadeh "Ishorot" ning ba'zi qismlarini bir nechta tadqiqotlarida tahlil qilgan va qimmatli ma'lumotlarni bayon qilgan [7,10,11,12,13]. Quyida muhokamalarimizni Ayman Shihadeh, A. Michael Rapoport [14], Frank Giffel [15], Robert Wisnovskiy [16] kabi taniqli sharqshunos olimlarning ilmiy izlanishlari asosida davom ettiramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotning sifati va natijasi izlanishda qo'llaniladigan vosita va usullarga bog'liq. Shu bois, fanda tadqiqot vositalari, texnologiyasi va usullariga e'tibor har doim katta bo'lgan. O'rganilayotgan ob'ekt qanchalik murakkab bo'lsa, uning xossalari va qonuniyatlarini ochish uchun qanday vosita, asos yoki usulni ishlatish masalasi dastlab hal qilinishi kerak bo'lgan metodologik muammoga aylanadi. Mazkur muammo xususida mulohaza yuritish metodologiyani, ya'ni, metodologik bilim darajasini (qatlami) tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Fahriddin Roziy sharhining mazmuni, yozish zaruriyati, uslubi hisoblanadi. Tadqiqot davomida mavzuga oid Yevropaning yetakchi sharqshunoslari

tomonidan yozilgan ilmiy asarlarni o'rganish davomida ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik, mantiqiylik, dialektik, kutubxona metodlaridan foydalangan holda mavzuda qo'yilgan muommoni yechishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. A. Michael Rapoport 4 ta sharhni, xususan, ularning ikkitasi juda mashhur (bu sharhlarning mazmuni bo'lmasada hech bo'lmaganda mualliflarning obro'si sifatida), qolgan ikkitasi esa unday mashhur bo'lmagan sharhlarni o'zining doktorlik dissertatsiyasida tadqiq qiladi. (Bu to'rt sharhlovchilarning sharh asarlari qo'lyozma nusxalari bugungi kunda yetarlicha o'rganilmagan va O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida saqlanadi. Bu qo'lyozma asarlar haqida avvalgi tadqiqotlarimizda ma'lumot berib o'tgan edik [8].) Dastlabki ikki mashhur mualliflar va ularning asarlari sifatida Fahriddin ar-Roziyning "Ishoralar va tanbehlar e'tirozlar" (Sharh al-Ishorot val-Tanbehot) va Nosiriddin Tusiyning "Ishoralardagi muommolarga yechim" (Hall mushkilot al-Ishorat) asarlarini keltiradi. Keyingi ikki sharh esa kamroq ma'lum bo'lgan asarlar hisoblanib, sharhlarni sharhlash an'anasi janridagi ikkita namunasi, ya'ni hukm va muhokama; bu holda hukm yuqorida tilga olingan ikki sharhlovchi o'rtasida bo'ladi. Sharhlarni sharhlovchilarning birinchisi Badriddin al-Tustariy (v. 1332) bo'lib, "Nosiriddin va al-Roziy o'rtasidagi muhokama" (al-Muhokama bayna Nasir al-Din val-Razi) asarini yozgan. Ikkinchisi esa Qutbiddin al-Razi al-Tahtaniy (v. 1365) muallifligidagi "Al-Imom va al-Nosir o'rtasidagi muhokama" (Kitab al-Muhokama baynal-Imam val-Nasir)dir. [14;15]. Biz ushbu tadqiqotimizda Fahriddin Roziyning sharhini tadqiq qilamiz.

Sharafiddin al-Mas'udiyning "Ishoralar" ga tanqidiy sharhi Fahriddin Roziyning Ibn Sino asariga yozgan uchta sharhning birinchisi hisoblangan "Buxorodagi masalalarga javoblar" (Javabat al-masail al-Buxariyya) deb nomlangan sharhni yozishga turtki bo'ladi [14;16]. Mas'udiy o'zining "E'tirozlar va tekshiruvlar" asarining muqaddima va xulosa qismida Ibn Sinoning "Ishoralar" asariga to'xtalib, uni mutolaa qiluvchilar biroz shubha (shubah) va jumboqlarga (shukuk) duch kelishi haqida ma'lumot beradi va o'z sharhini quyisid jihatdan "adovat va tarfakashlik" dan yiroq holda, ideal ravishda ularga yechim topish va tadqiq qilish uchun yozgan edi [7]. Umuman olganda Mas'udiy "Ishoralar" da berilgan 50 ta masalani (mas'ala) muhokama qiladi. (Matn bilan muommolar bo'lganligi sababli barcha masalalarni qamrab olish kerak emas shuning uchun u birlamchi masalalarning hosilasi bo'lgan ikkilamchi masalalarga e'tibor qaratmaganligini tan oladi.) Mas'udiyning har bir masalaga munosabati garchi bu masalalar qat'iy tartibda ko'zga tashlanmasa-da quyidagi tarkibni o'z ichiga oladi: "Ishorot" ga tegishli parchadan mulohaza (lemma), biroz tafsir sharhi, muhim bo'lgan parchada uchragan jumboqlar va e'tirozlarni ko'rsatish, shuningdek, izohlar hamda gipotezalarning muqobil variantini ko'rsatish. [7]

Biroq, Mas'udiyning sa'r-harakatlari Roziyning yuqori darajadagi mezonlariga javob bermasligini ko'rsatadi. Roziy "Javabat" asarining muqaddimasida bir noma'lum homiy undan "bu mummolar ummonini sinchkovlik bilan o'rganishini va o'sha jumboqlarga yechim topishini" soraydi [13;11]. Shunday qilib Roziy tanqidiy tadqiqotning o'ziga hos ravishda tizimli va keng qamrovli uslubini tadbiiq qildi va Mas'udiy o'z sharhida bir xil tizimli tarzda yozmaganligini quyidagicha tanqid ostiga oldi: فإن من حق هذا الفاضل أن يعترض أولاً على الحجة التي نقلها من الأشارات ثم يشتغل ببيان مذهب نفسه فإن من خالف الجمهور في شيء لا يكفي أن يشتغل ببيان مذهب نفسه بلا بد وأن يقدم في أدلة المتقدمين ويبين في مقدمات تلك الأدلة من الضحيف والغلط.

"Xurmatli sharhlovchi "Ishorot" dan keltirgan fikrga e'tiroz bildirishi va keyin o'zining yondashuvini tushuntirishga harakat qilishi kerak. U kim bo'lsa ham

o'zining yondashuvi asosida ko'pchilikning fikriga qarshi chiqishi yetarli emas. Yo'q albatta! Aksincha u o'zidan oldingi shaxslarning fikrlarini noto'g'ri ekanligini isbotlashi va bu fikrlarning mazmunidagi xatolik va kamchiliklarni tushuntirishi kerak" [13].

Roziy o'zining bir qator asarlari muqaddimalarida Mas'udiyning tanqidiy tadqiqoti uslubi haqida bevosita to'xtalib o'tadi. U "Sharq munozaralari" asarining muqaddimasida o'z nuqtai nazarini tasdiqlaydigan dalil keltirishi kerakligiga urg'u beradi. Ahamiyatsiz ma'lumotlarni deb xushomadgo'ylik bilan ularning salafilariga ergashganlarni qattiq tanqid qiladi. Bunday xatolardan xalos bo'lish uchun Roziy "Aqlning cheklanishi" asari muqaddimasida "mashaqqatli tadqiqotning savol-javoblari va muommolar ummonini batafsil, sinchkovlik (ta'ammuq) bilan tadqiq qilish" [11] metodini talab qilishga urg'u beradi. Shihadeh bu terminlarni Roziyning bir masalani to'g'riligini aniqlashdan oldin barcha ehtimoliy fikrlar va qarshi fikrlarning batafsil va tizimli tahliliga murojaat qilgan holda tushuntiradi [11]. O'z da'volarini faqatgina o'tmishdagi bilimlar bilan asoslash yoki shunchaki bu bilimlarga qarshi e'tirozlarni oshirish va uni shunday qoldirish Roziy uchun qoniqarli holat emas edi. Visnovskiy ta'kidlaganidek, Roziy uchun "Agar siz tasodifan haq bo'lsangiz bu yetarlicha yaxshi emas: siz to'g'ri sabablarga ko'ra haq bo'lishingiz kerak." [16] Roziy o'zining uslubini juda puxta, keng qamrovli ekanligini ta'kidlaydi va holisona baho beradigan bo'lsak, Roziyning asarlari qarama-qarshi maktab vakillarining (madhab) asarlaridagi g'oyalarga ko'proq foydali ekanligini isbotlaydi.

Roziy asarlariga tadbiiq qilgan mukammal tahlil uslubi puxta tarkibiy strukturada namoyon bo'ladi. Bu struktura Roziy masala yoki muommo deb tariflagan qisqa savollar va bildirilgan fikrlardagi saralab olingan murakkab falsafiy va teologik masalalarni o'z ichiga oladi. "Ishoralar" ga Roziyning sharhida muommolar ba'zida bo'limlarning (qism) keng sarlavhasi ostida joylashgan. Bu muommolar qismlar (fasl) yoki nuqtai nazarlarga (vajh) bo'linishi mumkin lekin har doim ham bunday bo'lmaydi. Roziy esa bu tamoyildan ko'plab asarlarida foydalangan, ayniqsa Ibn Sino atayin mavhum qilib yozgan "Ishoralar" ga sharhi bu tamoyilga mos tushadi. Shunday qilib Roziy bu asarning istehzoli va mavhum tiliga yashiringan argumentlarni tushunishga harakat qilganlar uchun yo'l xaritasini ishlab chiqqan edi.

Roziy o'zining jiddiy tanqid uslubiga qay darajada amal qilganligi uning postklassik Islom tarixidagi tutgan o'rnini qaytadan ko'rib chiqishni, baholashni talab qiladi. Ash'ariy g'oyalari qabul qilishiga qaramasdan, Roziy qat'iy ravishda tanqidchilarning qarshiligiga uchragan. Ibn Sino va falsafiy an'analarning manfaatlarini ximoya qildi, Roziy Mas'udiy Ibn Sinoga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishini va "Ishoralar" ni yaxshiroq tushunishi uchun Ibn Sinoning boshqa asarlariga murojaat qilmaganligini qoralaydi. Roziy doimo Ibn Sino asarini Mas'udiy noto'g'ri o'qiganligini yoki noto'g'ri tushunganligini ta'kidlaydi [11;303-304]. Buning natijasida zamonaviy olimlar odatda Avitsennaizmning himoyachisi sifatida Nosiriddin Tusiyini ko'rsatadilar.

Roziy "Ishoralar" asarini o'ziga xosligi va qadr-qimmatini, shuningdek, uni o'qigan har bir kishi uchun qanday qiyinchilik tug'dirayotganligini aniq tushunadi. Roziyning "Javabat" asaridan ko'rinib turibdiki, Mas'udiy bu mashaqqatni yengib o'ta olmagan. Shu tariqa "Ishoralar va

tanbehlariga sharh" nomli ikkinchi sharhni yozadi. Birinchisidan farqli o'laroq, bu ishoralarni tushuntirish yoki tanqid qilish uchun oldingi urinishlarga javoban yozilgan super sharh emas, aksincha Roziy Ibn Sino asariga bevosita murojaat qiladi. U o'z oldiga qo'ygan vazifaning muhimligi va ulkanligini quyidagicha tan olishdan boshlaydi:

ولما كان كتاب الإشارات والتنبيهات من كتب: الشيخ الرئيس وان كان صغير الحجم إلا أنه كثير العلم عظيم الاسم مستعلق النظم مستصحت على الفهم مشتمل على العجائب المنطبق على كام أولى الألباب متضمن للنكت العجيبة والفوائد الغريبة التي خلقت عنها أكثر المنسوبات ولا توجد في شيء من المطولات ورأيت أكثر الخلق مقيين على تحقيق معانيه بأحذنين عن أسرارهم ومبانيه متفحصين عما فيه من الغوامض والمشككات متصفحين ما فيه من الفوائد والنكات ثم رأيت بعضهم يرجعون عنه بحفى حين وينصرفون إلى ما وراءهم بدون قرة عين وكنت قد صرفت طرفاً صالحاً من العمر إلى تتبع فصوصه وتقم نصوصه واستكشاف أسراه والتعمق في أغواره أردت أن أثبت تلك الفوائد إرشاداً للطلالين إلى هذا المطلب العظيم والمقصد الكريم قصرقت عنان العناية إلى تلخيص ذلك الشرح وترتيبه.

"Buyuk ustozning (Ibn Sino) "Ishoralar va tanbehlar" kitobi kichik hajmli bo'lishiga qaramasdan, ma'no-mazmunga ta'ra, ajoyib nomli, tushunish qiyin bo'lgan struktura, murakkab tushuniladigan mo'jizalar mo'jizasini qamrab olishi, yozuv tili ko'ngilga yaqinligi, fikrlashga majbur qiladigan g'alati, nozik kinoyalardan va o'ziga xos fikrlardan iboratligi, ko'plab misollar yetishmasligi va ularni hech qanday uzun asarda uchramasligi; va (shuning uchun) men ko'plab odamlarni uning ma'nosini tekshirishga e'tibor berganligini, asarning siri va asosini o'rganib chiqish, asarda mavjud bo'lgan muommo va jumboqlarni tadqiq qilish va undagi foydali fikrlarni va nozik mulohazalarni diqqat bilan ko'rib chiqishini ko'rdim. Shundan keyin men ularning ba'zilarini bo'sh qo'l bilan qaytganini (hech narsaga erishmaganligini) ko'rdim. Hech qanday tasalli bermasdan ularning e'tiborini keyingi narsaga qarashga va hayotimning katta qismini undagi muhim fikrlarni davom ettirishga va mulohazalarni tushunishga, undagi sirlarni ochishga va asarning tub ma'nosini tushunishga bag'ishladim. Mana shu buyuk izlanish va ezgu maqsad sari intilayotganlarga qo'llanma sifatida men bu muhim, foydali mulohazalarga oydinlik kiritishni xohladim. Shunday qilib men bezovtalikni bir chetga surib (va bor kuchimni) ushbu sharhni ixcham qilish, uni tizimlashtirishga, bo'limlarga bo'lish va qayta ko'rib chiqishga, shu bilan birgalikda zerikarlilikka yetaklaydigan ezmali va lo'ndalikka olib keladigan tushirib qoldirishga tomon yuzlanishga bag'ishladim." [11]

Xulosa. Roziy "Ishoralar" ni sharhlash orqali o'ziga ulkan, mas'uliyatli vazifani o'z bo'yniga oladi va bu ishni muaffaqiyatli amalga oshiradi. U "Ishoralar" ni shakllantirib, uni bo'limlarga bo'lish rejasini bayon etar ekan, har biri bir nechta ko'rsatma (ishora), eslatma (tanbih), tanbehlar (tadnib) va asossiz tahminlardan (vahm) tashkil topgan asarning 20 ta bobini mavzular (mas'ala), bo'limlar (fasl) va qismlar (qism) ko'rinishida bayon etishni joriy etadi [14]. Roziy sharhining tuzilishi o'z davri nuqtai nazaridan juda innovatsion hisoblangan edi. Shu o'rinda Shihadeh Roziyning aporik va tafsir janrlarini birinchi bo'lib yagona asarda birlashtirganligini ta'kidlaydi [11].

Roziyning to'liq tekshirilgan, mukammal sharhi uning "Ishoralar" dagi muommoli masalalarning xulosasidan darak bermaydi. Tahminan 1201-yilda o'zining "Javabat" asarini tugatganidan 20 yil o'tib, Roziy "Ishoralarning eng muhim jihatlarini" (Lubab al-Isharat) deb nomlangan sharhni yozdi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – Toshkent.: "O'zbekiston", 2021.
2. Axmedova M. A. Umumiy muharrirligi ostida "Falsafa" – Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – bet 496.
3. Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. Brill, Leiden. Boston, 2014. P 617

4. Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш. Шарқ фалсафаси ўқув қўлланма. – Тошкент.: «Jahon print», 2011. – bet 516.
5. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар) –Т.: ТДШИ, 2009. – bet 191.
6. Нанмов Н. Философские и логические воззрения Фахриддин Рази: Дисс. автореферат...канд.ф.наук, – Ташкент, Институт философии и права АН Уз ССР, 1971. С 30.
7. Shihadeh, A. (2016). Doubts on Avicenna: A Study and Edition of Sharaf al-Din al-Mas'udi's Commentary on the Isharat. Islamic Philosophy, Theology and Science. Texts and Studies 95. Leiden, Boston: Brill, 2016. p 48.
8. Umarjonov S. (2023). Ibn Sinoning "Ishoralar va tanbehlar" asari va Postklassik Islom falsafasining boshlanishi. Scienceproblems.Uz, 3(1), 37–50.
9. Giffel Frank. Herausgegeben von Ulrich Rudolph, Philosophie in der Islamischen welt, 11. und 12. jahrhundert: Zentrale und Östliche gebiete. Schwabe verlag, 2021. s 471-501.
10. Shihadeh A. (2015). "From al-Ghazali to al-Razi: 6th/12th Century Developments in Muslim Philosophical Theology. Arabic Sciences and Philosophy, 15 (1), 141 – 179.
11. Shihadeh A. (2016). Razi's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics in The Oxford Handbook of Islamic Philosophy, eds. K. El-Rouayheb and S. Schmidtke Oxford: Oxford University Press, 296-325.
12. Shihadeh A. (2013). A Post-Ghazalian Critic of Avicenna: Ibn Ghaylan al-Balkhi on the Materia Medica of the Canon of Medicine. Journal of Islamic Studies,24, 135–174.
13. Shihadeh A. (2014). "Fakhr al-Din al-Razi's Response to Sharaf al-Din al-Mas'udi's Critical Commentary on Avicenna's Isharat". The Muslim world, volume 104, 1-60.
14. Rapoport A.M. "The life and afterlife of the rational soul: Chapter VIII-X of Ibn Sina's Pointers and Reminders and their commentaries". A dissertation in Cand. for the degree of doctor of philosophy, 2018. p 500.
15. Griffel Frank. The Formation of Post-Classical Philosophy in Islam. New York: Oxford University Press, 2021.
16. Wisnovsky Robert. (2013). Avicennism and Exegetical Practice in the Early Commentaries on the Ishara. Oriens 41, no. 3-4, 349-78.
17. Umarjonov S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. Imom Buxoriy saboqlari, 1, 24-25.



UDK: 564.665

Durdona O'RINOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti
E-mail: urinovadurdona9@gmail.com

TDPU fan doktori, Muhsinova Aziza taqrizi asosida

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ИГРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассказывается об использовании современных платформ в интересной организации уроков, а также о различных современных методах, которые используются в обучении иностранному языку и повышают эффективность уроков, включая преимущества платформы «Kahoot».

Ключевые слова: Иностранные языки, педагогические технологии, методика, игровые платформы, платформа «Kahoot».

EFFECTIVE USE OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS AND GAME PLATFORMS IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

This article describes the use of modern platforms in an interesting organization of lessons, as well as various modern methods that are used in teaching a foreign language and increase the effectiveness of lessons, including the benefits of the Kahoot platform.

Key words: Foreign languages, pedagogical technologies, methodology, gaming platforms, "Kahoot" platform.

CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR VA O'YINLI PLATFORMALARDAN UNUMLI FOYDALANISH

Аннотация

Mazkur maqolada Chet tilini o'qitishda qo'llanilib kelayotgan va dars samaradorligini oshiradigan turli xil zamonaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy platformalardan darslarni qiziqarli tashkil etishda foydalanish haqida keltirilgan. Shu jumladan "Kahoot" platformasining afzalliklariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, pedagogik texnologiyalar, metodika, o'yinli platformalar, "Kahoot" platformasi.

Mamlakat huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish yo'lida dadil odimlamoqda. Bu hol jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida tub o'zgarishlar qilish kerakligini bosh maqsad qilib belgilaydi. Ushbu maqsadning ijobiy yo'nalish kashf etishi, ta'lim muassalari talabalarini kasbiy rivojlanishini ta'minlashi uchun eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda ma'naviy tafakkurni rivojlantirish, aqliy salohiyat ma'naviy axloqiy sifatlarini rivojlantirishni yo'lga qo'yish va buning uchun ularga ta'lim-tarbiya beruvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirishga bog'liq.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab globallashuv jarayoni bilan bir qatorda, texnika va texnologiyalar ham shiddat bilan taraqqiy etib bormoqda. Hozirgi kunga kelib yurtimizda ham barcha sohalarining rivoji uchun juda keng islohotlar olib borilmoqda. Buning yaqqol timsoli sifatida, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 28 yanvardagi farmoniga ko'ra, "2022-2026-yillarda yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi va bunda kelgusi 5 yil davomida har bitta sohani rivojlantirish uchun alohida strategik maqsadlar belgilab olindi. Jumladan, taraqqiyot strategiyasining 4-bobi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'limida, ta'lim tizimi va uni takomillashtirishga ham alohida maqsad sifatida belgilab olingan

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qaroriga muvofiq chet tillarini

o'qitishni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodga saboq berish va uni to'g'ri yo'lga yetaklash uchun juda katta bilim, keng salohiyat va albatta kuchli metodika talab qiladi. Ayniqsa chet tillarni o'qitishda, o'qituvchilarda yaratuvchanlik ya'ni kreativlikni qobilyati yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak.


Biz bilamizki, o'qitishda juda ko'p an'anaviy va noan'anaviy usullardan foydalaniladi. Masalan darslarda asosan barchamiz "Klaster", "Aqliy hujum", "Muzyorar", "Baliq skeleti", "Step by step (qadam baqadam)", "who am I? (Men kimman)", "Find your Pair (Juftingni top)", "BBB" va shunga o'xshash juda ko'p metodlardan foydalanamiz. To'g'ri bu usullar fanimizda samaradorlikni oshirishda xizmat qiladi va bu yillar davomida o'z isbotini ham topgan. Lekin hozirgi kun yosh avlodi uchun eng qiziqarli narsa bu-texnikadir. Ya'ni darslarimizda yuqorida sanab o'tilgan metodikalar bilan bir qatorda har bir darsimizning samaradorligi va o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini oshirish maqsadida, darslarimiz davomida turli xil o'yinli platformalardan ham foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirda ta'limiy va o'yinli platformalar xorijiy davlat o'qituvchilari tomonidan juda keng foydalanilib kelinmoqda. Ushbu interfaol o'yinli platformalarning eng ko'p qo'llaniladigani bu-"Jeopardy interactive games" va "Kahoot" platformalaridir. Hozir "Kahoot" platformasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida qisqacha aytib o'tamiz. Ushbu o'yin loyihasi 2012-yilda Norvegiyaning Ilm-fan va texnologiyalar universiteti talabalarining magistrlik ishi uchun olingan va kashf etilgan loyiha hisoblanadi. Ushbu loyihaning


kashfiyotchilari Morten Versvik, Johan Brand, va Jamie Brookerlardir.

Kahoot platformasi asosan maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, hamda universitet talabalarining barcha boqichlari uchun mos keladigan platforma hisoblanadi. Bunda o'qituvchi darsdan oldin Kahoot o'ynini yaratib borishi kerak albatta. Ushbu platformadan asosan o'tilgan mavzularni

takrorlashda, lug'at boyligini tekshirishda va albatta yangi mavzuning yakunlovchi qismida ham foydalanilsa bo'ladi. Kahoot platformasida ishlashning eng asosiy bosqichlarini ketma ketlikda ko'rib o'tamiz: eng avvalo, google qidiruv tizimiga "Create Kahoot" deb kirgizamiz va bizda quyidagi oyna paydo bo'ladi.




Rasm 1



Rasm2

Rasm 1 da siz platformaga kirasiz va keyingi ro'yxatdan o'tish bosqichiga yo'l olasiz (rasm2). Ikkinchi rasmda shuni ko'rishimiz mumkinki, biz o'zimizda bor akkauntlar ya'ni profillar bilan davom etishimiz mumkin (2-rasmning ikkinchi qismida joylashgan "Continue with Google

v.h.k"). Yuqoridagi ketma ketliklar muvafaqqiyatli bajarilsa, quyidagi ko'rinishda Kahoot platformasining asosiy oynasi paydo bo'ladi:



Rasm 3


"Create" tugmasi bosilgandan so'ng esa sizda yana yangi imkoniyatlar oynasi paydo boladi desak mubolag'a bo'lmaydi, ushbu tugmani bosgandan so'ng sizda oynalar


taklif etiladi va siz undan tepa qismida "New kahoot" va pastidan esa "Create" yaratish tugmasini bosishingiz kerak.



Rasm 4


Shundan so'ng esa, yangi testlar tuzish imkoiyati paydo bo'ladi. Quyida keltirilgan (5-rasm) rasmda yangi test yaratish oynasi keltirilgan:





Rasm 5

Savol kiritilgandan keyin javob variantlari ham kiritiladi va quyidagi oyna paydo bo'ladi:



Rasm 6

"Time limit" maydonida esa vaqt tanlaysiz va chegaralangan vaqt tugagandan so'ng esa savol va javob variantlari ko'rinmay to'g'ri javob bergan talabalar nomlari


computer ekraniga chiqadi. Barcha savollarni yozib bo'lgandan keyin esa o'ng tomondagi "Save" tugmasi bosiladi (rasm 7) :



Rasm 7

Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, agar siz faqat birinchi savolni yozgan bo'lsangiz va unga hali yana savollar qo'shishingiz kerak bo'lsa oynaning chap tomonidagi "Add

question" tugmasini bosasiz va sizda quyidagi oyna paydo bo'ladi:



Rasm 8

Siz hattoki bunda testingiz "Quiz" ya'ni aralash turdagi javoblari bor savol bo'lishini yoki "True or False" berilgan gapning to'g'ri yoki xatoligini topishi mumkinligini ifodalashingiz mumkin. Shuni yodda tutingki, yonida yulduzchalar bor funksiyalar pullik siz uni platformadan sotib olibgina ishlatishingiz mumkin, aks holda siz yaratgan testlar saqlanmay faqatgina "qoralama (chernovek)" sifatida saqlanishi mumkin siz esa bunday testlardan darslaringiz samaradorligi uchun foydalana olmaysiz (yuqoridagi rasmda ko'rishingiz mumkin).

Yuqorida keltirilgan barcha rasmlari ma'lumotlar Kahoot tizimining asosiy vazifa va xususiyatlari hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha bosqichlarni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirib, testni saqlash tugmasini bosganingizdan so'ng barcha tuzilgan testlar asosiy oynaning o'ng tomonida "My kahoots" sarlavhasi ostida saqlanadi va siz mavzuga oid o'yinni tanlab ustiga bosib, kirasiz va start tugmasini bosganingizda har safar online o'yinni o'ynash uchun tizim tomonidan alohida parol beriladi, talabalar esa o'yinga bog'lanish va tayyorlangan testda ishtirok etish uchun google qidiruv tizimiga "kahoot.it" deb yozishlari kerak va parol degan maydonga tizim tomonidan berilgan parolni kirgizib bema'lol qiziqarli Kahootda ishtirok etishlari mumkin. Tizimning yana bir

afzalligi shundaki, u o'yindagi g'oliblarni o'zi tanlab, o'zi tantanali ravishda e'lon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim sohasining imkoniyatlaridan unumli va to'g'ri usulda foydalanishni mukammal darajada egallasalar, ular uchun juda keng imkoniyatlar eshiklari ochiladi. Ayniqsa biz,

o'qituvchilar ushbu imkoniyatlardan darslarimiz davomida foydalansak, o'tilayotgan darslar har tomonlama o'z maqsadiga erishadi va fanga nisbatan talaba-yoshlarning qiziqishlari yanada ortib, kasbiy kompetentligi shakllangan mutaxasis bo'lib yetishishadilar.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida / <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844198>
2. Arlayev O. U., Jo'rayeva, S. N., Mirzayeva S. P. "Ta'lim metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent 2017. Methodology". The American Heritage Dictionary. HarperCollins. Retrieved 20 February 2022.
3. Garcia-Alexander, Ginny; Woo, Hyeyoung; Carlson, Matthew J. (3 November 2017). "Social Research Methods". Social Foundations of Behavior for the Health Sciences. Springer. ISBN 978-3-319-64950-4.
4. Путина Н.Д. Формирование метапредметных знаний в процессе обучения физике в основной школе. Ярославский педагогический вестник. 2013. с.87-91.
5. <https://Lex.uz/uz/>
6. <https://www.google.com/search?q=create+kahoot&rlz>



UDK: 384.279

Muhayyoxon USMONOVA,
Qo'qon Davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)
E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com.
Nilufarxon ABDUBANNONOVA,
Qo'qon Davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d., (PhD) M.M.Isabayeva taqrizi asosida

DIDACTIC PRINCIPLES FOR DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS

Annotation

The article describes the important components of the teacher's creative and professional competence, which determine the essence of the development of creative ability and implement it through their tasks (functions), ways to effectively use the possibilities of his professional pedagogical activity.

Key words: creative, intellectual and creative abilities, creative personality, creative personality, intellectual and creative abilities, motive, creativity, creation, creative imagination, creative thinking, intellect.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье описаны важные составляющие творческой и профессиональной компетентности педагога, определяющие сущность развития творческой способности и реализующие ее через свои задачи (функции), способы эффективного использования возможностей его профессиональной педагогической деятельности.

Ключевые слова: творческий, интеллектуально-творческие способности, творческая личность, творческая личность, интеллектуально-творческие способности, мотив, творчество, созидание, творческое воображение, творческое мышление, интеллект

O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchining kreativ, kasbiy kompetentligini muhim tarkibiy qismlari, kreativ qobiliyatni rivojlantirishning mohiyatini aniqlash va uning vazifalari (funktsiyalari) orqali amalga oshirish, uning kasbiy pedagogik faoliyati imkoniyatidan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, kreativ shaxs, ijodiy shaxs, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, motiv, yaratish, ijod, ijodiy tasavvur, ijodiy tafakkur, intellekt, .

Kirish. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, "kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish"ni talab etadi.

Zamonaviy o'quvchi shaxsini ma'naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida kreativlik, kreativ qobiliyatlar, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, qobiliyatlar, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalarni o'rganadi.

Intellektual-ijodiy qobiliyatlar - bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlaridan L.Vygotskiy, A.Leont'yev, D.El'konin, O.Vasильchenko, E.Mel'kumova, V.Miretskaya,

M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarining ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning individual qobiliyatlarini, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan. Ijodkor shaxsni tarbiyalashning umumpedagogik jihatlarini respublikamiz olimlari O.Musurmonova, Sh.Sharipov, Sh.Mardonov, S.Nishonova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, D.Sharipova, M.Quronov, A.Nurmanov, S.Annamuratova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'quvchi shaxsining kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik va akmeologik xususiyatlari E.G'oziyev, M.Davletshin, D.Muxamedova, S.Safayev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlaridagi ta'lim samaradorligini oshirishga doir g'oyalar, o'quvchi shaxsini shakllantirishga doir qadriyatli yondashuvlar, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot sifatidagi faoliyati mazmunini ifoda etuvchi qarashlar, bilish nazariyasi, shuningdek, shaxs ijtimoiy ongining dinamik rivoji borasidagi falsafiy yondashuv hamda psixologik, pedagogik qonuniyatlardan iborat.

umumta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik (qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj), intellektual-ijodiy faoliyati (muammoni

yechishga motivatsion yondashuv, sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayoni tuzilmaviy mazmuni, tarixiy-madaniyatshunoslik materialini intellektual-ijodiy idrok qilish) va pedagogik (intellektni rivojlantirishga intilish, o'z-o'zini anglash, irodaviylik, ishchanlik, axloq-odob va boshqa fazilatlar) omillari (motivatsion omil, qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj, idrok qilish, o'quvchilarning intellektual-ijodiy faoliyati, uni rivojlantirish sxemasi, modeli) aniqlashtirilgan;

yuqori sinf o'quvchilarining kreativ (muammoning nostandart yechimini topish, insonning tafakkur, muloqot faoliyatdagi ijodiy imkoniyati, qobiliyati) qobiliyatlari (tizimli harakatlar, tahlil sintez- tahlil, ijodiy ifodalash, umumlashtirish, xulosalash) interfaol (guruhda ishlash, rolli o'yinlar, klaster va boshqalar) usullar vositasida rivojlantirishning ichki (avtogen, refleksiya) va tashqi (innovatsion ta'lim muhiti) sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish modeli (nusxa ko'chirish orqali atrof-muhitni anglash, his qilish) tarixiy-madaniy yodgorliklarni sinfdan tashqari mashg'ulotlarda (sayohat darsi, ma'ruzalar konferentsiyalar, suhbat, mini-bahs munozaralarda) reflektiv (his etish va undan foydalanish, tafakkur tezligi, aniqligi, o'zgaruvchanligi) o'rganish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, tizimli operator, ixtirokchilik masalalarini yechish algoritmini qo'llash) interfaol ta'lim texnologiyalari (tarixiy atamalar zanjiri, klaster, BBB) asosida takomillashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi markazida shaxsning intellektual- ijodiy potentsiali (shiddatli qiziquvchanlik, idrok qilishga oid faollik; idrok qilishning kuchliligi, dadil, o'ziga xos tafakkur, tahlil, ijodiy, umumlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatga ko'chirish qobiliyati kabilar), intellektual-ijodiy, ayniqsa, ma'rifiy-funksional qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi turadi, o'z navbatida, idrok qilishga oid faoliyatga qiziqish; fikrlarni mantiqiy, aniq, yorqin va tushunarli tarzda ifodalash zarur lug'aviy tushunchalar zahirasiga ega bo'lish, undan foydalana bilish, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni safarbar qilish, o'z-o'zini tanqid qilish va uzluksiz takomillashtirish kabi o'ta muhim layoqatlarni rag'batlantiradi. Shu sababli Milliy dasturda "...inson qobiliyatlarini ochib berish va uning xilma-xil ta'limiy ehtiyojlarini qanoatlantirish" vazifasi ilgari surilgan.

O'tgan vaqt mobaynida ta'lim amaliyotida ushbu vazifalarni hal etishda birmuncha yutuqlarga ham erishildi. Xususan, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarning ma'naviy intellektual-ijodiy rivojlanishida xalq pedagogikasidan foydalanish faollashdi.

So'nggi yillarda o'zbekistonlik olimlar hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarda ijodkorlik fazilatlarini oshirish, xususan, kognitiv-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Xususan, akademik R.X.Djurayev rahbarligidagi ijodiy-pedagogik jamoa tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy loyihada "ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini samarali namoyon qilishi uchun shart-sharoitlarni yaratish" masalalari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'.Q., O'smonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006. - 111 b.
2. Tolipova J.O. Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini oshirish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. disped. fan. doktori. - T.: TDP, 2006. - 45 b.

Unda quyidagilar nazarda tutildi:

o'quvchilarning kognitiv-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qat'iy motivatsiyaga ega bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash (intellektual-ijodiy yo'l bilan egallangan bilimlar qaysi maqsadlar uchun qo'llanilishi);

o'quvchilarning hamkorlikdagi kognitiv-ijodiy faoliyatini tashkil qilish, ularga kommunikativ mahoratlarini oshirish imkonini berish;

o'quvchilarning zarur axborot manbalaridan foydalanish huquqlarini amalga oshirish;

o'quvchiga samarali rivojlanish imkoniyatini beruvchi shaxsga yo'naltirilgan ijodiy o'sish, o'z imkoniyatini namoyon etish jarayonlarini tashkil qilish;

o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi; mustaqil o'qib, bilim oshirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z shaxsini namoyon etishini rag'batlantirish.

O'quvchilarning eng yuqori darajada va aniq bir maqsadga yo'naltirilgan kognitiv-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda topshiriq turi, uni bajarish shakli (jamoaviy va individual)ni tanlashni kuchaytirish; o'quvchini tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini tanqid qilishga o'rgatish; ularda faollik va tashabbuskorlikni tarbiyalash; dialog va munozara olib borishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan.

Hozirga qadar o'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish o'quv jarayonida ayrim ijodkor o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga stixiyali tarzda tatbiq qilinib kelinmoqda. Ammo, u yuzaki, tizimsiz va aniq bir maqsadga yo'naltirilmagan, ko'p hollarda pedagogik jihatdan samarasiz, o'quvchilarni kreativ faoliyatga yo'naltirishdan maksimal foydalanilmagan holda, qo'llanib kelinmoqda.

Ijodiy faoliyat murakkab jarayon sanalib, o'quvchi shaxsiga turli - tuman talablar qo'yadi. Agar o'quvchi shaxsi xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, u ijodiy faoliyatini muvaffaqiyat bilan amalga oshira oladi, agar talab qilingan xususiyatlardan birortasi rivojlanmagan bo'lsa, o'quvchi faoliyatning muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli deb xarakterlanadi.

Har qanday qobiliyat-shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Qobiliyat o'quvchining ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida maksimal olg'a siljishini, ijrochilik va ijodkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli o'quvchi mutaxassislikka to'g'ri yo'nalish oladi, uni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi, ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi. Ko'nikma va malakalar esa qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalardir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qilib, qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydi, buning natijasi o'laroq, o'quv faoliyatida katta yutuqlarga erishiladi.

Qobiliyatli o'quvchining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligi tuzatishi mumkin. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Kreativ qobiliyatning asosiy mezonlarini elastiklik (aqliy tafakkur), tezkorlik (vaqt birligidagi g'oyalar soni), o'ziga xoslik (tafakkur, yangi g'oyalar), metafora (g'ayrioddiylik, g'aroyiblik), g'oya va tafsilotlarni idrok qilish, sezuvchanlik, qiziquvchanlik (hayratlanish qobiliyati, sinchkovlik, ochiqlik), aniqlik (aniq fikrlash qobiliyati), takomillashtirish, ijod mahsuliga tugallanganlikni baxsh etish, dadillik kabilar tashkil qilib, ular zarur motivatsiya asosidagina rivojlanadi.

3. Isyanov R.G. Klasterный podxod v formirovanii modularnoy kompetentnosti prepodavateley vysshix obrazovatelnyx uchrejdeniy. Tashkent: TGPU, 2014. 69 s.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'kituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. Toshkent: TDPU, 2007. 47 b.
5. Yuzlikayeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatel'nosti: Avtoref. dis. ... doktora ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2012. – 42 s.
6. Qurbonov Sh.Ye., Seytxalilov Ye.A., Inoyatov U.I., Yuzlikayeva Ye.R., Sharipov Sh.S
7. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi: «Islom Karimov modeli» - O'zbekiston mustaqilligining yuksak yutug'i va natijasi./ O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2013. – 234 b.] 6. Urazova M.M. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini nakomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi 2014y.



УДК:612.67:369.51(575.1)

Abdulboqi XAKIMOV,
Namangan muxandislik-qurulish instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti
E-mail: mr_dimosh90@mail.ru

O ‘zMU professori A.Utamuradov taqrizi asosida

CONSEQUENCES OF COVID-19 INFECTION AND GERONTOLOGICAL PROBLEMS

Abstract

The rate of population aging is increasing in the world, as a result of which new changes are taking place in human development. Currently, experts are paying special attention to the expert assessment of various aspects of old age. The article discusses the quality of life of the elderly, the low standard of living, especially the problems and consequences of covid-19, as attention is paid to the study of various aspects of old age. Also, opinions and suggestions were given regarding the formation of a healthy lifestyle.

Key words: covid-19, quality of life, human rights, the elderly, pandemic, physical training, lifestyle of the elderly, recreational activities, gerontology, a healthy lifestyle.

ПОСЛЕДСТВИЯ ИНФЕКЦИИ COVID-19 И GERONTOLOGICHESKIE PROBLEMY

Аннотация

В мире увеличиваются темпы старения населения, в результате чего происходят новые изменения в развитии человека. В настоящее время специалисты уделяют особое внимание экспертной оценке различных аспектов старости. В статье рассматривается качество жизни пожилых людей, низкий уровень жизни, особенности проблем и последствий covid-19, так как уделяется внимание изучению различных аспектов пожилого возраста. Также были даны мнения и предложения по формированию здорового образа жизни.

Ключевые слова: covid-19, качество жизни, права человека, пожилые люди, пандемия, физическая культура, образ жизни пожилых людей, рекреационная деятельность, геронтология, здоровый образ жизни.

COVID-19 INFEKSIYASI OQIBATLARI VA GERONTOLOGIK MUAMMOLAR

Аннотасија

Dunyoda aholining qarish tezligi ortib bormoqda, buning natijasida inson taraqqiyotida yangi o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Hozirgi vaqtda mutaxassislar keksalikning turli jihatlarini ekspert baholashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Maqolada hozirgi vaqtda keksalikning turli jihatlarini o‘rganishga e‘tibor qaratilayotganligiga keksalarning hayot sifati, turmush darajasining pastligi, ayniqsa COVID-19 bilan bog‘liq muammolar va oqibatlari haqida muloxaza yuritilgan. Shuningdek sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida fikrlar, taklif-tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: COVID-19, hayot sifati, inson xuquqlari, qariyalar, pandemiya, jismoniy mashg‘ulot, keksalar turmush tarzi, rekreatsion faoliyat, gerontologiya, sog‘lom turmush tarzi.

Kirish. Bugungi kunda «dunyo aholisi keksayib bormoqda va yaqin kelajakda 65 yoshdan yuqori shaxslarning soni besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning sonidan oshib ketishi kutilmoqda. Aholini demografik qarishi iqtisodiy muammolarni vujudga keltirib, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot tizimiga bo‘lgan ehtiyojni oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda, sog‘liqni saqlash harajatlarining 40% ga yaqini 65 yosh va undan yuqori bo‘lgan insonlarning uzoq muddatli parvarishiga hamda gospitalizatsiyasiga sarflanmoqda»[1]. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keksalarning hayot sifati, turmush darajasining pastligi, qariyalarning qashshoqligi, so‘nggi yillarda G‘arb mamlakatlarida, Qo‘shma Shtatlar va Yevropada zo‘ravonlik, ko‘pincha qariyalarga nisbatan beparvolik va kamsitish tufayli sodir bo‘lmoqda. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida insonning barcha huquq va erkinliklari belgilab qo‘yilgan.

Gerontologiyaning asosiy e‘tibori insonga ajratilgan yillar sonini ko‘paytirishga emas, balki keksa yoshdagi hayot sifati yaxshilashga qaratilgan. Shu munosabat bilan Respublikamizda «katta va keksa yoshdagi fuqarolarga uzoq muddatli tibbiy yordam ko‘rsatishning zamonaviy modelini yaratish, uyda ijtimoiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish va boshqa qator chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi gerontologik yordam

sifati va qulayligini oshirish»[2]ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. COVID-19 sababli xorijiy mamlakatlarda keksalarni turmush tarzi toborra og‘irlashib bormoqda. Masalan, Fransiyada qariyalar uylarida 700000 ga yaqin kishi yashaydi. Epidemiya boshlanishidan avval ularning hammasi mehmonlar uchun yopilgan edi. New York Times gazetasining xabar berishicha, AQShdagi qariyalar uylarida yashaydigan kamida 6900 nafar keksa koronavirus yuqishi oqibatida vafot etgan. Bu mamlakatda virus tufayli ro‘y bergan o‘lim holatlarining beshdan biri demakdir. «Qariyalar uylari birodarlar qabristoniga o‘xshab qolgan. Bu markazlar haddan tashqari tiqilinch, xodimlar esa oz. Bir kishining koronavirus bilan kasallanishi ommaviy o‘limga sabab bo‘ladi»[3],– deydi yuqumli kasalliklarni kamaytirish qo‘mitasi yetakchisi Bersi Makkogi.

Qariyalar uylarida ishlaydiganlar himoya vositalari yetarli emasligidan shikoyat qilgan va bu holat ham o‘zlarini, ham keksalar uchun xavf tug‘dirayotganini aytgan. Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, AQShdagi 15600 ta parvarish markazida 1,3 million kishi yashaydi. Imkoniyati cheklangan odamlar yashaydi. Aholining qariyb 20 foizini 60 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. Ana shunday holatlar tufayli

keksalarga ma'naviy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan alohida yondashuv zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Qarish muammosi qadim zamonlardan beri inson hayotida muhim rol o'ynagan. Qarishning birinchi ta'riflari va uning sabablari antik davrga borib taqaladi. Buyuk qadimgi yunon tabiiy Gippokrat (miloddan avvalgi III-IV asrlar) qarishni tabiiy issiqlikning kamayishi va suvsizlanish natijasi deb hisoblagan[4]. O'sha davr faylasufi Platon qorong'ulikka, ayniqsa, o'rta yoshdagi turmush tarzi ta'sir qilishini ta'kidlaydi[5]. Umuman olganda, keksa odamlarga pandemiya juda yomon ta'sir qildi. Ularda Covid-19 tufayli og'ir kasallikka chalinish xavfi yuqori va o'limning 95 foizi 60 va undan katta yoshdagilar orasida sodir bo'ldi. Bu esa aholisining aksariyat qismini keksa odamlar tashkil qiladigan mintaqa, Yevropa, o'z chegaralari hududida pandemiyaning mana shunday katta vayron qilish kuchi bilan boshidan kechirayotganini sabablaridan biridir.

O'z navbatida keksa odamlar nafaqat sog'liqni saqlash tizimi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar inqiroziga duch kelishmoqda: virusni tarqalishini oldini olish choralarini tarkibidagi jismoniy masofalanish (notanish tarzda ijtimoiy masofalanish deb nomlanadi), shuningdek, ularning hayoti va turmush tarziga nomutanosib ta'sir ko'rsatdi, chunki ular o'zlari ishongan ko'pchilik xizmat turlaridan, yordam va g'amxo'rlik ko'rsatuvchilardan mahrum.

Hozirgi kunda qariyalar uyalarida yuz berayotgan fojialar bitta, ammo bu bizning keksa odamlarga ko'rsatadigan e'tiborimizda qanday qilib muovaffaqiyatsizlikka uchratayotganimizni ifodalaydi. Pandemiya bu muvaffaqiyatsizlikka yengil najot bo'ldi, ammo bu holat Covid-19 bilan boshlanmadi. Yevropadagi mamlakatlar tez keksaymoqda har to'rt kishidan birining yoshi allaqachon 60 yoshdan o'tdi jamiyatlar o'sib borayotgan keksa odamlarning farovonlikda yashashi, sog'lig'ini mustahkamlashi, o'z jamoalari va hamjamiyatlarida faol xayot kechirishlari uchun sharoit yaratish maqsadida say-xarakat qilib kelmoqda.

Taxlil va natijalar. Jismoniy mashg'ulotlar kasalliklar oldini olish bilan birga ularni davolab, hayotdan yanada ko'proq zavq olishimizga imkon beradi. 55-79 yoshli velosipedchilarni o'rgangan bir tadqiqot, tanasining barcha qismlari a'lo darajada ekani sharofati bilan ular berilgan topshiriqlarni oson va samarali bajara olishini aniqlagan. Velosipedchilar, shuningdek, ziyaraklik, ruhiy sog'liq bo'yicha o'tkazilgan sinovlarda ham yaxshi natija ko'rsatgan. Professor Stefan Harrij 82 yosh bo'lsa ham immun tizimi 20 yosh yigitnikidek bo'lgan.

Tadqiqotchilar faol yoshlarni jismoniy mashg'ulotlarni kanda qilmaslikka chaqiradi, ammo 40 yoshdan keyin ham jismonan faol bo'lishga imkon yetarlicha ekanini eslatib o'tadi.

Sport ustalari

•52 yashar hujumchi Kazuyoshi Miura dunyodagi eng keksa futbolchi hisoblanadi.

•73 yoshida Otto Taning Ingliz kanalini suzib o'tib, bu ishni amalga oshirgan eng keksa insonga aylangan. Linda Eshmor esa 71 yoshida ayni ishga qo'l urgan eng keksa ayol sifatida tan olingan.

•2017 yili 105 yashar Robert Marchand velosipedda bir soat ichida 22.5 kilometr yo'l bosib, rekord o'rnatgan.

80 va 90 ga kirganlarning aksariyati keksalikni bo'yniga olib, taqdirga tan bersa, 85 yashar yengil atletikachi Ayryn Obera dunyoni hayratda qoldirishda davom etmoqda.

O'zining yosh kategoriyasi bo'yicha bir qancha dunyo rekordlarini o'rnatgan Obera xonim keksalik davrida ham jismonan baquvvat bo'lish mumkinligini isbotlayotgan «atletika ustalari» qatoridan joy olgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, jismoniy mashg'ulotlar qarish jarayoniga qarshi shu vaqtgacha o'ylab topilgan har qanday dori vositasidan ancha samaraliroqdir. Umrining oxiriga qadar sog'lomlik va

tetiklikdan to'la bahramand bo'lish uchun erta o'smirlik davridan jismoniy faollik poydevorini qo'yish talab etiladi.

Atletika ustalari - yoshi 35 va undan katta sportchilar - faoliyatini o'rganish yosh ulg'aygan sayin jismoniy imkoniyatlarimiz qay darajada bo'lishini tushunishga yordam beradi. Tahlillar har bir yosh guruhining jismoniy qobiliyati bosqichma-bosqich pasayib borishini ko'rsatadi, ammo u 70 yoshga qadar keskin tushib ketmaydi. Atletlarning sog'lom turmush kechirishiga mashg'ulotlardan tashqari parhezga rioya qilish va alkogol hamda tamaki iste'molining me'yordan ortiq emasligi kabi omillar ham yordam beradi.

Keksalar atletlarning salomatligi kamharakat tengdoshlarinikiga qaraganda ancha yaxshiroq ekanligini ko'rib, jismoniy faollik qarish jarayonini sekinlashtirishi yoki ortga qaytarishiga ishonch hosil qilish mumkin. Biroq aslida, jismonan faol bu keksalarda qarish jarayoni to'xtab qolmagan, balki ular tanalarining tabiiy imkoniyatlaridan unumli foydalana olmoqdalar.

80 yoshli faol va 50 yashar kamharakat shaxsni solishtirganda, ikkinchisi birinchisidan qariroq ko'rinishiga ishonch hosil qilish mumkin. Biz, aksar hollarda, harakatsizlik oqibatlarini qarish jarayoniga bog'lab qo'yamiz va ma'lum xastaliklar faqatgina keksalik bilan bog'liq ekaniga ishonib qolganmiz. Olimlarning bong urishicha, zamonaviy nafaol turmush tarzi nafaqat yoshi kattalar, balki yoshlar orasida ham ommalashib bormoqda.

Jismoniy faollik nafaqat shaxs, balki u yashayotgan jamiyat uchun ham muhimdir. 2018 yilda deyarli har besh britaniyalikdan bittasining yoshi 65 dan oshgan bo'lgan. Keyingi 16 yil ichida 65 yoshdan katta odamlar soni 40 foizdan ko'proqqa oshishi kutilmoqda. Britaniya Sog'liqni Saqlash Milliy Xizmati 85 yoshdan oshgan aholining salomatligi uchun 30 yoshli fuqarolardan ko'ra besh barobar ko'proq mablag' sarflaydi.

Keksalar chog'ida ham baquvvat yurishi uchun hamma atletika bilan shug'ullanishi shart emas. Shunchaki kundalik jismoniy harakatlar - masalan, katta qadamlar tashlab, sayr qilish yoki raqsga tushish - bilan shug'ullanishga odatlanilsa, kifoya. Tan olamizmi, yo'qmi - jismoniy faollik hayotimizning muhim poydevorlaridan biridir. 20 yoki, hech bo'lmaganda, 30 yoshdan boshlangan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish odati kishining keyingi umrini sog'lom o'tkazishini ta'minlaydi.

Hozir, ko'plab davlatlar inqirozni qanday qilib imkoniyatga aylantirish mumkinligini ko'rib chiqmoqdalar. Buni amalga oshirish uchun hukumatlar tomonidan to'rtta muhim qadam mavjud:

COVID-19ga javoban amalga oshirilayotgan harakatlar majmuasida keksa odamlarni himoya qilishni ustuvor o'ringa qo'yish. Buning ichiga keksa odamlarning teng huquq va qadr-qimmatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida aniq bir ommaviy xabarlarni yuborish va jamoat majburiyatlari oddiy xizmat doirasidan tashqariga chiqishini namoyish qilish kiradi. Xizmatlarning uzluksizligini ta'minlash, ularga g'amxo'rlik qilayotganlarni qo'llab-quvvatlash, izolyasiya qilingan odamlarga yetib borish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish - inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun ko'p ishlarni bajarish mumkin.

Keksalar odamlarning ovozlari tinglash. Ushbu inqirozga javoban va kelajak uchun siyosatni ishlab chiqishda biz keksa odamlarning gaplariga quloq solishimiz darkor. Mahalliy hamjamiyat vakillari bilan aloqada bo'lish noxolislikni oldini olish va haqiqiy ehtiyojlarga javob beradigan yechimlarni topishda muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy nutq va amaliyotda yoshni ta'kidlashga qarshi kurash. Ushbu inqiroz davrida yanada ko'proq yuzaga kelgan keng tarqalgan kamsitish va salbiy stereotiplarga nisbatan chidamlilik bo'lmasligi lozim. Avlodlararo birdamlik va hamjihatlikka asoslangan g'oyani ilgari surish va keksa

odamlar ko'rsatgan qimmatli hissalarini ijtimoiy me'yorlar va munosabatlarni o'zgartirish uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yosh me'yorlarini hisobga olgan holda qonuniy va siyosiy tuzilma va budjetlarni qayta ko'rib chiqish. Endi inqirozdan tashqariga qarab, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik va ijtimoiy ta'minot kabi sohalarda nimalarni o'zgartirish kerakligini ko'rib chiqish vaqti keldi, shunda davlatlar tezkor demografik o'zgarishlarning oqibatlarini yengish bilan barobar keksa yoshdagi aholining huquq va tanlovlarini ta'minlay oladigan sharoitda bo'ladi.

Keksalikda hayot oson kechmasligi mumkin. Ammo odamlar vaqtini passiv dam olish davri sifatida ko'radigan stereotiplardan xalos bo'lish kerak. Bu insonning shaxsiyati va aqliy rivojlanishi uchun mas'uliyat hissi bo'lib, u doimo faollikka, hayotdagi qadriyatlar va quvonchlarni izlash bilan belgilanadigan davrda unutilmas turmush tarziga chaqiradi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda keksalarning turmush tarzi va bo'sh vaqtini o'rganish, davlat va jamoat tashkilotlarining e'tibori yetarli emas. Keksalarning tajribasi va kuchi to'liq ishlatilmaydi. Pensiyaga chiqqandan keyin ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyati pasayadi.

Keksalar odamlar nafaqaga chiqishga psixologik jihatdan tayyor emaslar. Bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanmaydi. Yashash sharoiti yomon bo'lgani uchun keksalar ko'p vaqtini uy yumushlariga sarflashadi. U ma'naviy manfaatlariga unchalik ahamiyat bermaydi. Keksalar bilan olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ish to'liq

rejalashtirilmagan, yoshi ulug'larning manfaatlarini hisobga olinmagan, ularning ehtiyojlariga befarq qaralgan.

Qariyalar uchun dam olishning samarali shakllarini nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tushunish va individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, rekreatsion faoliyatning xarakteri va darajasi quyidagi omillarga bog'liq:

1) salomatlik va psixologik faollik holati;

2) ijtimoiy mavqe (yolg'izlik, bolalar bilan yashash);

3) ilgari ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar va tashkilotlar bilan avvalgi jamoatchilik aloqalarini saqlab turish;

4) daromadning moddiy mazmuni va miqdori;

5) madaniyat va ta'lim darajasi;

6) xulq-atvor xususiyatlari.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish bo'yicha xorijiy tajribalar bunday ijtimoiy-madaniy xizmatlar bilan bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ya'ni ko'p funksiyali markazlar ochish samaradorligini ko'rsatib turibdiki, ular davlat va turli jamoat tashkilotlari, siyosiy tashkilotlar, xayriya tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Keksalar uchun ijtimoiy xizmatlarni faol ravishda o'zgartirish uni ta'lim tizimiga joriy etishni talab qiladi. Bu esa yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish hayot oqimidan ortda qolmasligini ta'minlaydi, eng avvalo, ularni madaniy va ma'naviy jihatdan boyitadi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization, Global health and ageing. 2011, US National Institute on Ageing Bethesda
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni
3. <https://www.nytimes.com/news-event/coronavirus>
4. Мейер-Штейнег Т., Зудгоф К. История врачевания в древности и Средние века. Серия: История. География. Этнография Москва Ломоносов 2022. - 216 с.
5. Платон. Диалоги. (Серия:ПРОВЛАСТЬ-Античные мыслители) / Пер. с древнегреч.и Вступ. ст.В.С.Соловьева Москва РИПОЛклассик 2021. - 576с.



UDK: 373.61.9:371

Latofat XALIKOVA,
Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi
E-mail: khalikova.latofat74@gmail.com

ТДТРУ профессору, фалс.ф.д. Раматов Ж.С. тақриси асосида

METHODS OF DEVELOPING THE WORLD VIEW OF STUDENTS USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Abstract

In this article, the ways of developing students' worldview with the help of modern pedagogical technologies in education are scientifically revealed. In addition, the development of education in developed foreign countries is defined as the main task, the role of pedagogical technologies in the organization of the educational process, increasing the interest and aspirations of students to master subjects with the help of pedagogical skills, the main tasks of pedagogical technology, they issues such as the development of students' thinking, logical thinking skills, aspects of pedagogical technologies, components of pedagogical technologies are highlighted in the tool.

Keywords: Modern education, pedagogical technology, traditional education, traditional lesson technology, designed education, personality development, educational technology, teaching process.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье научно раскрыты пути развития мировоззрения учащихся с помощью современных педагогических технологий в образовании. Кроме того, в качестве основной задачи определяется развитие образования в развитых зарубежных странах, роль педагогических технологий в организации образовательного процесса, повышение интереса и стремления учащихся к освоению предметов с помощью педагогических умений, основных в пособии выделены задачи педагогической технологии, такие вопросы, как развитие мышления учащихся, навыков логического мышления, аспекты педагогических технологий, компоненты педагогических технологий.

Ключевые слова: Современное образование, педагогическая технология, традиционное образование, технология традиционного урока, проектированное обучение, развитие личности, образовательная технология, учебный процесс.

TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNING DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirish usullari ilmiy jihatdan ochib berilgan. Bundan tashqari, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limni rivojlantirish eng asosiy vazifa sifatida belgilanishi, pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi ro'li, pedagogik mahorat yordamida talabalarning fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va intilishlarini oshirish, pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalari, ular vositasida talabalarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarning ko'rinishlari, pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, an'anaviy ta'lim, an'anaviy dars texnologiyasi, loyihalashtirilgan ta'lim, shaxsning rivojlanishi, ta'lim texnologiyasi, o'qitish jarayoni.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarorida oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga e'tiborni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri – bu samarali innovatsion siyosatni amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan yangi, ilg'or texnologiyalar, va boshqarish yangi shakllari hamda yirik ixtirolar natijalarini joriy qilishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish bilan bog'liq murakkab davrni

boshdan kechirmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev PF-60 – sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonidagi 4-yo'nalishda belgilangan 46-maqсад: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish belgilab berilgan. Shu asosda 2022-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish va oliy ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish rejasi ishlab chiqildi. Ta'lim – bu jamiyatda sodir bo'ladigan obyektiv jarayon bo'lib, u rivojlanuvchi xarakterga ega. Tarbiyaning maqsadi esa rivojlanish jarayonida o'z hayotini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Ko'rinib turibdiki, hayotni tartibga solishning turli xil variantlari bilan tanishish ta'lim muammosining yechimini topmaydi, shunday qilib: talabning rivojlanishi uning o'zi faollik ko'rsatganda, hayotda o'zaro munosabatda bo'lganda sodir bo'ladi, bu faoliyatning xarakteri shaxsning subyektiv erkin munosabati bilan belgilanadi, pedagogik ta'sir talabani ijtimoiy qadriyatlariga

ma'lum munosabatga yo'naltiradi, pedagogning o'zaro ta'siri va talaba bilan o'zaro munosabatning butun jarayoni zamonaviy madaniyat darajasida va ta'lim maqsadiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun bir qator savollarga javob berish kerak:

- 1) pedagogik texnologiya qanday elementlardan iborat;
- 2) ularning zaruriy va yetarli darajada mavjudligi nima;
- 3) ular qanday munosabatda;
- 4) har bir elementning umumiy va xususiy vazifalari nimadan iborat.

Ta'limning asosi fanlar emas, balki fikrlash va harakat qilish usullari bo'lishi kerak. Avvalombor, yosh avlod bilimini yanada yuksaltirishda har bir pedagogning eng muhim vazifalaridan biri bu – yosh avlodning dunyoqarashini hisobga olgan holda u bilan to'g'ri yondashish hamda kasbga bo'lgan muhabbat, yurtga bo'lgan mehr tushunchalarini uyg'unlashtirib, ular bilimini yanada takomillashtirish, tashkil etish va rag'batlantirish masalasidir. Hozirgi kunda talaba yoshlarda kerakli bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bilan bir qatorda ularni kasbga bo'lgan faoliyatini to'g'ri yo'naltirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bu tushunchalarni uyg'unlashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan tarix, Falsafa, O'zbekistonning yangi tarixi va boshqa darsliklar kesimida vatanimiz tarixini hamda uning naqadar yuksak poydevorga ega ekanligi yaqqol namoyon etib berilganligi, uning boshqa fanlar uyg'unligida olib borilishi yoshlar ongida salmoqli dunyoqarashlarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi desak to'g'ri yondashkan bo'lar edik.

Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin: ular talabalarga innovatsion bilimlarni o'zlashtirishning eng faol metodlarini o'rgatishda yordam beradi; shaxsiy ijtimoiy faollikning yuqori darajasini o'zlashtirish imkoniyatini berish; ta'lim jarayonida talabalar bilim olishiga sharoit yaratish; talabalarining ijodiy faolligini rag'batlantirish; nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo'llanishini ta'minlash, fan bo'yicha nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Hozirgacha pedagoglarimiz tomonidan foydalanib kelingan va hozir ham darsda foydalanishga aksariyat pedagoglar qo'llayotgan an'anaviy metod va usullar haqida qisman to'xtalib o'tamiz:

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metod va usullar talabalar tomonidan bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtirishiga, ularda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga yordam beradi. O'qitish metod va usullarini tanlashda o'qitiladigan fanning xarakteri, talabalar va talabalarining yoshlik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi.

Ta'lim metodlari va usullarini tanlash pedagog tomonidan darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo'llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanish juda muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun talabalar tomonidan tayyor bilimlarni taqdim etish, ularni yodlash va takrorlash uchun emas, balki faol bilish jarayonida talabalar tomonidan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilgan usullar tizimidan foydalanish kerak. Ba'zi an'anaviy o'qitish texnikasi va usullari bu qiziqishning yo'qolishining sabablaridan biridir. Talabalarining fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun talabalarini amaliy va aqliy faoliyatga undashga hissa qo'shadigan usullardan foydalangan

holda o'qitishning an'anaviy usullaridan ham foydalanish zarur; kognitiv qiziqish va qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish; ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalar elementlari (muammolarga asoslangan, talabalarga yo'naltirilgan ta'lim elementlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalar). Mashg'ulotning muvaffaqiyati va bilimning mustahkamligi talabalarining fanga bo'lgan kognitiv qiziqishlarining rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosibdir.

Pedagog va talabalarining o'zaro munosabati yuqori ma'noda bir-biriga o'zaro ta'sir qilishdan ko'ra ko'proq ma'noni anglatadi. O'zaro aloqani amalga oshirish uchun suhbatdoshlar bir-birlarini ushbu muloqotning teng subyektlari sifatida qabul qilishlari kerak, bu amalda "pedagog-shogird" tizimida unchalik keng tarqalgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarining ta'lim yutuqlarini baholash texnologiyasi pedagogik tajribalar doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, texnologiyaning maqsadi – nazorat bosqichida talabaga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlashda ifodalanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalari:

-talaba bilimdan foydalanish ko'nikmalarini qanday egallashini, ya'ni tayyorlashning zamonaviy ta'lim maqsadlariga qanchalik mos kelishini aniqlash;

-talabaning o'z harakatlari natijasini mustaqil baholash, o'zini nazorat qilish, o'z xatolarini topish va tuzatish qobiliyatini rivojlantirish;

-talabani muvaffaqiyatga undash, uni oliy ta'lim nazorati va baholash qo'rqividan xalos qilish, qulay muhit yaratish, talabalarining psixologik salomatligini saqlash.

Bunday texnologiyalar ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish imkonini beradi. Pedagog dars mavzusi, maqsadlari haqida ma'lumot beradi, bu esa talabalarda kognitiv qiziqishning paydo bo'lishiga hech qanday hissa qo'shmaydi. Yechimni izlash tayyor bilimlarni taqdim etishga qisqartiriladi, ya'ni ko'pchilik guruhlar tomonidan materialni tushunishni kafolatlamaydigan materialning tushuntirishlaridan iborat.

Bugungi kunda pedagog talabaga yetkazishga harakat qilayotgan "obyektiv bilim" tashuvchisining asosiy vazifasi – talabalarni yangi bilimlarni ochishda tashabbuskorlik va mustaqillik ko'rsatishga undash, bu bilimlarni turli muammoli masalalarni yechishda qo'llash yo'llarini izlashdan iborat. Yechimni topish bosqichida pedagog talabalarni gipotezalarni ilgari surishga va sinab ko'rishga undaydi, ya'ni bilimning "kashfiyotini" ta'minlaydi. Shunday qilib, yangi rivojlanayotgan ta'lim muhitini yaratish muammosini hal qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar katta ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi bilan uning an'anaviy usullardan qanday farq qilishini aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Bu masala bo'yicha bir nechta fikrlar mavjud:

1. Texnologiya – bu erishish mumkin bo'lgan qattiq kodlangan natijaga ega bo'lgan texnika va bu natijaga erishish uchun mo'ljallangan muayyan vositalar.

2. Texnologiya va metodika ekvivalent tushunchalardir, lekin ikkinchisida talaba va pedagog shaxsiga, ularning o'zaro ta'sir qilish usullariga ko'proq e'tibor beriladi.

3. Metodologiya kengroq tushuncha bo'lib, u bir nechta texnologiyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday holda, ko'pincha metodologiya yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraladi.

Pedagog dars bermaydi, balki talabalar faoliyatini rag'batlantirish, tashkil etish va muvofiqlashtirish funksiyalarini bajaradi. Pedagogik nazariya va amaliyotning

hozirgi holati ko'rib chiqilgan variantlardan birinchisini eng to'g'ri va to'liq aks ettiradi. Texnologiyaning tarkibi – bu usullar majmui emas, balki pedagogik jarayon tomonlarining obyektiv barqaror aloqalariga (qonunlariga) tayanganda mumkin bo'lgan istalgan natijaga olib keladigan faoliyatning belgilangan bosqichlari. Texnologiya inson tarbiyasi jarayonini ilmiy bilish natijasida ta'lim jarayoni qonuniyatlariga asoslanadi. Metodika empirik tajribaga, pedagogning mahoratiga asoslanadi, uning badiiyligiga, san'atiga yaqinroqdir. Texnologiya - bu ramka, metodika - bu qobiq, pedagog faoliyatining shakli. Berilgan natijani ta'minlovchi o'quv jarayonini qurishda texnologiyaning vazifasi.

Bu texnologiyaning yana bir muhim funksiyasini – tajribani uzatish, uni boshqalar tomonidan qo'llashni amalga oshirishga imkon beradi, shuning uchun u dastlab shaxsiy ma'nosini yo'qotishi kerak. Muhim takrorlash darajasidagi pedagogik ta'lim noyob bo'lgan yoki ularni rasmiy takrorlashni talab qiladigan usullarga emas, balki texnologiyalarga asoslanishi kerak.

“Pedagogik texnologiya” konsepsiyasining muhim belgisi sifatida ta'limga tizimli yondashish YUNESKO ta'rifida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra pedagogik texnologiya o'qitish va o'qitishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli bo'lib, ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va inson resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olishni ifodalaydi [4].

Har qanday pedagogik texnologiya asosiy uslubiy talablarga javob berishi kerak. Kontseptuallik – har bir pedagogik texnologiya ma'lum bir ilmiy konsepsiyaga, jumladan, ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslanishiga yo'naltirilishi kerak. Muvofiqlik – pedagogik texnologiya tizimning barcha xususiyatlariga ega bo'lishi kerak: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi. Boshqarish qobiliyati diagnostik maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, o'quv jarayonini loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish uchun vositalar va usullarni o'zgartirish imkoniyatini nazarda tutadi. Samaradorlik – zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobat sharoitida mavjud bo'lib, natijalar jihatidan samarali va xarajatlar bo'yicha optimal bo'lishi, ma'lum bir ta'lim standartiga erishishni kafolatlashi kerak.

Falsafiy asosga ko'ra: materialistik va idealistik, dialektik va metafizik, ilmiy va diniy, gumanistik va

g'ayriinsoniy, antroposofik va teosofik, pragmatik va ekzistensial, erkin ta'lim, majburlash va boshqalar kiradi. Aqliy rivojlanishning yetakchi omiliga ko'ra: biogen, sotsiogen, psixogen va idealistik texnologiyalarga bo'linadi.

Bugungi kunda shaxsiyat biogen, sotsiogen va psixogen omillarning yig'indisi ta'sirining natijasi ekanligi umumiy qabul qilinadi, ammo ma'lum bir texnologiya ulardan birortasini hisobga olishi yoki tayanishi mumkin, uni asosiy deb hisoblashi mumkin. Biz neyrolingvistik dasturlashning kamroq tarqalgan texnologiyalarini va taklif qiluvchi texnologiyalarni ham eslatib o'tishimiz mumkin:

- shaxsiy tuzilmalarga e'tibor qaratish orqali: axborot;
- operatsion; hissiy-badiiy va hissiy-axloqiy;
- o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari;
- evristik va amaliy.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mazmun va tuzilish xususiyatiga ko'ra texnologiyalar quyidagilarga ajratiladi: o'qitish va tarbiyalash, dunyoviy va diniy, umumiy ta'lim va kasbiy yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turli sanoat, xususiy mavzu, shuningdek monotexnologiyalar, kompleks (politexnologiyalar), kirib boradigan texnologiyalar Monotexnologiyalarda butun o'quv jarayoni har qanday ustuvor, ustun g'oya, tamoyil, konsepsiyaga asoslanadi, murakkablarida u turli xil monotexnologiyalar elementlaridan birlashtiriladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta'riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko'zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir. Pedagogik texnologiya va ta'lim texnologiyasi ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, chunki “ta'lim” atamasining zamonaviy talqini shaxsiyatni tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi, unga ma'lum bir qiyofani beradi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, umumiy ma'noda pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish uning rivojlanish tendensiyasi bo'lib, u o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan, talabalarning rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishishini kafolatlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'z pozitsiyangizni yangicha tushunish, nima uchun o'zgarishlar kerakligini tushunish va birinchi navbatda o'zingizni o'zgartirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida “O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/>
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli qarori.
3. Afanasyeva I.V. Voprosi integratsii nauki i obrazovaniy. Ta'lim texnologiyalari. – № 4. Toshkent, 2007. – S. 24-25.
4. Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Filosofskiy ensklopedicheskiy slovar red.-sost. YE.F. Gubskiy i dr, 2003. – S.128.
5. Ochilov M. “O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti” // “Xalq ta'limi” 1999-y, 6-son 32-35 betlar
6. Imomnazarov M, Eshmuhammedova M, “Milliy manaviyatimiz asoslari: (Oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruza matnlari)”// Tahrir hay'ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; - T.: «Toshkent islom universiteti», 2001. -432 bet.
7. Pidkasiy P.I.Pedagogika. Uchebnoy posobi / - M.: Vysshie obrazovaniye 2006. – 432 b.



UDK: 103.3

Gulnoza XASANOVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

E-mail: xasanovag@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor X.Meliyev taqrizi asosida

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF FORMING PEDAGOGICAL ABILITY OF TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract

It is important to increase the participation and initiative of higher education institutions in the wide-ranging reforms implemented in the country, to monitor the knowledge and pedagogical skills of professors and teachers. In this article, the theoretical foundations of the formation of pedagogical abilities of teachers of higher educational institutions are studied and discussed.

Key words: scientific work, pedagogical ability, integration, knowledge, methodological basis, spelling activity, pedagogical system, pedagogical skill, national model, preparation for professional activity, psychological feature.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УМЕНИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ

Аннотация

Важно повысить участие и инициативу высших учебных заведений в широкомасштабных реформах, проводимых в стране, контролировать знания и педагогическое мастерство профессорско-преподавательского состава. В данной статье исследуются и обсуждаются теоретические основы формирования педагогических способностей преподавателей высших учебных заведений.

Ключевые слова: научная работа, педагогическая способность, интеграция, знания, методологическая основа, орфографическая деятельность, педагогическая система, педагогическое мастерство, национальная модель, подготовка к профессиональной деятельности, психологическая особенность.

OLIV TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor - o'qituvchilarning bilim va pedagogik mahorati monitoringini yuritish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari o'rganilgan va muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy ishlar, pedagogik qobiliyat, integratsiya, bilim, metodologik asos, imliy faoliyat, pedagogik tizim, pedagogik mahorat, milliy model, kasbiy faoliyatga tayyorlash, psixologik hususiyat.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini pedagogik qobiliyatlarini integrativ yo'nalishda takomillashtirish muhim sanaladi. Buning uchun esa avvalo pedagogik qobiliyatlar va ularning pedagogik-psixologik tavsifini chuqur o'rganish, taxlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Xozirgi davrda XXI asr o'qituvchisi oliy ta'lim muassasasida zamonaviy bilimlar, ilg'or tajriba hamda pedagogik qobiliyatlarni yuqori darajada egallashlari, o'z mutaxassisligi doirasida ta'lim-tarbiya jarayonida mos metodlardan foydalana olishi, kasbiy faoliyatida o'tadigan fanlari yuzasidan metodik qo'llanmalar, darsliklar, electron darsliklarni yarata olishi, xar bir jarayonda pedagogik mahoratini hamda kasbiy bilimlarini o'z o'rnida qo'llay olishi talab etadi[1,2,3].

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Turi soha vakillari tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, kadrlar tizimini axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini integratsiyalash, hozirgi globallashuv, fan va texnika, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti jarayonida rivojlantirishning pedagogik tizimi to'liq o'rganilmagan.

Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Rayxon Beruniy, Sa'diy Sheroziy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabilarning ilmiy ye'roslari murabbiyga xos bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirishda muhim manba sifatida e'tirof etilgan[4].

Pedagogik qobiliyatlarining turli psixologik jixatlari, o'qituvchining shaxs sifatida kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari P.Ya.Gal'perin, L.S.Vigotskiy va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, bo'lajak o'qituvchilarning, pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishning milliy modeli E.Seytxalilov, E.Yuzlikaevalarning ilmiy ishlarida qay darajada o'z aksini topgan[5].

Xorijiy davlat olimlari tomonidan maktabgacha ta'lim pedagog hodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, pedagogik qobiliyatlarini yanada takomillashtirish ilmiy yo'nalish sifatida pedagogika faniga kiritildi. V.M.Kuznitsina, L.A.Shatova, E.Sokolova kabi pedagog olimlarning ishlarida maktabgacha ta'lim mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'llari, shakllantirish metodikasi va uning amaliy axamiyati kabi masalalari tadqiq etilgan[6].

Tadqiqotlar metodologiyasi. O'qituvchining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishga uning pedagogik mahoratini oshirishga sabab bo'ladigan asiyiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik mahorat esa jamiyatning madaniy-tarixiy

taraqqiyotida pedagogik nazariya va amaliyot sintezini shuningdek, pedagogik faoliyatining sifat jihatdan muayyanligini jamlaydigan ijtimoiy pedagogik xodisa sanaladi. Oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining mahoratini uning pedagogik qobiliyatini yaxlit shaklda muayyan ta'lim tizimining talablari majmui sifatida rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida o'qituvchining uzluksiz ravishda o'zining malaka oshirib borishida sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishda rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurati maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining pedagogik sifatida shakllantiradigan va pedagogik mahoratini tavsiflovchi pedagogik qobiliyatlar majmuasini qamrab olishga nisbatan tadqiqot ishlari olimlar tomonidan turli bosqichlarda olib borilgan. XX asrning 70-80-yillarida o'qituvchining xarakter-xususiyatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda pedagogik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganila boshlagan[6].

Yu.Yu.Ivanov, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, V.G.Kutsenko, N.N.Tarasevich kabilarning fikrlariga ko'ra,

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati modelini yanada yuqori darajasini "o'ziga xos shaxs hislatlari va xususiyatlari kombinatsiyasi"ni ifodalaydigan pedagogik qobiliyatlar hosil qiladi[7].

Yu.Yu. Ivanov pedagogik qobiliyatlar turkumini "bola shaxsini tarbiyalashda va bilim berishda yuqori natijalarga erishishning eng muhim omili" sifatida e'tirof etadilar. Uzluksiz pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining kasbiy tarbiyalash muammosini tadqiq etgan X.Abdukarimov o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning o'z mehnati natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati, shaxsiy va kasbiy takomillashuvni taxlil eta olish qobiliyati haqida to'xtalib, bu ikki qobiliyat shaxsning kasbiy -pedagogik tayyorgarligiga bevosita bog'liq ekanligini qayd etadi[8].

M.G.Davletshin tomonidan tayyorlangan "Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi nomli qo'llanmasida o'qituvchi shaxsida namoyon bo'luvchi qobiliyatlarni tavsiflashda o'ziga xos yondashadi va ularni quyidagicha tavsiflab beradi (1-rasm).



1-rasm. M.G.Davletshin tomonidan o'qituvchi shaxsida namoyon bo'luvchi qobiliyatlar.

Shuningdek, olim pedagogik xayolni ham pedagogik qobiliyatlar sirasiga kiritib, pedagogik xayol - bu kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyixalashirishda o'z ish-xarakterining natijasini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladigan qobiliyatlarideya izohlaydi.

Taxlil va natijalar. Jahonda turli madaniyat shakllarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish, dunyo hamjamiyatlarining integratsiyalashuvi asosida umumbashariy qadriyatlarini o'rganish va ta'lim jarayoniga kiritishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ilg'or oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarini tayyorlash jarayonlarida ularning pedagogik qobiliyatlarini o'stirish muhim hisoblanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik qobiliyati yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, shuningdek, ijtimoiy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyoti va ta'lim sifatini yuqori bosqichlarga ko'tarishga yordam beradi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari

1.	O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2	O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3	Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4	Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5	O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6	Javobgarlikni his etish.
7	Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash ta'lim tizimi oldiga birqancha muammolarni qo'yimoqda. Mazkur vazifalarni yechish uchun o'quv fanlararo aloqadorlikni taminlashning ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo aloqadorlikda mazmunini tanlash ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan so'nggi pedagogik

o'qituvchilarining pedagogik mahorati, ularni intelektual salohiyatlari, aql-u -zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishni o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik qobiliyati va bilim darajasi uning mahoratli pedagog ekanligini belgilab beradi. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi[10].

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarining odsiyigina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda, boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy- tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatleri ajratib ko'rsatilgan:

texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining bir biri bilan o'zaro bog'langan tizimini shakllantirish lozim. O'quv fanlarining o'zaro bog'lab o'rganish talabalarga olamni bir butunlikda anglashga imkon beradi. Bunday kompetentga ega bo'lgan o'qituvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini integrativ holatda tashkil eta oladi va

maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini tizimlarning o'zaro bog'langanligi haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

Shun ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarni integrativ tarzda fikrlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zarur. Bunday yondashish talabalar tomonidan bilimlarni izchil o'zlashtirishga yordam beradi, ya'ni bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirib qo'llash ko'nikmasini tarkib toptiradi. O'qituvchilarga fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini hozir o'rganilayotgan bilimlar bilan birlashtirish fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga yordam beradi. Integratsiya ta'limdagi muhim innovatsion hodisalardan biridir. Ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshiruvchi muhim vositadir.

Jamiyat xayoti va ta'lim-tarbiya o'rtasida integratsiya va aloqadorlikning qaror topishiga erishish quyidagi ikki omilga bog'liq: birinchisi, davr talabi va ijtimoiy extiyoj

mohiyatini chuqur anglay oladigan, zamonaviy yondashuvlar asosida kasbiy faoliyati jarayonida o'z mutaxassisligiga muvofiq ish faoliyatini olib boradigan va o'z ustida doimiy ishlaydigan mutaxasislarni tayyorlash, ikkinchidan, chuqur nazariy bilim va o'z mutaxassislik faoliyatini yo'lga qo'ya olish malakasiga ega mutaxasislarning jismoniy va intellektual salohiyati doirasida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini va ta'lim sifatini yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqadigan, kasbiy faoliyati doirasida barcha imkoniyatlarini qo'llay oladigan mutaxasislarga bog'liq bo'ladi. Har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi. Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomillashtirish jarayonida biz ularning nafaqat pedagogik qobiliyatlarini balki, pedagogik mahoratga ega ekanliklariga ham ahamiyat qaratmog'imiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida . – T.: O'zbekiston, 2017. – 4b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami. – T., 2017. – B. 37.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” gi qarori 2018 yil 5 iyun.
4. Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020. – 143 bet.(12-bet)
5. R.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.-T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176 bet. 43,35b
6. Mavlonova R.A., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika (darslik). – T.: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
7. Davletshin M.G. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.
8. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.:O'zbekiston, 1999. – 30 b.
9. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004. – 336 b.
10. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika - o'quv qo'llanma. – T.: FAN, 2004. – 182 b.
11. Xasanova, G. I. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni . - Academic research in educational sciences, 2021.
12. Xasanova, G. I. (2021). Bolaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasining ахамияти. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 1051-1056.

variatsiyalash bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishni kiritish o'rinli.

Kompozitsiya yaratishda alohida e'tibor qaratiladigan omillardan biri kompozitsiya detallarining fakturasini to'g'ri ifodalash, tasvirlash bilan bog'liq. Zero, har bir buyum, detal qanday materialdan tayyorlanganiga ko'ra faqat shu buyumgagina xos bo'lgan fakturaga ega bo'ladi: mato, taxta, chinni, metall, keramika, gips rozetka yoki boshqa natura har birining o'zigagina xos bo'lgan fakturasi bo'ladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tizimida kontrast, ritm, perspektiva kabi tushunchalarga doir o'quv materiallarini berilishi badiiy ta'limni, xususan talabalarining kompozitsion mushohada bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsion markaz haqidagi tushunchalar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarining kompozitsion faoliyatida mukammal kompozitsiya yaratishning muhim shartlaridan biri – asarning kompozitsion markazi haqidagi tushunchalari ilmiy asoslangan, tasviriy san'at qonuniyatlarining shartlilik va mantiqiylik printsiplariga asoslanganligi haqidagi bilimlari va amaliy malakalari talab darajasida emasligi ularning kompozitsion faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Bu omil talabalarga aynan shu yo'nalishda mashqlar tizimini taqdim etish jarayonning didaktik imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Shunday omillar sirasiga kompozitsiya elementlarini variatsiyalash bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishni kiritish o'rinli.

Kompozitsiya elementlarini variatsiyalash, transformatsiyalash. Bu turdagi amaliy mashqlar mazmuniga ko'ra bir necha yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Birinchi yo'nalish – chiziqlar variatsiyasi. Bu turdagi mashqlarda xarakteri (qalin, ingichka, to'liqsimon, aylanasimon, ovalsimon, uzug-yuluq va h.k.), yo'nalishi (gorizontal, vertikal, diagonal va h.k.) jihatidan turlicha bo'lgan chiziqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu turdagi mashqlar talabalarda kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qanday ta'sir o'tkazishi mumkin, degan savol tug'ilishi mumkin. Bir qarashda oddiydek tuyulishi mumkin bo'lgan bu turdagi mashqlar kompozitsiyaning turli elementlari – simmetriya va assimetriya, dinamika va statika, ritm, detallarning joylashuvi va katta-kichikligiga ko'ra muayyan yukka ega bo'lishi, bunda shartlilik qonuniyatini amal qilishi kabi nuyanslardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi. Shu ma'noda yuqorida sanab o'tilgan detallar Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarining tarkibiy komponentlari sifatida qo'llanishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi yo'nalish – shakllar variatsiyasi. Shakllarni o'zgartirish vositasida talabalarda kompozitsiyaning optimal yechimini topishga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda bu operatsiyalar ham muhim didaktik vosita, imkoniyat sifatida qaralmog'i lozim. Zero, shakllar variatsiyasi ko'p jihatidan kompozitsiyaning mazmun jihatidan ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Uchinchi yo'nalish-ranglar variatsiyasi, ya'ni shunday variatsiyalarni ranglar vositasida ham amalga oshirish mumkin (-ilova). Bunda ranglarning to'yinganlik parametri bo'yicha ko'rsatkichlari, kontrastlilik, shartlilik, kolorit kabi tushunchalarni o'zlashtirish talabalarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantiruvchi muhim didaktik imkoniyat sifatida ahamiyatlidir. Bu borada ham taniqli rassomlarning kompozitsiyaning rangshunoslik yechimlarini belgilashdagi yondashuvlariga oid materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Kompozitsiyada muvozanat. Odatda, muvozanat deganda holatning, buyumning, shu jumladan qandaydir tasvirning barcha tomonlarining bir xilligi tushuniladi. Biroq, tasviriy san'atda asar kompozitsiyasini tuzishda amal qilinadigan muvozanat mexanik muvozanatdan farq qiladi. Bu farqlar kompozitsiyaning turli elementlarida kuzatiladi: rang kontrastida, uning yorqin yoki xiraligi, tasvir (kompozitsiya) elementining muhimlik jihatiga ko'ra joylashuvi, ularning asar (kompozitsiya) g'oyasiga ko'ra ahamiyati va h.k. Bundan xulosa kompozitsiya muvozanatida kartina tekisligida uning elementlarini bir xilda joylashuvi tushunilmasligi kerak. Talabalarda kuzatilgan shunga oid kamchiliklar Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni shakllantirishda kompozitsion markaz haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi bu boradagi ta'limiy jarayonning didaktik imkoniyatlarini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Kompozitsiya elementlarini variatsiyalash operatsiyalari kompozitsiyaning boshqa xususiyatlari kabi uning mantiqiy markazini topishda ham muhim didaktik omil vazifasini o'taydi.

Kompozitsiya o'lchamlari. Kuzatuvlar natijalarining tahlillaridan ayon bo'ldiki, ayrim talabalarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalari tizimida mazmun va o'lcham mutanosibligi borasida tushunchalar bilan bog'lik kamchiliklar uchraydi, ya'ni talabalar kompozitsiya uchun o'lcham turi (gorizontal yoki vertikal)ni noto'g'ri tanlash holatlari uchraydi. Shuning uchun ham o'ziga xos didaktik imkoniyat sifatida talabalarda asar kompozitsiyasining g'oyasi va mazmuniga ko'ra o'lcham tanlashi masalasi ularda kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim didaktik omili sifatida diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Tasviriy san'atning oltin kesim qoidasi. Bu tushuncha kartina o'lchamlarini uning g'oyasi va mazmuniga ko'ra optimal o'lchamlarni tanlashni anglatadi. Tasviriy san'atda asrlar davomida mashhur rassomlar tomonidan qo'llanib kelingan hamda kartini o'lchamlarini belgilashda ko'p hollarda "oltin kesim" qoidasiga amal qilingan. Tasviriy san'at asarlari kompozitsiyasi uchun oltin kesim shaklioptimal o'lcham hisoblanadi, kompozitsiyaning mazmuni va mohiyati, xususiyati va kompozitsiya tuzilishiga ko'ra uning o'lchamlari gorizontal yoki vertikal ustunlikda tanlanadi. Bu omil, ayniqsa manzara janridagi asarlar kompozitsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kompozitsiyada dinamika. Yuzaki qaraganda dinamika tushunchasi tasviriy san'atga, jumladan uning ayrim tur va janrlarida yaratilayotgan kompozitsiyalarga aloqasi yo'qdek tuyuladi. Biroq tasviriy san'at asarlarining barcha namunalarida, shubhasiz, dinamika elementlari kuzatiladi. Dinamikaning qarama-qarshi elementi – statika mazmunida ham muayyan darajada dinamika elementlari bo'ladi. Talabalarga bu omillarni tushuntirishda misollar, namunalardan kengroq foydalanish ularda kompozitsiyaga oid tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishda keng qo'llaniladi. Masalan, uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat natyurmortda choynakdan choyni piyolaga quyilayotganida kuzatiladigan harakat, dinamikani ong osti idrokda tasavvur etish lozim. Bu omil natyurmort kompozitsiyasida har bir elementni mantiqan to'g'ri joylashtirish uchun asos vazifasini o'taydi. Yoki manzara janridagi asarda uzoqdagi bulutlarning o'rni va shaklini o'zgarishi, daraxtlarning tebranishi, jilg'adagi suvning oqishi, yo'lakdagi yo'lovchi – bularning barchasi harakat, ya'ni dinamika bilan bog'liq.

Dinamika tasviriy san'at kompozitsiyalarida qanday ifodalanadi: tarixan mashhur rassomlar tomonidan qo'llanilgan usullar mavjud. Biroq, bu yondashuv barcha kompozitsiyalar yechimi uchun klassik usul hisoblanmaydi. Shunday bo'lsa-da, odatda, tasvirdagi elementlar chap pastki

nuqtadan o'ng yuqori nuqtaga yo'naltirilgan chiziq dinamikani anglatadi. Tasviriy san'at kompozitsiyalarida bu element shartli ravishda qo'llanilib, diagonal bo'ylab joylashtirilgan elementlar, ko'zga tashlanadigan rang surtmalari har doim ham dinamikani anglatmaydi. Kompozitsiya yaratayotgan rassom arsenalida yuqorida natyurmort va manzara janridagi misolda keltirilgan ko'plab yondashuvlarni qo'llash imkoniyati mavjud. Bundan kelib chiqadiki, oliy badiiy-pedagogik ta'limda talabalarda kompozitsiyaga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tizimida asar dinamikasiga oid o'quv materiallarini taqdim etilishi kompozitsiyani o'qitish sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Kompozitsiya yaratishda alohida e'tibor qaratiladigan omillardan biri kompozitsiya detallarining fakturasini to'g'ri ifodalash, tasvirlash bilan bog'liq. Zero, har bir buyum, detal qanday materialdan tayyorlanganiga ko'ra faqat shu buyumgagina xos bo'lgan fakturaga ega bo'ladi: mato, taxta, chinni, metall, keramika, gips rozetka yoki boshqa natura har birining o'zigagina xos bo'lgan fakturasi bo'ladi. Talabaga kompozitsiya yaratish haqidagi nazariy ma'lumotlar

mazmunida materiallarning fakturasini to'g'ri tasvirlash kompozitsiya mazmunini tasviriy-ifodaviy jozibasi, mantiqiy aloqadorligini anglash asoslaridan biri ekanligini tushuntirish didaktik imkoniyatining yana bir tarkibiy komponenti sifatida ahamiyatlidir.

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda talabalarda kompozitsiyaga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tizimida kontrast, ritm, perspektiva kabi tushunchalarga doir o'quv materiallarini berilishi badiiy ta'limni, xususan talabalarning kompozitsion mushohada bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, asosan, nazariy mazmun kasb etgani bois, ustuvor tarzda talabalarda kompozitsiya bo'yicha bilimlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Tom ma'nodagi didaktik imkoniyat faqat talabalarning kompozitsiya yaratishning turli variantlarini bajarishni nazarda tutuvchi amaliy faoliyat bilan bog'liq. Bu jarayonni kompleks mazmun kasb etishi esa jarayonning didaktik imkoniyatlarini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Брагина Д.В. Развитие мышления у студентов художественно-графического факультета на занятиях композицией (на материале натюрморта): Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М.: Про Софт, 2005.
2. Ветрова И.Б. Неформальная композиция: от образа к творчеству. – М.: Ижица, 2002. – 183 с.
3. Волков Н.Н. Композиция в живописи. – М.: «Искусство», 1977. – 320 с.
4. Гильманова Н.В. Композиция в изобразительном искусстве. – Ташкент: Истиклол нури, 2014. – 288 с.
5. Голубева О.Л. Основы композиции. Учебное пособие. 2-е издание. – М.: «Искусство», 2004. – 120 с. ил.
6. Груздев В.В. Метод освоения некоторых понятий композиции: Преподавание спецдисциплин на художественно-графических факультетах пединститутов. – Курск: КПИ, 1978. – 168 с.
7. Дагдьян К.Т. Развитие образного мышления средствами декоративности при освоении дисциплины «Композиция» студентами художественно-графических факультетов. – Ростов-на Дону: 2010.



UDK:37.022:808.1

Anvar XURRAMOV,
ChDPU, Informatika va axborot texnologiyalari kafedrası v.v.b. dosenti
E-mail:anvar7277@uamail.uz

ChDPU v.v.b.dosenti A.X.Boymurodov taqrizi asosida

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Аннотация

Maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari muhokama qilinadi, ular orasida bulutli texnologiyalar, mobil makon, veb-kvestlar, onlayn kurslar va o'yinlashtirish kabilar ajralib turadi. Texnologiyalarning funktsiyalari ochib berilgan: boshqaruv, ta'lim va kommunikativ. Maqolaning maqsadi – ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning mohiyatini ochib berish va ularning afzalliklarini aniqlash, jumladan ko'rish, foydalanish imkoniyati, talabalarning individual qobiliyatlariga e'tibor berish. Ta'lim sohasida turli raqamli texnologiyalar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, shuningdek, o'qituvchilar ishini soddalashtirish va qulaylashtirishga qaratilgan. Ta'lim sohasida raqamli ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligi va samaradorligini oshirishning zarur sharti ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, motivatsiya, mobil maydon, veb-kvest, onlayn kurs, gamifikatsiya, ta'lim maydoni, internet resurslari, onlayn ta'lim, akademik ish, talaba, o'qituvchi.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассматриваются цифровые технологии обучения, в том числе облачные технологии, мобильное пространство, веб-квесты, онлайн-курсы, геймификация. Раскрываются функции технологий: управленческая, обучающая и коммуникативная. Цель статьи – раскрыть сущность цифровых технологий в сфере образования и определить их преимущества, в том числе наглядность, доступность, внимание к индивидуальным способностям учащихся. В сфере образования различные цифровые технологии направлены на всестороннее развитие учащихся, развитие у них практических навыков, повышение их мотивации к учебе, а также упрощение и облегчение труда педагогов. В сфере образования показано, что цифровые образовательные технологии являются необходимым условием повышения эффективности и результативности образовательного процесса.

Ключевые слова: цифровые технологии, инновационные технологии, мотивация, мобильное пространство, веб-квест, онлайн-курс, геймификация, образовательное пространство, интернет-ресурсы, онлайн-образование, учебная работа, студент, преподаватель.

DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Annotation

The article deals with digital learning technologies, including cloud technologies, mobile space, web quests, online courses, gamification. The functions of technologies are revealed: managerial, educational and communicative. The purpose of the article is to reveal the essence of digital technologies in the field of education and determine their advantages, including visibility, accessibility, attention to the individual abilities of students. In the field of education, various digital technologies are aimed at the comprehensive development of students, the development of their practical skills, increasing their motivation for learning, as well as simplifying and facilitating the work of teachers. In the field of education, it is shown that digital educational technologies are a necessary condition for improving the efficiency and effectiveness of the educational process.

Key words: digital technologies, innovative technologies, motivation, mobile space, web quest, online course, gamification, educational space, Internet resources, online education, academic work, student, teacher.

Kirish. Muammoni umumiy ma'noda bayon qilish va uning muhim ilmiy va amaliy muammolar bilan bog'lanishi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kasbiy ta'limning yetakchi maqsadi bo'lib, bu talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lish yo'lida raqobatbardosh fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan o'qituvchining vazifasi o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori yuqori malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi, shu munosabat bilan ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yangilanmoqda. Hozirda raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatiga ega bitiruvchilar kerak. Ta'lim muassasasining ustuvor vazifalaridan biri talabaning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki axborot texnologiyalaridan foydalanish,

axborotni mustaqil ravishda ajratib olish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Universitetlar yuqori texnologiyali darsliklar va darsliklar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni keng yoyishlari kerak.

Raqamli ta'lim texnologiyalari - bu ko'rinishni ta'minlaydigan elektron tizimlardan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usuli. Raqamli texnologiyalardan foydalanishdan maqsad o'quv jarayonining sifati, samaradorligini oshirish, shuningdek, talabalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishdan iborat. L.V.Shmelkovaning fikriga ko'ra, raqamli makonga mos keladigan shaxsning ustuvor fazilatlaridan biri bu odamning raqamli texnologiyalarga ega bo'lishi va ulardan professional faoliyatda foydalanish qobiliyatidir. S.S. Smirnov, E.L. Vartakova va M.I. Makseenko raqamlashtirishni o'quv

jarayonining boshqaruv, madaniy, xulq-atvor, shuningdek infratuzilmaviy tarkibiy qismi deb hisoblaydi.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sabablari orasida ko'plab tadqiqotchilar yuklamaning kamayishi va mustaqil ishlar ulushining ko'payishini aniqlaydilar. Shu bois, ta'lim sifatini saqlab qolish va oshirish maqsadida talabalarning bilim olishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadida o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan raqamli ta'lim texnologiyalari faol joriy etilmoqda.

Talabalarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari alohida qayd etilgan:

- topshiriqlarni bajarish va o'quv materiallarining harakatlanishini oshirish;

- talabalarining motivatsiyasini oshirish;

- o'quv jarayonini individuallashtirish;

- materiallarning ko'rinishini oshirish;

- o'qituvchidan tezkor fikr-mulohazalarni amalga oshirish;

- talabalarga topshiriqni bajargandan so'ng darhol natijalarga kirishni ta'minlash.

Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismidir, shuning uchun olimlarning ta'kidlashicha, ular o'quv jarayoniga osongina integratsiya qilinadi, chunki talabalar o'z hayotlarida turli xil elektron vositalardan foydalanishga odatlangan va bu ularga turli xil texnologiyalar bilan ishlashni osonlashtiradi. Elektron vositalar va ma'lumotlarni osonroq qabul qilish va materiallarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini differentsiallashtirish, uni har bir talabaning ehtiyojlariga mos ravishda qurish, tayyorgarlik darajasiga mos keladigan vazifalarni berish va shu bilan ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Raqamli vositalardan foydalanish talabaning o'quv jarayonining faol sub'ektiga aylanishi uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Passiv idrokdan u faol harakatlarga o'tadi va vazifalarni bajarishga kiritiladi.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- ta'lim sohasida raqamli ta'lim texnologiyalarining rolini aniqlash;

- raqamli ta'lim texnologiyalarining asosiy turlarini va ularni o'quv jarayoniga qo'llashni ko'rib chiqish.

Birinchi va eng keng tarqalgan usul mobil telefondan global tarmoqqa kirish vositasi sifatida foydalanishdir. Elektron o'quv kurslari, testlar, amaliy topshiriqlar va qo'shimcha o'quv materiallari (chizmalar, fotosuratlar, ovoz va video fayllar) o'z ichiga olgan ixtisoslashtirilgan saytlarga kirishni tashkil qilish mumkin. Shuningdek, mobil telefonlar uchun ham versiyalari mavjud bo'lgan ICQ, QIP dasturlarida ta'lim maqsadlarida elektron pochta almashish va tezkor xabarlar almashish mumkin. Shunday qilib, o'qitishning barcha bosqichlarida talabaga axborot materiallarini uzatish, shuningdek, butun o'quv jarayonini nazorat qilish va paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda yordam berish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud.

Olingan ilmiy natijalarni to'liq asoslagan holda tadqiqotning asosiy materialini taqdim etish. Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: mobil ta'lim, bulutli texnologiya, onlayn kurslar, gamifikatsiya va veb-kvest. Endi mobil ta'lim texnologiyasi ta'lim sohasida eng ko'p talabga ega. Undan foydalanish tufayli eng qulay va samarali hamkorlik, bilim almashish imkoniyati mavjud. O'quv jarayoni sub'ektlari samsiz tarmoqlar, cho'ntak shaxsiy kompyuterining infraqizil funksiyalaridan foydalangan holda masofadan turib material almashishlari, mobil qurilmalarni talabalar guruhiga o'tkazishlari mumkin. Bulutli texnologiyalar tarmoqqa qulay kirish imkoniyatiga ega, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi va undan minimal boshqaruv

harakatlari bilan foydalanish imkonini beradi, ya'ni bulut ma'lumotlarni tarqatish, qayta ishlash va saqlash imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu texnologiya tufayli o'qituvchilar va talabalar masofadan turib guruh, jamoaviy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Misol uchun, uy guruhidagi tadqiqot loyihalari, hisobotlar, taqdimotlar yaratib, bu erda har bir talaba o'quv ishlarining o'z bo'limi uchun javobgardir, lekin ayni paytda boshqa bloklarni tahrirlashi va o'zgartirishi mumkin. Har bir talaba tomonidan kiritilgan o'zgarishlar umumiy hujjatga sinxronlashtiriladi. Bulutli texnologiya masofaviy ta'lim asosida qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'qituvchi universitetning elektron tizimiga topshiriqlar, amaliy ishlar va boshqa yozma topshiriqlarni joylashtirishi mumkin, bunda talabaning vazifasi o'qituvchi tomonidan tuzilgan hujjatdagi mashqlarni bajarishdir. Bular quyidagi turdagi vazifalar bo'lishi mumkin: jadval yoki matndagi bo'shliqlarni to'ldirish, savollarga javob berish yoki fikrni davom ettirish. Ish davom etar ekan, o'qituvchi topshiriqlarni tekshiradi, chunki u hujjatga kirish huquqiga ega. Keyingi raqamli ta'lim texnologiyasi - bu talabalarga masofadan turib foydalanish uchun taqdim etiladigan onlayn kurslar. Ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyati va afzalligi - bu shaxsga yo'naltirilgan yo'nalish. O'qitish talaba uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda amalga oshiriladi, talaba uchun eng qulay shaklda turli yo'nalishlarda malakali ta'lim olish imkonini beradi.

Onlayn ta'lim sinxron va asinxron ta'lim kabi ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin. Sinxron ta'lim ma'lum bir vaqtda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi darsni nazarda tutadi va asinxron ta'lim talabaning o'zi uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda o'rganishini anglatadi, ya'ni. O'qituvchi kursni ishlab chiqadi va uni Internet saytiga yuklaydi, talabalar esa taqdim etilgan material bilan tanishadilar va topshiriqlarni bajaradilar. Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, o'quvchilar o'zlarining individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'rganilayotgan materialni tushunish va yodlash uchun zarur bo'lgan vaqtni o'rganishga qancha vaqt ajratishi, shuningdek, mavzuni takrorlash uchun istalgan vaqtda o'tgan materialga qaytishi mumkin. Didaktik maqsadlarda raqamli texnologiya "o'yinlashtirish" qo'llaniladi, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quv materialini o'qituvchi tomonidan an'anaviy ma'ruzalarda efirga uzatilmaydi, balki talabalar tomonidan mustaqil ravishda olinadi. Bu ta'lim muassasasining ilmiy jarayoniga raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan foydalanish va integratsiyalash hamda ularni qo'llash natijasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Gamifikatsiya o'yin va ijtimoiy media texnologiyalari kombinatsiyasi orqali talabalarining tadqiqot faoliyatini tashkil qilish imkonini beradi. Gamifikatsiya har qanday murakkablik darajasidagi amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan raqobatbardosh va vizuallashtirilgan yondashuvni qo'llash orqali talabalarining motivatsiyasini oshirishga, o'quv va kognitiv faoliyatni faollashtirishga imkon beradi. Ushbu raqamli texnologiyadan foydalanish qidiruv faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi, axloqiy tamoyillar, e'tiqodlar, o'zini o'zi qadrlash va boshqalar kabi ichki stimulyatorlar.

Internet resurslaridan foydalanish orqali rolli o'yinni tashkil qilish bilan muammoli vazifalar to'plamiga asoslangan raqamli veb-kvest texnologiyasidan foydalanish. Veb-kvest - bu o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion texnologiyasi bo'lib, o'quv fanining turli muammolarini qamrab oladi, masalaning noaniq echimini taklif qiladi. Bu texnologiya talabalarining mustaqilligini, ijodkorligini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, talabalarining ishtiroqini oshirish va ularning ta'lim yutuqlarini oshirish vazifasini qo'yadi. Shunday qilib, ushbu texnologiya inklyuziv ta'limga asoslanadi, bunda o'quv jarayonining har bir sub'ekti shaxsiy texnik vositalardan, masalan, planshet, kompyuter, noutbuk, smartfon va boshqalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Ta'lim sohasidagi barcha raqamli texnologiyalar bir qator funktsiyalarni bajaradi, ularning asosiylari ta'lim, boshqaruv va kommunikativdir. Ta'lim o'quv amaliyotlarini aniqlash, ishlab chiqish, tahlil qilish, tarjima qilish, talabalar va o'qituvchilarning masofaviy malakasini oshirish orqali elektron ta'limni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Boshqaruv funktsiyasi akademik natijalarni hisobga olishni, ya'ni reytinglarni, jadvallarni, jadvallarni tuzishni, shuningdek, elektron materiallar va baholash vositalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ funktsiya ta'lim maydoni sub'ektlarining tarmoq o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, ya'ni. onlayn kurslar, vebinarlar, turli video konferentsiyalar, eshittirishlar va boshqalarni o'tkazish.

Raqamli o'qitish texnologiyasidan foydalanish inkor etilmaydigan afzalliklarga, masalan, vaqt va joydan qat'i nazar, o'qishni yakunlash. Biroq, bu o'qituvchilar uchun ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, yangi o'qitish usullarini boshqarish va o'zaro ta'sirdagi o'zgarishlar. Bir xil jismoniy makonda real vaqt rejimida va yuzma-yuz o'qitish uzoq vaqtdan beri an'anaviy o'qitish modeli bo'lib, universitet o'qituvchilarining kasbiy identifikatori ko'pincha asoslanadi. Raqamlashtirish tufayli o'qituvchining ish profilidagi o'zgarishlar shunchalik katta bo'ldiki, bu o'qituvchilarning tajribasini shubha ostiga qo'ydi va kasbiy shaxsni qayta shakllantirishni talab qildi. Turli xil o'quvchilar va o'rganish qiyinchiliklari, rasmiy o'qitish sifati mezonlari va bir vaqtning o'zida o'sib borayotgan talabalar soni bilan bog'liq ravishda kamayib borayotgan resurslar ham o'qituvchilarga bosimni yanada kuchaytiradi.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan ko'proq foydalanishga qaramasdan, u bo'yicha tadqiqotlar texnologiyaga qonaltirilgan va u, masalan, o'qituvchilarning IT ko'nikmalari darajasini o'rgangan va raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning tarqalishi. Biroq, tadqiqotlar, ayniqsa, o'qituvchilarning raqamli o'qitish texnologiyasidan foydalanish tajribasini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi uning ish faoliyatidagi tajribaga erishishga qaratilgan, shuning uchun raqamli o'qitish texnologiyasi tushunchasi ma'lum raqamli o'qitish texnologiyalari bilan chegaralanib qolmaydi, balki keng tushuniladi. Bu o'qituvchi boshchiligidagi va raqamli texnologiyalarga asoslangan o'qitish, shuningdek, virtual imtihonlar va o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil ilovalardan foydalanishni anglatadi. Tadqiqot quyidagi savollarga javob beradi: Universitet o'qituvchilari raqamli o'qitish texnologiyasidan foydalanishning ko'payishi ularning tajribasi va kasbiy o'ziga xosligiga ta'sir qilganini qanday his qilishadi? Raqamli o'qitish texnologiyasi universitet o'qituvchilarining ish muhitida qanday aniq o'zgarishlarga olib keldi? Raqamli o'qitish texnologiyasi o'qituvchilarning rolini qanday o'zgartirdi? Ekspertiza, kasbiy shaxs va ish faoliyati muhitidagi ushbu o'zgarishlar identifikatsiya ishi va uning og'riqli nuqtalari orqali tekshiriladi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilishida ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining o'zgartiruvchi ta'sirlari va yo'nalishi hali ma'lum emas. Biroq, an'anaviy o'qituvchining axloqi bilan bir qatorda, o'qituvchining kasbiy shaxsiyatining yangi jihati paydo bo'lishi mumkin, bu, masalan, o'quv dasturini tayyorlash va amalga oshirishda ijodkorlik va tartiblardan yiroq bo'lishiga asoslangan. Kelajakda raqamli ta'lim, ko'proq o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikda bilim yaratish jarayoniga asoslanishi mumkin. Boshqa tomondan, o'qituvchining an'anaviy deb hisoblangan vazifalari mazmunli bilim va o'quv materialini ishlab chiqarish, jismoniy va an'anaviy ta'lim axloqi endi yangi o'qituvchining bunday markaziy qismi bo'lib qolmaydi. Kasbiy ta'lim va ta'limning raqamli ta'lim

jarayonini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradigan omillar raqamli jamiyatning uchta tarkibiy qismidir:

- raqamli avlod (alohida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega o'quvchilarning yangi avlodi);
- raqamli muhitni shakllantiruvchi yangi raqamli texnologiyalar va unda rivojlanish;
- raqamli iqtisodiyot va u tomonidan yaratilgan kadrlarga qo'yiladigan yangi talablar.

Ishlab chiqarishning tez o'sishi va bilimlarni yangilash sharoitida umrbod ta'lim va raqamli ta'lim jadal texnologik va ijtimoiy rivojlanish bilan hamqadam bo'lish uchun kalit so'zlardir. Bunday vaziyatda universitetlar mutlaqo yangi va murakkabroq muammolarga duch kelmoqda va ular raqamli transformatsiya bilan belgilanadigan jamiyatda muhim rol o'ynashga chaqiriladi. Ta'lim doimiy o'zgarishlar holatida, chunki dunyo doimo o'zgarib turadi. Raqamlashtirish nafaqat ta'lim mazmuniga, balki uni tashkil etishga ham ta'sir qiladi. Bu jarayonlar universitetlarning ham, professor-o'qituvchilarning ham joylashuvi uchun turli xil oqibatlariga olib keladi. Kerakli kompetensiyalar ko'pincha ta'lim muassasalari devorlaridan tashqarida olinadi, chunki ta'lim dasturlari ko'pincha texnologiya dinamikasiga mos kelmaydi. Onlayn ta'lim bozori universitet darajasiga oid savollarni tug'diradi. O'qituvchi uzatilgan bilim va ko'nikmalarni tashuvchidan bilim bazalarida harakatlanishga yordam beradigan navigatorga aylanadi. Raqamli texnologiyalar o'qitiladigan fanlarning mazmuni va ularni taqdim etish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu shunchaki oddiy elektron taqdimotlar yoki videolardan foydalanish emas. Elektron ma'lumotlar bazalariga, yangiliklarga, doimiy forumlarga to'g'ridan-to'g'ri ulanish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mumkin. Skype, messengerlardan foydalanib, yetakchi mutaxassis, ekspertning darsida qatnashish mumkin. O'quv adabiyotlariga ixtisoslashgan nashriyotlar darsliklar va o'quv qo'llanmalarining elektron versiyalariga tobora ko'proq o'tmoqda. O'qituvchining roli, uning ishinin mazmuni sharoitda raqamlashtirish keskin o'zgarimoqda. Uning vazifasi kursni, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish, ularni yangi nazariy tushunchalar va ishlanmalarga, shuningdek, yangi texnologiyalar, amaliyotlar, empirik ma'lumotlar, ilmiy va o'quv adabiyotlari nashrlariga muvofiq muntazam ravishda yangilab turishdan iborat emas. Bu barcha materiallar taqdim etilgan elektron resurslar va ma'lumotlar bazalarini kuzatish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'limni yanada samaraliroq qilish, uni boyitish, individual ta'lim jarayonlarini osonlashtirish yoki nogiron o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab yangi ta'lim imkoniyatlari va yondashuvlarini ochadi. Bu vazifalarni aniq amalga oshirishda universitet professor-o'qituvchilari hal qiluvchi rol o'ynashi kerak. Ular yangi mazmunni tarqatishlari, yangi texnik va uslubiy imkoniyatlardan foydalanishlari va ushbu jadal rivojlanishning eng muhim jihatlaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Raqamli ta'lim resursi(RTR)-ta'lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir. RTRdan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar yaratadi. RTR - bu o'qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda, maktab o'quvchilarining so'rovi va monitoringini tashkil etish va o'tkazishda, shuningdek uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, belgilar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrirlash va talabalarning ijodiy ishlari xatolarni tuzatishda operativ vosita hisoblanadi. Dasturlashtirilgan o'qitishning o'ziga xos xususiyati - bu o'quv jarayonini faollashtirishga yordam beradigan bosqichmabosqich mustaqil faoliyat, shuningdek, o'qitishni

individuallashtirish va differentsiallashtirish mumkin bo'lgan tezkor aloqaning mavjudligidir. Ta'lim sohasida RTRdan foydalanish o'qituvchilarga o'qitishning metodini, tashkiliy shaklini va mazmunini sifatli o'zgartirish imkonini beradi. Pedagogik faoliyat vositalari takomillashtirilmoqda, o'qitish sifati va samaradorligi ortib bormoqda. RTR an'anaviy o'qitish vositalariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega.

Tadqiqotning xulosalari va ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar istiqbollari. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning afzalliklari ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabaga yo'naltirilganligidadir. Shunday qilib, ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bu erda nafaqat

dastur talablarini bajarish, balki talabalarning qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olish ham ustuvor vazifadir. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ufqlarini kengaytiradi, bilimlarni eng tuzilgan va tushunarli shaklda olish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Afzalliklar qatorida qog'ozbozlikni minimallashtirish, o'quv faoliyati va talabalarni o'rganishni soddalashtirishni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Talabalar amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'limni bilimlarning mavjudligi bilan tavsiflangan sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Вишневская Г.В. Технологический подход в педагогическом процессе высшей профессиональной школы// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2008. №6 (10). С. 235-239
2. Ячина Н.П. Развитие цифровой компетентности будущего педагога в образовательном пространстве / Н.П. Ячина, О.Г.Г. Фернандез // Вестник ВГУ. – 2018. – № 6. – С. 134-138.
3. Xurramov, A.J., Boymurodov, A.X. (2022) O'quv jarayonini tashkil etishda interaktiv yondoshuvlar. Innovative Developments in Sciences, Education and Humanities Hosted New York, USA
4. Xurramov, A.J., Boymurodov, A.X., Use of active and interactive methods in computer graphic classes. // Eurasian Scientific Herald, ISSN: 2795-7365, Volume 5, 02 2022, -pp: 4-7.



UDK: 373.211.24

Dilshoda HAMIDOVA,
Termiz davlat Pedagogika institute magistranti

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.A.Norbosheva taqrizi asosida

WAYS TO EDUCATE HUMANITY CHARACTERISTICS IN KINDERGARTEN CHILDREN THROUGH MUSIC AND PLAY ACTIVITIES

Abstract

This article describes the development of humanitarian qualities through musical and gaming activities in the education of preschoolers, the role of music and games in a child's life.

Key words: music, game, child, preschool education, teacher, rhythm, creativity, person, action.

ПУТИ ВОСПИТАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСТВЕННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ДЕТСКИХ САДАХ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНО-ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассказывается о развитии гуманитарных качеств через музыкально-игровую деятельность в воспитании дошкольников, о роли музыки и игр в жизни ребенка.

Ключевые слова: музыка, игра, ребенок, дошкольное образование, педагог, ритм, творчество, человек, действие

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQA VA O'YIN FAOLIYATI ORQALI INSONPARVARLIK XUSUSIYATLARINI TARBIALASH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda musiqa va o'yin faoliyati orqali insonparvarlik xususyatlarini rivojlantirish, musiqa va o'yinning bola hayotidagi o'rni masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, o'yin, bola, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, ritm, ijod, inson, harakat.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimiga a'lohida e'tibor qaratilmoqda jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 9-sentabrdagi PQ-3261 sonli qarorida uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruv tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish oraqli bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida farmoishi qabul qilindi [1]. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofda go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g'oyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofda qo'shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofnii bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullanirishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin.

O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi [9].

O'yin bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi.

O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi. O'yin orqali bolalarda jamoaviy tarzda o'ynash ko'nikmasi o'zro bir birini hurmat qilish kabi insoniy xislar ortib boradi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlarini hamda bir qancha shaxsiy fazilatlarini o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi [2,10].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Abu-Nosir Al-Forobiy musiqa haqida shunday degan «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir». Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir». Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Frensis Galton o'zining «talantning tug'maligi, uning qonuniyatlari va oqibatlari» nomli kitobida «buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir», deb aytgan..

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, deb yozgan. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi.

A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish - ulami to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi». Pedagog va psixolog olimlar D.N.Uznadze, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.A.Shmokov, G.K.Selevko, P.Ya.Galperin, I.Olloyorov, A.Verbiskiy va boshqalar o'yinlarga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, imkoniyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan bolalar o'yinli texnologiyalarining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra uni ikki guruhga bo'lib tasniflash mumkin: 1) ijodiy o'yinlar; 2) qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarga syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurilish-yasashga doir o'yinlar kiradi. Ijodiy o'yinlarda qoidalar oldindan belgilanmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Musiqali o'yinlar bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofdan obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo'shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofdan bilishida, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega [6,8].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor: 1. Ko'rgazmali metod. 2. So'zlab berish metodi. 3. Amaliy faoliyat metodi.

Ko'rgazmali metod:

1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shib olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi. So'zlab berish metodi Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tasavvurini jonlantiradi. So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko'rsatma berish – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi. Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib, topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin [2,5,7].

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tadqiqot ishlaridan shuni aytish mumkin. Bolalar bog'chasida musiqiy tarbiya jarayonlarida: bolalarning musiqa tinglashi, milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish, bastakor hayoti va ijodi bilan tanishtirish, musiqa turlari bilan tanishtirish, ritmik harakat va raqs asoslari bilan tanishtirish, bolalarda ijobiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish, musiqali, o'yinli vositalari orqali bolalar tarbiyasini tobora shakllantirish, kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi.

Yoshiga ko'ra bolalar o'yinlari yanada xilma-xillashga boradi. Nutqni rivojlantirish, yetarli bilim ta'minoti o'qituvchilar va o'qituvchilarga turli xil oddiy o'yin shakllarida murakkab ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradi: syujet-rolli, didaktik, mobil. Bolalar har bir o'yin turining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata boshlaydilar va o'z faoliyatlarida tegishli o'yin usullari va vositalaridan foydalanadilar. Bolalar o'yini faqat o'qituvchi ushbu faoliyatni tizimli va maqsadli shakllantirganda, uning barcha asosiy tarkibiy qismlarini ishlab chiqqanda to'liq rivojlanadi [3,4]. Tarbiyachi bolalarning mustaqil o'yinlarini ham boshqaradi, o'yin maydonini va o'yinning maxsus tayyorgarlik bosqichini tashkil qilish yordamida ularni to'g'ri yo'nalishga ehtiyotkorlik bilan yo'naltiradi. Rolli o'yinlar. Treningning boshida o'qituvchi bolalarda o'yin ko'nikmalarini va asosan rol o'ynash xatti-harakatlarini jadal shakllantiradi. U bolalarni qo'shma o'yinga kiritadi yoki qisqa hikoya shaklida syujetni taklif qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin davomida bir qator o'zaro bog'liq shartli ob'ekt harakatlarini rivojlantirishga, ularni ma'lum bir xarakterga (rolga) bog'lash imkonini beradigan asosiy o'yin qobiliyatlari allaqachon shakllangan. O'qituvchi oldida o'yinda bolalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish vazifasi turibdi. Bunga turli xil rollarni o'z ichiga olgan o'yinni rivojlantirish yordam beradi: ijtimoiy hayotning turli sohalaridan, turli adabiy asarlardan, ertaklardan, shuningdek, ertak va haqiqiy qahramonlarning kombinatsiyasi. Bunday rollarning umumiy syujetga kiritilishi bolalarning tasavvurini, fantaziyasini faollashtiradi, ularni birlashtiradigan va bunday turli xil personajlarning birgalikda yashashi va o'zaro ta'sirini mazmunli qiladigan voqealarning yangi kutilmagan burilishlarini yaratishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birgalikda musiqiy mashg'ulotlarning ham ishtirok etishi muhim hisoblanadi. Umuman olganda maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirish, jismoniy tarbiya, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, tasviriy san'at, qurilish materiallar bilan ishlash, qirib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi.

Taklif sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari samaradorligini oshirish maqsadida

o'yinli texnologiyalarni integratsiyalash natijasida o'stiribgina qolmay, balki bolalarda insonparvarlik tarbiyalanuvchilarning musiqiy savodxonlik darajalarini xususiyatlarining shakllanishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 - sentabrdagi PQ-3261 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" qarori.
2. Boltayev B.R.. "Maktabgacha ta'limda musiqa tarbiyasi" (o'quv qo'llanma) Samarqand – 2019. 172. b.
3. Teplov B.M. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi - M., L., 1977.
4. Tarasov G.S. Musiqa ta'limi tizimida pedagogika. - M.; 1986 yil
5. Hamidova D.H.. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa va o'yin faoliyati orqali insonparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash yo'llari" Oriental Journal of Education. 2022.6. 63-68 b
6. Qodirova F.R. "Maktabgacha pedagogika" darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019 - 688 b.
7. Usupova P.Y.. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. - T., «O'qituvchi». 1993.
8. Apraksina O.A. Maktabda musiqiy ta'lim usullari: "Musiqa va qo'shiqchilik" ixtisosligi bo'yicha pedagogika institutlari talabalari uchun darslik - M.: Ta'lim, 1983.-224 b.
9. Qodirova R.M., F.R.Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta- maxsus ta'lim muassasalari uchun darslik. T., "Istiqlol", 2006 y.
10. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T., "Tafakkur bo'stoni", 1992



UDK: 377:316.6:371.385(575.1)

Shaxnoza SHAKARBOEVA,
JDPU Umumiy psixologiya kafedrası, psixol.f.f.d.
E-mail:shahnozashakarboeva@gmail.com

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

BO'LG'USI O'QITUVCHI FAOLIYATIGA XOS BO'LGAN KASBIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida pedagogik faoliyatda o'z ustida ishlash qobiliyatiga ta'sir etuvchi psixologik asoslar, ijtimoiy psixologik determenantlari, o'qituvchilarda shakllangan kasbiy motivlar, tolerantlik va empatik qobiliyatlar kabi masalalar ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, ta'lim, pedagogik faoliyat, tolerantlik, empatik qobiliyat, muvaffaqiyat motivlari, bilim, malaka.

ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация

Статья посвящена социально-психологическим аспектам развития способности к саморазвитию у будущих учителей. В статье также рассматриваются такие вопросы, как психологические основы, социально-психологические детерминанты, профессиональные мотивации, сформированные у учителей, толерантность и эмпатические способности, влияющие на способность работать над собой в педагогической деятельности.

Ключевые слова: учитель, образование, педагогическая деятельность, толерантность, эмпатическая способность, мотивы успеха, знания, умения.

PROFESSIONAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO TEACHER'S ACTIVITY

Annotation

The article is devoted to the socio-psychological aspects of the development of the ability for self-development in future teachers. The article also discusses issues such as psychological foundations, socio-psychological determinants, professional motivations formed by teachers, tolerance and empathic abilities that affect the ability to work on oneself in pedagogical activity.

Key words: teacher, education, pedagogical activity, tolerance, empathic ability, motives of success, knowledge, skills.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga nazariy, amaliy, metodik yondashish hamda maxsus tayyorlashning shartlari va uning metodikalarini takomillashtirish, bo'lajak pedagog xodimlarning muvaffaqiyati uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, mustaqil ishlay olish qobiliyati kabilarni aniqlash masalalari aytarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, muvaffaqiyatli, ijodkor o'qituvchilarga xos o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari aniqlash va uni baholash ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, uni jamiyat talablariga integratsiyalash, shuningdek, o'z ustida ishlash qobiliyatini tarbiyalashning psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etishga qaratilgan yangi psixodiagnostik metodikalarni joriy etish, ilm-fan taraqqiyotida talaba yoshlar faolligini oshirish hamda ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi, ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda, jumladan 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlariga binoan bo'lg'usi pedagoglarning o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari tadqiq etish ishlarida avvalo, ilg'or psixodiagnostik metodikalar va savolnomalarning rolini oshirish, muammoga oid metodik ta'minotni modernizatsiyalash, yangi innovatsion yondashuvlarga asoslangan mahalliy metodikalar va shaxs so'rovnomalari joriy etish va uni yangi sifat darajasiga ko'tarishni talab etmoqda.

Tadqiqotchilardan B.I.Sarsenbaeva muvaffaqiyatli o'qituvchi faoliyatini tadqiq etar ekan, ularga xos bo'lgan quyidagi kasbiy psixologik xususiyatlarni ajratadi:

- Analitik va konstruktiv fikrlash usuli;
- Hissiy va ixtiyoriy barqarorlik;
- Stressga chidamlilik va ekstremal sharoitlar va harbiy xizmat sharoitlariga tez moslashish;
- Hamdardlik va tolerantlik;
- Psixofiziologik xususiyatlar;
- Akademik qobiliyatga ega bo'lish ya'ni boshqa sohalarga oid bilimlardan umumiy xabardorlik;
- O'quvchilarni sevish va hurmat qilish;
- Yuqori darajadagi pedagogik e'tiqod (mutaxassislarni tayyorlashdagi fidoyilik);
- Mafkuraviy, siyosiy, axloqiy va intellektual fazilatlar uyg'unligi va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan o'laroq, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy hayot yo'li va kasbiy faoliyatining individual uslubi masalalari T.B.Maksimova tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Muallifning fikricha, o'qituvchi shaxsidagi o'zini o'zi yaratish va o'zini o'zi tarbiyalash ko'nikmasi, keyinchalik unda ijodkorlik sifatlarining o'sishiga keng imkon beradi. Darhaqiqat, o'qituvchi shaxsidagi ijodkorlik xususiyati bu ta'lim – tarbiya jarayonida muvaffaqiyatni, samaradorlikni ta'minlovchi asosiy psixologik mezonlardan biri sanaladi. P.V.Kondratevga ko'ra, umumrta ta'lim maktablarining bo'lajak o'qituvchilari o'zlarida quyidagi kasbiy qobiliyatlarni shakllantira olgan bo'lislari kerak:

1. Bilish qobiliyati;
2. Tushuntira olish qobiliyati;
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati;
4. Nutq qobiliyati;
5. Tashkilotchilik qobiliyati;

6. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati;
7. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati;
8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va boshqalar.

Yuqoridagi keltirilgan tasniflardan shu narsa ma'lumki, pedagogik faoliyat nafaqat, fanga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish shuningdek, inson shaxsiga xos ko'plab psixologik bilimlar tizimini o'rganishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik psixologiya fanida "mustaqil ishlash faoliyati" tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan aniq ilmiy ta'riflanib, u quyidagicha izohlanadi.

– "Mustaqillik" – qo'p qirrali pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, u oddiy fenomen tushuncha emas balki, shaxsning yuqori fikrlovchi, sifatli aniq talabi ta'lim olish faoliyati sanaladi. Ya'ni ta'lim oluvchi aniq maqsad asosida o'quv vaziyatida hech bir kishining yordamisiz maqsadga erishishi hisoblanadi;

– "O'zini o'zi faollashtirish" – sub'ektiv holat bo'lib, u shaxsiy, individual faoliyat olib borish shuningdek, oliy maqsad qo'yish, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, imkoniyat motivlarini ishga solish holatlari bilan izohlanadi;

– "O'z-o'zini faollashtirish" – bu shaxsning sub'ektiv faoliyatidagi ichki motivlari kurashi bilan izohlanib, u orqali bilish jarayonlari faolligi yanada ortadi;

– "O'z-o'zini tashkillashtirish" – bilimlarni egallashdagi shaxsning aqliy imkoniyatida paydo bo'lib, u o'quvchining muammo oldidagi aqliy, intellektual, emotsional imkoniyatlari shuningdek, muammoni hal qilishdagi idrok kuchi va maqsadlarni aniqlash chegarasi bilan izohlanadi;

– "O'zini o'zi boshqarish" – faoliyatni boshlashdagi psixologik ta'minlanganlik yoki bilim va ko'nikmalar haqidagi dastlabki fikrlar. Ushbu holat orqali o'quvchi vazifalarni bajarishda jarayonlarni mustaqil boshqarib boradi;

– "O'zini o'zi nazorat qilish" – bajarilayotgan faoliyatning eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, bunda bajarilgan va o'zlashtirilgan bilim orqali shaxs darajasi aniqlanadi.

Mazkur tasniflardan ma'lum bo'ladiki, mustaqil ishlash faoliyati har bir pedagoglar uchun samarali bilim olish faoliyati bo'lib, u shaxsning aqliy, intellektual, emotsional, yuqori maqsadli sub'ektiv kechinmalari rivojlanishining pedagogik qonuniyatlaridan sanaladi. Qoidaga muvofiq, bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash malakalari hamda ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish avvalambor, guruhviy ishlar, individual vazifalar va mashg'ulotlar, uy sharoitida bajariladigan vazifalar orqali shakllantiriladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish ayrim tadqiqotchilarning taklifiga ko'ra, quyidagicha amalga oshiriladi:

– Vazifalarda aniq vaqtning belgilanganligi;

– O'qituvchi tomonidan berilgan aniq vazifa (guruhiy, individual);

– Vazifani bajarishda o'qituvchining ishtirok etmasligi;

– Maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirishda talabalarining aqliy, jismoniy say-harakatlari;

– Ish natijasi va hokazo.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuk va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun xam zarurdir. Boshqa yutuklarni o'rganmay, o'zini boshkalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat protsessida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi. Quyidagi jadvalda talabalarining o'z-o'zini baholashi va o'z-o'ziga munosabatini o'rganish so'rovnomalari bo'yicha olingan natijalari keltirilgan.

1-jadval

O'z-o'zini baholash va o'z-o'ziga munosabati so'rovnomalari umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari (Xi-kvadrat-mezoni bo'yicha)

Shkalalar	M (n=100)	Xi-kvadrat-statisitika (p<0,05);(p<0,01)
Sog'lik	86	0,95***
Intellekt	75	0,70**
O'z-o'ziga ishonch	66	0,43
O'-o'zini idora qilish	5	0,31
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	6	0,53
O'z-o'zini tarbiyalash	8	0,53*
O'z-o'zini qabul qilish	10	0,73**

Tadqiqotdan olingan natijalar o'z ustida ishlash faoliyatini tadqiq etishga mo'ljallangan bo'lib, olingan natijalar Jizzax davlat pedagogika universitetida tahsil oluvchi talabalarda birinchi shkala bo'yicha ya'ni sog'lik 86 faktori bilan alohida xarakterlangan. Bundan ko'rinadiki, talabalarda sog'lik shkalasi standart bal ko'rsatkichi bo'yicha yuqori ekanligini namoyon qilgan. Sog'lik shkalasi shaxs shakllanishida turli hil og'ishlarning mavjud emasligidan dalolat beradi. Keyingi shkala intellekt bo'yicha 75 miqdor bilan yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan. Intellekt shkalasining yuqoriligi talabalarda shaxslilik sifatlarining yetukligini bildiradi. Talabalarda o'z-o'ziga ishonch shkalasi bo'yicha ko'rsatkich 66 daraja bilan o'zaro farqlangan. Bu ko'rsatkich standart bal bo'yicha o'rtacha ekanligini bildiradi. Bu esa, ularda o'z-o'ziga ortiqcha baho bermasligi, o'z faoliyatini to'g'ri baholay olgani, o'zini boshqalar bilan solishtirmasligi, o'zining xatolarini tushunib etishi, atrofda gilarining tanbehlari va baholarini o'ziga olmasliklari bilan izohlanadi.

Keyingi shkala o'z-o'zini idora qilish bo'yicha ko'rsatkich o'rtacha farqni tashkil qilgan. Bu qiymatlar o'zini shaxsiy kamolotining asosiy manbai, yutuq va muvaffaqiyatlarining regulyatori deb hisoblagan shaxslar uchun xos. Bunday inson o'z «Men» ini asosiy ichki tayanch sifatida baholaydi. «Men» uning butun faolligini muvofiqlashtiradi va unga yo'nalish beradi, odamlar bilan

munosabati va xulq-atvorini shakllantiradi, o'zining faoliyati hamda tevarak-atrofidagilari bilan muloqoti jarayonida yuzaga keladigan oqibatlarini tashxis qilishga imkon beradi. U o'zining tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishga, taqdiri va voqealar stixiyasiga qarshi turishga qodir ekanini his etadi. Bunday insonlar o'zining emotsional munosabatlari va kechinmalarini nazorat qila oladilar. O'z-o'ziga munosabatning aks etishi shkalasi talabalarda o'rtacha qiymatni namoyon qilgan. Shaxsning atrofda gilarini unga ijobiy munosabatda ekanligini bildiradi. U o'zini boshqalarning yoqtirishini, shaxsiy va ma'naviy sifatleri, xatti-harakati va amaga oshirgan ishlari, axloqiy me'yor va qoidalarga amal qilganini qadrlashini his etadi. Bunday shaxslar muloqotmand, ko'ngli ochiq, ish bilan bog'liq va shaxsiy munosabatlarda kirishimlidir.


Keyingi shkala o'z-o'zini tarbiyalash talabalarda o'rtachadan yuqori qiymatni tashkil etgan. Talabalarda bu shkala o'z ma'naviy imkoniyatini yuqori baholashini, ichki olami boy ekanini, o'zini individual sifatida qabul qilishga moyilligini, o'zining betakrorligini yuqori darajada qadrlashini bildiradi. O'ziga bo'lgan ishonchi muhit ta'siriga qarshilik ko'rsatishga, o'z sha'niga aytilgan tanqidiy fikrlarni oqilona tarzda qabul qilishga yordam beradi. Oxirgi shkala o'z-o'zini qabul qilish ko'rsatkichi talabalarda yuqori darajani namoyon qilgan.

Shaxsning o'z «Men» ini har tomonlama qabul qilishga moyilligini, xulq-atvorini to'la e'tirof etishini karakterlaydi. Umumiy holda, u o'zini ijobiy baholaydi, o'z-o'ziga samimiy, barcha insoniy sifatlarini qadrlaydi. O'zining

kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi. Omadsizlik va nizoli vaziyatlar uning uchun o'zini yomon inson hisoblashga asos bo'la olmaydi.

2-jadval

O'z ustida ishlash darajasi so'rovnomalarning gistogramma ko'rsatkichlari



Umumiy ta'lim maktablari bo'lg'usi pedagoglarida o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining talabalarida shaxs intilish darajasi, o'z-o'ziga baho, o'z-o'ziga munosabat va o'z xulq-atvorini tartibga solish kabi so'rovnomalarning talabalar faoliyati uchun eng zarur bo'lgan faktorlar gistogramma orqali namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Talabalarda o'z ustida ishlash faoliyatini belgilab bergan omillar yuqori darajada: mustaqillik, sog'lik, intellekt, o'z-o'zini boshqarishning umumiy darajasi, o'z imkoniyatlarining bahosi, o'z-o'ziga ishonch, natijalarning kutilganlik darajasi va o'z-o'zini tarbiyalash kabilar belgilab bergan. Past darajada aniqlangan psixologik omillar: irodaviy quvvat, o'z-o'zini idora qilish, rejalashtirish, natijalarni baholash, ichki motiv, qochish motivi, o'z-o'zini idora qilish, o'z-o'zini qabul qilish va o'z-o'ziga munosabatning aks etishi kabilar tashkil qilgan.

Demak, umumiy ta'lim maktabi bo'lajak pedagoglarida o'z ustida ishlashni rivojlantirish va tarbiyalashda o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati va o'z xulq-atvorini tartibga solishi kabi ijtimoiy-psixologik omillarning shakllanganlik darajasiga ham e'tibor

qaratish zarur. Bo'lajak maktab pedagoglarida o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalash jarayoniga yuqori bosqich talabalarining motivatsion intilish darajasi va o'z-o'zini baholashlari bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, bo'lajak pedagoglarning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan bilim-konikmalari bilan izohlanadi.

Bo'lg'usi maktab pedagoglarida o'z ustida ishlashni takomillashtirish uchun oliy ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar bilan birgalikda, ichki motivlarning ustunligi, irodaviy quvvatni o'stirish, murakkab topshiriqlarni bajara olish, o'z-o'ziga ishonchning mavjudligi, o'zini-o'zi idora qilishi, kutilgan natijalarga erisha olish va o'zini-o'zi boshqara olish kabi psixologik omillarning rivojlanishi, kasbiy faoliyatga qadam qo'yganda yangi pedagogik jamoani tushinishi va anglashi osonlik bilan kechishini ta'minlaydi.

Bo'lg'usi maktab pedagoglarida o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishda ichki va tashqi omillarni hisobga olish, o'z ustida ishlashga samarali ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarga e'tibor qaratish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi tarbiyalash o'rtasidagi aloqalarning mavjud sharoitlari va tizimli o'zlashtirilgan malaka-konikmalarning psixologik jihatdan shakllanishi o'zaro ijobiy ravishda ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Sarsenbaeva B.I. Psixologicheskie usloviya podgotovki budущix uchiteley Tekst. / B.I. Sarsenbaeva // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie, 2005, № 1. S. 16 - 27.
2. Maksimova T. V. Smysl jizni i individualnyy stilь pedagogicheskoy deyatelnosti. // Mir psixologii, 2001, №2 (26), S. 114-121.
3. Razvitie sub'ekta obrazovaniya: problemy, podxody, metody issledovaniya Tekst. / pod red. Ye.D. Bojovich. - M. : PERSE, 2005. - S.89.
4. Kondratyev P.V. Problema razvitiya lichnosti uchiteleya. // Aktualnyye problemy psixologicheskogo znaniya. 2006, № 1, S. 83-90.
5. Pershina L.A. Formirovaniye psixologicheskoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja Tekst.: dis. .kand. psix. nauk / L. A. Pershina. Moskva, 2003. - 179 s.
6. Abdulakimovna, S. S. (2021). Teachers self-development as a criterion for increasing professional competence. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 58-60.
7. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari //jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. - 2022. - t. 2. - №. 6.
8. Abdulakimovna S. S. Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. - 2021. - T. 1. - №. 5. - S. 231-235



UDK: 373.211.24

Muxlisa SHIVOQOVA,
Termiz davlat Pedagogika institute magistranti

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M. A. Norbosheva taqrizi asosida

DEVELOPING COGNITIVE INTERESTS THROUGH NATURE AND SCIENCE CENTERS IN KINDERGARTEN CHILDREN

Abstract

This article describes the activities and methods used to develop the cognitive interests of preschoolers through the organization of centers of nature and science.

Key words: nature, education, upbringing, preschool education, science, cognitive, childhood, interest, natural.

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ ЧЕРЕЗ ПРИРОДУ И НАУЧНЫЕ ЦЕНТРЫ У ДЕТЕЙ ДЕТСКОГО САДА

Аннотация

В данной статье рассказывается о мероприятиях и методах, применяемых для развития познавательных интересов у дошкольников посредством организации центров природы и науки.

Ключевые слова: природа, образование, воспитание, дошкольное образование, наука, познавательный, детство, интерес, естественный.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIAT VA ILM - FAN MARKAZLARI ORQALI KONGNITIV QIZIQISHLARNI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat va ilm - fan markazlarini tashkil etish orqali kongnitiv qiziqishlarni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ishlar va qo'llaniladigan metodlar haqida so'z bordi.

Kalit so'zlar: tabiat, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, ilm, kognitiv, bolalik, qiziqish, tabiiy.

Kirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar tabiat va ilm - fan markazlarda o'ynash orqali ham ta'lim oladi hamda nutqi shakllanadi va ulardagi kompetentlik qobiliyatlarini tashabuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati rivojlanadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni vositalar yordamida ta'lim materiallarini o'rganish orqali nutqini rivojlantirish, o'z fikr erkin bayon eta olish, o'zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir. Ma'lumki, Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir [3,7].

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning o'zini o'zi rivojlanishi va o'zini o'zi anglashini ta'minlashga tayanadi, bilimga bo'lgan ichki ehtiyojni uyg'otish, kognitiv qiziqishni faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichkina "bolajon" har kuni ko'plab savollarni so'raydi. Nima uchun yomg'ir yog'adi, nega shamol esib turadi, nima uchun quyosh porlashi mumkin. Tabiiy hodisalarning mohiyatini va kichik yoshdagi bolalarning qonuniyligini tushuntirish uchun nima bo'lishining sabablari va oqibatlarini haqida gapirish oson ish emas. Albatta, siz aytishga yoki ko'rsatib berishga harakat qilishingiz mumkin va siz eksperiment o'tkazishingiz mumkin. Bunda bolalar "tajriba" burchagida bolalar bog'chalarida ishlaydilar [2].

Ilm-fan va tabiat markazida, tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng

katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat va ilm - fan markazlari orqali kongnitiv qiziqishlarni rivojlantirish ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib jumladan: A.N. Leontevning ta'kidlashicha, bola allaqachon ma'lum moyilliklarga ega, "dunyoni idrok etishga tayyor" va "inson qobiliyatlarini egallash qobiliyati" bilan tug'iladi. Maktabgacha yoshdagi bolalikdagi hayot, M. Montessori fikriga ko'ra, "aqliy embrion" holatiga mos keladi va bu davrda bola namlikni yutadigan "quruq shimgich" ga o'xshaydi. B.Saydullayevaning ta'kidlashicha ilm-fan va tabiat markazida, tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Bola bilimga intiladi va bilimni o'zlashtirish juda ko'p "nima uchun?", "Qanday qilib?", "Nima uchun?". U bilim bilan ishlashga, vaziyatlarni tasavvur qilishga va savolga javob berishning mumkin bo'lgan yo'lini topishga harakat qilishga majbur bo'ladi. Bolalar atrofda dunyoni qiziqtiradigan tadqiqotchilardir. Bu xususiyat tabiatga xosdir [5].

Birinchilardan bo'lib kognitiv qiziqish B.G.Ananyeva, L.N.Bojovich, L.S.Vygotskiy, L.A.Venger, A.G.Zaporjets kabi olimlar bolalarni bilim olishga, o'rganishga undaydigan yetakchi motivlardan biri sifatida ko'rib chiqila boshlandilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiat va ilm - fan markazlari markazda olib borilayotgan turli tajribalar orqali bolalar dunyosida va dunyoqarashida jismlarning foydali va zarar tomonlarini bilib olish imkonini paydo bo'ladi. Bolalar

dunyoqarashida hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligi, ularni nimadan olinganligi haqidagi bilimlarni olish orqali ularga bo'lgan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgarishi va bu bilingan bilimlarni o'z nutqlarida namoyan qila olish aynan shu markaz orqali paydo bo'ladi. Masalan nonni dasturxonimizga kelishi, paxtaning chigitini ezish orqali undan yog' chiqishini bilish, tarvuzning urug'ida yog'ning yo'qligini, piyozning ildizi bilan stakandagi suvga solib qo'yilsa uni o'sishi, urug'larni tuvaklarga sepish orqali ularni unib chiqishini ko'rish bolalar uchun juda qiziqarli jarayonlar hisoblanadi [6].

Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metod - kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarning borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu haqda K.D. Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi». Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzata bilish - juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar [8,10].

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi psixologik xususiyatlar (hissiyotlilik, kuzatish, taqlid qilish, o'z taassurotlarini o'yin va samarali faoliyatda ifoda etish istagi) tufayli, kattalar faoliyati mahsuli va uning insoniy tafakkurining yaratilishi sifatida ob'ektiv dunyo haqidagi tarixiy ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning yuqori hissiyligi shaxsni yanada rivojlantirish uchun olingan ma'lumotlarning ahamiyatini belgilaydi. Maktabgacha bolalik davrida kognitiv qiziqish rivojlantirish natijasida bilim chegaralari kengayadi, dunyoning rivojlanishi, harakati, o'zgarishi haqidagi birinchi g'oyalari shakllanadi, har bir predmetning o'tmishi, buguni va kelajagi borligini anglash (atrofdagi ob'ektlarni dialektik ko'rib chiqish va tahlil qilishning dastlabki shakllari, uslubiy bilimlar deb ataladi). Shuni takidlash kerakki, zamonaviy ta'lim amaliyoti bolaning mustaqil kognitiv faoliyatining ahamiyatini

past baholaydi, kognitiv qiziqishning rivojlanishi nafaqat ob'ektning sifat xususiyatlariga, balki bolaning o'z ijodiy izlanishlariga qanchalik jalb qilinishiga ham bog'liq [4].

Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar juda izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish katta. Ota-onalar va tarbiyachilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli mashg'ulotlarga jalb etish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkin. U hali ham stereotiplar tomonidan "ezilgan" emas. Maktabgacha yoshdagi bolalik ham ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun sezgir davr hisoblanadi. Shunday qilib, maktabgacha yosh bolalarida ijodkorlikni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Kattalarning ijodiy salohiyati ko'p jihatdan bu imkoniyatlardan bolalikda qanday foydalanilganiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu quyidagi shart-sharoitlarni yaratish hamda yoshga mos bo'lishi kerak. Bolalar rivojlanishidan oldinda bo'lgan muhitni yaratish. Iloji boricha, bolani uning eng xilmaxil ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan va o'z vaqtida eng ko'p rivojlantirishga qodir bo'lgan narsani rivojlantiradigan shunday muhit va munosabatlar tizimi bilan oldindan o'rab olish kerak. samarali. Bolaga topshiriqni o'zi bajarishi uchun imkoniyat yaratish yoki unga tayyor javoblar va echimlar emas, balki maslahatlar berish orqali yordam berish.

Faoliyatni tanlashda, muqobil holatlarda bolaga ko'proq erkinlik berish, erkinlikni ruxsat berishga aylantirmaslik, oila va bolalar jamoasida iliq do'stona muhitni hosil qilish, kattalar xavfsiz psixologik muhitni yaratishga ko'maklashishi lozim. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash, agar u aniq maqsadga erishishga qaratilgan bir qator aniq pedagogik vazifalar hal qilinadigan maqsadli jarayon bo'lsa samarali bo'ladi. Ijodkorlik fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri assotsiativlik, dialektika va tizimlilikni shakllantirishdir. Bu fazilatlarining rivojlanishi fikrlashni moslashuvchan, o'ziga xos va samarali qiladi. Assotsiativlik - bu narsa va hodisalardagi bog'lanish va o'xshashlikni ko'rish qobiliyati. Uni maktabgacha yoshdagi bolalar rolli o'yinda juda oson egallashadi [9].

Tabiat va ilm - fan markazlari orqali atrofdagi dunyoning qonuniyatlari va hodisalarini tushunishning samarali usullaridan biri tajriba usuli kognitiv-nutq rivojlanishi bilan bog'liq. Bolalar eksperimenti katta rivojlanish salohiyatiga ega.

Uning asosiy afzalligi shundaki, u bolalarga o'rganilayotgan ob'ektning turli tomonlari, uning boshqa ob'ektlar va atrof-muhit bilan aloqasi haqida haqiqiy tasavvurlarni beradi. Tajriba jarayonida bolalarning so'z boyligi tabiatning mulki, hodisasi yoki ob'ektning hissiy xususiyatlarini bildiruvchi so'zlar bilan to'ldiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda tabiat va ilm - fan markazlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohalari va barqaror bilimga qiziqishini rivojlantirish imkonini beradi. Ammo hamma narsa bolalarda qiziqish uyg'otmaydi, shuning uchun kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish muhim. Takliflar sifatida quyidagi tarbiyachilar bolalarning bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirishlarida ko'maklashishlari lozim. Har bir texnologiyani bosqichma-bosqich qo'llanilsa yaxshi natija beradi. Markazlarda bolalarning individual, yoshi va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ulardan nimani talab qilish kerakligini aniq tushuna bilish. Tarbiyachi bolalar bilan

suhbatda individual ravishda o'z-o'zini baholashlari to'g'risida xulosalar chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdinabiyeva R. G'. "maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni namoyon bo'lishi". Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel. 1129-1133 b
2. Aminova G. N. "Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari" 1(2)-SON 226-229 b.
3. Babayeva D.R, G'afforova D.A. " Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyati ". Science And Innovation. Volume 1 Issue 7 1152-1156 b.
4. Baqoyeva M.S. "loyihalashtirish faoliyati vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kongnitiv qiziqishlarini rivojlantirish" science and innovation. Volume 1 issue 8. 245-250 b.
5. Saydullayeva B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining kongnitiv faoliyatini rivojlantirish" Science And Innovation. Volume 1 Issue 8. 826-830 b.
6. Tursunova S.Z. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda "Ilm-fan va tabiat" markazidan foydalanish" Tafakkur manzili. 2022. 09-10. 119-122 b.
7. Tolipov O'.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b.
8. O'rinova F.O', Sadikova Z, "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning metodologik-didaktik asoslari". Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi 63-66 b
9. Eshova D.Sh. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaningahamiyati". Научный импульс. No4(100), часть2. Ноябрь, 202. 1351-1356 b.
10. Xo'shboqov K.A. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faolligini rivojlantirish" Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №11. 131-136 b



UDK: 373.091.3:91:004

Go'zal SHODIYEVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shodiyevagozal299@gmail.com

P.f.b.f.d.(PhD), dotsent U.M. Mirsanov taqrizi asosida

TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELII

Annotatsiya

Ushbu maqolada geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishni shakl, usul va vositalarini takomillashtirish hamda talabalarning geografiyaga oid ijodiy qobiliyatini, kreativ fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish muammolari, ularni bartaraf etish mexanizmlariga doir olib borilgan olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirilgan modeli taklif etilgan va uning imkoniyati yoritilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan modelni samaradorligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Uning samaradorlik darajasi Student-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Tayanch so'zlar: Tabiiy geografiya, kompetentlik, pedagogik dasturiy vositalar, ta'lim texnologiyalari, model, tajriba-sinov, Student-Fisher.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ

Аннотация

В данной статье представлен анализ работ ученых по совершенствованию форм, методов и средств преподавания предметов, относящихся к категории географии, а также по проблемам развития творческих способностей, креативного мышления и компетентности учащихся по географии, механизмам их преодоления. Также предложена улучшенная модель развития компетентности учащихся по естественной географии и освещена ее возможность. В то же время в данной статье была проведена экспериментальная работа по определению эффективности модели, разработанной для развития компетентности студентов в области естественной географии. Степень его эффективности доказана с помощью критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова: Естественная география, компетентность, педагогические программные средства, образовательные технологии, модель, эксперимент, Стьюдент-Фишер.

MODEL OF STUDENTS COMPETENCE DEVELOPMENT IN NATURAL GEOGRAPHY

Annotation

This article presents an analysis of the work of scientists on improving the forms, methods and means of teaching subjects related to the category of geography, as well as on the development of creative abilities, creative thinking and students' competence in geography, and mechanisms for overcoming them. An improved model for the development of students' competence in natural geography is also proposed and its possibility is highlighted. At the same time, in this article, experimental work was carried out to determine the effectiveness of the model developed for the development of students' competence in the field of natural geography. The degree of its effectiveness has been proven using the Student-Fisher test.

Key words: Natural geography, competence, pedagogical software, educational technologies, model, experiment, Student Fisher.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayoni yangi bosqichlarga o'tayotganligi tufayli oliy ta'lim muassasalarida fanlardan, jumladan geografiya turkumiga kiruvchi fanlarning o'qitishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirishni hamda talabalarning geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishni yangicha yondashuvlarini joriy etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda [1,5].

Ilmiy bilimlarning inson ehtiyojlari dunyosi bilan o'zaro bog'lanishiga asoslangan zamonaviy geografik ta'lim barcha darajadagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarini turli xil geografik voqelikda mustaqil ishlashga tayyorlashga yordam berish uchun mo'ljallangan [6,8]. Geografiya ta'limni modernizatsiya qilishni talab qiladigan jahon tendensiyalari geografiya o'qitishning maqsad va mazmunini o'zgartirish, didaktik vositalarni takomillashtirish, yakuniy natijani aniqlashda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratidan iborat. Jahon miqyosida ta'limni rivojlantirishni belgilovchi yo'nalishga aylangan geografiyani o'qitishga kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijalarini bashorat qilishning kontseptual asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurati bilan bog'liq [9,10]. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida

geografiya fanlarini, shu jumladan tabiiy geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishni muqobil yondashuvlarini ishlab chiqish lozim [11,13]. Tabiiy geografiya yer yuzasidagi materiklar va okeanlarning tabiatini, unda sodir bo'ladigan jarayonlar va hodisalarning o'zaro bir-biriga bog'liqligini, geografik qobiqning barqaror rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Bu kabi manbalarni talabalar ongiga to'laonli yetkazishda va ularning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishni yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun dastlab talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishni shakl, usul va vositalarini takomillashtirish metodikasi, geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari, geografiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti, o'quvchi-talabalarning geografiyaga oid ijodiy qobiliyatini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish

nazariyasiga doir izlanishlar S.X.Matsaidova, R.T.Gaypova, G.M.Tursupbekova, H.B.Nikadambayeva, F.A.Xamroyeva, A.B.Janzakov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish nazariyasi, tabiiy geografik fanlarni o'rganish jarayonida talabalarning ekologik va iqtisodiy bilimlarini shakllantirish, geoeologik muammolarni o'rganishda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish texnologiyasi, geografik modellashtirish asosiy maktabda va oliy ta'lim faoliyatini shakllantirish usullari, geografiya o'qitishda statistik metodlardan foydalanish metodikasi, bo'lajak geografiyani o'qituvchisini tayyorlash mexanizmlari, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida geografiya o'qituvchisini metodik tayyorlash tizimini takomillashtirish, uzluksiz ta'lim tizimida geografiyani o'qitish samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid izlanishlar N.O.Vereshagina, M.T.Gafurov, A.A.Lobjanidze, T.P.Grushina, N.N.Soloduxina, Ch.B.Tabaldiyeva, S.A.Ivanova, T.V.Konstantinova, I.S.Sinitsin, YE. S.Stepanova, YE. A.Tamojnyaya, V.A.Shemanyev, T. K.Sherbakova, YE.A.Istomina, G.Y.Nechepurenko, A.S.Baranov, A.I.Sheyne, M.G.Naderi, A.S.Baranov, YE.V.Podvalnaya, R.Ye.Torgashev, Ye.Y.Zabolotnova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.


Yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarini tahlilida ma'lum bo'ldiki, mamlakatimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida geografiya ta'limi sohasida olib borilayotgan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari asosan ta'lim jarayonida geografiyani o'qitish nazariyasi va amaliyoti, geografiyani

o'qitishdagi turkum muammolarni bartaraf etishga mexanizmlariga bag'ishlangan. Ammo, ularning ishlarida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning geografiya fanidan kompetentligini rivojlantirishga e'tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga U.N.Ibragimov, M.A.Baxirna, YE.A.Gonchar, V.L.Pogodinalar talabalarning tabiiy geografiya faniga oid kompetentligini rivojlantirishda turli pedagogik texnologiyalardan va zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga oid izlanishlar olib borilgan.

Keltirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishning ayrim yondashuvlari ilgari surilgan bo'lsa-da, ammo talabalarni tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya'ni talabalarni tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmini, jumladan modelini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarning tabiiy geografiyaga oid motivatsiyasini va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda hamda kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalari o'zaro moslash va integratsiyalash asosida auditoriya mashg'ulotlarini hamda mustaqil ta'limni tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun dastlab ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni va mustaqil ta'limni tashkil etish modelini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, tadqiqot doirasida talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish modeli

Taklif etilayotgan model tashkiliy, texnologik, ta'lim va natija qismlardan iborat bo'lib, bunda talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishda auditoriya mashg'ulotlaridan va mustaqil ta'limdan foydalanish belgilangan bo'lib, bunda ta'lim platformalarni, kompyuter dasturlarni va mobil texnologiyalarni hamda muammoli, web-kvest, differensial, loyihalash ta'lim texnologiyalarni o'zaro integratsiyalash asosida tashkil etishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Talabalarni tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish uchun tavsiya etilayotgan modelning samaradorli darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Samarqand davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutlarida olib borildi. Tajriba sinov ishlariga 65 ta talaba jalb etilib, ular tajriba (33 nafar) va nazorat (32 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan modeldan foydalanib auditoriya mashg'ulotlari va talabalarning mustaqil ta'limi tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda

tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$$

tarqoqlik ko'effitsiyentlarini

$$D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$$

o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashda esa $A \% = \frac{\bar{x}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{y}}{3} \cdot 100\%$ formulalaridan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 10,6% ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. 1. Shunday qilib, talabalarning geografik kompetentligini, shu jumladan tabiiy geografiyaga oid kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqot doirasida ilgari surilgan modelga amal qilish, talaba shaxsining ijodiy salohiyatini ochib berishga, uning qiziqishlarini, qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishga erishiladi. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish zamin yaratadi, shuningdek, yangi bilimlarni olishning turli usullarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tabiiy geografiya fanidan kompetentligini rivojlantirishda muammoli, web-kvest, differensial, loyihalash ta'lim texnologiyalarini va kompyuterning amaliy dasturlarni hamda mobil texnologiyalarni o'zaro integratsiyalash asosida mashg'ulotlarni tashkil etish kvest texnologiyasini va axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda talabalar geografiyaga oid jarayon va hodisalarni vizual shaklda ko'rishga hamda turli muammoli vazifalarni mustaqil yechishga yo'naltiradi. Buning natijasida esa talabalarni geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бахир М.А. Методика оценки географической компетентности учащихся: на примере курса «Экономическая и социальная география мира» // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 138 с.
2. Лобжанидзе А.А. Этнокультурная парадигма современного географического образования // Монография. – Москва: МИОО: Московские учеб. 2007. – 208 с.
3. Константинова Т. В. Подготовка будущего учителя географии к формированию экологической культуры школьников средствами краеведения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Калуга, 2004. – 203 с.
4. Погодина В. Л. Образовательный туризм и его роль в формировании профессиональной компетентности учителей географии // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – СПб., 2009. – 435 с.
5. Сеницын И. С. Подготовка студентов к использованию статистических методов в профессиональной деятельности учителя географии [Текст] / И. С. Сеницын // Современная система образования: теория и практика: монография. Книга 2 / под ред. И. В. Ткаченко – Ставрополь : Логос, 2015. – 190 с.
6. Степанова Е. С. Средства оценивания качества профессиональной подготовки учителя географии: на примере тестирования // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Самара, 2011. – 230 с.
7. Гафуров М.Т. Формирование эколого-экономических знаний учащихся в процессе изучения естественно-географических дисциплин // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Казань. 2012. – 22 с.
8. Матсаидова С.Х. Мактаб ўқувчиларида табиий географик матнлар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш // Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ташкент, 2008. – 26 б.
9. Абдурахмонов М. Табиий география таълимида дидактик ўйинлардан фойдаланиш методикаси // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2001. – 176 б.
10. Хамроева Ф.А. Олий таълим муассасаларида табиий географик фанларни ўқитиш методикасини медиатеологиялар асосида такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 43 б.
11. Гайпова Р.Т. Табиий география бошланғич курсида маҳаллий кўргазма воситаларидан фойдаланишнинг услубий асослари // Педагогика фанлари диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2002. – 17 б.
12. Никадамбаева Ҳ.Б. «Ўзбекистон табиий географияси» фанини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси (олий таълим мисолида) // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. – 223 б.
13. Гафуров М.Т. Формирование эколого-экономических знаний учащихся в процессе изучения естественно-географических дисциплин // Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Казань. 2012. – 22 с.



UDK:37.065

Shavkat SHOMIRZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari
Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi taktik sikli boshlig'i, podpolkovnik
E-mail: shavkat_tursunovich@gmail.ru.

NDPI professori, p.f.d. D.X.Narzikulova taqrizi asosida

ZAMONAVIY SHAROITDA TALABA-KURSANTLARING PEDAGOGIK JARAYONIGA IJTIMOYI MOSLASHUV

Аннотация

Maqolada bugungi ta'limni rivojlantirish sharoitida talaba-kursantlarning pedagogik jarayonga ijtimoiy moslashuvining xususiyatlari, shakli va mazmuni, didaktik tamoyillari berilgan. Shuningdek; ta'lim natijalari va samaradorligi inson tomonidan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribani assimilyasiya qilish va takrorlashni qanday ta'minlaganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, o'z-o'zini kashf qilish, o'z-o'zini bilish, shaxsning psixologik nazariyasi, moslashuv.

СОЦИАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ ПРОЦЕССУ СТУДЕНТОВ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация

В статье представлены характеристики, форма и содержание, дидактические принципы социальной адаптации студентов-курсантов к педагогическому процессу в условиях современного развития образования. Объясняется, как результаты и эффективность образования обеспечивают усвоение и повторение человеком культурных ценностей и социального опыта.

Ключевые слова: воспитание, самопознание, самопознание, психологическая теория личности, адаптация.

SOCIAL ADAPTATION TO THE PEDAGOGICAL PROCESS OF STUDENTS IN MODERN CONDITIONS

Annotation

The article presents the characteristics, form and content, didactic principles of social adaptation of students-cadets to the pedagogical process in the conditions of today's education development. It is explained how the results and effectiveness of education ensure the assimilation and repetition of cultural values and social experience by a person.

Key words: education, self-discovery, self-knowledge, psychological theory of personality, adaptation.

Kirish. Tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Davlat tarbiya vazifalarini uning infratuzilmasi, dasturi va mazmunini belgilaydi. Shu bilan birga, tarbiya - ijtimoiy normalar va davlat munosabat talablariga muhim o'zgartirishlar qiritadigano'z qadriyat yo'nalishlariga, stereotiplari, tushunchalari va hokozolariga ega bo'lgan aniq guruh va individual sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Natijada, bir tomondan, ta'lim amaliyotida yangi, progressiv hodisalar tug'alsa, ikkinchi tomondan, pedagoglar va o'quvchilar chuqur tarixiy, etnik va ijtimoiy - psixologik ildizlarga ega bo'lgan konservativizmni namoyon qiladilar. Shuning uchun, masalan, bir xil ta'lim tizimi doirasida pedagogik rahbarlik va o'zaro ta'sirning turli uslublari shakllanadi.

Tarbiya jarayoni bu sub'ektlar o'rtasida ixtiyoriy va tanlangan o'zaro axborot almashinuvi, faoliyat va aloqa turlari va usullari, qiymat yo'nalishlari, ijtimoiy munosabatlar, tanlash va assimilyasiya qilish o'zaro ta'siridir.

Umuman olganda, o'zaro ta'sir-bu pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi dialog bo'lib, uning tarbiyaviy samaradorligi unda qaysi shaxslar ishtirok etishi, o'zlarini qay darajada shaxs sifatida his etishi va ular bilan muloqotda bo'lgan har bir kishida ko'rish bilan belgilanadi.

Jamiyatning ijtimoiy yangilanishi sharoitida ta'lim natijalari va samaradorligi inson tomonidan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribani assimilyasiya qilish va takrorlashni qanday ta'minlaganligi bilan emas, balki jamiyatning yosh a'zolarini ongli faoliyatga va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashning muvaffaqiyati bilan

belgilanadi. Tarbiyaning eng muhim natijasi-o'z-o'zini tarbiyalashda tayyorligi va qobiliyatidir.

So'nggi o'n yilliklarda tarbiyaga yondashuv va shunga ko'ra uni pedagogik tushuncha sifatida belgilash sezilarli darajada o'zgardi. Bu turli pedagogik nazariyalarda, lug'at va ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Ijtimoiylashuv kontekstida ta'lim inson o'zi yashayotgan jamiyat uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan qobiliyatlarni, munosabatlarni va boshqa xulq-atvor shakllarini rivojlantiradigan barcha jarayonlarning majmui sifatida tushuniladi. Odamlar nazorat qilinadigan muhitdan ta'sirlanadigan ijtimoiy jarayon bo'lib, ular ijtimoiy malakaga va optimal shaxsiy rivojlanishga erishishlari mumkin.

Metodlar. XX asrlarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarda nafaqat o'rta, balki oliy ta'lim ham elita ta'limdan ommaviy ta'limga aylandi. Xuddi shu paytni o'zida, eng rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining ta'lim darajasi va qoloq mamlakatlarning fuqarolari o'rtasida ta'lim darajasidagifarqi ortib bormoqda. Ta'limning juda tez rivojlanishi ko'pincha uning sifatining pasayishiga olib keladi, bu o'quvchilarga bo'lgan talablarning pasayishi, o'quv jarayonini metodik ta'minlashning etarli emasligi va yuqori malakali kadrlarning etishmasligida namoyon bo'ladi.

Ta'lim zamonaviy ijtimoiylashuvning sharti va xususiyati sifatida, birinchi navbatda, turli xil ijtimoiy muammolar bilan bog'liq. Lekin bizning fikrimizcha, shaxsiy muammolar ham muhim deb hisoblaymiz. Birinchidan, yoshlar optimal hayot sifatini, muvaffaqiyatli kasbiy usishi, ijtimoiy moslashuvini oliy ta'lim olish bilan bohlamoqda va

shuning uchun aksariyat yoshlar oliy ma'lumotli bo'lish istagidadir. Ikkinchidan, yuqori sifatli ta'lim nafaqat jamiyat uchun, balki muayyan shaxs uchun ham juda qimmat protsedura bo'lib, siz uning narxini oshirishga aniq moyillikni ko'rishingiz mumkin. Bundan tashqari, yoshlar kelajakdagi kasbini tanlashda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar va har doim ham ta'lim yo'nalishi bo'yicha qaror qabul qila olmaydilar. Jamiyat shaxslarga qanchalik ko'p imkoniyatlar taqdim etsa, ular uchun professional tanlov shunchalik qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, kasbiy faoliyat odamlar tomonidan faqat ma'lum bir turmush darajasini saqlab qolish vositasi sifatida ko'rilmaydi. Zamonaviy inson kasbiy faoliyatda o'zini anglashga, qobiliyatini rivojlantirishga va imkoniyatlarini ko'rsatishga intiladi. Faoliyat zavq oladigan manbai sifatida qaralmoqda.

Natijalar: Shaxsning ijtimoiy moslashuvi tushunchasi shaxsni rivojlantirish muammosini tahlil qilmasdan mumkin emas, chunki ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faol ijtimoiy sub'ektga aylanadi. Shaxs shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq darajalarni o'z ichiga olgan murakkab va ziddiyatli jarayondir.

Shaxs rivojlanishida va o'z-o'zini bilishida uch yo'nalishga asoslanadi.

Birinchi – baholanishda, boshqalarning fikrlari. Darhaqiqat, muloqot jarayonida, maktab paytida, ishda biz doimo baholanamiz va boshqalarni baholaymiz.

Ikkinchi – bu ijtimoiy taqqoslash. Erta bolalikdan har qanday odam o'zini boshqa odamlar bilan taqqoslashni boshlaydi va taqqoslash orqali – tengdoshlaridan, avlodidan orqada qolmagani fikrlaydi, uni tushunishadimi yoki yo'qmi, degan xulosaga keladi. Ayniqsa, bu ko'pincha yosh yigitlarda sodir bo'ladi: boshqalar bilan doimo aloqada bo'lish, ulardan va zamon talablaridan orqada qolmaslik, bugungi kunda zarurat juda dolzarbdir.

Uchinchi mumkin bo'lgan yo'l – o'ziga o'zi baho berish. Inson o'z harakatlarini tashqi tomondan kuzatadi va ularning motivlari, boshqalar bilan munosabatlari va shaxsiy fazilatlarini haqida xulosa chiqaradi. Haqiqatan ham, harakat, ya'ni, ijtimoiy vaziyatdagi harakatlar insonning ichki dunyosini ochib beradi, unda eng muhim va barqaror bo'lgan narsalarni, tashqi va vaziyatli narsalarni ochib beradi.

O'z-o'zini kashf qilishning bu yo'li dastlabki ikkita ko'ra murakkabroq: inson ba'zan maxsus vaziyatni aniqlashtirishi va unda o'zini sinab ko'rishi kerak. O'z-o'zini bilish shaxsning tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlar haqidagi ongli va ko'pincha intuitiv g'oyalari asosida yuzaga keladi. Bu g'oyalari odamlarning ko'pchiligida tilni o'zlashtirish va shaxs haqidagi kundalik g'oyalarni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Shaxsning psixologik nazariyasi asoslari bilan tanishish natijasida kamroq uchraydi.

Talaba yoshlarning ijtimoiylashuvining kengayishi va chuqurlashtirishi uchta asosiy yo'nalishda sodir bo'ladi: faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglash.

Talabalar muhitining o'zgargan tabiati tufayli va talabalar faoliyatining asosiy shakli o'qish, bilim olish ekanligini hisobga olsak, biz harbiy ta'lim davrida kursantlarning ijtimoiy moslashuvi jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni yanada mazmunli tasniflashni taklif qilamiz.

1. Talabalarining oliy yoki professional ta'lim muassasasida o'quv faoliyatga tayyorgarlik darajasini aks ettiruvchi omillar:

- abituriyentlarning bilim, ko'nikma va malakalari hajmi va darajasining o'quv jarayoni talablariga muvofiqligi;
- abituriyentlarning kasbiy yo'nalishi (ehtiyotlar, ijtimoiy munosabat);
- abituriyentlarning o'quv faoliyatiga ehtiyoji.

2. Moslashuv uchun individual xususiyatlarning rivojlanishini tavsiflovchi omillar:

- ijtimoiy va axloqiy yetuklik darajasi,

- huquqiy xabardorlik darajasi;

- aqliy jarayonlar rivojlanishining individual va shaxsiy xususiyatlari.

3. Moslashuv jarayoniga pedagogik ta'sir ko'rsatadigan omillar:

- tyutorlik boshqaruvi institutining mavjudligi;
- harbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining nazariy va uslubiy tayyorgarligi;
- o'quv jarayonining pedagogik va psixologik monitoringi;
- akademik ko'rsatkichlaridan qat'i nazar, talabaga shaxsiy yondashuv.

4. O'qish va yashash sharoitlari bilan bog'liq omillar:

- o'quv jarayonining tashkil etilishi (dars jadvali, darslarning boshlanishi va tugashi, fanlarning tartibi, darsdan keyingi faoliyati va boshqalar);

- talabalar guruhidagi shaxslararo munosabatlardan qoniqish;

- o'qitishning sanitariya-gigiena sharoitlari;
- kazarmadagi sharoitidan qoniqish.

Talabalarining moslashuvi psixologik, ijtimoiy va biologik omillarning o'zaro ta'siri tufayli murakkab, dinamik jarayon degan nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Har bir talaba psixologik va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatga erishish istagida ifodalangan tashqi ta'sirlarga psixologik moslashuvning qat'iy individual to'sig'iga ega.

Mulohaza. Kursantlarning asosiy ijtimoiy faoliyati sifatida harbiy ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda biz ijtimoiy moslashuvning uchta jihatini aniqladik:

1) kasbiy-kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'rganish jarayoni amalga oshiriladigan ta'lim muassasasi tuzilishiga moslashish; tanlangan kasbning adekvatligi, shaxsiy xususiyatlari va qadriyat yo'nalishlariga ishonch;

2) didaktik, ta'lim tizimida uzluksizlikni ta'minlash, harbiy ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich kirish, ishning yangi shakllari va usullariga tayyorgarlik, akademik va ilmiy ishlarda mustaqillikni rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil o'qish va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

3) ijtimoiy-psixologik - talabalar muhit bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shaxsiy munosabatlar, kommunikativ madaniyatni shakllantirishda ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlar guruhi talabalar guruhining psixologik iqlimiga, urf-odatlariga va me'yorlariga, ijtimoiy funksiyalar tizimiga moslashishni o'z ichiga oladi. Moslashuvning ijtimoiy-psixologik jihatining muhim elementi o'smirlikning yosh xususiyatlari va ularning kasbiy ta'lim muassasasida shakllanish shartlari bilan belgilanadigan qiymat yo'nalishlari hisoblanadi. Talabalarining muvaffaqiyatli moslashuvi akademik va ijtimoiy faollik, intizom, guruhdagi sotsiometrik holat, tanlangan kasbdan qoniqish darajasida namoyon bo'ladi. Harbiy professional ta'lim muassasasi kursantining ijtimoiy moslashuvini baholash uchun quyidagi mezonlarni taklif qilamiz:

Moslashuvning didaktik jihatiga ko'ra -

1. Kasbiga oid ta'lim olish uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish zarurati va imkoniyatlari xaqida tushunchaga ega bo'lish;

2. Sifatli ta'lim olish uchun ta'lim muassasasining talabalarini bajarishga tayyorligi;

3. Umumiy madaniy darajani doimiy ravishda takomillashtirish zarurati;

4. Mustaqil ta'lim olish qobiliyati;

5. O'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj;

Moslashuvning ijtimoiy-psixologik jihatiga ko'ra -

1. Konfliktlarsiz xulq-atvor;

2. Ta'lim muassasasining ijtimoiy hayotida ishtirok etish;

3. Talabalar, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda va muloqotidan qoniqish xosil qilish;

Moslashuvning professional jihatiga ko'ra-

1. Maxsus, kasbga oid fanlar blokilariga doimiy qiziqish;

2. Kasbga oid ish faoliyatini olib borish istagi;

3. Kasbiy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati.

Harbiy ta'lim muassasa kursantlarining ijtimoiy moslashuvida harbiy ta'lim jarayonlarining samaradorligini 1-jadval

aniqlash uchun tanlangan jihatlarini murakkab tuzilmalar, ularni shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda biz 1-jadvalda keltirdik.

Bizningcha, talabani taklif qilingan mezonlar bo'yicha yuqori baholash nafaqat uning ma'lum bir ta'lim muassasasi tuzilishiga yaxshi moslashishini ko'rsatadi, balki uning kasbdagi samarali ishlarida ifodalangan bitiruvchi va mutaxassis sifatida yanada ijtimoiylashishini ta'minlaydi. va oliy o'quv yurtida uzluksiz ta'lim.

Talabalarning ijtimoiy moslashuvi mezonlari va ko'rsatkichlari

Moslashuv jihatlar	Mezonlari	Ko'rsatkichlari
Didaktik jihat	umumiy akademik bilim va ko'nikmalarni keyingi mustaqil rivojlanish uchun asos sifatida shakllantirish	1. Kasbga oid ta'lim olish uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish zarurati va imkoniyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish; 2. Sifatli ta'lim olish uchun ta'lim muassasasining talablarini bajarishga tayyorligi; 3. Umumiy madaniy darajani doimiy ravishda takomillashtirish zarurati; 4. Mustaqil ta'lim olish qobiliyati; 5. O'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj;
Ijtimoiy-psixologik jihat	Kommunikativ madaniyat va shaxsiy munosabatlar madaniyatini shakllantirishning	1. Konfliktlarsiz xulq-atvor; 2. Ta'lim muassasasining ijtimoiy hayotida ishtirok etish; 3. Talabalar, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda va muloqotidan qoniqish hosil qilish;
Professional jihat	Kasbiy tanlovning to'g'riligiga ishonch	1. Maxsus, kasbga oid fanlar blokilariga doimiy qiziqish; 2. Kasbga oid ish faoliyatini olib borish istagi; 3. Kasbiy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati.

Xulosa o'rnida shuni aytish joiz-ki; zamonaviy muvaffaqiyatli ta'limda inson nimani o'rgandi va bilim, ko'nikma va malakalari qandayligi bilan emas, balki yangi bilimlarni egallash va undan yangi sharoitlarda foydalanish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bu yerda mavzuning axborot makonida qanchalik mustaqil bo'lishi, uning xarakterga yo'naltirish qobiliyati qanday bo'lishi, unga haqiqatan mos keladigan narsani qanchalik tez tanlashi va qanday yo'llar

bilan yuqori professionallik darajasiga erishishi muhim ahamiyatga ega. Yuqori darajadagi professionallik endi yangilikemas, chunki zamon talablari eng murakkab sohalarida tegishli mutaxassislarni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan kasbiy xatoliklarga yo'l qo'yish jamiyat uchun juda qimmatga tushadi, ba'zan bu narx ko'plab odamlarning o'limidir, ko'pincha bunday vaziyatlar texnik avariyalarda yoki falokatlarida sodir bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurasulov O.A. Harbiy xizmatchilar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari va uning nazariy asoslari // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarixi, buguni va kelajagi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T: O'zRMV, 2005-y. – B. 96-98.
2. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – T: Ma'naviyat, 2015-y. – 30 b.
3. Astanova S. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish omillari – Guliston, 2012-y. – 2 b.
4. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidiy H. Pedagogika tarixi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2003-y. – 248 b.
5. Sharifxo'jayev M. Ma'naviyat asoslari. – T.: Toshkent moliya instituti, 2005-y. – 363 b.
6. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi // –T.; "Sharq", 2003-y. - 512 b.
7. Vincent Greney A new look at managerial competence: the AMA model of worthy performance // Managerial Review. November P. 2–3.
8. Jon Morgan. Rethinking Education: Towards a good common good. Published by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization // - P.; France. 2015-y. – 81 p.



Jamshid SHONAZAROV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: jamshid_shonazarov@mail.ru.

Toshkent islom akademiyasi professor, siyos.f.d. T.Alimardonov taqrizi asosida

ETHICAL APPEARANCE OF THE PUBLIC SERVANT

Abstrakt

This article examines the moral and ethical criteria associated with the management activities of civil servants, who are the most important layer of public and public administration.

Key words: ethics, spirituality, civil servant, state, public administration, management spirituality, leadership ethics and spirituality, national personnel policy, moral and ethical criteria, moral order of society, moral principles.

ЭТИЧЕСКИЙ ОБРАЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Аннотация

В данной статье рассматриваются морально-этические критерии, связанные с управленческой деятельностью государственных служащих, которые являются важнейшим слоем государственного и государственного управления.

Ключевые слова: этика, духовность, государственный служащий, государство, государственное управление, духовность управления, этика и духовность руководства, национальная кадровая политика, нравственно-этические критерии, нравственный порядок общества, нравственные принципы.

DAVLAT XIZMATCHISINING AXLOQIY QIYOFASI

Аннотация

Ushbu maqolada davlat va jamiyat boshqaruvining eng muhim qatlami bo'lgan davlat xizmatchilarining boshqaruv faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy axloqiy mezonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, davlat xizmatchisi, davlat, davlat boshqaruvi, boshqaruv ma'naviyati, rahbar axloqi va ma'naviyati, milliy kadrlar siyosati, ma'naviy-axloqiy mezonlar, jamiyat axloqiy tartib, axloqiy tamoyillar.

Kirish. O'zbekiston o'z taraqqiyoti rivojida jamiyatning bir sifat bosqichidan ikkinchi bir yangi sifat bosqichiga o'tish davrida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot, madaniy va ma'naviy yangilanishning ulkan va murakkab jarayonlarini bosib o'tmoqda. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish asoslari mustahkamlanib borgan sari ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik, insonparvarlik tamoyillariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu insonlarning huquq va manfaatlarini, adolatli, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish to'g'risidagi orzu-umidlarini ruyobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan zaruratni ifoda qiladi. Ushbu zarurat va vazifalar negizida davlat boshqaruvini demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi yangilanayotgan bosqichida davlat xizmatchilarining ma'naviy va axloqiy qiyofasini zamon talablariga moslashtirib borishga bo'lgan talablar ham tobora ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Ushbu murakkab davr sinovlari, saboqlar va tajribalar bilan bog'liq islohotlar mamlakatimiz uchun jahon hamjamiyatida ichida keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Bu imkoniyatlar zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar salohiyati, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'stirishni amalda ta'minlashga qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoev "...bugun biz yashayotgan jamiyatda yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak." [1], deb ta'kidlaganlari yurtimizda amalga oshirilayotgan va jamiyatning har bir qatlamiga kirib borayotgan keng miqyosli o'zgarishlarning maqsadli samaradorligini ta'minlashda, mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yaratish, ularning dunyoqarashi, ma'naviyati, iqtidori va salohiyatini yanada yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini o'rganishga qaratilgan vazifalar ko'lamini ochib berishni taqozo qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Hozirgi vaqtda ushbu muammolarni ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganilgan, biroq davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi o'rganilgan ilmiy ishlar mavjud emas. Shu bois maqolamizda mavjud muammolarni hamda tadqiqot ishlarni qiyosiy tahlil qilib, dalillariga asoslangan holda analiz va sintez metodi orqali ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda milliy boshqaruvimiz negizida ma'naviy-madaniy merosimiz asosida davlat xizmatchisi boshqaruv faoliyatining ma'naviy-axloqiy asoslarini o'rganish, uning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini tahlil etish va uni bevosita millat tafakkuriga singdirishga alohida e'tibor berildi. Ma'lumki, davlat boshqaruvida boshqaruvning axloqiy asoslarini ta'minlash, adolat va axloq mezonlariga tayangan – yangi davlat, yangi jamiyat qurish va falsafiy jihatdan erkinlik, ezgulik, adolat mezonlariga daxldor bo'lgan qarashlar qadimdan Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida rivojlantirilib kelingan. Bu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. **Birinchi guruh** – rivojlangan xorijiy mamlakatlarda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari hisoblanadi. Ularga Filipp Ardan, Gadjiev, G.Jenev'ev, S.Parkinson, M.K.Rustomji, Y.Xentse, Y.Mettsner, O.Susumu, R.Inglxart, P.De Bryuyn [2] kabi olimlar asarlarini keltirish mumkin.

Shuningdek, **ikkinchi guruhga** mansub bo'lgan MDH olimlari V.A.Krasilschikov, M.M.Fedorova, Ya.M.Berger, G.L.Kupryashin, M.V.Braterskiy, S.A.Lantsov, M.Gvozdeva, Ye.Vasil'eva [3] va boshqalar salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning ilmiy tadqiqotlari, maqolalarida davlat va jamiyat boshqaruvi masalalarida davlat xizmatchilarining

ma'naviy axloqiy imijini yaratish va ijtimoiy mavqeyini ta'minlash muammolari:

birinchidan, ijtimoiy-falsafiy kontseptual-nazariy g'oya;

ikkinchidan, ijtimoiy-axloqiy jihatdan tasdiqlangan inson huquqi va boshqaruv faoliyatni kengaytirishga qaratilgan nazariy yo'nalish;

uchinchidan, "rahbar ma'naviyati", "rahbar imiji", "rahbar axloqi", "davlat xizmatchisi", "shaxs va jamiyat" tushunchalarini ratsional idrok etish orqali komillikka yo'naltirish;

to'rtinchidan, demokratik qadriyatlarga umuminsoniy mohiyat berish asosida kishilik jamiyatidan zo'ravonlik, adolatsizlik, tengsizlik illatlarini bartaraf etish kabi ilmiy-nazariy asoslarni shakllantirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi yillarda davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish, mustaqillik g'oyasi va mafkurasini bilan fikr yuritadigan davlat xizmatchilarining yangi avlodini shakllantirishga qaratilgan bir qancha doktorlik va nomzodlik dissertatsiya ishlari himoya qilingan. Ammo, bu ilmiy ishlarda davlat va jamiyat boshqaruvida davlat xizmatchilarining boshqaruv faoliyatida ma'naviy axloqiy qiyofasini yaratish va tadqiq etish bilan bog'liq muammolar ilmiy yechimini topishgan emas. Mavjud muammolar ushbu mavzuni tanlashda tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish va yuksak axloqiy madaniyatga, intellektual salohiyatga ega bo'lgan davlat xizmatchilarining yangi avlodini shakllantirishga nisbatan yangicha munosabat, ayniqsa, mustaqillikdan keyin rivojlana boshladi. Bu narsa respublikamiz olimlaridan – A.Begmatov, M.Qur'onov, I.Ergashev, T.Jo'raev, A.Xolbekov, D.Raximova, M.Bekmurodov, B.Mirboboev, A.Raxmanov, O.Husanov, Q.Qur'onboev, F.Ravshanov, T.Alimardanov, J.Q.Nazarov, I.Ergashev, I.Soifnazarov, A.Qodirov, F.Musaev, kabi olimlarimiz tomonidan O'zbekistonda zamonaviy davlat xizmatchilarini tayyorlash, ularning boshqaruv faoliyatida ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga doir qator ilmiy monografiyalar, maqolalar va publitsistik asarlar yaratildi. Biz ushbu olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va yaratilgan asarlarni mazkur tadqiqotimizga doir olib borilgan izlanishlarning uchinchi guruhiga kiritishimiz mumkin bo'ladi. Ularning tadqiqotlarida:

birinchidan, muammoni mohiyatiga kirib borish, chuqur ilmiy-nazariy o'rganishga intilish;

ikkinchidan, muammoning milliy va umuminsoniy qirralarini topish, ularni millat yaratgan qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish;

uchinchidan, mamlakatimizdagi ijtimoiy voqeylikni nazardan qochirmagan holda o'z vaqtida tahlil qilish ustun turadi.

Ammo, ularda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash jarayonida zamonaviy davlat xizmatchilarining munosib avlodini shakllantirishga doir muammolar tahlili farqli yo'nalishlarda tadqiq etiladi. Shu jihatdan ham ular tadqiqotlarida goho bahsli, hatto ziddiyatli jihatlar ham mavjud. Bu tabiiy holdir. Chunki, davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish, boshqaruv jarayonlarida davlat xizmatyailerining faoliyat darajalari ma'lum bir jarayonda yoki davrda o'ziga nisbatan yangicha tahlillarga ehtiyoj sezadi. Shu mazmunda tadqiqotimizda ushbu fenomenlarning ko'proq umumiylikdan ko'ra individual holatlarini, aynan tahlilga monand tomonlarini ishlab chiqishga harakat qilindi.

Insoniyat uzluksiz ravishda javob qidirib kelayotgan boshqaruv axloqi asoslarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari eng qadimiy va shuning bilan birgalikda eng novqiron muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bugungi

dunyoning zamonaviy muammolarini hal qilishga intilish, texnikaga bog'liq zamonaviy fanlar bilan bir qatorda, asrlar davomida alohida ahamiyat berilmagan, lekin qadimiy ildizlarga ega bo'lgan bir qator sohalarga va ayrim shakllanib ulgurgan fanlarga kuchli diqqat-e'tibor qaratish lozim ekanligini oshkor qilib qo'ydi. Ayni paytda uzoq vaqtlardan buyon chorasiz qolayotgan ko'pgina ijtimoiy qusurlarga yoki qoloqliklarga barham berish rahbarshunoslik va uning tarkibiy qismi bo'lgan rahbar axloqi masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish va fan nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurligini talab etmoqda. Zero, davlatchilik tarixi ko'rsatadiki, kishilik jamiyatining istiqboli xalqning yetakchilari oldiga hamisha ulug'vor vazifalarni qo'ygan, uning yechimini topish, xalq va uning davlatini, sha'nini himoya qilish, jamiyat barqarorligi va rivojini ta'minlash millatning salohiyatli boshqaruvchi farzandlari vatanparvarligiga, ularning mahorati va shijoatiga, ularning barchasini qamrab oluvchi axloqiy namunasiga bog'liq bo'lgan

O'z mohiyat-mazmuniga ko'ra bu masala bugunda ahamiyatini yo'qotgan emas. Aksincha, rahbar shaxsning davlat va jamiyat rivojidadagi o'rni va roli, zimmasidagi vazifa va mas'uliyat kulami davlat xizmatidagi boshqaruv lavozimlari qisqargani sari yanada kengaymoqda. Bu esa shunday sharoitda rahbar shaxslarning axloq tamoyillarini davr talablariga muvofiqlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashtirish masalalarini yanada dolzarblashtirmoqda.

Rahbar faoliyatining ijtimoiy funktsiyasi fuqarolar oldida javobgar va mas'ul shaxs maqomini yuklaydi. Mazkur maqomning huquqiy asosi jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning mafaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» [4]deb, belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarimaslik, nafaqat huquqiy balki axloq masalasi doirasiga kiradi. Lekin, muammoning dolzarbliigi shundaki, rahbar faoliyatining samara va natijalarini nazorat qiluvchi huquqiy me'yorlar belgilangan bo'lsada, ularning axloqqa munosabati normativ talablar qatoriga kiritilmagan. Ya'ni amalga oshirilgan ishlar samarasi erishilgan natijalarning moddiy va ma'naviy darajalariga ko'ra baholansada ma'naviy va axloqiy jihatlariga ko'ra baholanmaydi. Masalan, tadbirkor rahbarning qo'polliigi yoki zo'g'um va zo'ravonlikka moyil bo'lishi, bilimli rahbarning adolatsiz, ta'magir bo'lishi, muloyim rahbarning kuzbo'yamachi-ayyor va va'daboz bo'lishi, so'zamol, xo'shbichim, serg'ayrat, uddabo'ron rahbarning lo'ttiboz, hiyonatchi bo'lishi kabi salbiy illatlarni qanday qilib huquqiy me'yorlar asosida javobgarlikka tortish mumkin? Yoki shunday salbiy sifatlariga ega shaxslarni aniqlash, rahbarlik vazifalaridan chetlashtirish, aksincha, yetakchilik salohiyatiga ega, fidoyi rahbarlarni tanlash, ularni rahbarlik vazifalariga tavsiya qilish, turli bo'htonu-malomatlardan himoya qilishning qanday huquqiy-axloqiy mezonlari bor? Demak, rahbar o'z vazifasini nafaqat ijro etishi balki, uni qanday ijro qilishi ham muhim masala. Rahbarshunoslik fanlarida ana shunday muammolar borki, ularning ilmiy-amaliy yechimini topish va amalga tatbiq etish bugun o'ta muhim masalalardan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida bunday muammolar ilmiy jihatdan o'z ta'limotlariga va amaliy ifodasiga ega. Umuman esa, bugun bu muammolar fan uchun yangilik emas. Bugungi zamondosh ayrim davlatlarda o'z rivojlanish istiqbollari va milliy-ma'naviy xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur masalalarning yechimlarini shakllantirish, unga amal qilish tartiblarini ishlab chiqish ustida ishlar olib borilgan. Masalan, AQShda 1978 yilda "Hukumat etikasi haqida" qonun qabul qilingan bo'lsa, 1989 yilga kelib esa "Odob-axloq me'yorlarini isloh qilish

haqida”gi qonun kuchga kirgan. 1990 yilning oktyabrida 1989 yildagi qonun AQSh Prezidentining “Mansabdor shaxslar va davlat apparati xizmatchilarining xulq-atvori etikasi tamoyillari” farmoni bilan mustahkamlangan. Shuningdek, AQShda rahbar kadrlarni isloh qilish jarayonida “1978 yilgi hukumat etikasi” bo'yicha qo'mita tashkil etilgan. Frantsiyada esa 1991 yildan boshlab rahbar kadrlar odob-axloqi qoidalariga amal qilishga doir qonunlarga doimiy ravishda amal qilib kelinmoqda. Buyuk Britaniya parlamentining Jamoalar palatasida axloq andozalari bo'yicha maxsus parlament hay'ati tuzilgan [5]. Bunday misollarni rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'plab keltirish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, rahbar faoliyati ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy tizimlarini tashkil etishdan tashqari bevosita axloqiy munosabatlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. U nafaqat rahbarni, balki, jamiyat fuqarolarini ham axloqiy normalar asosida birlashtirish, yagona maqsad sari safarbar eta olishga qaratiladi. Shuning uchun ham asrlar silsilasida vatanga xizmat qilish, adolatlilik, fidoyilik, insonparvarlik kabi axloqiy fazilatlar rahbar faoliyatining yetakchi mezolaridan bo'lib, u davlatchilikni mustahkamlash, uning rivojlanishini ta'minlash omili sifatida xizmat qilgan. Jamiyat tafakkurining shakllanishi, inson qalbidagi adolat, tinchlik, ozodlik, poklik kabi ko'plab tuyg'ularning umumxalq tuyg'ulariga, madaniyatiga aylanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Davlat xizmatidagi rahbarlarning hokimiyatni boshqarish va bunda axloqiy hatti-xarakatlari bilan na'muna bo'lish talabi qadimiy davlatchilik madaniyatimiz bilan bevosita bog'liq qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Zero, rahbarning xalqparvar va adolatparvar bo'lishi davlatning istiqboli va rivojini belgilab kelgan. Bu borada bobomiz Muhammad Qozi shunday deydi: - « U (rahbar) shuni bilsinki, amirlik mansabi va hukumat bir vosita bo'lib, bu vosita orqali abadiy saodat va ezgu nom qo'lga kiritiladi. Davron podshohlari va hokimlarining aksari foni dunyoning bevafo davlatiga mag'rur bo'lib, nafslari uchun o'z dinini vayron qiladilar va benomusliklari tufayli iymonni shamolga uchiradilar» [6]. Darhaqiqat, hokimiyatning obro'yi, nufuzi

uni boshqaryotgan shaxslar axloqi bilan bog'liq ekanligi tug'risidagi qarashlar qadimiy qadriyatlarimizdan hisoblanadi. Davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi, boshqaruvni axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishni takomillashtirishda bunday o'lmas merosimiz zamonaviy davlatchiligimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ammo, rahbarning fuqarolarga, fuqarolarning davlatga bo'lgan o'zaro ishonchi va hamkorlik munosabatlarini tashkil etish, qolaversa, hokimiyatning ichki munosabatlarni sog'lom axloqiy qoidalar asosida qurishda ayrim ziddiyatli qarashlar ham mavjud. Bunday ziddiyatlar rahbarning o'z vazifasi doirasida adolat va qonun tamoyillariga amal qilishida, ijtimoiy faoliyatiga, shaxsiy fazilatlariga bog'liq munosabatlarda namoyon bo'ladi. Zero, hokimiyat doimo siyosiy va moliyaviy erkinlik manbai bo'lganligi uchun uning “xushtorlari” ko'p bo'ladi. Bunday imkoniyat va vositalarga egalik qilish, uni o'z manfaati yo'lida foydalanish istagi saqlanib kelmoqda. Bu birinchi sabab. Rahbarning axloqiy qadriyatlarga amal qilish borasidagi ziddiyatining ikkinchi sababi, u yashayotgan ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy va huquqiy muhit. Agar ishlab chiqarish munosabatlari zamonaviy texnologiyalar asosiga qurilmagan bo'lsa, iqtisodiy taqsimot mezonlariga amal qilinmasa, huquqiy munosabatlar shakllanmagan bo'lsa bu boshqaruv ma'naviyatining sayozligini ifodalaydi. Ma'naviy sayozlik holatida esa rahbar faoliyatiga axloqiy talab va qadriyatlarni tatbiq etib bo'lmaydi. Bunday sharoitda boshqaruvchi va boshqariluvchilar o'rtasidagi ilg'or o'zaro madaniy-axloqiy munosabatlar tartibi ishlamaydi. Oqibatda, xalqda ham, boshqaruv tizimi rahbar va xodimlarida ham farovonlikka erishish maqsadida tarafkashlik, talonchilik, ta'magirlik, poraxo'rlik orqali manfaatlarini qanday bo'lsada qondirish kayfiyati hukmronlik qiladi. Bunday holatni tartibga solishdan ko'ra, ayrim rahbarlar uchun murosa yo'lini tanlash oson kechadi. Shuning uchun, hokimiyatga va uning lavozimlariga egalik qilish yoxud unga intilish hufiyona yo'llar orqali erishish ishtiyoqi ortadi. Bu esa, o'z o'rnida nosog'lom kuchlarning hokimiyat yoki rahbarlik lavozimlariga kelishiga – axloqsiz muhitning qaror topishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағиланган тантанали маросимда “Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир” мавзусида сўзлаган нутқи. 2020 йил. 30 сентябрь.
2. Женевиёв Г. Организация административной власти Франции. – Москва, 1994., Ардан Филипп. Франция: государственная система. – Москва, 1994. – 261 с.,
3. Хентце Й., Метцнер Й. Теория управления кадрами в рыночной экономике. – Москва: “Международные отношения”, 1998. – 210 с.,
4. Обара Сусуму. О системе прохождения службы в государственных и общественных учреждениях Японии (Система назначения на должности: с момента принятия на службу и до ухода в отставку. Материалы лекции в АГОС при Президенте РУз. Сентябрь, 1999. – 142 с.,
5. Паркинсон С.Н., Рустомджи К. Искусство управления. – Москва, Форм-пресс, 2001. – 272 с., Инглхарт Р. Пост модерн: меняющиеся ценности и изменяющиеся общества // Полис. – 1997. – №4. – 7-29 с.,
6. Брюйн П.Де. Управление по результатам в государственном секторе. – Москва: ИКСИ, 2005. – 192 с.
7. Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века // Вопросы философии. 1993. № 7. – 144 с.,
8. Федорова М.М. Традиционализм как антимодернизм // Полис. 1996. №2. – 144 с.,
9. Бергер Я.М. Модернизация и традиция в современном Китае. // Полис. 1995. №5. – 60 с.,
10. Купряшин Г.Л. Политическая модернизация. – Москва: Общество «Знание» РСФСР, 1991. – 9 с.,
11. Братерский М.В. Теория модернизации: обзор американских концепций // США: экономика, политика, идеология. 1990. №9. – 26-29 с.,
12. Ланцов С.А. Российский исторический опыт в свете концепций политической модернизации. // Полис. 2001. №3. – 93 с.
13. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тош. «Янги аср авлоди», 2008, Б.4
14. Машарипов И.Б. Маънавий омилларнинг раҳбар кадрлар касбий маданиятини шакллантиришдаги ўрни. Сийсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2009, -Б.17.
15. Муҳаммад Қози. Хукмдорга ўғитлар. -Т.: Шарқ, 1999. Б-26.



UDK: 811.1.2

Dilnoza SHOHOBUTDINOVA,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti katta o'qituvchisi
E-mail: shaxnoza90.90@mail.ru

TDPU p.f.n. dotsent M.B.Ganixanova taqrizi asosida

KOMIZMNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada komizm hodisasining tabiatini o'rganish maqsadida bir qancha faylasuflarning turli xil qarashlari, fikr-muloxazalarini o'rganish mumkin. Xar bir faylasuf komizmning falsafiy talqinini turli misollar yordamida yoritib bergan.

Kalit so'zlar: Komizm, faylasuf, ko'chma ma'no, inversiya, interferensiya.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОМИЗМА

Аннотация

В данной статье с целью изучения природы комического феномена возможно изучение различных взглядов и мнений ряда философов. Каждый философ объяснял философское толкование комедии с помощью разных примеров.

Ключевые слова: комедия, философ, переносное значение, инверсия, интерференция.

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF COMISM

Abstract

In this article, in order to study the nature of the comic phenomenon, it is possible to study different views and opinions of several philosophers. Each philosopher has explained the philosophical interpretation of comedy with the help of different examples.

Key words: Comedy, philosopher, figurative meaning, inversion, interference.

Kirish. Komizm hodisasining tabiatini o'rganish maqsadida bir qancha falsafiy urinishlar eramizdan oldingi IV asrdayoq qayd qilingan edi. Komizm falsafiy yo'nalishining asoschilari qadimgi yunon mutafakkirlari Platon va Aristotel hisoblanadilar. Aristotel uchun "komizm – hech kimga azob-uqubat etkazmaydigan va hech kim uchun halokatli bo'lmagan qandaydir xato va be'manilikkidir..."[1]. Uning fikri bo'yicha komizm – bu yanglishish yoki nomunosiblikdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muammoga falsafiy yondashgan F.Gegel komizm haqida so'z yuritir ekan, shunday ta'kidlaydi, u komizm "shu bilan cheklanishi kerakki, o'zini o'zi yo'q qiladigan hamma narsa o'zida juda ham kam narsadir, soxta va teskari hodisadir, masalan, ayrim kishining qilg'i, qaysarligi, injiqligi qudratli ehtirossga qaraganda, yoki u yolg'ondakam mustahkam asos, yolg'ondakam bukilmis maksimadir [2].

Fransuz faylasufi A.Bergson "komizm odamlar bilan xuddi qo'g'irchoqlarga o'xshab muomala qilishdan iboratdir", deb isbotlashga urindi [3]. A. Bergson komizmini beshta asosiy sinfga bo'ladi:

1) umumqo'llaniladigan jumlaning shakliga be'mani fikr zo'rlik bilan kirsas, komik jumla kelib chiqadi;

2) ko'chma ma'noda qo'llaniladigan iboraga to'g'ri ma'no bag'ishlansa;

3) jumlagina so'zlarning o'rnini almashtirish bilan boshqacha ma'no berilsa ega to'ldiruvchining o'rniga o'tadi va aksincha, bu usul inversiya deb ataladi hamda qandaydir fikrni ko'proq yoki kamroq hazil aralash shaklda inkor qilish uchun ishlatiladi;

4) bitta jumlaning o'zi biri ikkinchisini qoplab, ikkita mustaqil ma'no anglatgan jumalalar, bu guruhga kalambur, ya'ni so'z o'yini ham kiradi;

5) komediyada mavjud takrorlarni o'zgartirish kuzatilgan taqdirda, chunki bu aslini olganda inversiyada va interferensiyada so'z o'yiniga olib keladi. [4].

Yuqorida keltirilgan A.Bergsonning tasnifi to'liq emas, u komik samaraga erishishning hamma usullarini qamrab olmaydi, ajratib ko'rsatilgan sinflarning ayrimlari bir biri bilan o'zaro kesishishlari mumkin, xolos. A.Bergsonning xizmati shundan iboratki, u birinchilardan bo'lib so'zning komik ma'no anglatishini ko'rsatib o'tdi va komik samaraga erishish usullarini tasniflashga urinish qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Komizmning tasnifi muammosi hozirgi faylasuflarni qiziqtirishda davom etmoqda. Masalan, G. Kimmins yumorni "bolalar haqidagi hazil", "uyda bo'ladigan hodisalar", "ko'chadagi noxush hodisalar" va boshqa shunga o'xshash tiplarga ajratishni taklif qiladi [5; 80 b.].

Komizmning yana bir tadqiqotchisi D.Monro G.Kimmins tomonidan taklif qilingan tasnifni tanqid qilib, bunday tizimlashtirish keragidan ziyod foydasiz va soxta xulosalarga olib kelishini qayd qiladi. D.Monro o'zining shaxsiy sxemasini taklif qiladi, ya'ni yumor, D. Monroning fikriga ko'ra 10 ta sinfga ajratilishi mumkin:

1) hodisalar ketma-ketligining har qanday buzilishi;
2) hodisalar ketma-ketligining har qanday taqiqlangan buzilishi;

3) odobdan tashqarilik /pastkashlik/;
4) xilma-xil situativ vaziyatlarga tegishli tushunchalarni aralashtirish;

5) maskarad, mug'ombirlik /komizmning bu turini D. Monro "Charley's Aunt" kinofilmidan misollar keltirib, ayollar kiyimini kiyish bilan bog'laydi;

6) so'z o'yini;
7) bema'nilik;
8) mayda ko'ngilsizliklar;
9) bilimga yoki tajribaga oqlanmagan da'vogarlik;
10) niqoblangan mazah, haqorat [6].

D.Monro tomonidan keltirilgan usullar ko'pincha holatni, vaziyatni, xarakterni ifodalovchi komizm bilan

bog'liq. U keltirgan sinflar muallif tomonidan har xil mantiqiy asoslar bo'yicha ajratib ko'rsatilgan. Taklif qilingan sinflarning ko'pchiligi boshqalari bilan o'zaro kesishadilar. D.Monro kulgi qo'zg'ashi mumkin bo'lgan o'sha omillarni tartibsizlik bilan ko'rsatib o'tadi.

Komizm muammosi bilan fiziologlar ham shug'ullanganlar. Ammo, ular bu muammoga faqat o'zlarining spetsifik nuqtai nazaridan, asosan kulgining fiziologiyasini qarab chiqish bilan yondashganlar [7].

Ammo, komizm haqidagi eng muhim mulohazalarda bo'lgan o'sha ratsional mag'izni aniqlashga harakat qilamiz. Qayd qilish zarurki, barcha tadqiqotchilar komizmni kontrastning, "tartibsizlikning", qarama-qarshilikning natijasi, ya'ni badbasha'rani – go'zalga (**Aristotel**), ahamiyatsizni – olijanobga (**Kant**), obrazni – g'oyaga (**Fisher**), avtomatikni – jonliga (**Bergson**), qadrsizni (ahamiyatsizni) – qadrlikka (muhimlikka) da'vogarlik qiluvchiga (**Folkelt**), e'tiborlini (nufuzlini) – e'tibori, salmog'i, nufuzi yo'qqa, (**Lipps**), be'manini – bama'niga (**Jan Pol**) qarama-qarshi qo'yish deb ta'rifladilar.

Ko'rsatilgan qarama-qarshiliklar, ya'ni antinomiyalarning har biri, ehtimol, komizm turlaridan birining asosida yotishi mumkin, biroq ularning birortasi ham komizmning tabiatini to'liq xarakterlamaydi. Komizm nazariyasining mualliflari o'zlarining o'tmishdoshlarini odilona tanqid qilganlar[8 ; 104 b.].

SHunga qaramasdan, komizm qanday qilib bo'lmasin har doim qarama-qarshiliklar, ya'ni kontrastlar bilan bog'lanishlari haqidagi fakt e'tiborga loyiqdir.

Qarama-qarshilik (kontrast)larning konkret shakllarini ko'rsatib, qayd qilish mumkinki, ular haddan tashqari rang-barangdir. Komizm shakl va mazmun o'rtasidagi, ish-harakat va uning natijalari o'rtasidagi qarama-qarshilikning ifodasi sifatida, hodisaning ichki nochor mohiyatining va ahamiyatlilikka da'volarining nomuvofiqligi natijasida, sabab va oqibat o'rtasidagi ziddiyat va hayotiy obrazlar bilan inson xatti-harakatlarining mantiqi o'rtasidagi qarama-qarshilik ham komizmning manbalaridan biridir.

